Shohrux Abduraimov, Mansur Siddiqov,
Saodat Atayeva, Doston Israfilov

Ona tili

9-sinf

Yangi nashr

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2025

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 811.512.133(075.3)
BBK 81.2 O‘zb-922
O-58

Ona tili. 9-sinf [Matn]: darslik/ Shohrux Abduraimov [va boshq.]; muharrir H. Abdullayev. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 224 b.

Mas’ul muharrir:

Valijon Qodirov, pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Dilorom Yuldasheva – Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Nasiba Saydaliyeva – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi tillar kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi.

Nargiza Ergasheva – Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahridagi Prezident maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Mashrabxon Rahmonova – Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahridagi 33-umumiy o‘rta ta’lim maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Otabek Madjitov – Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahri ixtisoslashtirilgan maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Lobarxon Rustamova – Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Shartli belgilar

 **Qoidalar**

 **Tinglash**

 **Savollar**

 **Lug‘at**

 **Og‘zaki topshiriq**

 **Bu qiziq**

 **O‘qish**

 **Test topshiriqlari**

 **Muhokama**

 **Yozma topshiriq**

 **Guruhda ishlash**

 **Uyga vazifa**

 **Mantiqiy mushohada**

ISBN 978-9910-584-05-3

© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

I. ONA YURT.....6

1-dars 7
2-dars 9
3-dars 11
4-dars 13
5-dars 17
6-dars 19
7-dars 24
8-dars 27

II. QADRIYATLAR.....29

1-dars 30
2-dars 34
3-dars 36
4-dars 38
5-dars 40
6-dars 42
7-dars 43

III. TIL TILSIMI.....46

1-dars 47
2-dars 50
3-dars 52
4-dars 54
5-dars 56
6-dars 58
7-dars 60
8-dars 63
Mustahkamlash.....65

IV. FAN VA TEXNOLOGIYALAR 68

1-dars 69
2-dars 71
3-dars 73
4-dars 75
5-dars 76
6-dars 79
7-dars 81
8-dars 84
9-dars 86

V. SOHA VA KASBLAR 88

1-dars 89
2-dars 92
3-dars 94
4-dars 98
5-dars 100
6-dars 103
7-dars 105
8-dars 109
Mustahkamlash.....111

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

VI. INSON VA TABIAT 113

1-dars 114
2-dars 116
3-dars 118
4-dars 120
5-dars 121
6-dars 123
7-dars 124
8-dars 128
9-dars 131

VII. SAN'AT 134

1-dars 135
2-dars 136
3-dars 139
4-dars 141
5-dars 143
6-dars 146
7-dars 147

VIII. SPORT VA SOG'LIK 154

1-dars 155
2-dars 159
3-dars 162
4-dars 164
5-dars 166
6-dars 169
7-dars 172
8-dars 174
Mustahkamlash 177

IX. INSON VA JAMIYAT 180

1-dars 181
2-dars 183
3-dars 184
4-dars 185
5-dars 189
6-dars 191
7-dars 192
8-dars 195

X. ORZU VA IMKON 197

1-dars 198
2-dars 199
3-dars 203
4-dars 204
5-dars 206
6-dars 210
7-dars 212
8-dars 214
Mustahkamlash 216
Takrorlash 218

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi

Abdulla Oripov so‘zi *Mutal Burhonov musiqasi*

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQAROT:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

NAQAROT:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!



I BOB

ONA YURT



1. *Vatan deganda ko‘z oldingizda kim yoki nimalar gavdalanadi? Ulardan uchtasini ayting. Nima uchun ularni tanlaganingizni izohlang.*
2. *“Ona yurt” mavzusida surat chizsangiz, qaysi ranglardan foydalangan bo‘lardingiz?*
3. *Nima deb o‘ylaysiz: insonni yurti mashhur qiladimi yoki yurtini inson?*

O‘LKAMIZNING ASL FARZANDLARI

XX asr boshlarida yurtimizda shunday ziyolilarimiz maydonga chiqdiki, ular butun millat yukini **yelkalariga oldi**, millatini ma’rifatli xalqlar qatorida ko‘rishni xohladi. Bu ma’rifatparvarlar yangicha hayotni, yangicha turmush tarzini, yangicha dunyoqarashni, yangicha insonlarni, yangicha o‘lkani ko‘rishni **istadi.** Butun salohiyati va jonini shu yo‘lga tikkan millatsevar, ilmparvar jadidlarning aksariyati o‘ziga to‘q, badavlat xonadonlarning farzandlari edi. Ular zamonaviy ilmlarni o‘rganib, dunyo kezib, o‘z millatining asl holini angladi, bundan orlanmadi, qoloqlik va jaholatni tabiiy hol sifatida qabul qilmadi. Yangicha ilmlarni o‘rganib, o‘zga yurtlarda qolib ketmadi. Vatanga qaytib, millatning **taraqqiy etishini** xohladi, uning kelajagi uchun qayg‘urdi. Keyinchalik bu **ommaviy** harakatga aylandi.



Jadidlar taraqqiyotning yagona kaliti ilm, ma’rifat ekanini anglab, millat farzandlarini savodli qilish uchun shaxsiy mablag‘larini ayamay sarfladi. Ularning sa’y-harakati bilan bepul ta’lim beriladigan yangi usul maktablari ochildi, kutubxonalar barpo etildi, maktablar uchun darsliklar yozildi. Zamonaviy ilm egallashlari uchun yuzlab zehnli yoshlarni Germaniya, Turkiya va Rossiyadagi **dorilfununlarga** jo‘natishdi. Bundan tashqari, teatrlar ochib, o‘qimagan kishilarning fojiali holatini ko‘rsatib, xalqni ilm olishga, hunar egallashga **undashdi.** Yangi gazeta va jurnallar

ta’sis etib, xalqning maishiy ahvolini, turmushida yuz berayotgan yangiliklarni e’lon qilib bordilar. Xalqning tafakkurini, dunyoqarashini o‘zgartirishga harakat qildilar. Ularning **yagona** maqsadi o‘lkaning taraqqiy etgan, rivojlangan yurtlar sirasidan joy egallashini ko‘rish edi. Bu harakat ularga yaxshilik olib kelmasligini ham bilishar edi.

Darhaqiqat, mustamlakachilik tuzumi jadidlarga qarshi harakat boshladi: ular ommaviy “qatag‘on mashinasi”da **nobud qilindi**, ma’rifat bo‘g‘ildi. Vatani, millati taraqqiy etishini **astoydil** xohlagan, bu yo‘lda molini ham, jonini ham ayamagan shunday o‘g‘lonlar yurtning **asl** farzandlari: Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sharafiddin Xo‘jayev, Ubaydulla Xo‘jayev, Ismoil Obidiy, Elbek, Botu kabilardir.

Maqsadi oliy, otashqalb bobolarimiz sa’y-harakati bilan o‘lkamizda ilk jadid maktablari, universitetlar va teatrlar tashkil etildi, ko‘plab kutubxona va bosmaxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Millatning bilimsizlik botqog‘idan qutulishining yagona yo‘li ma’rifat bayrog‘ini mahkam tutish ekanligi tarixiy haqiqatga aylandi.

Shohrux ABDURAIMOV

1.1. Jadvaldagi birliklarning matndagi ma’nosiga sinonim bo‘la oladigan so‘zlarni toping va yozing.

SO‘ZLAR	SINONIMI	SO‘ZLAR GURUHI
istamoq	xohlamoq	sidqidildan, xohlamoq, ko‘tarmoq, o‘smoq, birdan bir, umumiy, chinakam, yo‘q qilmoq, universitet, da’vat qilmoq, dastlabki, fanlar
yelkasiga olmoq	***	
taraqqiy etmoq	***	
ommaviy	***	
dorilfunun	***	
undamoq	***	
nobud qilmoq	***	
astoydil	***	
asl	***	

1. *Matndan qanday xulosa chiqardingiz?*
2. *Jadidlar kimlar ekan? Ularga ta’rif bering.*
3. *Jadidlarning asl maqsadi nima edi va nima uchun ular maqsadlariga erisha olmadi?*
4. *Bugun jadidlarning orzulari amalga oshgan deb o‘ylaysizmi? Fikringizni asoslang.*
5. *Jadidlar nimalarni taraqqiyotga erishish vositasi deb hisoblashgan edi? Ular bugungi davr taraqqiyoti uchun qanchalik muhim?*

1.2. Matn asosida chiqarilgan quyidagi javob hukmlariga savollar tuzing.

Namuna

XX asr boshlarida o‘lkamizda qanday avlod maydonga chiqdi?

XX asr boshlarida o‘lkamizda millatini ma’rifatli xalqlar qatorida ko‘rishni xohlagan ziyoli avlod maydonga chiqdi.

1.....?
Jadidlar o‘z boyliklarini xalqning ma’rifatli bo‘lishi uchun sarflagan.

2.....?
Jadidlar xalqning asl holini ko‘rsatib berish uchun teatrlar ochgan.

3.....?
Jadidlar xalqini ma’rifatli qilishga intilgani uchun mustamlakachi tuzum tomonidan jisman yo‘q qilingan.

4.....?
Jadidlar yoshlarni zamonaviy ilmlarni o‘rganib kelishi uchun o‘zga yurtlarga o‘qishga jo‘natgan.

1.3. “O‘lkamizning asl farzandlari” matni asosida davlat mustaqilligi qay darajada muhim ekani haqida xulosangizni yozing va o‘qib bering.

1.4. Jadidlar tilidan bugunning yoshlariga maktub yozib keling va matnda quyidagi hikmatlardan foydalaning.

1. Vatanni sevish unga xizmat qilishdir.
2. Millatni sevmoq, Vatanni sevmoq axloq bilan boshlanur.
3. Vatan, sening yo‘lingda o‘lish yashashdir!
4. Kim Vatanni sevsa, qalbi ozoddir.

1.5. Xato yozilgan so‘zlarni matnga qarab tuzatib, daftaringizga ko‘chiring.

Turmish, aksaryat, hohlamoq, kutibxona, zexnli, Germanya, Turkeya, Rassiya, tiatr, tuzim, sa’yi harakat, faolyat.

So‘z tarkibida kelgan ayrim undosh tovushlar talaffuzi va imlosi bir-biridan farq qiladi.

1. Odatda so‘z oxirida va ba’zan so‘z o‘rtasida kelgan jarangli undosh tovushlar jarangsiz undosh sifatida talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq jarangli yoziladi:

B → P = B: ibtido → iptido = ibtido
mubtalo, zarb etmoq, oftob

V → F = V: avtobus → aftobus = avtobus
avtomobil, avtomat, avtor

D → T = D: esdalik → estalik = esdalik
band, tadqiqot, limonad

Z → S = Z: rizq → risq = rizq
iztirob, tuzsiz, izquvar

G → K = G: barg → bark = barg
pedagog, tuggan, okrug

2. So‘z tarkibida ayrim undoshlar ikkilantirib talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq bitta yoziladi:

ovora → ovvora = ovora
maza, melodrama, tanovul

3. So‘z tarkibida yonma-yon kelgan ayrim undoshlar bitta talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq ikkita yoziladi:

muassasa → muas(s)asa= muassasa
ssenariy, grammatika, kilovatt

1.6. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan harfni qo‘yib, so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring. Yozganlaringizni imlo lug‘atidan tekshiring.

Fransu...lar, aja...tovur, shogir...lar, mansa...parast, nadoma..., ijo...korlik, iska...topar, ba...xulq, qas...dan, bunyo...kor, ta...biq, ta...qiqot, ta...simot.

1.7. So‘zlar juftligidan to‘g‘ri yozilganlarini aniqlang.

tajovvuz / tajovuz	mutaxassis / mutaxasis	muvaffaq / muvafaq
stres / stress	diller / diler	dramma / drama
to‘rttalasi / to‘rtalasi	metall / metal	kommunal / komunal

1.8. Jadidlar nima uchun o‘z mablag‘lari hisobidan maktablar, teatrlar va universitetlar ochishdi? Buning asosiy sababi nimada deb o‘ylaysiz? Shu haqda fikr-mulohazangizni yozing va sinfdoshlaringizga o‘qib bering.

1.9. **“Ba’zilar sportni yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantiruvchi eng ta’sirchan vosita deb bilishadi, boshqalar esa bunga qo‘shilmaydi” fikri asosida muhokama essesi yozing.**

Xalqaro musobaqa va olimpiadalarda Vatanimiz sharafini himoya qilayotgan yurtdoshlarimiz g‘alabaga erishsa yoki yutqizsa, sizni qanday hissiyotlar qamrab oladi, nega insonda shunday holat ro‘y beradi?

Telegram kanalida sport yangiliklariga yozilgan izohlarni o‘qing.

Futbol bo‘yicha O‘zbekiston o‘smirlar terma jamoasi 9 kishi bo‘lib o‘ynab, Osiyo chempioniga aylandi. Batafsil.

S **Sardor**
Qoyil, yigitlar! Chempiiiiooonmiiiiz! 20-aprel 22:15

K **Kozimjon**
Yashanglar! O‘zbegimning BUKILMAS IRODASINI butun dunyoga ko‘rsatib qo‘ydingiz. 20-aprel 22:15


A **Abdurahim**
Kelajak yoshlar qo‘lida degani mana shu! Balli, yurtimiz farzandlari! 20-aprel 22:16

S **Shukrullo**
O‘zbekning mana shunday oriyatli, g‘ururli yoshlari bor ekan, hech qachon kam bo‘lmaymiz. 20-aprel 22:17

U **Umarxon**
Murabbiy va yigitlarga rahmat! 20-aprel 22:17

D **Dilfuza**
Ofarin! Ana matonat! Qoyil, yigitlarimizning ota-onalariga rahmat! 20-aprel 22:18

O **Odiljon**
Futbol o‘yinlarini telefonda jonli ko‘rish uchun FutbolTV ilovasidan foydalaning. Mutlaqo tekin. 20-aprel 22:18



1.10. Savollarga yozma javob bering.

1. Izohlardagi “*Qoyil, yigitlar! Chempiiiiooonmiiiiz!*” munosabatida qanday hissiyot yetakchilik qilmoqda: g‘urur, tan berish, tashakkur? Javobingizni asoslang.

Javob: ……..

2. Sizningcha, qaysi izoh muallifining yoshi ulug‘? Javobingizni asoslang.

Javob: ……..

3. Izohlarda yigitlarning o‘zbek ekanidan faxrlanib munosabat bildirgan kuzatuvchining nomini yozing.

Javob: ……..

4. Yoqubjon nima maqsadda izoh yozgan? Javobingizni asoslang.

Javob: ……..

5. Izohlarda yigitlarimiz “*Yerda sher, samoda burgutlar*” deya ta’riflangan. Bunda nimaga ishora qilinmoqda? Javobingizni asoslang.

Javob: ……..

6. Chempionlar bilan faxrlangani holda o‘z xizmatini reklama qilgan kuzatuvchilar nomini yozing.

Javob: ……..

Meni hammangiz eshitgansiz, lekin ko‘rmagansiz. Bilib qo‘ying: siz gapirmagun-cha men gapirmayman. Savol: men nimaman?

1.11. Sizningcha, yurtning bugungi asl farzandlari kimlar? Shu haqda xulosangizni bir xatboshida ifodalang va o‘qib bering.

1.12. She’rni o‘qing va taassurotlaringizni yozing.

AYTGIL, DO‘STIM

Boshing egib, ta’zim ayla, shukrona ayt,
Seni guldek erkalagan chaman uchun.
Osmonlarda yurgan bo‘lsang, tuproqqa qayt,
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?

Ko‘zi qora, yuragi oq shu el uchun,
Tuproq uchun, shu yurt uchun, chaman uchun,
Ulug‘ inson boshlab bergan shu yo‘l uchun,
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?


Eldan ketib, el bo‘lganni kim biladi?
Don axtargan go‘shtxo‘rlarga yem bo‘ladi.
Dil qonasa, ona tuproq em bo‘ladi,
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?

Qachongacha qorning o‘ylab o‘tadirsan?
Qachongacha ko‘kdan chalpak kutadirsan?
Axir Vatan bitta, sen ham bittadirsan,
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?

Buncha bino qo‘yma zarrin choponlarga,
Saratonda yaproq bo‘lgin dehqonlarga,
Suyangani tayoq bo‘lgin cho‘ponlarga,
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?

Iqbol MIRZO

Suratdagi holatda shohsupadan joy olgan sportchilar qalbidan qanday hislar kechadi deb o‘ylaysiz? Sizda-chi?





***

Bolaligimizda ajoyib voqea ro‘y bergan. O‘shanda qo‘shni qishloqlik tengdoshlarimiz bilan futbol o‘ynagani ahdlashgandik. Shartlashilgan kuni raqiblarimiz keldi, aksiga olib, sinfimizdagi eng novcha, chaqqon bolalar tog‘ga gerbariy yig‘ish uchun ketishgan edi. O‘yinni qoldirsak, o‘zlarini g‘olib deya e’lon qilishga tayyorligi talabgorlarning kerilishidan ma’lum. Nima qilishni bilmay boshimiz qotdi. Bizdagi sarosima esa raqiblarning e’tiborini tortmay qolmadi. Xuddi maktab o‘zlarinikiday maydonchamizda u yoqdan bu yoqqa xotirjam salanglab yurarkan:

– Nima qilamiz, o‘ynaymizmi?! – deyishdi o‘smoqchilab.

Rustam jamoa sardori sifatida uzil-kesil bir qarorga kelgandi:

– O‘ynaymiz!

– Yengilsalaring nima bo‘ladi?

– Ko‘ramiz!

Futbol raqiblarning goli bilan boshlandi. Bu shashtimizni tushirishi tabiiy edi. Hammamiz o‘yin boshidanoq dami chiqqan pufakday shalvirab qoldik. Chunki qarshi taraf himoya chizig‘ida ikki-uch bo‘ydor bola bamisoli mustahkam qoyaday joylashib olgan, to‘pni ulardan o‘tkazishning hech imkoni yo‘q. Birgina Rustam ayrim paytlari raqibning darvozasigacha yetib borardi-yu, ammo mo‘ljalni olib tepay deganda koptokni boy berardi. Shu bilan to‘p yana ortiga qaytar, qo‘shni qishloq bolalarining unisidan bunisiga o‘tib, oxiri darvozamizning to‘ridan joy olardi.

Maktab maydonchasidagi daraxtlarga qo‘ngan chumchuqlar g‘oliblarning shodon hayqiriqlaridan hurkib uchdi. Mag‘lublarga esa osmon enkayib, qadlarini ko‘taribroq yurishga xalal berayotganga o‘xshab qoldi.

Qo‘shni mahalla bolalari bir-birini tabriklab, ko‘klarga otib, yangroq qo‘shiqlar bilan ortlariga qaytarkan, bizday zaif, ojiz tengdoshlari bilan hatto xayrlashishni lozim topishmadi.

Hech kimning churq etishga qurbi yetmasdi. Hamma javdiragan nigohlarini bir-biridan olib qochar, ko‘zlaridan o‘zboshimchalik bilan dumalab tushayotgan marjon tomchilarni yonidagilarga bildirmay artib olishga urinardi.

– Shamollagan edim... – dedim o‘zimni oqlamoqchi bo‘lib. Qolganlar “qo‘ysang-chi” deganday qo‘l siltadi. Shunda sinfdoshlarimizdan biri allaqayoqqa tikilgancha qotib qoldi.

– Anavi... kim bo‘ldi?..

Beixtiyor o‘sha tarafga qarar ekanmiz, uzoqdan uch-to‘rt bola maktab hovlisidagi bayroqning ustuniga tirmashib chiqayotganini ko‘rdik. Eng tepadagi bola bayroqni yechishga kirishgandagina ularning hozirgina bizni yutgan bolalar ekani ayon bo‘ldi.

O‘rnimizdan bamisoli tok urganday sakrab turdik! Hali o‘yin davomida yetishmagan shiddat, iroda, kuch-quvvat vujudimizga allaqayerdan quyilib keldi. Hammamiz sopqonidan birin-ketin uchgan palaxmon toshiday zuvullab o‘sha yoqqa otildik!

– To‘xta! – Rustam ularning yoniga eng birinchi yetib bordi. Mushtlashganda xalal bermasin deganday shaxt bilan kepkasining soyabonini orqasiga o‘girdi. – Nega yechding?!

Bizga bir-bir qararkan, bayroqni tutib turgan bolaning kutilmaganda dami ichiga tushib ketdi. Gapirish o‘rniga talmovsirab sherigiga qaradi. Hamma fikr undan chiqqan bo‘lsa kerak, sherigi biroz dovdirab tushuntirdi:

– Yutganlar odatda kubokni olib ketadi. Lekin... u yo‘q...

Rustam haligi bolaning titrabgina turgan qo‘lidan bayroqni tortib oldi. Quyoshga solib qaradi.

– Nomardlar! Kir qilibdi!

– Aldama! – haligi bola bo‘ynini cho‘zib gapirdi. – Qo‘limning uchi bilan ushlaganimni ko‘rmadingmi?! – keyin vajohatimizdan hayiqdi, shekilli, eng avval juftakni rostladi. Qolgan sheriklari ham birma-bir xayrlashib, ko‘cha sari yurdilar:

– Uzr, xafa bo‘lmanglar.

– Bo‘pti!

– Xayr!

Ular ko‘rinmay ketgach, Rustam bayroqni beliga tugib, ustunning tepasiga tirmashib chiqdi. Uni joyiga bog‘lab, qaytib tushdi.



Tip-tiniq osmon uzra mayin, mardona hilpirayotgan bayrog‘imizning mavjlariga pastdan mahliyo bo‘lib qarar ekanmiz, ich-ichimizdan zavq va g‘urur toshib kelardi. Ayni paytda hamma o‘rtoqlar bir tan-u bir jonga aylanib qolganga o‘xshayotganimiz uchunmi, ortiq bizni mag‘lub qilishning imkoni yo‘qligini ham aniq-tiniq his etib turardik...

Yaqinda sinfdoshlar uchrashuvi bo‘ldi. Maktabda o‘tgan eng shirin xotiralar qatori ana shu voqea ham eslandi. Hamma kulib bugun harbiylar safida xizmat qilayotgan ofitser – Rustamga qaradi.

– Ha, uni yechib olishayotgani qanday ta’sir qilgani ham, tepaga bog‘lab tushganimiz ham yodimda, – dedi u harbiycha vazminlik bilan jilmayib. – Axir o‘yinda kimdir yutsa, kimdir yutqazadi. Ammo bayroq bu – Vatan! Elning birdamligi, bir maqsad yo‘lida jamligi ramzi! Shuning uchun uni baland ko‘targan qo‘llarni sira yengib bo‘lmaydi!

Bayram Ali QO‘LDOSHEV

1. *Bolalarning mag‘lubiyatdan keyingi ruhiy holati qanday tasvirlangan? Matndan dalillar keltirib tushuntiring.*
2. *Raqib jamoa bayroqni nega olib ketmoqchi bo‘ldi?*
3. *Raqib jamoaning bayroqni yerga tushirish harakatidan so‘ng bolalarning ruhiy holatida qanday o‘zgarish yuz berdi?*
4. *Agar siz Rustamning o‘rnida bo‘lganingizda raqiblaringiz bayroqni tushirayotganini ko‘rgan payt qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?*
5. *Matndagi sizda eng kuchli taassurot qoldirgan o‘rinni bayon qiling va sababini izohlang.*

1.13. **Keltirilgan so‘zlarning matndagi izohini aniqlab, daftaringizga yozing.**

ofitser | birdamlik | sopqon

palaxmon | vazmin | mavj

1.14. **Matnga qanday sarlavha qo‘yish mumkin? Fikringizni izohlang.**


SARLAVHA	SARLAVHA TANLASHGA ASOS BO‘LGAN JUMLALAR
***	***

1.15. **So‘z birikmalari grammatik va mazmun jihatidan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.**

T/R	SO‘Z BIRIKMASI	T/N
1.	millatni erki	***
2.	tarixda ma’lumki	***
3.	yo‘qlikka mahkum bo‘lmoq	***
4.	sha’nini baland tutish	***
5.	hayotini baxshida etmoq	***
6.	e’tiqodida putur yetmoq	***
7.	burchdor avlod	***
8.	bayrog‘imizni mavjlanishiga	***
9.	hilpirab turishini ta’minlash	***
10.	vatanning ifodasi	***

1945-yilda tug‘ilib, 1945 da vafot etdi. Qabr toshiga 45 yil umr ko‘rgan deb yozildi. Bu qanday bo‘lishi mumkin?

1.16. **Uyi yoki mashinasiga bayroq ilib qo‘ygan odamlarni ko‘rganmisiz? Ular boshqalardan nimasi bilan farq qiladi? Nega bayroq ilishni istashadi? Shu haqda matn tuzing.**



1.17. **Matndan qanday xulosa chiqardingiz?**

1.18. **Davlat bayrog‘i va uning tasviri tushirilgan belgilardan qayerda foydalanish mumkin-u, qaysi o‘rinlarda foydalanish taqiqlangani haqida internetdan ma’lumot toping va yozing.**

Gaplar mazmunidagi farqlarni tushuntiring.

1	Onam keldilar.	Ona**gina**m keldilar.
2	Bu sening ishing!	Bu sening ishing**-ku!**
3	Bu xona sovuq ekan.	Bu xona sovuq**roq** ekan.

So‘z tarkibida kelgan ayrim qo‘shimchalar kuchaytiruv-ta’kid ma’nosini yuklaydi.

QO‘SHIMCHA	MISOL	QIYOSIY MA’NO
Qo‘shimchalar		
-gina (-kina/-qina)	*Bu bolakay do‘mboq.*	bolakay do‘mboq ekani
	*Bu bolakay do‘mboq**qina**.*	bolakay o‘ziga yarashadigan do‘mboq
-roq	*Sodiqjon, tez yugur.*	tez yugurish
	*Sodiqjon, tez**roq** yugur.*	yanada tez yugurish
-lar	*Unsin ko‘z yoshini artdi.*	Yig‘layotgan Unsin ko‘z yoshini artdi.
	*Unsin ko‘z yosh**lar**ini artdi.*	Anchadan beri yig‘layotgan Unsin ko‘z yoshini artdi.
Qo‘shimcha yuklamalar		
-da	*Temurbek aqlli.*	Temurbek aqlliligi ma’lum bo‘ldi.
	*Temurbek aqlli-**da.***	Temurbekning aqlliligi oldindan hammaga ma’lum.
-ku	*Bu juda yaxshi!*	Bu kutilgani kabi yaxshi.
	*Bu juda yaxshi-**ku**!*	Bu kutilganidan ham yaxshi.
-oq/-yoq	*U kelib ketdi.*	U kelib ketgan.
	*U kelib**oq** ketdi.*	U juda qisqa fursatga kelib ketgan.

TIL SANDIG‘I

BAYROQNING KELIB CHIQISHI

Bayroq so‘zi “botroq” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, *botirmoq* ma’nosida keladi. Qadimgi turkiylar tuproqqa botirilgan tirgovuchlarning uchiga qabilalarining ramzi sifatida matolar yoki iplar osar edilar. Vaqt o‘tishi bilan bu “tuproqqa botirilgan yog‘och” “to‘lqinlangan davlat ramzi”ga aylanadi.

Avval bayroqlar faqatgina xabarlashish, belgi (ishora) berish kabi maqsadlarda ishlatilgan. O‘rta asrlarda urushlarda ikki taraf bir-biridan farqlanishi uchun bayroqdan foydalangan. Shunday qilib, har bir mamlakatning o‘z bayrog‘i paydo bo‘la boshlagan.

O‘zME

1.19. Qo‘shimchalar qo‘shilganda gaplar mazmunida qanday o‘zgarish bo‘lganini izohlang va daftaringizga yozing.

T/R	JUMLA	QO‘SHILADIGAN QO‘SHIMCHA	GAP MAZMUNIDAGI O‘ZGARISH
1.	U **sekin** xonaga kirib oldi.	-gina	*Hech kimga sezdirmasdan xonaga kirib oldi.*
2.	Ul zot **yengil** jilmayib, majlis ahliga boqdi.	***	***

3.	**Bilasizlar:** u juda jahldor.	***	***
4.	Bu xushxabarni shuncha **yildan** beri kutdim! Axiyri murodimga yetdim.	***	***
5.	Ular **tunda** yo‘lga chiqib ketishdi.	***	***
6.	Qayg‘u **yuragini** ezib yubordi.	***	***
7.	Do‘stim, siz bundan **ranjimang.**	***	***

1.20. Boshqotirmadan “bayroq” so‘ziga ma’nodosh so‘zlarni toping.
(4 ta ma’nodoshi yashiringan.)

N	K	R	S	A	N	J	O	Q	Q	R
U	B	H	E	K	P	I	M	Q	L	A
R	Z	O	R	I	Q	A	T	F	D	S
A	L	A	M	L	D	N	O	Q	E	Q
T	I	D	Y	A	L	O	V	Y	O	L
A	M	I	O	R	L	Q	V	T	L	Y
Y	X	N	R	Y	O	T	Q	I	N	O
Y	O	T	L	B	CH	U	S	N	X	R
O	T	P	I	T	U	G‘	R	O	R	I

1.21. Sizningcha, bayroq qanday mazmun tashiydi? Shu haqda shaxsiy qarashingizni bir xatboshida ifodalang va o‘qib bering.

1.22. Ushbu videolavhani tomosha qiling va bu rolik orqali muallif nima demoqchi ekanini yozing. Matn tuzishda *-gina (-kina/-qina), -roq, -lar, -da, -ku, -oq/-yoq* **kabi qo‘shimchalardan foydalanib, mazmunni kuchaytiring.**

1

Quyida “O‘zbekistonning tarixiy shaharlari” sarlavhali matn berilgan. Sarlavhaning o‘zidan matn mazmunini taxmin qiling.

A)	*Xabar yetkazish mazmuniga ega.*
B)	*Reklama mazmuniga ega.*
D)	*Ko‘rsatma berish mazmuniga ega.*
E)	*Tanishtirish mazmuniga ega.*
F)	*Tashviqot-targ‘ibot qilish mazmuniga ega.*

O‘ZBEKISTONNING TARIXIY SHAHARLARI

O‘zbekiston o‘ziga xos tarixga ega davlatlar qatoriga kiradi. U qadimdan dunyo tamadduniga munosib hissa qo‘shib kelgan, hozir esa bir qancha muzey shaharlari bilan jahon nigohini o‘ziga qaratmoqda. Ana shunday shaharlar bilan tanishamiz.

Samarqand – O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan tarixiy-afsonaviy shahar. U qadimiy Rim bilan tengdosh bo‘lib, arxeologlarning fikricha, yoshi ham 2750 yildan ortiqroq. Sohibqiron Temurbek Samarqandni obod qildi, dunyoning sayqaliga aylantirdi.

“Samarqand sayqali ro‘yi zamin ast”, ya’ni Samarqand yer yuzining sayqali deb bejiz aytilmagan. U ko‘plab nodir yodgorliklarni jo qilgan tarixiy ansambl desak, xato qilmaymiz. Samarqand tarixiy va me’moriy obidalarga **boy** azim shahar bo‘lib, unda Afrosiyob shaharchasi qoldiqlari, Ulug‘bek rasadxonasi, Hazrati Xizr masjidi, Bibixonim maqbarasi, Registon maydoni (Ulug‘bek madrasasi, Sherdor madrasasi, Tillakori madrasasi), Ruhobod maqbarasi, Go‘ri Amir maqbarasi, Xoja Ahrori Valiy maqbarasi, Imom al-Buxoriy maqbarasi, Imom al-Moturidiy maqbarasi, shuningdek, ko‘pgina boshqa kichik madrasa, maqbara va masjidlar bor. Bu obidalar musulmon-sharq arxitekturasining takrorlanmas, **noyob** namunalari hisoblanadi.



Xiva – O‘zbekistonning shimoli-g‘arbida, Amudaryoning sohilida joylashgan shahar. U uzoq yillar davomida Xiva xonligining poytaxti bo‘lib kelgan. Shahar ikki qismdan: Dishan qal’a va Ichan qal’adan iborat. Qadimgi qismi – juda ko‘p arxitektura yodgorliklariga boy bo‘lgan Ichan qal’a **ekzotik** shahar timsolini o‘zida saqlab qolgan afsonaviy maskandir.

Xivada o‘nlab madrasalar, maqbaralar, karvonsaroylar, yuzlab tarixiy obidalar o‘zaro tutashib, go‘zalligi va betakror jozibasi bilan butun dunyo sayyohlarini o‘ziga **rom etib** kelmoqda. YUNESKOning Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan ko‘hna Xiva shahri Islom hamkorlik tashkilotining (IHT) 2024-yilda Bokuda bo‘lib o‘tgan XI sessiyasida islom olamining turistik poytaxti deb e’lon qilindi.

Xivaning yoshi 2500 yildan oshgan. Agar siz tarix qa'riga sho'ng'ishni va qadimiy Sharqning haqiqiy go'zalligini ko'rishni istasangiz, Xivaga tashrif buyuring.



Buxoro – O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri, o'rta asrlarga tegishli 140 dan ortiq arxitektura yodgorliklarini o'zida saqlagan muzey shahardir. U Buxoro amirligining boshkenti bo'lgan. Shaharga qadam qo'ygan kishi moziyga sayohat qilgandek bo'ladi, chunki unda bir-biriga o'xshamagan, betakror tarixiy obidalar bisyor. Ayniqsa, Ark, Bolohovuz ansambli, Ismoil Somoniy maqbarasi, Xoja Zaynuddin majmuasi, Poyi Kalon ansambli, Labihovuz ansambli, Sitorayi Mohi Xosa – Buxoro amirining saroyi kabi ziyoratgohlar hatto xalqaro hamjamiyat diqqatini ham o'ziga qaratgan.



Qo‘qon – koshinli masjidlari, maqbaralari, madrasalari bilan ajralib turuvchi **ulug‘vor** tarixiy shahar. O‘tmishda Qo‘qon xonligining poytaxti ta’lim va ilm-fan markazlaridan biriga aylantirilgan edi. XX asr boshlarida ko‘hna shaharda 660 na masjid, 67 ta madrasa, 26 ta ziyoratgoh, yuzdan ortiq xonaqoh, 6 ta markaziy va o‘nlab ixtisoslashtirilgan bozor, 30 ga yaqin karvonsaroy mavjud bo‘lgan.

Qo‘qonning haqiqiy durdonasi va shaharning asosiy diqqatga sazovor tarixiy joylaridan biri Xudoyorxon saroyi bo‘lib, “Qo‘qon o‘rdasi” deb ham ataladi. Naqshinkor eshik va panjarali derazalardan tortib tosh plitalargacha har bir detal alohida badiiy did bilan ishlangan.



Ushbu tarixiy obida xuddi “Ming bir kecha” ertaklaridan olingandek, chinakam **muhtasham** sharqona saroy sifatida qad rostlagan.

Internet materiallari asosida tayyorlandi.

1.23. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qaysi ma’noda ishlatilganini aniqlang.

Mol-dunyosi, davlati ko‘p	**Boy**	Bag‘rida muayyan narsa bisyor, ko‘p
Juda qimmatli, bebaho	**Noyob**	Kam uchraydigan, betakror
Biror mamlakatga xos bo‘lib, boshqa xalqlarni qiziqtiradigan	**Ekzotik**	Tarixiy obidalari va me’moriy yodgorliklari ko‘p bo‘lgan
O‘ziga moyil qilmoq	**Rom etmoq**	O‘ziga bo‘ysundirmoq
Juda katta, buyuk	**Ulug‘vor**	Savlatli, hashamdor
Hurmatga loyiq, muhtaram	**Muhtasham**	Hashamat bilan ishlangan, dang‘illama

1. *Samarqand qadimiylikda dunyoning qaysi shahriga tengdosh?*
2. *Buxoro nima uchun muzey shahar deyiladi?*
3. *“Islom olamining turistik poytaxti” deganda nimani tushunasiz?*
4. *Samarqand, Xiva, Buxoro, Qo‘qon shaharlarini bog‘lab turgan umumiy jihatlar haqida gapiring.*
5. *Tarixiy shaharlar nimasi bilan insonlarni o‘ziga jalb qiladi?*
6. *Qadimiy shaharlardagi me’moriy yodgorliklarning o‘ziga xosligini bayon qiling.*
7. *O‘zbekistonning yana qanday tarixiy shaharlarini bilasiz? Ular haqida gapiring.*

1.24. Matn asosida shakllantirilgan jumlalarning fakt yoki fikr ekaniga baho bering.

T/R	JUMLALAR	FAKT/FIKR
1.	Xiva ikki qismdan: Dishan qal’a va Ichan qal’adan iborat.	***
2.	Samarqand – dunyodagi eng chiroyli shahar.	***
3.	Buxoro shahri amirlikning poytaxti bo‘lgan.	***
4.	Qo‘qon Sharqning durdonasi hisoblanadi.	***
5.	Xiva 2024-yilda islom olamining turistik poytaxti deb e’lon qilingan.	***

Fakt tekshiruvi (faktcheking) – shubhali ma’lumotlarning ishonchliligini, hayotiy mantiqqa mosligi va haqqoniyligini tekshirib ko‘rish jarayoni. Bunda keltirilgan ma’lumotning haqiqatga mosligi boshqa manbalar (ensiklopediyalar, darsliklar, rasmiy ma’lumotlar)ni tekshirish, hayotiy mantiqqa mos ekanini tahlil qilish orqali aniqlanadi. Masalan, *Xiva O‘zbekistonning shimoli-g‘arbida joylashgan*. Bu ma’lumot geografiyaga oid manbalar yordamida tekshirilganda haqiqatga mos ekani tasdiqlandi. Demak, ishonchli.

Diqqat! Har bir eshitilgan yoki o‘qilgan ma’lumotni tekshirib ko‘rish yolg‘on axborot qurboni bo‘lishdan asraydi.

Fakt *– isbotlangan, hamma tomonidan tan olingan hukm.*

Fikr *– shaxsiy qarash, subyektiv mulohaza.*

1.25. Berilgan faktlarni matn asosida tekshirib ko‘ring va ishonchli ekaniga baho bering. Tekshirish jarayonida ustozingizdan yordam olishingiz mumkin.


1. Samarqand O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan.
2. Ismoil Somoniy maqbarasi Buxoroda joylashgan.
3. Xudoyorxon saroyi “Qo‘qon o‘rdasi” deb atalgan.
4. Xiva YUNESKOning Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.
5. Poyi Kalon ansambli Samarqandda joylashgan.

1.26. Berilgan jumlalardagi faktlarni internet yoki boshqa manbalar yordamida tekshirib, ishonchliligiga baho bering.

1. *Toshkent – televideniye vatani.*
2. *Buxoroga miloddan avvalgi VI asrda asos solingan.*
3. *Xiva Qohira shahriga tengdosh.*
4. *Buyuk sarkarda Amir Temur Shahrisabzda tug‘ilgan.*
5. *Samarqand Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan.*
6. *Termiz shahri o‘tmishda Buxoro amirligining janubiy nuqtasi bo‘lgan.*
7. *Qo‘qonda XX asr boshlarida 67 ta madrasa bo‘lgan.*
8. *Buxoroning yoshi 2800 yildan oshgan.*
9. *Samarqandning yoshi 2750 yildan oshgan.*
10. *Buxoroda 140 dan ortiq me’moriy yodgorlik bor.*

1.27. “O‘zbekistonning tarixiy shaharlari” matni asosida tuzilgan boshqotirmani yeching.

1. *Samarqandni ilk bor kim poytaxtga aylantirgan edi?*
2. *Tillakori madrasasi qaysi shaharda joylashgan?*
3. *Qaysi shahar 140 dan ortiq arxitektura yodgorligini o‘zida jo qilgan?*
4. *Sharq ertaklaridagi kabi muhtasham saroy qaysi shaharda qurilgan edi?*
5. *Qaysi shahar ichki va tashqi qal’alardan iborat edi?*
6. *Samarqand qaysi shahar bilan tengdosh?*



1.28. Berilgan jumlalarni matn asosida davom ettiring va daftaringizga yozing.

1. O‘zbekistonda tarixiy shaharlar ko‘p, chunki ……

2. “Samarqand yer yuzining sayqali” deb ham ataladi, chunki ……..

3. Sayyohlar tarixiy shaharlarga sayohat qilishni yoqtiradi, chunki ……

4. O‘zbekistondagi tarixiy obidalarda musulmon-sharq arxitekturasidan foydalanilgan, chunki …….....

5. Sayohat qilish insonning dunyoqarashini, fikrlashini rivojlantiradi, chunki ……

Fikr ochiq yoki yashirin ifodalanishi mumkin. Bu esa mazmunni tushunishga ta’sir qiladi. Shuning uchun ochiq va yashirin ifodalangan mazmunni anglash va farqlash kerak.

1. Ochiq ifodalangan mazmun – gapda bevosita aniq ifodalangan oshkora ma’no-mazmun. Masalan, *Otabek, Yusufbek hojining qarshiligiga qaramay, o‘z orzusini amalga oshirish maqsadida Kamoliddin bilan savdo ishlarini boshladi.* (Otabek kim? Otabek – Kamoliddin bilan birgalikda savdo ishlarini boshlagan yigit.)

2. Yashirin ifodalangan mazmun – matnda ochiq ifodalanmagan, lekin o‘quvchi kontekstdan o‘zi chiqarib oladigan ma’no-mohiyat. Masalan, *Otabek, Yusufbek hojining qarshiligiga qaramay, o‘z orzusini amalga oshirish maqsadida Kamoliddin bilan savdo ishlarini boshladi.* (Otabek kim? Otabek – mustaqil fikrga va zamonaviy dunyoqarashga ega, qaysar yigit.)

Qiyoslang!

XUSUSIYATLAR	OCHIQ IFODALANGAN MAZMUN	YASHIRIN IFODALANGAN MAZMUN
Ifodalanishi	Mazmun to‘g‘ridan to‘g‘ri, ochiq ifodalanadi.	Mazmun bilvosita, yashirin ifodalanadi.
Tushunish	O‘quvchi yoki tinglovchi darhol tushunadi.	O‘quvchi yoki tinglovchi o‘zi taxmin qilib, fahmlaydi.
Misol	**Men maktabga bordim.** (*U odatdagidek maktabga kelgan.*)	**Maktabga ertaroq yetib bordim.** (*U muhim sababi borligi uchun ertaroq borgan bo‘lishi mumkin.*)
Izohga ehtiyoj	Izohga zarurat yo‘q.	Kontekstdan yashirin mazmunni chiqarib olishga ehtiyoj bor.
Kontekstning ahamiyati	Kam.	Juda muhim.

1.29. Namuna asosida gaplardagi yashirin mazmunni izohlang.

Namuna

Qarz olgan eding, mana, bahor ham keldi. *(Qarzni qaytaradigan vaqtingdan allaqachon o‘tib ketdi, qaytarmaysanmi?)*

1. Men ham bog‘ga ketdim. 2. Sen kutgan tonglar keldi, Vatan. 3. Shoikrom siltanib qaddini rostladi. 4. Kampirning dodiga odam tez to‘plandi. 5. Kechki payt o‘sha ko‘chada yana g‘ala-g‘ovur boshlangandi. 6. – Ukam, yana yutibsizlarmi? – Sizning ukangizman-da!


1.30. Matndan olingan gaplarning yashirin mazmunini izohlang.

1. Samarqandning yoshi 2750 yildan ortiqroq.

2. Qadimgi Xiva YUNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

3. Naqshinkor eshik va panjarali derazalardan tortib tosh plitalargacha har bir detal alohida badiiy did bilan ishlangan.

1.31. FSMU texnologiyasidan foydalanib matn asosida 5 ta misol yozing.



Namuna

F: *Samarqand – ko‘plab tarixiy maskanlarni o‘zida jo qilgan tarixiy shahar.*
S: *Chunki unda tarixiy va me’moriy obidalar bisyor.*
M: *Masalan, Afrosiyob shaharchasi qoldiqlari, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi kabilar.*
U: *Samarqand – tarixiy va me’moriy obidalarga boy afsonaviy shahar.*

SAYOHAT TAASSUROTLARI

Sayohat insonni tiniqtiradi, yuksaltiradi va poklaydi. Shuning uchun tengqurlarimiz bilan ajdodlar qadamjosini ziyorat qilishni rejalashtirgandik.

O‘tgan yakshanbada sinfdoshlarimiz bilan “Zangi ota” majmuasiga **ziyorat qilish** uchun bordik. U yerda o‘zgacha **tarovat** bor. Ziyoratgohga kirishimiz bilan o‘ziga xos sirli harorat vujudimizni egallab oldi. Xuddi tarix ko‘z oldimizda gavdalangandek bo‘ldi. Masjid peshtoqlaridagi arabiy harflar imoratga o‘zgacha **shukuh** berib turardi. Peshtoqlardagi jimjimador naqshlarni aytmaysizmi, **bahri dilingiz ochiladi**, lol qolasiz. Tarixiy obidani **kezarkanmiz**, xayolan hazrat Zangi ota bizni kuzatib turganday bo‘lardi. Ziyoratni avvalo Zangi ota ruhiga tilovat qilishdan boshladik. Xonaqohlar va ziyoratgoh sayilgohini aylandik. Ayniqsa, sayilgoh o‘rtasidagi shifobaxsh buloq yonidagi hovuzda suzib yurgan baliqlarni tomosha qilib rosa zavqlandik. Chunki hovuzda turli: oq-sariq, olovrang-oqish, qizil-oqish chipor baliqlar suzib yurardi. Ular buloq-ning chiroyiga chiroy qo‘shib turardi. Ular-ni tomosha qilib ruhan **tiniqasan**.



Ziyoratgohning eng gavjum joyi tarixiy, milliy liboslar, zeb-u ziynatlar sotiladigan kichik-kichik do‘konchalaridir. U yerda turli **hayratomuz** o‘yinchoqlar, suvenirlar, taqinchoqlar, milliy liboslar, diniy kitoblar sotiladi. Do‘kon rastalarini kezarkansiz, kaftingizda o‘zbek millatining tarixi, o‘zligi namoyon bo‘layotgandek his qilasiz. Tarixiy buyumlarni sotib olayotgan chet ellik sayyohlarning hayratlanishini, o‘zbeklarning amaliy san’atlariga lol qolayotganini ko‘rib, qalbingizni faxr tuyg‘usi egallaydi.

Xullas, shunday bir millat avlodi bo‘lganingdan, shunaqangi buyuk zotlar davomchisi ekanligingdan g‘ururlanasan. Men o‘ziga xos tarixi va madaniy merosi bor Vatanimni **yaxshi ko‘raman.**

Abbos ALIMOV

1.32. Ajratib ko‘rsatilgan lug‘aviy birliklarning matndagi izohini namunaga qarab yozing va misol keltiring.

Namuna

Tarovat

Izohi: so‘lim holat

Misol: Ko‘klam tarovati insonni sarxush qilar edi.

1.33. Yurtimiz go‘shalaridan biriga sayohatingizdan olgan taassurotingizni yozing va sinfdoshlaringizga o‘qib bering.

Bunda quyidagi savollarga javob bering:

1. *Sayohatga chiqishdan maqsadingiz?*
2. *Sayohatga kimlar bilan chiqdingiz?*
3. *Sayohatingiz davomida qiziq voqea bo‘ldimi?*
4. *Sayohat davomida yangi taomlar tatib ko‘rdingizmi? Sizga yoqdimi?*
5. *Sayohat qilgan joyingizga borishni tavsiya qilasizmi va nima uchun?*

1.34. Quyidagi mezon asosida o‘rtog‘ingiz/o‘zingizning yozma ishi(ngiz)ni baholang.


Mezon	3 ball	2 ball	1 ball	0 ball
Mavzuning ochib berilishi	To‘liq	O‘rtacha	Qisman	Mavzuga mos emas
Matn tuzilishi (kirish, asosiy qism, xulosa)	Tuzilishi aniq va izchil	Qismlar mavjud, lekin izchillikda uzilish bor	Tuzilishi noaniq yoki nomuvofiq	Tuzilma yo‘q, fikrlar tartibsiz
Imloviy va ishoraviy xatolar	Xatolarsiz yoki juda kam	Xatolar kam (2–5 ta), o‘qishga xalal bermaydi	Xatolar ko‘p (6–9 ta)	Xatolar juda ko‘p (10 tadan ortiq)
Nutq izchilligi va mantiqiyligi	Fikrlar izchil, mantiqiy bog‘langan	Ba’zida uzilishlar bor	Nutqda chalkashliklar bor	Nutq mantiqsiz va tushunarsiz
So‘z boyligi	Boy, mazmunli	O‘rtacha, ba’zida takrorlar uchraydi	Takror ko‘p, ifodasi jo‘n	So‘zlashuv nutqida jo‘n yozilgan

II BOB

QADRIYATLAR



Suhbatni o‘qing va savollarga javob bering.



1. *Jamiyatda hamma amal qiladigan, qadriyat darajasiga aylangan qanday odatlarni bilasiz?*
2. *Agar siz kelajakda rejissyor bo‘lsangiz va “Milliy qadriyatlar” nomli film suratga olsangiz, qaysi qadriyatlar haqida hikoya qilgan bo‘lardingiz? Nega?*

HASHAR

Chorbog‘da Yodgor **jarchini** tanimagan odam yo‘q. Kichik bir qishloqda hamma bir-birini taniydi-da, dersiz. Yo‘q, uni avval ovozidan tanishadi… Ovozi uni elga tanitdi, boqdi. Qishloqda to‘y bormi, janozami, hasharmi, kimning moli yo‘qolgan – hammasini jarchi birinchi biladi, kasbining **taqozosi-da**.

Yuvoshgina kulrang eshagini minib qishloq oralab, “Bugun falonchi boynikiga to‘yga, hoooo” yoki “Tusi qora, peshonasida oqi bor **govmishni** ko‘rgan bormi, hooo, aytganga suyunchisi bor”, deb baqirishi bilan hamma hushyor tortadi. Ayniqsa, bolalar uni yaxshi tanishadi. Ishining yurishib ketishi ham shularga bog‘liq. Chunki ular birinchi bo‘lib kimning molini qayerda ko‘rishganini aytishadi, to‘y yoki ma’rakani ota-onalariga yetkazishadi. Shuning uchun u “ishga chiqishidan” oldin cho‘ntagini turshak, mayiz, yong‘oqqa to‘ldiradi. Bolalar ham o‘rganib qolishgan, uning tovushini eshitishi bilan yugurib kelishadi. Yodgor jarchi erinmay eshakdan tushib, ular bilan kattalardek qo‘l berib ko‘rishadi, so‘ramasidanoq bolalar ko‘rgan-bilganini aytishadi. **Topildiq** topilgach, egasi belbog‘mi, kallapo‘shmi, tovuqmi – ataganini beradi. Hatto bir marta qo‘zi ham tashlab ketishgan. O‘shanda bunday bo‘lgan. Qishloqdagi Fayzi chopag‘onning uloqchi oti yo‘qolib qoldi. Ko‘plar unga xaridor edi, o‘g‘irlab ketishdi deb o‘ylashdi. Chiqmagan jondan umid deb Fayziboy Yodgor jarchining oldiga keldi:

— Bobo, ot topilsa, bir qo‘zi sizniki, yon qishloqlardan ham surishtiring, ko‘rgan-bilgan bordir.

— Ha, ulim, umidingni uzma, – dalda berdi Yodgor jarchi. Tomog‘i og‘rib turgan bo‘lsa-da, bir tuxumni yutdi-yu, eshakka mindi. Suyunchisi uchun emas, Fayzining ahvoliga achinganidan jo‘nadi. Ot egasining ori-da, nima bo‘lsayam topilsin. O‘ziyam ikki kun qishloq oralab chaqirdi. “O‘zi qora ot, old oyoqlari oq, laqabi Kamar. Ko‘rgan bormi, hooo, topganga suyunchisi bor, hooo”. Ikkinchi kuni Qorabo‘yin qishlog‘idan o‘tayotib yana aytdi. Shunda bo‘yi baland, qorachadan kelgan, qalin qoshlari ko‘zining ustiga tushgan bir tojik yigit oldiga keldi.

— Amaki, bo‘ldi qiling, ot menikida. O‘g‘irlaganim yo‘q, bizning baytalning orqasidan ergashib kelibdi, qamab qo‘ydim. Egasiga ayting, olib ketsin.

Yodgor jarchi xursand bo‘lib, eshagini yo‘rttirib ortiga qaytdi. Ertasi kechga tomon Fayzi chopag‘on va’da qilgan qo‘zini yilqiga o‘ngarib kelib, darvoza qoqdi. Jarchi “yo‘q” desayam, “olmasangiz, xafa bo‘laman”, dedi. Shungayam to‘rt-besh yil bo‘ldi. Hozir o‘sha qo‘zichoqdan **to‘ragan** qo‘ylar o‘ntaga yetib qoldi.

Yodgor jarchi eshagining to‘qimini yechayotib, xayol surib oshnasi – mahalla oqsoqoli Boboqul kelganini **payqamay qoldi.**

— Ha, Yodgor, eshagingga qarab, uloqqa chiqsam deb o‘ylayapsanmi? – hazillashdi u.

— Kel, qani, oqsoqol, – jarchi oshnasi tomon yura boshladi. Salom-alik qilgach, hazillashdi. – To‘y-po‘y-ku qilayotganing yo‘q, bilaman, moling yo‘qolganov, bo‘lmasa, o‘zingdan bilib yo‘qlamaysan, – Yodgor jarchi oqsoqolning tashrifini o‘zicha shunday tusmolladi.

— Nafasingni shamol uchirsin, molimni topib, bir narsalik bo‘lay deb o‘ylayapsanmi, **xomtama bo‘ma**, hasharga aytib chiqdim. Ertaga bir xizmat qilasan, yosh-u qari – hammani chaqirasan. Kechagi seldan keyin hovuzlarni loyqa to‘ldirib tashladi, shuni tozalaymiz, choyxona atrofiga besh-o‘n tup nihol **qadaymiz.** Bir kun o‘lsang, bolalar bu jarchi boboyam yurgan ekan-da o‘kirib, demasin. Eslasin-da seni ham...

Chollar kulishdi. So‘ngra **oqsoqol** davom etdi:

— Kenjangni ham olib chiq, hasharchilarga choy-poy tashib turadi, qani o‘zi, ko‘rinmaydi, – u yoq-bu yoqqa alangladi oqsoqol.



— Qo‘ylarga o‘t o‘ryapti...

— Mayli, men boray. Omin! – yuziga fotiha tortdi oqsoqol.

— Ha, darrov qo‘zg‘alyapsan? Yodgor jarchi jo‘rasini o‘tirishga undadi.

— Uydagi ketmon-petmonlarni qarayin, ertaga kerak bo‘ladi, o‘zing ham opchiq.

Yodgor jarchi jo‘rasini kuzatib kelib, hovlida **timirskilanib yurgan** kampirini chaqirdi.

— Tursuntosh, bu yoqqa qara.

— Ha, oshnangiz darrov ketibdi?

— Erta hashar ekan, shuni aytgani kepti. Kenjaga ayt, ketmonlarni topib qo‘ysin.

Kenja deganlari chol-kampirning tanho qizi Tursuntoshning o‘g‘li. Bobo-momosi bilan yashaydi. Kampiri ikkalasi uch farzand ko‘rdi, ammo ikkovi peshanalariga sig‘madi. Kampiri ko‘p eslaydi, “bachalarim **bo‘limligina** edi, ko‘zikkan, hali ham ikkisi ko‘z oldimda turibdi”, deydi yig‘lab. Qizi Tursuntoshdan keyin boshqa farzand ko‘rishmadi. Xudoga shukr, hozir beshta nevara bor. Uch o‘g‘il, ikki qiz. Kuyovi bilan qizi kichik o‘g‘lini chol-kampirga berishdi. Ro‘zixol momo kenjani bir yasharligidan katta qilgan. “Kenja”, “Kenja” deyaverib chol-kampir uning asl otini ham esidan chiqarib yuborishgan. Bir gal kampiri qizidan Kenjaning oti nima deb so‘raganda Samariddinmi, Qamariddinmi degandi; esida qolmadi.

— Baribir aytishga tilim kelishmaydi, kichkina bo‘lgandan keyin o‘z oti o‘zi bilan Kenja-da, — dedi qiziga.

Ertasi Yodgor bobo sahar turib mol-holga qaradi, eshakka to‘qim urib, yo‘lga tushdi. “Mahallaga hasharga, hoooo, belkurak, ketmon bilan chiqinglar, hoooo”, deya qishloqni bir aylandi. So‘ng uyga kelib choyini ichdi, qo‘ra devoriga suyab qo‘yilgan belkurak bilan ketmonni olib, tushlikka bo‘g‘irsoq qilib, choy bilan Kenjadan berib yubor deb kampiriga tayinladi-da, ko‘chaga chiqdi. Mahalla choyxonasiga o‘n-o‘n besh chog‘li odam yig‘ilgan, Boboqul oqsoqol nima ish qilishni tushuntirayotgan ekan.

— Avval hovuzni tozalaymiz, keyin ko‘chat o‘tqazamiz, daraxtlarniyam oqlaysizlar.

— Oqsoqol bobo, sizlar gurung berib tursalaring bo‘ldi, ish o‘zimizdan ortmaydi, — deyishdi yigitlar.

— Yodgorboy, — oqsoqol jo‘rasiga o‘girildi, — el oralab ko‘p yurasan, o‘zing endi bularni zeriktirmay turasan-da. Yana laqillab ishlarmanning beliniyam sovitib tashlama. Ish o‘zingga qoladi keyin…


Shu kuni hazil-huzul bilan ancha ish qilindi. Yigitlar qurib qolgan tutni ildizi bilan qo‘porib olishdi. “Sumalakka ishlatamiz”, deb kelishib ham olishdi…

Yodgor chol yomg‘irda namiqib hali qurimagan supa labiga o‘tirarkan, bugungi yigitlarning ham bir kun kelib keksayishini xayol qildi va beixtiyor titrab ketdi: hayot degani birpaslik mahalla hashariday gap ekan-da, asli. Qurib, qariganini kesishadi, qo‘porishadi. O‘rniga yangisini ekishadi.

Cholning ko‘z o‘ngida ag‘darilgan tut namoyon bo‘larkan, tomorqadan bebosh buzoqchani sudrab chiqib kelayotgan Kenjaga boqib o‘tirardi, ammo uni ko‘rmasdi.

Nasiba ABDULLAYEVA
(qisqartirib olingan)

2.1. Hikoyada ajratib ko‘rsatilgan lug‘aviy birliklarning matndagi ma’nosini daftaringizga namunadagidek yozing, so‘ng izohli lug‘atdan tekshiring.



2.2. Matn asosida testlarni bajaring.

1. Hikoyadagi voqealar qaysi faslda sodir bo‘ladi?

A) *kuzda* B) *yozda* D) *bahorda* E) *qishda*

2. Yodgor bobo betob bo‘lsa-da, uloqchi otni nima uchun qidirib topib beradi?

A) *suyunchisi katta bo‘lgani uchun*

B) *yaqin qarindoshi bo‘lgani uchun*

D) *oqsoqol bo‘lgani uchun*
E) *otni nomus masalasi deb bilgani uchun*

3. Yodgor boboning jarchilikda yordamchisi kim(lar) edi?

A) *yosh bolalar* B) *do‘sti* D) *qishloq cho‘ponlari* E) *nevarasi*

4. Hikoyada Yodgor jarchi do‘sti bilan ilk uchrashganda qanday holatda tasvirlanadi?

A) *g‘azablangan holatda* B) *xursand holatda*
D) *o‘yga berilgan holatda* E) *gumon qilayotgan holatda*

5. Hikoyada hasharni kim tashkil etadi?

A) *Yodgor jarchi* B) *Fayzi uloqchi* D) *Boboqul rais* E) *Kenja*

6. Hikoya qahramonlari va ularning sifatlarini moslashtiring. Qahramonlardan biri ortiqcha.

1.	*Yodgor*
2.	*Fayzi*
3.	*oqsoqol*
4.	*tojik yigit*

A)	*novcha, qorachadan kelgan kishi*
B)	*jussasi ixcham, chaqqon, mehribon kishi*
D)	*hazilkash, ishbilarmon, tashkilotchi kishi*

A) *1–b, 2–a, 3–d.* B) *1–b, 4–a, 3–d.*
D) *1–d, 2–a, 3–b.* E) *1–d, 4–a, 3–b.*

7. Hikoyada hashardan boshqa yana qanday qadriyatlar va ularga ishoralar uchraydi?

1. Yoshi kichiklar kattalarning qo‘liga suv quyishi. 2. Ko‘klamda sumalak pishirilishi. 3. Turmush o‘rtog‘ini bosh farzandining ismi bilan chaqirish. 4. Kattalar yosh bolalarga shirinliklar berishi. 5. Betob do‘stlarning holidan xabar olish.

A) *2, 3, 4* B) *1, 2, 4* D) *2, 4, 5* E) *1, 3, 5*

2.3. “Hashar” hikoyasi aslida nima haqida va uning bosh g‘oyasi qanday? Fikrlaringizni bayon qiling va o‘qituvchingiz bilan muhokama qiling.

2.4. Matnga yana qanday sarlavha qo‘yish mumkin? Fikringizni izohlang.

SARLAVHA	SARLAVHA TANLASHGA ASOS BO‘LGAN JUMLALAR
***	***

2.5. Matndan olingan parchalarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning adabiy tildagi shaklini yozing va o‘qituvchingizga tekshirtiring.

T/R	SO‘ZLASHUV SHAKLI	ADABIY TILDAGI SHAKLI
1.	– Ha, **ulim,** umidingni uzma.	***
2.	…molimni topib bir narsalik bo‘lay deb o‘ylayapsanmi, xomtama **bo‘ma,** hasharga aytib chiqdim.	***
3.	– Erta hashar ekan, shuni aytgani **kepti.**	***
4.	– Uydagi ketmon-petmonlarni qarayin, ertaga kerak bo‘ladi, o‘zing ham **opchiq.**	***
5.	Tusi qora, peshonasida oqi bor **govmishn**i ko‘rgan bormi, hooo!	***

2.6. Yoshi ulug‘ kishilardan ularning yoshlik davridagi milliy qadriyatlar haqida intervyu oling va yozib keling (kamida 5 ta savol).

Bugungi yoshlar qanday qadriyatlarni hurmat qiladi deb o‘ylaysiz? Nega? Fikringizni misollar bilan asoslang.

2.7. Berilgan jumlalarni hikoya mazmuniga ko‘ra davom ettirib, daftaringizga ko‘chiring.

1. Bolalar Yodgor jarchini juda yaxshi tanishadi, chunki ……
2. Fayzi chopag‘on oti yo‘qolgach, Yodgor cholning oldiga keldi, chunki ……...
3. Oqsoqol jarchi do‘stini yo‘qlab keladi, chunki ……..……..
4. Mahallada hashar tashkil etiladi, chunki ……..……
5. Jarchi ayolini qizining ismi bilan chaqirardi, chunki ……..……..
6. Yodgor bobo buzoqchani sudrab kelayotgan nevarasiga qarab turib uni ko‘rmasdi, chunki ...
7. Yodgor chol yomg‘irda namiqib hali qurimagan supa labiga o‘tirarkan, beixtiyor titrab ketdi, chunki …

2.8. So‘zlar juftligidan to‘g‘ri yozilganlarini aniqlab, daftaringizga ko‘chiring. Imlosini muhokama qiling.

ma’raka	oqsaqol	suyinchi	kuyov	tanxo
maraka	oqsoqol	suyunchi	kiyov	tanho

2.9. “Hashar” hikoyasidan quyidagi jumlalarni topib o‘qing va qo‘llanish maqsad-sababini aniqlang. Buni o‘qituvchingiz bilan muhokama qiling.

1. *…tusi qora, peshonasida oqi bor govmishni ko‘rgan bormi, hooo, aytganga suyunchisi bor.*
2. *Ha, Yodgor, eshagingga qarab, uloqqa chiqsam deb o‘ylayapsanmi?*
3. *Tursuntosh, bu yoqqa qara.*
4. *Sumalakka ishlatamiz.*
5. *…tomorqadan bebosh buzoqchani sudrab chiqib kelayotgan Kenjaga boqib o‘tirardi, ammo uni ko‘rmasdi.*

2.10. “Hashar” hikoyasi asosida shakllantirilgan jumlalarning fakt yoki fikr ekaniga baho bering.

T/R	JUMLALAR	FAKT/FIKR
1.	Yodgorboy ota qishloqning jarchisi edi.	***
2.	Boboqul mahalla raisi bo‘lib ishlar edi.	***
3.	Tojik yigit otni o‘g‘irlab ketmoqchi edi.	***
4.	Mahalla ahli oqsoqolni ko‘p xushlamas edi.	***
5.	Fayzi uloqchi otini yo‘qotib qo‘yadi.	***

2.11. “Hashar” hikoyasidan qanday xulosa chiqardingiz? Xulosangizni bir xat-boshida yozing va o‘qib bering.

2.12. Bir-biriga ma’nodosh bo‘lgan 5 ta sinonimik qatorni daftaringizga yozib, ma’nosidagi farqlarni izohlang. Namuna:

SO‘ZLAR	ALDAMOQ	LAQILLATMOQ	AVRAMOQ
IZOHI	Turli yolg‘on-yashiq gaplar, va’dalar bilan yo‘q narsaga ishontirmoq	Soddaroq kimsani yolg‘on bilan, bo‘lishi mumkin bo‘lmagan narsaga ishontirib chuv tushirmoq	Juda ustalik, ayyorlik bilan har qanday kishini ishontirmoq.
MISOL	*U o‘rtoqlarini aldashiga to‘g‘ri keldi.*	*Bu kishi – olim, uni laqillatib bo‘lmaydi.*	*Gap bilan avrab, hammani orqasidan ergashtirdi.*
FARQ	Odatiy aldov	Sodda, ishonuvchan kishini aldash	Hiylakorlik, ustomonlik bilan aldash

Boshqotirmadan “ravshan” so‘zining 4 ta sinonimini toping.

N	K	R	S	A	K	A	N	I	R	Q
U	B	H	E	K	P	N	M	Q	L	A
R	Z	O	R	I	Q	A	T	F	D	S
A	F	Y	K	L	D	N	O	Q	E	Q
T	I	D	D	A	O	I	R	Y	O	L
B	M	I	X	R	L	Q	V	T	L	Y
Y	X	N	Q	Y	O	R	Q	I	N	O
Y	O	T	I	B	CH	V	S	N	X	R
O	T	P	O	CH	I	G‘	A	I	R	I
R	T	K	L	M	Q	I	N	Q	O	Q
Y	A	Q	Q	O	L	A	SH	G	U	B
A	K	U	A	Y	E	O	P	P	O	Q

2.13. Jadvaldagi so‘zlarni matndagi ma’nosiga sinonim bo‘la oladigan so‘zlar bilan moslashtirib, daftaringizga yozing. Sinonimlar tarkibida ortiqchasi bor.

T/R	So‘zlar
1.	boqib o‘tirmoq
2.	chopag‘on
3.	ildiz
4.	momo
5.	kallapo‘sh
6.	suyunchi
7.	yo‘rttirmoq
8.	oshna
9.	tusmollamoq
10.	sahar

Belgi	Sinonimi
A)	qarab turmoq
B)	subhidam
D)	chopqir
E)	gumon qilmoq
F)	buvi
G)	buva
H)	o‘rtoq
I)	lo‘killatmoq
J)	yostiq
K)	sevinchi
L)	rangga bo‘yamoq
M)	do‘ppi
N)	chavandoz
O)	tomir

Ba’zan birliklar nutq tarkibidagina ma’nodoshlik hosil qiladi va ular **nutqiy sinonimlar** hisoblanadi. *Masalan, Abdulla Qodiriy, adib, yozuvchi, muallif* birliklari kabi. Bunda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani haqida fikr bildirilganda har gal *Abdulla Qodiriy* deb qaytaraverish uslubiy g‘alizlikni keltirib chiqaradi. Shu sababli nutqiy sinonimiyadan keng foydalaniladi: bir o‘rinda *adib* deyilsa, ikkinchi o‘rinda *yozuvchi* deb, uchinchi o‘rinda *roman muallifi* yoki *muallif* deb ishlatiladi. Nutqiy sinonimlar tavtologiya – ortiqcha qaytariqlarning oldini oladi.

Qiyoslang!

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek adabiyotidagi dastlabki to‘laqonli roman hisoblanadi. Qodiriy romanni yozish uchun ma’lumotlar to‘plab, alohida tayyorgarlik ko‘rdi. Romanda Qodiriy tarixiy voqealar yordamida muhabbat qissasini tasvirladi. Qodiriy bu muhabbat qissasini yozish orqali o‘zbek adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari o‘zbek adabiyotidagi dastlabki to‘laqonli roman hisoblanadi. Adib uni yozish uchun ma’lumotlar to‘plab, alohida tayyorgarlik ko‘rdi. Romanda muallif tarixiy voqealar yordamida muhabbat qissasini tasvirladi. Yozuvchi bu asarni yozish orqali o‘zbek adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi.

2.14. Matnni o‘qing. Nutqiy ma’nodoshlikni farqlamaslik natijasida yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘rilab yozing.

Oqsoqol Bobomurod aka mahalladagi nuroniylar bog‘ida hashar tashkil etdi. Hasharda barcha birdek ishtirok etdi. Ayollar supur-sidir ishlarida yordam berishdi, yigitlar yon-atrofni chirigan xashaklardan, ariqlarni chiqindilar va loyqadan tozalashdi. Nuroniylar ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib turishdi. Bobomurod aka uyidan hasharchilar uchun hashar oshi qildirib, olib keltirdi. Hamma birgalikda tushlik qildi. Hashar so‘ngida Bobomurod aka hammaga hashardagi ishtiroki uchun minnatdorlik bildirdi.

2.15. “Hashar” hikoyasidan nutqiy ma’nodoshlik hosil qilgan so‘zlardan 3 ta topib daftaringizga yozing.

2.16. O‘zingiz qatnashgan hashar haqida taassurot yozib keling. Matn tuzishda nutqiy ma’nodoshlikka e’tibor qarating.

Agar ijtimoiy hayotimizda *hashar* tushunchasi bo‘lmaganda biz bu qadriyatning qanday foydalaridan mahrum bo‘lar edik?

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida yangidan yangi tushunchalar paydo bo‘ladi. Tilda bularning barchasi uchun alohida yangi nom yaratilavermaydi, balki mavjud so‘zlarni yangi ma’noda qo‘llash orqali ularga nom, ifoda beriladi. Masalan, *uchmoq* so‘zi dastlab qushlarning harakatini ifodalagan, ammo bora-bora uning ma’nosi kengayib, varrak, samolyot, Yerning sun’iy yo‘ldoshi kabilarning harakatini ham ifodalaydigan bo‘ldi. Bu kabi hodisalar tildagi so‘zlar ma’nolari taraqqiyotiga olib keladi. Tildagi mavjud so‘zlar ma’nolarining o‘sishi ma’no ko‘chishi, ma’noning kengayishi va torayishi tarzida ro‘y beradi.

E’tibor bering!

I. Ma’no kengayishi – aslida bir tushunchani anglatuvchi so‘zning matnda ko‘p tushunchalarni umumlashtirishi. Masalan, *“kun”* aslida sutkaning yorug‘ qismini (kunduzni) anglatadi, biroq *“Oradan besh kun o‘tdi”, “Kun ora ko‘rishib turibmiz”, “Uch kun muhlat bering”* kabi gaplarda *butun sutka* – kun ham, tun ham birga tushuniladi.

II. Ma’no torayishi – aslida birdan ortiq tushunchani umumlashtiruvchi so‘zning matnda shulardan bittasini anglatib kelishi. Masalan, *“osh”* – aslida barcha ovqat turlarini umumlashtiruvchi so‘z (suyuq osh, oshxona, oshqozon, *“Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich”). Biroq “O‘ldirsa ham, osh o‘ldirsin”, “Mehmon keldi, do‘ppidek osh qil”* kabi gaplarda u faqat palovni bildiradi.

2.17. So‘zlar ma’nosini qiyoslang, mazmuniy o‘zgarishni tushuntiring: ma’no kengaygani yoki torayganini asoslang.

AMAKI	***Amakim*** bilan bir hovlida yashaymiz.	***Amaki,*** mening joyimda o‘tirib keting.
YILQI	Boyning to‘qson to‘qay ***yilqisi*** bor edi.	Bu otxonalar ikki yoshli ***yilqilar*** uchun qurilgan.
ZAR	Archa har xil shakldagi ***zar*** qog‘oz va o‘yinchoqlar bilan bezatilgan.	Yo ***zaring*** bo‘lsin, yo zo‘ring.
DARVOZA	Qal’a ***darvozasi*** ochildi.	Raqiblar ***darvozasiga*** javobsiz 4 ta gol urildi.
OYOQ	Bolaning ***oyog‘iga*** tikan kirdi.	Ana bo‘lmasa, stolning ***oyog‘i*** sindi.

2.18. Ma’no kengayishi va torayishi yuz bergan so‘zlarni topib, ular ishtirokida gap tuzing.

Namuna

Tovuq *fermasi ochdingmi?* Bu gapda *tovuq* so‘zida ma’no kengayishi kuzatilmoqda: tovuq, jo‘ja va xo‘rozlar birgalikda nazarda tutiladi.

TIL SANDIG‘I

OG‘AM VA TOG‘AM

“Og‘a” so‘zining tilimizda “aka” ma’nosini anglatishini hammamiz yaxshi bilamiz. “Og‘a” so‘zining tub ildizi “katta” degan ma’noni anglatgan. Qadimda tog‘ani va otani ham “og‘a” deb atashgan davrlar bo‘lgan. Shuningdek, o‘tmishda malika va saroy ayollarining ismlari oxiriga “og‘a” so‘zi qo‘shilib aytilgan holatlar ham kuzatiladi. Manbalarda ta’kidlanishicha, qadimgi turkiy tillarda “ona” so‘zining “tay” degan shakli ham bo‘lgan. Xuddi shu “ona” mazmunidagi “tay” so‘zi bilan “og‘a” so‘zining qo‘shilishidan “tog‘a” so‘zi hosil bo‘lgan va bu so‘z “onaning akasi” ma’nosini anglatgan.

Bir-biriga mazmunan yaqin bo‘lgan “og‘a” va “tog‘a” so‘zlari shakl jihatidan ham deyarli ajralmas. Ba’zan menga “tog‘a” so‘zi “tog‘” so‘zi bilan “og‘a” so‘zining qo‘shilishidan hosil bo‘lgandek tuyuladi. Bu shunchaki xayolim xolos. Ehtimol, bolaligimdan tog‘alarim menga tog‘day buyuk ko‘ringani uchun shunday tuyular.

Eshqobil SHUKUR

2.19. Guruhlarga bo‘linib, 3 daqiqa ichida quyidagi topshiriqni bajaring.

Topshiriq. *Ota-bobolarimiz davrida muhim bo‘lgan biror qadriyatni tanlang va hozir u qanday o‘zgarishga uchraganini hamda nima uchun shunday bo‘lganini bayon eting.*

1-GURUH	2-GURUH	3-GURUH	4-GURUH
Yoshlar kattalarning qo‘liga suv quyish odati	Keksalarning yukini ko‘tarishga yordam berish odati	Taomni kattalar boshlab berish odati	Yoshi ulug‘lar yosh bolalarga bayramlarda sayil xarji (narsalar olish uchun pul) berish odati

2.20. Boshqa xalqlarga oid milliy qadriyatlar haqida eshitganmisiz? So‘zlab bering.

2.21. **Rasmdagi so‘zlar izohini lug‘atdan topib, qaysilarida ma’no kengayishi kuzatilganini aniqlab daftaringizga yozing.**



1. Qo‘shni kim? Qo‘shnichilik nima? Jamiyat uchun qo‘shnichilik nega kerak?
2. Nima uchun xalqimiz: “Hovli olma, qo‘shni ol”, – deydi?

Audiomatnni tinglang.

QO‘SHNILAR HAQIDA IKKI VOQEA 2





2.22. Audiomatn asosida quyidagi savollarga javob yozing.

1. Kim kimga qo‘shni?
2. Shodmonqulga qanday sifatlar xos?
3. Toji nima sababdan yurak o‘ynoqiligi va qon bosimi oshishi kabi kasalliklarni orttirib oladi?
4. Birinchi hikoyadagi tajang qo‘shni nimaga janjal ko‘taradi?
5. Tajang necha yoshlarda edi?
6. Ikkinchi hikoyadagi qo‘shnilar qanday qo‘shnilar edi?
7. Ikkinchi hikoyada Botir aka molxonasini nima sababdan buzmoqchi ekanini aytadi?

2.23. Audiohikoyaga qanday sarlavha qo‘yish mumkin? Fikringizni izohlang.

SARLAVHA	SARLAVHA TANLASHGA ASOS BO‘LGAN JUMLALAR
***	***

1. Muallif nima uchun ikkita voqeani bayon qiladi?
2. Muallif bu matn orqali nima demoqchi, uning asosiy maqsadi nima?
3. Muallif matnda “Siz” tilimiz “sen”ga borgani yo‘q” jumlasini keltirishidan maqsadi nima?

2.24. Audiomatnda qo‘llangan iboralarni ma’no jihatidan mos so‘zlar bilan almashtirib yozing. Gaplar mazmunida qanday o‘zgarish bo‘lganini izohlang.

T/R	IBORA QATNASHGAN GAP	IBORA O‘RNIGA TAKLIF ETILAYOTGAN SO‘Z	GAPLAR MAZMUNIDAGI O‘ZGARISH
1.	*Shodmonqulga hasad qilib, **ichini it tirnashi** shundan.*	***	***
2.	*Uning **g‘ashiga tegib,** asabini o‘ynatishga harchand urinmasin, uddasidan chiqolmaydi.*	***	***
3.	*Shodmonqul dang‘illama uy qurib, bir parcha tomorqasini **jannatga aylantirdi.***	***	***
4.	*Zokir aka Botir akaday qo‘shnisi borligidan **ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilib**, o‘rnidan turdi.*	***	***
5.	***Ko‘ngli xufton bo‘lib,** belkurak olib chiqish uchun hovlisiga kirib ketdi.*	***	***
6.	*Ana, bir janjallashib, **xumordan chiqishga** bahona topildi.*	***	***

2.25. “Agar qo‘shnichilik qadriyati yo‘qolsa...” deb boshlanuvchi qisqa hikoya tuzing. Unda mavzuga doir hadis va hikmatlardan foydalaning.

Quyidagi suhbatda ish-harakat bajaruvchilarining shaxs-sonini aniqlang.

– Assalomu alaykum, qo‘shni, mumkinmi?

– Vaalaykum assalom, qo‘shni. Xush kelibsiz!

Ish-harakat bajaruvchisining shaxsi va sonini bildiradigan qo‘shimchalar **shaxs-son qo‘shimchalari** hisoblanadi. Ular gapning egasi va kesimini bog‘lab keladi: *Men kecha tog‘dan keldim.* Ba’zan bir shaxs-son qo‘shimchasi o‘rnida boshqa shaxs-son qo‘shimchasi qo‘llanishi mumkin. Bunday paytda ular uslubiy ma’no ifodalaydi. Masalan:

SHAXS-SON	BIRLIK SHAKLI	KO‘PLIK SHAKLI	MA’NOSI
1-shaxs:	*Musobaqada g‘alaba qozondim.*	*Musobaqada g‘alaba qozondik.*	*kamtarlik*
	Uncha-muncha ma’rakalarga bormayman.	*Uncha-muncha ma’rakalarga bormaymiz.*	*manmanlik*
2-shaxs:	*Sen ertaga kel.*	*Siz ertaga keling.*	*hurmat*
3-shaxs:	*Dadam ertaga keladi.*	*Dadamlar ertaga keladilar.*	*hurmat*

2.26. Matndan olingan gaplardagi ajratib ko‘rsatilgan fe’llarning shaxs-sonini aniqlab, qanday ma’no ifodalayotganini daftaringizga yozing.

Namuna: – *Zap **o‘ylabsiz-da,** Zokirboy.*

Javob: *2-shaxs birlik o‘rnida ko‘plik qo‘llanmoqda. Hurmat ma’nosini bermoqda.*

1. – Zap **o‘ylabsiz-da**, Zokirboy.
2. – Yo‘q, hozir **olasan.**
3. – Vaalaykum assalom, qo‘shni. **Xush kelibsiz!**
4. – Olmay ham **ko‘r-chi,** nima qilar ekanman.
5. – Hoy, kim bor? Choy damlab **kellaring.**
6. – Bolalarni **tashvishga qo‘ymang**, qo‘shni.

2.27. **Jadvaldagi gaplar juftligida qaysi shaxs-son qo‘shimchalari o‘rtasida ma’nodoshlik yuz bermoqda va ular o‘rtasida qanday mazmuniy farqlar mavjud?**


1.	*– Mehmonni **ishga solar ekanman**-da, – dedi Yo‘lchini birga olarkan Yormat.*	*– Mehmonni **ishga solar ekanmiz**-da, – dedi Yo‘lchini birga olarkan Yormat.*
2.	*Mulla Tursun, mana, oliy ma’lumot haqidagi diplomni ham **olding.***	*Mulla Tursun, mana, oliy ma’lumot haqidagi diplomni ham **oldilar.***
3.	*– Qani, yigitlar, ishni **boshlang**, – dedi boshliq ishchilarga.*	*– Qani, yigitlar, ishni **boshladik,** – dedi boshliq ishchilarga.*
4.	*Bu gaplarni eshitib **hayron bo‘laman.***	*Bu gaplarni eshitib **hayron bo‘lasan** kishi.*
5.	*Tog‘am bu gal ham hammadan barvaqt **keldi.***	*Tog‘am bu gal ham hammadan barvaqt **keldilar.***

2.28. **Bir shaxs-son qo‘shimchasi o‘rniga boshqa shaxs-son qo‘shimchasi ma’nodosh sifatida qo‘llangan 5 ta gap yozing.**

2.29. **Qo‘shnilar haqidagi ikki hikoyadan chiqargan xulosangizni lo‘nda bayon qiling. Nima uchun shunday xulosaga kelganingizni izohlang. Xulosalaringizni muhokama qiling.**

2.30. **“Qo‘shnichilik haqqi va odobi” mavzusida matn tuzib keling.**

Quyidagi suhbatni o‘qing va savollarga javob bering.



1. *Ushbu suhbatda qo‘shnichilik bilan bog‘liq qanday qadriyat haqida so‘z boradi? Hozir ham shu odat uchrab turadimi?*
2. *Siz ham ushbu qadriyatga amal qilasizmi? Nima uchun?*



Taklif xati

Hurmatli mahalla fuqarolar yig‘ini raisi! — **Boshlanma**

Sizga qo‘ni-qo‘shnilarimiz bilan birgalikda mahallamizni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish uchun hashar tashkil etish taklifini kiritmoqchiman. — **Kirish**

Men Beshterak guzaridagi 51-xonadonda istiqomat qilaman. Bahor oylari ham boshlanmoqda, ariq va yo‘llarni tozalash kerak. Mahallamiz obodligi, ko‘cha-ko‘ylarimiz ozodaligi uchun o‘z hissamni qo‘shmoqchiman va boshqalarni ham bu ishga jalb qilmoqchiman. — **Asosiy qism**

Sizdan hashar tashkil etish yuzasidan bildirgan taklifimni qo‘llab-quvvatlashingizni, bu haqida mahalla ahliga ma’lum qilishingizni kutaman. — **Xulosa**

Hurmat bilan,
Ulug‘bek Abdurahimov
2024-yil 25-fevral — **Tugallanma**

Qismlar nomi	Boshlanma	Kirish	Asosiy qism	Xulosa	Tugallanma
Ta’rifi	Rasmiy murojaat bilan boshlanadi.	Maqsad va taklif yoziladi.	Maqsad-muddao haqida batafsil ma’lumot beriladi.	Nima kutayotgani va kutilmasi yoziladi.	Hurmatni ifodalab xat yakunlanadi.
Misol	Hurmatli professor// Hurmatli mahalla fuqarolar yig‘ini raisi	taklif kiritish uchun// ma’lumot olish uchun	Mahallamiz obodligi, ko‘cha-ko‘ylarimiz ozodaligi uchun o‘z hissamni qo‘shmoqchiman va boshqalarni ham bu ishga jalb qilmoqchiman.	ma’lum qilishingizni kutaman// javobingiz uchun tashakkur// nazoratingizga olsangiz, mamnun bo‘laman	Hurmat bilan // Ehtirom ila...

2.31. **Mahalla raisi nomiga “Qo‘shnilar kuni”ni o‘tkazish yuzasidan rasmiy taklif xati yozing va sinfda o‘qib bering.**

2.32. **Qo‘shnichilik haqidagi maqollar mazmunini sharhlang.**

1. Qo‘shnisi yaxshi qarimas.
2. Qo‘shni keldi – ko‘mak keldi, Et keldi – suyak keldi.
3. Yon qo‘shni – jon qo‘shni.
4. Yaxshi qo‘shni – ota-ona, Yomon qo‘shni – boshga balo.
5. Qo‘shni qo‘shnidan erta turishni o‘rganar.
6. Qo‘shni – qo‘shnining bozori.
7. Qo‘shnida pishar, Bizga ham tushar.
8. Qo‘shning ko‘r bo‘lsa, ko‘zingni qisib qara.
9. Gilam sotsang, qo‘shningga sot, bir chetida o‘zing o‘tirasan.
10. Uzoqdagi qarindoshdan yoningdagi qo‘shni afzal.

TIL SANDIG‘I

ANDISHANING OTI – QO‘RQOQ

Ba’zi odamlar sermulohaza bo‘lib, birov nafsoniyatiga tegadigan gap aytsa, unga munosib javob qaytarishning, qattiq-qurum gapirishning o‘rni kelgan bo‘lsa ham, uzoqni, orqa-o‘ngini o‘ylab indamaydi, o‘zini tiyadi yoki muloyimlik bilan javob qaytaradi, andisha qiladi. Ba’zi odamlar esa buning farqiga bormay, mendan qo‘rqib indamay turibdi deb o‘ylab, haddidan oshadi. Ana shunday hollarda “Andishaning oti qo‘rqoq bo‘pti-da!” deb, kinoya tarzida shu maqolni ishlatadilar.

“Hikmatnoma” kitobidan

2.33. **“Qo‘shnilar kuni”ni o‘tkazish bo‘yicha ssenariy tayyorlang. Bunda tadbir qanday tartibda va qachon o‘tkazilishi, kimlar ishtirok etishi hamda vazifalar taqsimoti kabi masalalarga alohida e’tibor qarating.**

III BOB

TIL TILSIMI



Asror bobo

I

Ultarmalik Asrorqul Haydar otaning qadrdon oshnasi bo‘ladi…

Bu odam o‘zi o‘ttiz beshlarga borib qolgan bo‘lsa ham, bola-chaqa qilolmagan, otasidan meros qolgan tegirmonini aylantirib, **kunini o‘tkazib** yurgan ekan…

Tegirmon – donni yanchib, un qiladigan moslama. G‘ildiraksimon ulkan toshni suv harakatlantirgan va don yanchilgan.

Qishlog‘idan **ko‘ngil uzganidan** keyin Haydar ota bosh bo‘lib bir beva xotinga uylantirib qo‘ydi. Asrorqul farzand ko‘rdi. Usta Mo‘min, rahmatli, **xat bilar edi**, kitob ko‘rib, bolaning otini Yodgor qo‘ydi. “O‘z yurtingda qochoq bo‘lib yurgan kunlaringdan yodgor bo‘lsin”, dedi. Shunaqa qilib, Asrorqul bir necha yil shu yerda turib, yurt tinchigandan keyin bola-chaqasi bilan Ultarmaga ko‘chib ketdi. Tegirmoni buzilib ketgan ekan, tuzatdi.

II



Bu yil to‘qqizinchi sanada mana shu Asrorquldan Haydar otaga xat keldi. Xat mujmalroq: Asrorqul undan xafami, nima balo... Bir gap bor! Haydar ota har nima bo‘lsa ham, borib ko‘rib kelay, deb yo‘lga chiqdi…

Haydar ota Yodgorboyni so‘rab:

– Xat kelib turibdimi? – degan edi, kampir o‘zi to‘lib turgan ekan, **ko‘z yoshi qildi**:

– O‘rtog‘ingiz boshimga bitgan bir balo bo‘ldi. Yodgordan kelgan xatlarni menga bermaydi…

Shu payt Asrorqulning o‘zi kelib qoldi. Haydar ota uni dabdurustdan tanimadi. Uning tetikligi, shaxdam qadam tashlashi yosh bolaga chiqqan soqolday kishining kulgisini qistatar edi. Lekin xo‘p ozibdi, qorayib ketibdi, shuni o‘zi ham bilar ekan, shekilli, oldini olib:

– Ozibmanmi, qorayibmanmi? – dedi.

– Yo‘q, juda joyida... Mayiz bo‘libsan... Xo‘sh, Yodgorboydan xat kelib turibdimi?

– Har xatida seni so‘raydi...

III

... Haydar ota hol so‘rash uchun endi **og‘iz rostlagan edi**, kampirga **ko‘zi tushib qoldi**. Kampir o‘choqdan cho‘g‘ olayotgan Abrorning panasiga o‘tib, “Ayting, xatni ko‘rsatsin”, deb ishora qildi. Haydar ota unga sekin bosh irg‘ab:

– Ha, ishqilib, **boshi toshdan bo‘lsin.** Qani, bironta xatini o‘qiylik, bo‘lmasa, – dedi.

– Do‘konda, hamma xati samovarda.

Kampir juda to‘lib qolgan ekan, toqat qilolmadi:

– Birontasini ko‘rsatsangiz, o‘lasizmi? Hammaning **yuragini qon qildingiz-ku**?

– Yaxshi xat yozsa ham yig‘laysan, yomon xat yozsa ham yig‘laysan, nima qilaman ko‘rsatib?

– Yig‘lasam, ko‘z yoshini sizdan qarz olmayman.

Kampir yig‘lab yuborgan edi, Asrorqulning **achchig‘i keldi.**

Haydar ota sal bosarmikanman deb:

– Qo‘y endi, ozor berma, **ko‘ngli yarimta**, – degan edi, Asrorqul qayta avj oldi:

– Ko‘ngli yarimta bo‘lsa, miyasi ham yarimtami? Uyingni o‘g‘ri bossa, o‘g‘lingni sandiqqa solib qo‘yib, qo‘shnini chaqirmaysan-ku! Hammaning ham farzandi o‘ziga aziz.

Samovar – bu o‘rinda “choyxona” ma’nosida.



– Aziz ekanligini bilsangiz bo‘pti-da! Bolamni sog‘inaman, sog‘inganimdan keyin yig‘layman... – dedi kampir kuyinib.

– Mayli, yig‘la, yig‘i gohida xafalikni yozadi, lekin hamma qatori yig‘lagin-da.

– Hamma qanaqa yig‘lar ekan?

– Hamma qo‘li bo‘shaganda yig‘laydi, sen yig‘idan bo‘shamaysan. Na o‘zingga qaraysan, na uyga...

IV

Asrorqul uzoqdagi ko‘m-ko‘k adirlarga soya solib turgan bulut parchalariga qarab jim qoldi.

– Qanchadan beri xat kelmaydi? – dedi Haydar ota.

– Anchadan beri.

Haydar ota **yer ostidan** uning yuziga qaradi, nazarida Asrorqul yana ham qoraygan va hozir vujudidan tutun chiqib ketayotganday ko‘rindi.

– Kelib qolar, do‘stim, har xil xayollarga borma.

Asrorqulning ko‘z atrofi qizarib, yuzida soxta tabassum aks etdi.

– Nima xayolga borar edim? Yodgorboy ovga borgani yo‘q, urushga borgan!.. Kampirga bildirmasang, rostini aytaman. Kampirga aytma, ko‘tarolmaydi... Qoraxat kelgan!

Haydar ota kampirning eshitganligini aytishini ham bilmay, aytmasligini ham bilmay, bir lahza o‘ylanib qolgan edi, Asrorqul:

– Ha, eshitganmiding? – dedi.

Haydar ota birining bilganligini ikkinchisidan yashirishga qaror berdi, chunki birining qayg‘usi ikkinchisining qayg‘usiga qayg‘u qo‘shuviga **ko‘zi yetib qoldi.**

– Qishloqda eshitgan edim, lekin ishonmagandim. Shu aniqmi?

Asrorqul javob bermay qoshini siladi…

Abdulla QAHHOR
(qisqartirib olingan)

3.1. Matn asosida quyidagi so‘zlarning ma’nosini aniqlang va yozing.

MATN QISMI	SO‘Z	MA’NOSI
I qism	rahmatli	***
	yodgor bo‘lsin	***
II qism	mujmalroq	***
	dabdurustdan	***
	shaxdam	***
	xo‘p	***
III qism	avj oldi	***
	kuyinib	***
	yozadi	***
IV qism	nazarida	***
	vujud	***

3.2. Quyidagi so‘z va birikmalar matnning qaysi qismi mazmuniga mos ekanini aniqlang.

Namuna *“tortishuv”* – III qism

yo‘qlov	oila qurish	yolg‘on
yorilish	musofirlik	nolish

3.3. Hikoya asosida ma’lumotlarning to‘g‘ri, noto‘g‘ri yoki matnda berilmaganini aniqlang.

1. Tegirmonchilik – Asrorqul uchun otakasb.

To‘g‘ri | Noto‘g‘ri | Berilmagan

2. Yodgor Ultarmada dunyoga keldi.

To‘g‘ri | Noto‘g‘ri | Berilmagan

3. Yodgor urushga jo‘natilganida endi 20 yoshni qarshilagan edi.

To‘g‘ri | Noto‘g‘ri | Berilmagan

4. Haydar ota va Asrorqulning yoshlari orasida katta farq bor.

To‘g‘ri | Noto‘g‘ri | Berilmagan

5. Haydar ota Yodgorning halok bo‘lganini Asrorqul aytguniga qadar ham bilar edi.

To‘g‘ri | Noto‘g‘ri | Berilmagan

3.4. Lug‘at yordamida quyidagi so‘zlarning ma’nosini aniqlang va “Asror bobo” hikoyasida qo‘llangan sinonimi bilan birga yozing.

Namuna *daf’atan – dabdurustdan*

So‘zlar: yesir, ma’yus, noma, daf’atan, chog‘i, bib-binoyi, obidiyda qilmoq, andak, ahyon-ahyonda, tegra, shikor, savdo.

1. Asrorqul asli qayerlik edi?
2. Nima uchun Asrorqulning farzandiga Yodgor deb ism qo‘yishdi?
3. Asrorqulning kampiri nega ko‘p yig‘laydi?
4. Asrorqulning Haydar otaga aytgan qaysi gaplari yolg‘on edi? U nega yolg‘on gapirdi?

Muallif maqsadi matnni yaratishdan, unda so‘z va iboralarni qo‘llashdan nima ko‘zlanganidir. Matndagi biror so‘z yoki iborani muallif atayin – yo ta’sir kuchini oshirish, yo tasvirni boyitish, yo o‘quvchida biror hisni (hayrat, qo‘rquv, quvonch…) uyg‘otish kabi turli maqsadlarda qo‘llaydi.

3.5. Hikoyadan olingan quyidagi parchalarda ajratib ko‘rsatilgan birliklar qanday maqsad uchun tanlangani haqida fikrlashing.

1. – Ozibmanmi, qorayibmanmi? – dedi.
– Yo‘q, juda joyida... **Mayiz bo‘libsan**...

2. – Do‘konda, hamma xati samovarda.
Kampir juda to‘lib qolgan ekan, toqat qilolmadi:
– Birontasini ko‘rsatsangiz, **o‘lasizmi**?

3. Uning tetikligi, shaxdam qadam tashlashi **yosh bolaga chiqqan soqolday** kishining kulgisini qistatar edi. Lekin xo‘p ozibdi, qorayib ketibdi…

4. Haydar ota yer ostidan uning yuziga qaradi, nazarida Asrorqul yana ham qoraygan va hozir **vujudidan tutun chiqib ketayotganday** ko‘rindi.

5. – Yaxshi xat yozsa ham yig‘laysan, yomon xat yozsa ham yig‘laysan, nima qilaman ko‘rsatib?
– Yig‘lasam, **ko‘z yoshini sizdan qarz olmayman.**

3.6. Quyidagi jumlalarni muallif maqsadidan kelib chiqqan holda davom ettiring.

1. “Asror” so‘zining ma’nosi – “sirlar”. Sir-asror so‘zi tarkibida ham qo‘llanadi. Muallif bosh qahramonni bejiz Asror deb nomlamagan ko‘rinadi. Zero…

2 Asrorqulning kichik o‘g‘li – Abror. Muallif Abror ismini tanlash orqali voqealarni yanada hayotiy (haqiqiy hayotimizga yaqin) tasvirlashga erishmoqchi bo‘lgan. Bilamizki…

1. Frazeologik ibora nima?

2. Nima uchun “kekkaygan” so‘zi o‘rnida “burni ko‘tarilgan”; “yutdi” o‘rnida “qo‘li baland keldi”; “ortiq chidolmaydi” o‘rnida “sabr kosasi to‘ldi” iboralarini qo‘llaymiz? Bu so‘z va iboralar o‘rtasida qanday farq bor deb o‘ylaysiz?

3.7. “Asror bobo” hikoyasida ajratib ko‘rsatilgan iboralarga quyidagi ma’nolardan mosini topib, juftlab yozing. Diqqat, uchtasi ortiqcha.

ruhan ezilgan	tirikchilik qilmoq	xunob qilmoq
keksa	mashaqqatlarga bardoshli	savodli
yig‘lamoq	yashirincha, sezdirmay	asta, sekingina
ishonmoq	ajralishga qaror qilmoq	jahli chiqmoq
ko‘rib qolmoq	gapirishga chog‘lanmoq	qo‘rqitmoq

3.8. *yulduz_reelsmaker* **ijodiga mansub rasmlarda ifodalangan iboralarni aniqlab, ularga sinonimlar toping.**





3.9. “Ko‘z” so‘zi ishtirokidagi iboralarning ma’nosini lug‘at yordamida aniqlab yozing.

1) ko‘zi tor; 2) ko‘rgani ko‘zi yo‘q; 3) ko‘zining paxtasi chiqdi; 4) ko‘zi ilindi; 5) ko‘zi to‘rt bo‘lib; 6) ko‘zi qiymadi; 7) ko‘zi yetmadi; 8) ko‘ziga issiq ko‘rindi; 9) ko‘zini chirt yumib; 10) ko‘ziga qon to‘lgan; 11) ko‘z ochib yumguncha; 12) ko‘zini yog‘ bosgan; 13) ko‘z yumdi.

1. Sinonimlik (ma’nodoshlik) qanday hodisa?
2. Omonimlar (shakldoshlar) deganda qanday birliklarni tushunasiz?
3. Iboralarda ham sinonimlik va omonimlik hodisasi uchraydimi?

3.10. O‘ng va chap tomondagi shakllardan o‘zaro sinonim iboralarni topib, moslashtiring.
Namuna: *1 – F*

1.	hash-pash deguncha
2.	yuragiga g‘ulg‘ula tushdi
3.	dimog‘ida osh pishadi
4.	og‘zining tanobi qochdi
5.	kapalagi uchib ketdi
6.	podadan oldin chang chiqardi
7.	quyon bo‘ldi
8.	boshdan oyoq

A)	burni ko‘tarilgan
B)	boshi osmonga yetdi
D)	to‘ydan oldin nog‘ora chaldi
E)	ipidan ignasigacha
F)	ko‘z ochib yumguncha
G)	esi chiqib ketdi
H)	paytavasiga qurt tushdi
I)	juftakni rostladi

3.11. Tarkibidagi so‘zlari bir xil harfdan boshlanuvchi iboralarni aniqlang. Topishda rasm, misollar, kataklar va yozib qo‘yilgan harflardan foydalaning.



Azizbek – … yigitlardan: bunday haqoratlarga ko‘z yumib ketmaydi.

B						

B							

B		



Rahmingiz ham kelmaydi bechoraga. Kun bo‘yi ishladi, biroq …, shunday bo‘lsa ham, qorni ochligidan noligani yo‘q.

T

T



Akasi, … turavermay, mundoq yordam bersangiz-chi.

Q

Q

3.12. Nuqtalar o‘rniga omonim iboralarni qo‘yib yozing. Mazmunini izohlang.

Namuna

BOSH KO‘TARIB

1. Yangi soliqdan norozi bo‘lgan dehqonlar … sulton saroyiga bostirib kirishdi.
2. Ortingdan gap eshitaverib, ko‘chada … yurolmay qoldim.

I	1. Jigari emasmi, ba’zi erkaliklariga ... 2. Tog‘am bir yil dard bilan kurashib o‘z uyida ...	***
II	1. Xolasinikiga borib, zo‘r janjalning ... 2. Sobirjon bergan va’dasining ...	***
III	1. Senga ishondim. Menga ..., o‘zingdan ko‘r. 2. Qani edi, bizga ham ...-yu, fikrimizni bildirsak.	***

TIL SANDIG‘I

TIYIN VA TANGA

O‘zbek tilidagi “tiyin” so‘zi *olmaxon* degan ma’noni anglatishini bilasizmi? Uning mo‘ynasi qalin va qimmat bo‘lgani bois turli ayirboshlash, savdo-sotiqda pul-qiymat sifatida ishlatilgan.

Hozirgi o‘zbek tilidagi “tanga” so‘zi ham qadimgi turkiy tildagi “tamg‘a” so‘zidan olingan. O‘tmishda har bir hukmdor mis, kumush, oltin kabi metallarga o‘z tamg‘asini bosib, muomalaga chiqargan va ularni “tamg‘a” deb ataganlar.

Gulxan.uz

3.13. “Eski” ma’nosi atrofida birlashuvchi iboralarning kelib chiqishi haqida ma’lumot to‘plang. Bu ma’lumotlar asosida iboralarni o‘sish tartibida, ya’ni olis o‘tmishdan eng yaqin davrga tomon tartiblab chiqing.



1. Maqol nima? Nega uni “otalar so‘zi” ham deymiz?
2. Maqolning oddiy nasihat, maslahatlardan qanday farqi bor?

“Ma’nolar maxzani” kitobi asosida tayyorlangan maqollar izohini o‘qing.

I

BOZOR KO‘RGAN ECHKIDAN QO‘RQ

Echki boshqa chorva mollariga qaraganda ancha ayyor bo‘ladi. Mabodo u bozorga olib borilsa-yu, sotilmay qolsa, battar ayyorroq bo‘lib qaytadi. Chunki u shaharga borgan, bozorni, g‘ala-g‘ovurni, odatdagidan boshqa narsalarni ko‘rgan. Mazkur maqol ayyor odamlar ustidan kulinganda yoxud ayyor odamlardan saqlanish, ehtiyot bo‘lish zarurligi uqtirilganda aytiladi.

II

OYGA QARAB ADASHSANG, OTINGNI OLTIN QOZIQQA BOG‘LA

Bu maqol bilan xalq tunda yo‘lovchilarga adashmaslik yo‘lini o‘rgatgan. O‘tmishda kompas bo‘lmagan. Uzoq safarga chiqqan yo‘lovchilarga Qutb yulduzi yo‘lchi yulduz vazifasini o‘tagan. U Yerning shimoliy qutbiga juda yaqin bo‘lib, doim shimolni ko‘rsatib turadi. Shuning uchun ham u eng yaxshi yo‘lko‘rsatkich vazifasini o‘taydi. Qutb yulduzi Yerning xayoliy o‘qi o‘tadigan nuqtaga yaqin turgani uchun kishi nazarida xuddi qoqqan qoziqdek qimirlamay turadi. Shuning uchun ota-bobolarimiz uni “Oltin qoziq”, “Temir qoziq” deb ataganlar. Oy esa bir joyda barqaror turmagani bois kishini adashtiradi. Xalqimiz mazkur maqol bilan “Oyga qarab yurib adashib qolsang, otingni Oltin qoziqqa qaratib (bog‘lab) yur – adashmaysan”, demoqchi bo‘lgan.

III

YO OTING CHIQSIN, YO O‘TING

Bu maqoldagi o‘t – kishi organizmidagi o‘t, ya’ni jigardan chiqadigan va o‘t qopida to‘planadigan achchiq suyuqlik. Uni “o‘taka”, “zahra” ham deydilar. Ana shu o‘t yorilsa, kishi halok bo‘lishi mumkin. “O‘ti yorildi”, “o‘takasi yorildi”; “o‘ti uchdi”, “zahrasi o‘chdi” iboralari “o‘lgudek qo‘rqib ketdi” degan ma’nodadir. “Yo changing chiqsin, yo dong‘ing chiqsin” deb ham qo‘llanadigan mazkur maqol bilan: “Bir ishga kirishdingmi, unga mahkam yopish, g‘ayrat, jasorat, fidoyilik ko‘rsat va u ishni oxiriga yetkaz, toki odamlar senga qoyil qolishsin”, deyilmoqchi.

IV

ESHAKNI YASHIRSANG, HANGRASHI OSHKOR QILADI

Bu maqol latifa bilan bog‘liq. Bir odam Afandidan “Eshagingizni peshingacha berib turing, biroz yukim bor edi, tashib olaman”, deb iltimos qilib kelibdi. “Eshagim yo‘q, sizga o‘xshab so‘rab kelgan bir odamga berib yuborgandim”, – debdi Afandi. Shu payt ichkaridan eshak hangrab yuboribdi. “Iye, eshagingiz bor ekan-ku, Afandim”, – debdi haligi odam. “Nima, oppoq soqolim bilan menga ishonmay eshakka ishonasanmi?!” – deb jahl qilgan ekan Afandi. Varianti: “Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi”.

V

BO‘RINI YO‘QLASANG, QULOG‘I KO‘RINADI

Bu – ajdodlarimizning irim-sirimlari bilan bog‘liq maqollardan biri. O‘tmishda ko‘chmanchi chorvadorlar qo‘ylarga vaqti-vaqti bilan hujum qilib turadigan bo‘rining nomini tilga olishdan hazar qilganlar (“Bo‘ri” so‘zi o‘rniga “Jondor”, “Ovchi” so‘zlarini ishlatishgan). Go‘yo “Bo‘ri” so‘zini aytishsa, u “yo‘qlab” kelar emish. Maqolning majoziy ma’nosi: “Yomon niyatni tilingga olma, ko‘nglingga ham keltirma, zero u o‘zingga urishi mumkin”. Shuningdek, birovni eslab turganda bexos o‘sha odam kirib kelganda ham hazil-mutoyiba yo‘sinida shu maqolni aytadilar.

3.14. Matndan foydalanib quyidagi hukmlarni asoslang.

01	02	03	04	05
Ayrim maqollar o‘z variant(lar)iga ham ega.	Maqollar doim ham maslahat yoki nasihatni anglatavermaydi. Ular biror vaziyatni ta’sirli tasvirlash vazifasini ham bajarishi mumkin.	Maqollarda uzoq yillik kuzatish va tajribalarning xulosasi aks etishi mumkin.	Maqollar to‘g‘ridan to‘g‘ri (o‘z) yoki majoziy (ko‘chma) ma’noga ega bo‘lishi mumkin.	Maqollar nafaqat kuzatuvlar, balki xalq og‘zaki ijodining boshqa namunalari asosida ham kelib chiqishi mumkin.

Maqollar hayotiy tajriba, kuzatuv natijalariga asoslangan va xalq donishmandligi mahsuli o‘laroq paydo bo‘lgan hikmatli so‘zlardir.

Maqol va **frazeologik iboran**i farqlash lozim. *“Dunyoni suv bossa, o‘rdakka ne g‘am”* – maqol; *“dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydi”* – ibora. Ibora bitta so‘roqqa javob bo‘lishi (*“dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydi”* – qanday? – *beg‘am, beparvo*), ibratli emasligi bilan maqoldan farq qiladi.

3.15. Barqaror birliklarning maqol yoki frazeologik ibora ekanini aniqlang.

1. Qildan qiyiq axtardi.
2. Yog‘ tushsa yalagudek.
3. Boshga bitgan balo bo‘ldi.
4. Belida belbog‘i bor.
5. Qizi borning qadri bor.
6. Yoshi bir joyga borib qoldi.
7. Yosh kelsa – ishga.
8. Ikki o‘n besh – bir o‘ttiz.
9. Sichqonning ini ming tanga bo‘ldi.
10. Devorning ham qulog‘i bor.

3.16. Maqollarning mazmunini avval o‘ylab ko‘ring, keyin manbalar orqali tekshiring.

- Oftob kirmagan uyga tabib kirar.
- Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi.
- Arg‘amchiga qil quvvat.
- Adashgan tosh terar.
- Ilm qishda eriydi, yozda muzlaydi.

1. Boshqa xalqlar maqollaridan ham bilasizmi? Misol keltiring.
2. O‘zbek va boshqa xalq maqollarida qanday o‘xshashlik va farq (o‘ziga xoslik) seziladi?

3.17. Bir mazmundagi nemis va o‘zbek xalq maqollarini qiyoslang. Ularda millatning o‘ziga xosligi, turmush tarzi qanday aks etganini tushuntiring.

NEMIS MAQOLLARI	O‘ZBEK MAQOLLARI
Cho‘kkan kuchuk suvdan qo‘rqar.	Og‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi.
Ko‘zlar o‘ziga, quloqlar boshqalarga ishonadi.	Eshitganingga emas, ko‘rganingga ishon.

Mening uyim – mening qal'am.	O‘z uying – o‘lan to‘shaging.
Avval o‘zingni tuzat, keyin meni.	Avval o‘zingga boq, keyin nog‘ora qoq.
Sog‘ odam – boy odam.	Sog‘lik – tuman boylik.
Oqsoq bilan yursang, oqsashni o‘rganasan.	Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar.
Maymun maymunligicha qoladi.	Qazisan, qartasan – asl zotingga tortasan.
Maymun qirol bo‘lsa ham, baribir maymundir.	Oq it, qora it – baribir it.
Osmondagi turnadan ko‘ldagi chittak yaxshi.	Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o‘pka yaxshi.
Kimningdir o‘limi – boshqa birovga non.	Otning o‘limi – itning bayrami.

3.18. Bo‘sh o‘rinlarga mos harflarni qo‘yib, maqollarni ko‘chiring.

1. Bo‘zchi belbo ☐☐ a yolchimas.
2. Kekkayganga kekkaygin boshing ko‘kka yet ☐ uncha.
3. Kasal kasal emas, kasal bo ☐☐ an – kasal.
4. Berdisini ayt ☐ uncha urib o‘ldirma.
5. Kut ☐ anga kun uzoq.
6. Oldingdan o ☐☐ an suvning qadri yo‘q.

1. ***G*** *harfi bilan boshlanuvchi qo‘shimchalar (-ga, -gan, -gach) qanday so‘zlarga qo‘shilganda* ***g*** *harfi* ***k*** *tarzida yoziladi?*
2. ***G‘*** *harfi bilan tugagan so‘zlarga -gan, -ga, -gach qo‘shimchalari qo‘shilsa, yozuvda o‘zgarish ro‘y beradimi?*

3.19. Maqollar tarkibidagi yasama so‘zlarni sodda va qo‘shma yasamalarga ajratib yozing.

SODDA YASAMALAR	*******
QO‘SHMA YASAMALAR	*******

1. *Kuchi yo‘q kurak sindirar.*
2. *Ot tepkisini ot ko‘taradi.*
3. *Ko‘r bo‘lsang bo‘l, ko‘rnamak bo‘lma.*
4. *Ochko‘z lochin tirnog‘idan ayrilar.*
5. *Nohaq qon yerda yotmas.*
6. *Vatangado bo‘lguncha kafangado bo‘l.*

3.20. Yapon maqollariga mazmunan mos keluvchi o‘zbek maqollarini topib yozing.

YAPON MAQOLLARI	O‘ZBEK MAQOLLARI
Yirtiq yamoqqa kulibdi.	***
Ertaga nima bo‘lishini hech kim bilmaydi.	***
Mehribonlik bor joyda yovuzlik ham bo‘ladi.	***
Egilgan tolni shamol sindirmaydi.	***
Sartaroshning sochi to‘zg‘igan.	***
Ota qanday bo‘lsa, bola ham shunday bo‘ladi.	***
Olgan hadyangdan ayb topma.	***
Uzilgan gulni shoxga qaytarib bo‘lmaydi.	***
Ilon chaqqan chirigan arqondan ham qo‘rqadi.	***
Hayotda yetti omad va yetti omadsizlik bo‘ladi.	***

1. *Epigraf nima?*
2. *Maqollar epigraf sifatida tanlangan qanday asarlarni bilasiz?*

Abdulla Qahhor o‘z asarlarida maqollardan ko‘p va samarali foydalangan. Uning ijodida maqolni hatto asar nomi (“Ikki yorti – bir butun”) darajasiga olib chiqish holati ham kuzatiladi. Biroq hikoyalarida epigraf uchun aynan maqollarni tanlashi – alohida mavzu.

BEMOR

(O‘tmishdan)


Osmon yiroq, yer qattiq.
(maqol)

Sotiboldining xotini og‘rib qoldi. Sotiboldi kasalni o‘qitdi - bo‘lmadi, tabibga ko‘rsatdi. Tabib qon oldi, betobning ko‘zi tinib, boshi aylanadigan bo‘lib qoldi, baxshi o‘qidi. Allaqanday bir xotin kelib, tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so‘yib qonladi. Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo‘ladi. Bunday vaqtlarda yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to‘g‘risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko‘milgan baland va oq imorat: shisha qabzali kulrang eshigida qo‘ng‘iroq tugmasi bor. Chigit po‘choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo‘jayin Abdug‘aniboy omborida qulab ketgan qoplar ostida qolib o‘ladigan bo‘lganida bu doktorxonaga bormay Simga ketgan edi.

Adib “Bemor” hikoyasida “Osmon yiroq, yer qattiq” maqolini epigraf sifatida qo‘llaydi. Xalq tilida uchrovchi “Osmon yiroq, yer qattiq, o‘lay desam, jon totliq”, “Ko‘kka boqsam, ko‘k yiroq, yerga boqsam, yer qattiq” maqollarining qisqa shakli qisqa hikoya uchun uzukka ko‘z qo‘ygandek bo‘lgan. Bu maqol noilojlikni anglatadi. Hikoyani o‘qir ekanmiz, qo‘li qisqa Sotiboldining chorasiz holatiga guvoh bo‘lamiz.

“O‘g‘ri” hikoyasi epigrafi uchun tanlangan maqol – “Otning o‘limi – itning bayrami”. Beixtiyor “Shum bola” qissasidagi yolg‘on hikoya yodga tushadi: go‘yo Sariboyning oti o‘lgan-u, uning go‘shtidan tozi it yegan. Qobil boboning boshiga tushgan tashvishni aritish, unga yordam berish o‘rniga amaldorlar beayov talashadi. Xuddi itdek.



O‘G‘RI

(O‘tmishdan)

Otning o‘limi – itning bayrami.
(maqol)

Kampir tong qorong‘isida xamir qilgani turib ho‘kizidan xabar oldi. O!.. Ho‘kiz yo‘q, og‘il ko‘cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. Bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish—uy, ho‘kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak bo‘ladi.

Odamlar dod ovoziga o‘rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to‘plandi. Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og‘il eshigi yonida turib dag‘-dag‘ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko‘zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko‘rmaydi. Xotinlar o‘g‘rini qarg‘aydi, it huradi, tovuqlar qaqag‘laydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho‘kiz sig‘ishiga aql ishonmasligi to‘g‘risida kishilarga gap ma’qullaydi.

Qobil boboning qo‘shnisi - burunsiz ellikboshi kirdi. U og‘ilga kirib teshikni, ho‘kiz

Maqollardan epigraf sifatida foydalanish amaliyoti adabiyotimizda oldinroq ham uchrasa-da (masalan, “Kecha va kunduz” romaniga “Hamal keldi – amal keldi” maqoli epigraf sifatida tanlangan), biroq uni aynan Abdulla Qahhor haddi a’losiga yetkazdi, nazarimizda. Hikoya va epigrafning bu qadar mos tushganini ko‘rib, o‘ylab qolasan kishi: ehtimol, Abdulla Qahhor epigraf tanlamagandir, asarning o‘zini maqol mazmunidan ilhomlanib yaratgandir. Albatta, bu – shunchaki o‘y. Biz hayratdan u yog‘iga o‘ta olmaymiz.

Mansur SIDDIQOV

3.21. Test topshiriqlarini bajaring.

1. Matn nima haqida?

A) *Abdulla Qahhorning o‘z asarlarida maqollardan foydalanish mahorati*

B) *“Bemor” va “O‘g‘ri” hikoyalarining bosh maqsadi*

D) *adibning hikoyalar uchun epigraf tanlashda maqollardan mohirona foydalangani*

E) *“Bemor” va “O‘g‘ri” hikoyalarida qo‘llangan maqollarning o‘ziga xosligi*

2. Noto‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.

A) *Epigraf oxiriga, agar undov, so‘roq yoki ko‘pnuqta talab etilmasa, nuqta qo‘yiladi.*

B) *Epigraf sarlavha ostiga, o‘ng yoki chap burchakka yoziladi.*

D) *Epigraf manbasidan so‘ng nuqta qo‘yilmaydi.*

E) *Epigraf faqat maqol bo‘lishi shart emas.*

Kirish so‘zlar gapga muallifning *tasdiq, inkor, quvonch, ishonch, gumon* kabi qator munosabatlarini qo‘shadi.

Xayriyat,	**OYBEK UYIGA KETDI.**	**quvonch**
Menimcha,		**taxmin**
Shubhasiz,		**ishonch**

3.22. **Chap tomondagi kirish so‘zlarni o‘ng tomondagi ma’nolar bilan moslang.**

Namuna ***1 – E***

1.	Xullas, endi vaqtincha ko‘rishmay turamiz.
2.	Azizbek bugun kelmaydi, shekilli.
3.	Biz buni atayin uyushtirmadik, albatta.
4.	Hammani, jumladan, Azizovni ham chaqirishadi.
5.	Shukrki, o‘yin bizning maydonda bo‘ladi.
6.	To‘g‘ri, bizda ham ayb bor.
7.	Aksincha, janjalni siz boshladingiz.
8.	Avvalo, tashrifingiz uchun tashakkur.

A)	tartiblash
B)	ishonch
D)	inkor
E)	xulosalash
F)	dalillash
G)	taxmin
H)	tasdiq
I)	quvonch

3.23. **Quyidagi kirish so‘zlar ishtirokida bittadan gap tuzib yozing.**

chog‘i **misol uchun** **demak** **shunday qilib**

darvoqe **xullas** **balki** **qolaversa**

Gaplar juftligidagi mazmuniy farqlarni tushuntiring.
Oftobda qorayib ketibsiz. // Oftobda pishibsiz.
Opam erga tegyapti. // Opam turmushga chiqyapti.

ODOB BILAN SO‘ZLANG!

I

Inson jamiyatda yashar ekan, umum qabul qilgan qoidalarga bo‘ysunishi kerak bo‘ladi. Nafaqat kiyinishda, yurish-turishda, balki so‘zlashda ham. Biror so‘zni omma oldida aytish jamiyatda odobsizlik deb, kimgadir hurmatsizlikni ifodalaydi deb yoki noqulaylikka sabab bo‘ladi deb qabul qilingan bo‘lsa, demak, uni qo‘llashdan tiyilish kerak. Bu kabi (madaniyat doirasidan tashqaridagi) so‘zlar *tabu*, ular o‘rnida ishlatish mumkin bo‘lgan, “yumshoq”, “qog‘ozga o‘ralgan” birliklar esa *evfemizmlar* deyiladi.

II

“*Iltimos, qarilarga joy bering*”, “*Shifokor qabuliga kampirlar navbatsiz kirishi mumkin*”. Ushbu jumlalarga diqqat qiling. Bir qarashda hammasi joyidadek. Biroq unday emas. Gaplardagi “qarilar”, “kampirlar” so‘zlari yoshi katta insonlarga yoqmaydi, ular o‘zlariga nisbatan hurmatsizlikni tuyishadi. “*Yoshi ulug‘larga joy bering*”, “*Yoshi katta ayollar navbatsiz kirishi mumkin*” deyish esa madaniyatdan.

III

Muloqotda *kar*, *ko‘r*, *jinni* kabi so‘zlar o‘rniga *qulog‘i og‘ir*, *yomon eshitadi*; *ko‘zi ojiz*, *ko‘zi ko‘rmaydi*; *aqli zaif*, *ruhiy xasta* kabi evfemizmlarni qo‘llash qo‘pollik, behurmatlikning oldini oladi.



IV

Tasavvur qiling, mashhur insonlardan birining vafoti OAV orqali e’lon qilinyapti: “*Bugun o‘z ijodi bilan minglab kishilarning qalbidan joy olgan Falonchi Pistonchiyev o‘ldi*”. Bu yerda qo‘llangan “*o‘ldi*” so‘zida qo‘pollik va marhumga nisbatan hurmatsizlik bordek. Birgina shu sovuq holatni odob bilan ifodalash uchun tilimizda 350 dan ortiq evfemizm mavjud: *vafot etdi, berib qo‘ydik, omonatini topshirdi, bandalik qildi, uzildi, o‘tib qoldi, ko‘z yumdi, rihlat qildi, ayrilib qoldik, ko‘pga qo‘shildi, rahmatli bo‘ldi, haqqa qovushdi*… OAVda esa ko‘proq “vafot etdi” iborasi qo‘llanadi.

V

Evfemizmlarning bir turi borki, ular madaniyatni emas, balki ilmsizlikni anglatadi. Yaqin o‘tmishda ham (hatto o‘tgan asrning 90-yillarida ham quloqqa chalinib turardi) xalqimiz tilida irim-sirimlar bilan bog‘liq evfemizmlar ko‘p edi. Kutilmagan paytda, kutilmagan joyda paydo bo‘lib qoluvchi ilon va chayonlarni o‘z nomi bilan atash norasmiy taqiqlangan edi. Go‘yo “ilon” yoki “chayon” deb qo‘ysangiz, ularni chaqirgan bo‘lar ekansiz-da, keyin sizni “siylagani” kelishar ekan. Shu bois xalqimiz “ilon” o‘rniga “sovuq”, “kulcha”, “arg‘amchi”, “uzun opa”, “oq ip”; “chayon” o‘rniga “oti yo‘q”, “eshak”, “gajak” so‘zlarini ishlatgan, bilmay ularning o‘z nomini aytib qo‘yganlar koyilgan. Hozir ham chayonni boshqa nom bilan atash uchrab tursa-da, bu odat yo‘qolib bormoqda.

VI

Til – millat tiynatining ko‘zgusi. Bugun ayrim xalqlarda uyat-andishani chetga surish, buning oqibatida evfemizmlardan voz kechish jarayoni kuzatilayotgan bo‘lsa, xayriyatki, bizning jamiyat o‘zlikni saqlash uchun harakat qilmoqda. Zero xalq – qadriyatlari bilan xalq.

Tiynat – mentalitet, millatning uzoq yillar davomida shakllangan fe’l-atvori, qoidalari.

Mansur SIDDIQOV

3.24. Quyidagilar matnning qaysi qismi mazmuniga mos ekanini aniqlang.

Namuna *A – III qism*

A) Nogironligi bo‘lgan shaxslar haqida gapirganda odobni saqlang.

B) Xalqning qadriyatlari jamiyatda sog‘lom munosabatlarni ta’minlash uchun zarur.

D) Tilimizdagi eng ko‘p evfemik birliklariga ega so‘z.

E) Shaxs jamiyatdagi tartib-qoidalarga amal qilishi kerak.

F) Yoshi kattalarga chiroyli muomala qiling.

G) Puch narsalarga ishonish oqibatida paydo bo‘lgan evfemizmlar.

3.25. Evfemizmlar qanday insonlar haqida ekanini toping va yozing.

1 yoshi bir joyga borib qolgan

2 to‘lachadan kelgan

3 og‘zi yomon

4 qo‘li egri

Kiritma gaplar — gapning asosiy mazmuniga bevosita aloqasi bo‘lmagan, lekin ma’lumotni aniqlashtiruvchi, munosabat bildiruvchi yoki qo‘shimcha izoh beruvchi gaplar. Ular odatda asosiy gap orasida keladi. Asosan qavs ichida beriladi, ba’zan vergul, tire bilan ajratiladi. Misollar:

1. *Maqollardan epigraf sifatida foydalanish amaliyoti adabiyotimizda oldinroq ham uchrasa-da (masalan, “Kecha va kunduz” romaniga “Hamal keldi – amal keldi” maqoli epigraf sifatida tanlangan), biroq uni aynan Abdulla Qahhor haddi a’losiga yetkazdi, nazarimizda.*
2. *Yaqin o‘tmishda ham (hatto o‘tgan asrning 90-yillarida ham quloqqa chalinib turardi) xalqimiz tilida irim-sirimlar bilan bog‘liq evfemizmlar ko‘p edi.*

3.26. Kiritmalarga xos to‘g‘ri javoblarni toping.

1. Kiritma gapning umumiy ma’nosiga daxldor bo‘ladi.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

2. Talaffuzda kichik to‘xtamlar bilan aytiladi.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

3. Kiritma gap oxiriga nuqta qo‘yiladi.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

4. Gap bo‘lagi bilan hokim-tobelik aloqasiga kirishadi.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

5. Kiritma gap odatda qavs ichida beriladi.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

3.27. Gaplar tarkibiga kiritma qo‘shib yozing.

Namuna *2020-yilda (o‘shanda men 10 yoshda edim) pandemiya boshlanib, ko‘chaga sababsiz chiqish taqiqlab qo‘yildi.*

1. 2020-yilda (...) pandemiya boshlanib, ko‘chaga sababsiz chiqish taqiqlab qo‘yildi.
2. “O‘tkan kunlar” (...) har bir kitobxonning javonida bo‘lishi kerak bo‘lgan kitoblardan.
3. Seshanba kuni Salim aka (...) xorijga ketayotgani haqida aytib qoldi.
4. Kelgusi haftada fizika fanidan (...) sinflararo musobaqa bo‘lar ekan.
5. Sinfimizda (...) hali ham ko‘paytirish jadvalini yoddan bilmaydiganlar bor.

1. *Nega shaxmatni “aql gimnastikasi” deymiz?*
2. *“Fasllar kelinchagi” (bahor), “qora oltin” (neft) kabi tasviriy ifodalarda qaysi so‘zlar ko‘chma ma’noda qo‘llangan?*

Jadval bilan tanishib chiqing.

FRAZEOLOGIK IBORALAR	I	TASVIRIY IFODALAR
qulog‘idan kun ko‘rinadi (ozg‘in)		qalam ahli (shoir, yozuvchilar)
qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan (yuvosh)		vatan posbonlari (harbiylar)
boshi osmonda (xursand)		ko‘zning oq-u qorasi (farzand)

FRAZEOLOGIK IBORALAR	II	TASVIRIY IFODALAR
ko‘zi to‘rt bo‘lib (intiq)		millionlar o‘yini (futbol)
yeng shimarib (astoydil)		bahor darakchisi (boychechak)

FRAZEOLOGIK IBORALAR	III	TASVIRIY IFODALAR
quloqqa tepmoq (aldamoq)		kunchiqar o‘lka (Yaponiya)
boshga ko‘tarmoq (e’zozlamoq)		gullar shahri (Namangan)
toshingni ter (yo‘qol)		ko‘hna qit’a (Yevropa)

3.28. Yuqoridagi ibora va tasviriy ifodalarga so‘roq berib chiqing, qaysi turkumdagi so‘z o‘rnida qo‘llanishini aniqlang. O‘zlashtirgan ma’lumotlaringiz asosida quyidagi jadvallarni to‘ldiring.

1-jadval

IBORA VA TASVIRIY IFODANING FARQI	
Iboralarning so‘roqlari	**Tasviriy ifodalarning so‘roqlari**
***	***
***	***

2-jadval

IBORA VA TASVIRIY IFODANING FARQI	
Iboralar qaysi turkumlar so‘rog‘iga javob bo‘ladi?	**Tasviriy ifodalar qaysi turkum so‘rog‘iga javob bo‘ladi?**
***	***
***	
***	

Tasviriy ifodalar (parafrazalar) asl nom o‘rnida qo‘llanuvchi, predmetni tasvirlab ko‘rsatuvchi birliklardir. Masalan, *ilm manbayi* kitobni, *kumush choyshab* esa qorni tasvirlab, qayta nomlab keladi.

Tasviriy ifodalar frazeologik iboralarga o‘xshasa-da, biroq ulardan so‘rog‘i, yarim ko‘chma ma’noda bo‘lishi bilan farqlanadi.

3.29. Birliklarni ibora va tasviriy ifodalarga ajratib yozing.

hayvonlar shohi | peshanasi sho‘r | qo‘li kalta

bir yoqadan bosh chiqarib | charm qo‘lqop ustasi

tarbiya o‘chog‘i | bozor ko‘rmagan | ketmoni uchdi

yetti uxlab tushiga kirmagan | mangu muzliklar o‘lkasi

3.30. **Tasviriy ifoda va so‘zlarni moslang. Diqqat! 3 ta so‘z ortiqcha.**

Namuna *1 – F*

1.	Ma’rifat markazi
2.	Mo‘yqalam sohibi
3.	Virtual olam
4.	Sehrli diyor
5.	Non shahri
6.	Gul parvonasi
7.	Kumush tola
8.	Oq chashma

A)	internet
B)	Samarqand
D)	kapalak
E)	asalari
F)	kutubxona
G)	Amerika
H)	Toshkent
I)	bo‘yoqchi
J)	sut
K)	ipak
L)	rassom

3.31. **Tasviriy ifodalar kimga nisbatan qo‘llanishini hamda bunday atalish sababini aniqlang.**

1. Qisqa hikoyalar ustasi.
2. Millatni birlikka chorlagan shoir.
3. Baxt va shodlik kuychisi.
4. G‘azal mulkining sultoni.

CHORAK DAVOMIDA O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

1. **So‘zlar juftligidan to‘g‘ri yozilganlarini aniqlang.**

mazza	maza	uchalasi	uchchalasi	grant	grand
chinakkam	chinakam	mansabparas	mansabparast	gram	gramm
talaffus	talaffuz	qant	qand	tavallud	tavalud

MUSTAHKAMLASH

2. Ma’lumotlarni boshqa fanlardan olgan bilimlaringiz asosida tekshirib, ishonchliligiga baho bering.

1. Inson tanasida 209 ta suyak bor.
2. Ko‘rshapalak qushlar sinfiga kiradi.
3. Futbol vatani Angliya hisoblanadi.
4. Boliviya davlati Yevropada joylashgan.
5. Birinchi kompas Rimda tayyorlangan.

3. Tasviriy ifodalar mazmunini yozing.

TASVIRIY IFODA	MAZMUNI	TASVIRIY IFODA	MAZMUNI
Asr vabosi	******	Mavjudotlar sultoni	******
Adolat qo‘rg‘oni	******	O‘rmon sanitari	******
Dengiz hokimi	******	Osoyishtalik posboni	******
Kishi ruhining muhandislari	******	Sahro kemasi	******
To‘rtinchi hokimiyat	******	Yerosti bo‘roni	******

4. Yashirin mazmunli gaplarga 5 ta misol yozing.

Namuna

– Bolam, a’lo baho olibsizmi?
– Sizning o‘g‘lingizman-da! (Siz ham a’lo baholarga o‘qigansiz.)

5. Gaplarni o‘qing. Ularning mantiqiy jihatdan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

T/R	USHBU JUMLA MANTIQIYMI?	HA/YO‘Q
1.	Kalamushlar tuxum qo‘yish yo‘li bilan ko‘payadi.	***
2.	O‘quvchilar kechki payt uy vazifalarini tayyorlashdi.	***
3.	Osmonda beshta o‘rdak uchib yuribdi.	***

4.	Metro poyezdi benzin tugab qolgani uchun to‘xtadi.	***
5.	Bodom erta bahorda gullaydi.	***
6.	Yashil rangli buqalar tabiatda kam uchraydi.	***

6. Qo‘pol so‘zlar o‘rnida ishlatiladigan madaniy ifodalarni yozing.

SO‘Z	EVFEMIK BIRLIK	SO‘Z	EVFEMIK BIRLIK
kar	******	kasal bo‘lmoq	******
g‘ilay	******	ochko‘z	******
jinni	******	ishdan haydalmoq	******
qiltiriq	******	omadsiz	******

Loyiha ishi

Loyiha ishi: Adabiy til shevalardan oziqlanadi

Topshiriq. Ta’til davomida shevangizda ishlatiladigan kamida 30 ta so‘zni tanlang. Ularning adabiy tildagi variantlarini toping hamda fonetik, leksik va grammatik jihatdan qiyoslab, jadvalda taqdim eting. Shuningdek, shevangizga xos, adabiy tilda muqobili bo‘lmagan so‘zlar ro‘yxatini shakllantiring.

IV BOB

FAN VA TEXNOLOGIYALAR



1. *Sun'iy idrok deganda nimani tushunasiz?*
2. *Sun'iy idrokning qanday imkoniyatlarini bilasiz?*
3. *O'zingiz sun'iy idrok xizmatlaridan foydalanib ko'rganmisiz? Qanday maqsadda?*

SUN'IY INTELLEKT

I

Sun'iy intellekt (SI) bu – kompyuterlar va maxsus dasturlar yordamida inson aqliga xos vazifalarni bajaruvchi texnologiya. **Bejizga "intellekt" deyilmaydi**, zero u bir vaqtning o'zida katta hajmdagi ma'lumotlarni o'rganib xulosa chiqarish, muloqot qilish, masalalarni hal etish va ijod qilish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi. U mashinali o'rganish, tabiiy tilni qayta ishlash va kompyuterda ko'rish kabi sohalarni o'z ichiga oladi. **Bugungi kunda SI hayotimizning deyarli barcha jabhalarida, ya'ni ta'lim, tibbiyot, transport, ijodkorlik va boshqa ko'plab sohalarda qo'llanilmoqda.**

II

Sun'iy intellekt hayotimizni qulaylashtiruvchi turli xizmatlarni taqdim etmoqda:

1. Ma'lumotlarni tahlil qilish

SI katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilib, natijalar asosida foydali xulosalar chiqaradi. Bu texnologiya ilmiy tadqiqotlar, moliyaviy operatsiyalar, iqlim o'zgarishlarini bashorat qilish kabi murakkab vazifalarda keng qo'llanadi.

2. Sog'liqni saqlashda yordam

SI shifokorlarga kasalliklarni aniqlashda va davolash rejalarini tuzishda ko'maklashadi. Masalan, tibbiy tasvirlardan foydalangan holda SI saratonni erta bosqichlarda aniqlash imkonini beradi.

3. Virtual yordamchilar

"Siri", "Alexa" va "Google Assistant" kabi sun'iy idrok tizimlari insonning ovozli so'rovlariga javob berib, vazifalarni bajarishda yordam beradi. Masalan, jadval tuzish, eslatmalarni tashkil qilish yoki qidiruv natijalarini taqdim etish kabi xizmatlar shular jumlasidandir.

4. Ijodkorlik va dizayn

SI ijodkorlik sohasida ham keng imkoniyatlar ochmoqda. "MidJourney" yoki "DALLE" kabi vositalar foydalanuvchining tasavvurlarini tasvirga aylantirishga yordam beradi. **Bu vositalar san'at va dizaynda yangiliklarni yaratishda foydali vositalardir.**

III

Hozirgi kunda quyidagi sun'iy intellekt tizimlaridan keng foydalanilmoqda va o'zining samaradorligi bilan mashhurlikka erishgan:

- **ChatGPT (OpenAI)**
  Bu texnologiya inson bilan tabiiy muloqot qiluvchi sun'iy intellekt tizimidir. ChatGPT murakkab savollarga javob berish, hikoyalar yozish va ijodiy loyihalarda yordam ko'rsatadi.
- **MidJourney**
  San'at va grafik dizayn yaratishda ishlatiladigan texnologiya bo'lib, foydalanuvchining so'zli tavsiflariga asoslangan holda tasvirlar chizadi.
- **Gemini (Google DeepMind)**
  Bu tizim tabiiy tilni qayta ishlash, o'qish va murakkab muammolarni hal qilish uchun ishlatiladi. U ko'p funksiyali sun'iy intellekt bo'lib, ko'plab sohalarda foydalaniladi.
- **Tesla Autopilot**
  Avtomobilni inson ishtirokisiz boshqarish tizimi bo'lib, transportni xavfsiz va aqlli boshqaradi.

IV

Sun'iy intellekt kelgusida hayotimizni yanada osonlashtirishi va yangi imkoniyatlarni ochishi kutilmoqda. Lekin bu texnologiyani boshqarishda inson omilini unutmaslik kerak. Sun'iy intellektni inson manfaatlariga moslashtirib, uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu rivojlanish nafaqat texnologiya, balki insoniyatning yanada yorqin kelajagini shakllantirishga yordam beradi.

Sun'iy idrokka yozdirildi.

1. *Ushbu matnni yaratish uchun ChatGPTga qanday so'rov berilgan deb o'ylaysiz?*
2. *Qaysi o'rinlar va belgilar matnni inson emas, sun'iy idrok yaratganini fosh qilib qo'yadi?*

4.1. Matn qismlarining tartib raqamini mavzular bilan moslang. Diqqat! 2 ta mavzu ortiqcha.

QISMLAR
I.
II.
III.
IV.

MAVZULAR	
A)	Mashhur SI texnologiyalari
B)	SI nima?
D)	SIning yaratilish tarixi
E)	SI imkoniyatlari
F)	Ilk SI tizimlari
G)	SIning kelajagi

4.2. Matnning 1-qismida qo‘llangan “mashinali o‘rganish”, “tabiiy tilni qayta ishlash” va “kompyuterda ko‘rish” terminlarini izohlashga harakat qiling. Quyidagi vazifalar qaysi terminga aloqador ekanini aniqlang.

ChatGPT yoki boshqa chatbotlar foydalanuvchilar bilan jonli suhbatlashadi, savollariga javob beradi va muammolarni hal qiladi.

Kompyuter tasvirdagi obyektlarni (masalan, mashina, inson, hayvon) aniqlab, ularning o‘lchami, shakli va joylashuvini belgilaydi.

Haydovchisiz harakatlanuvchi avtomobillar atrof-muhitni kuzatib, yo‘l harakati qoidalariga rioya qiladi.

Foydalanuvchilarning internetdagi qiziqishlarini tahlil qilib, ularga mos reklama va kontentni ko‘rsatadi.

Google Translate yoki boshqa tarjima xizmatlari ma’lumotlar bazasidan o‘rganib, aniqroq tarjima qilishni o‘zlashtiradi.

Tibbiy hujjatlarni tahlil qilish va ma’lumotni qayta ishlash orqali shifokorlarga yordam beradi.

Yuzni tanish texnologiyalari aeroportlar, ofislar va boshqa joylarda xavfsizlik maqsadlarida keng qo‘llanadi.

4.3. AI (Artificial Intelligence) terminiga nisbatan o‘zbek tilidagi manbalarda “sun’iy intellekt”, “sun’iy idrok”, “sun’iy ong”, “sun’iy aql” kabi nomlar ishlatilmoqda. Siz qay bir nomni afzal bilasiz? Balki, boshqa taklifingiz bordir. Bu boradagi fikrlaringizni yozib keling.

Gaplardan qaysi biri g‘aliz tuzilgan?

1. Men ilova orqali ovqat buyurtma qildim.

2. Men ilova orqali taomga buyurtma berdim.

3. Men ilova orqali ovqat buyurtmasini tashkil qildim.

G‘alizlik jumla tuzishda til birliklari (qo‘shimcha, so‘z, ibora, so‘z birikmasi)ni xato qo‘llashdan kelib chiqadi. Shuningdek, so‘zlarni xato tartiblash, noo‘rin takror, og‘zaki nutqda urg‘uni noto‘g‘ri qo‘yish ham g‘alizlikka sabab bo‘ladi.

Misollar:

1. *Shevamizda bu so‘z faol ishlatilinadi* gapida *-in* qo‘shimchasi xato qo‘llangan. Bir so‘zda majhul nisbatning ikki qo‘shimchasi kela olmaydi. *Ishlatilinadi* emas, *ishlatiladi*; *qo‘llaniladi* emas, *qo‘llanadi* bo‘lishi kerak.
2. *Eski barcha kiyimlarimni berib yubordim* gapida *eski* va *barcha* so‘zlarining o‘rni o‘zgarib qolgan. Aslida: *Barcha eski kiyimlarimni berib yubordim.*
3. *Sobir toshga qoqilib quladi* gapida *quladi* emas, *yiqildi* ishlatilishi kerak. *Qulash* devor, daraxt, bino kabilarga nisbatan qo‘llanadi.

4.4. “Sun’iy intellekt” matnida ajratib berilgan gaplardagi g‘alizlikni bartaraf qilib yozing.

Namuna *Bejizga “intellekt” deyilmaydi. – Bejiz “intellekt” deyilmaydi.*

Sinonimlar (ma’nodoshlar) umumiy ma’nosiga ko‘ra birlik hosil qiladi, biroq nozik ma’no qirralari, qo‘llanish o‘rni bilan farq qiladi. Masalan, *katta, yirik, ulkan, bahaybat, gigant* so‘zlari bir umumiy ma’no atrofida birlashsa-da, doim ham birining o‘rniga boshqasini qo‘llab bo‘lmaydi. *Bahaybat* deganda shunchaki “katta” emas, “juda ham katta” ma’nosi anglashiladi. *Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma* gapida esa *katta* so‘zini boshqa hech bir sinonimi bilan almashtirib bo‘lmaydi.

Bir so‘z o‘rniga uning sinonimini xato qo‘llash oqibatida **g‘alizlik** yuzaga keladi.

4.5. Gaplarda noto‘g‘ri qo‘llangan so‘zni sinonimi bilan almashtirib yozing.

Dada, ertaga o‘rtoqlarim mendan hol so‘rash uchun uyimizga tashrif buyurishar ekan.

Majlisda ibratli, sohibjamol gaplar aytildi.

Elbek sud qarori bilan gunohsiz deb topildi va mahkamani tark etdi.

Qo‘ylarning taomiga semirtiruvchi vosita qo‘shib berishayotgan ekan.

Ayb menda: uzr etishingizni so‘rayman.

4.6. Internetdan tengdoshlaringiz yaratgan robototexnika namunalariga oid ma’lumot toping va u haqida matn tuzing.

1. Guruhlararo munozaralarda ishtirok etganmisiz? Qanday mavzuda?

2. Sizningcha, munozaraning eng muhim ijobiy hamda salbiy jihati nimadan iborat?

Munozara ishtirokchilari rioya qilishi kerak bo‘lgan qoidalar

1. **O‘zaro hurmat:** *boshqa guruh vakillarining fikrini kamsitish, kulish, so‘zini bo‘lish taqiqlanadi. Murojaat qilishda ham madaniyat tamoyillaridan chekinmaslik kerak.*
2. **Vaqtga rioya qilish:** *har bir ishtirokchi ajratilgan vaqtga qat’iy amal qiladi.*
3. **Dalillar bilan gapirish:** *shunchaki fikr emas, misollar, raqamlar, real voqealar bilan isbot keltirish lozim.*
4. **Savol-javob madaniyati:** *savollar aniq, qisqa va mavzu doirasida bo‘lishi kerak.*

1. Munozara qoidalariga qanday qo‘shimcha kiritish kerak deb o‘ylaysiz?

2. “Murojaat qilishda ham madaniyat tamoyillaridan chekinmaslik kerak” qoidasini qanday tushundingiz?

Undalma – murojaat uchun qo‘llangan so‘z yoki birikma. So‘zlovchi o‘zga kishilarga, jonli va jonsiz narsalarga, hatto o‘ziga ham murojaat qilishi mumkin.

Misollar: ***1. Do‘ppili yigit,*** *bir daqiqaga qarab yubora olasizmi? 2. Iltimos,* ***og‘riq o‘lgur,*** *bugun bezovta qilmay tur. 3. “Ana endi tamomsan,* ***Abduroziq****”, – dedim o‘zimga o‘zim.*

Undalmalar o‘zganing diqqatini qaratish, iliqlikni yoki salbiy munosabatni bo‘rttirish maqsadlarida qo‘llanadi.

Misollar: *1.* ***Ustoz,*** *bir savol bersam maylimi? 2. Kel,* ***qizim,*** *ko‘rpachaga o‘tir. 3. Odam ham shunaqa bo‘ladimi,* ***Sobir!***


4.7. Undalmali gaplarning qaysi uslubga xosligini aniqlang.

1.	Oddiy so‘zlashuv uslubi
2.	Badiiy uslub
3.	Rasmiy uslub
4.	Publitsistik uslub

A)	Hurmatli teletomoshabinlar, dasturimiz davom etadi.
B)	Qayerda yuribsan, yer yutkur?!
D)	She’rim, yana o‘zing yaxshisan.
E)	Hurmatli Jo‘ra Odilovich! Yuzaga kelgan noqulaylik uchun Siz va hamkorlardan uzr so‘raymiz.

4.8. Munozaraga tayyorlaning.

Ikki guruhga bo‘lining. “Sun’iy intellekt: taraqqiyotmi yoki xavf?” mavzusida fikrlaringizni bildiring va yoqlang.




“**A**” guruh – SIning foydalari.

“**B**” guruh – SIning zararlari.

Har bir guruhdan 3 nafar vakil chiqish qiladi. Qolgan a’zolar esa tayyorlanishga yordam beradi.


- “A” guruh boshlab beradi. Avval guruh yetakchisi, so‘ng qolgan vakillar o‘z nuqtayi nazarini bildiradi. Keyin navbat “B” guruhga beriladi.
- Chiqishlar yakunlangach, savol-javob qismi boshlanadi. Guruhlar bir-biriga savol beradi va javob qaytaradi.



Munozara yakunida o‘qituvchingiz xulosasi tinglanadi.

4.9. “Sun’iy idrok 10 yildan keyin hayotimizga qanday ta’sir qiladi?” mavzusida esse yozing.

Prompt nima va u nega kerak?



Sun'iy idrokdan to‘g‘ri foydalanish uchun unga aniq topshiriq berish lozim. Bunday topshiriq **“prompt”** deyiladi. Topshiriq sun'iy idrokka yo‘llangan savol yoki ko‘rsatma bo‘lib, u natijani qanday olishimizni belgilaydi. Agar topshiriq chalkash yoki umumiy bo‘lsa, javob ham tushunarsiz chiqadi. Masalan, “*Kitob tavsiya qil*” degan buyruq umumiy, chunki kitobning janri va kimga mo‘ljallangani aniq emas. Ammo “*9-sinf o‘quvchisi uchun 3 ta badiiy kitob tavsiya qil*” degan topshiriq aniq va tushunarli. “*Tasavvur qil: sen adabiyotshunos-tanqidchisan. 9-sinf uchun 3 ta badiiy kitob tavsiya qil*” deyish yanada samarali usul sanaladi.

Yaxshi topshiriq odatda 3 ta xususiyatga ega: u **aniq, qisqa** va **maqsadli** bo‘ladi. Har bir o‘quvchi sun'iy idrokdan foydalanganda unga to‘g‘ri topshiriq berishni o‘rganishi muhim.

Topshiriq yozish ham til madaniyati, ham fikrni to‘g‘ri ifodalash san'atidir.

4.10. Topshiriq va unga SI bergan javoblarni moslashtiring.

1	2	3
Oyga sayohat haqida 2-3 ta gapdan iborat ma'lumot ber.	Oyga birinchi sayohat haqida 2-3 ta gapdan iborat ma'lumot ber.	Oyga sayohat haqida 2-3 ta gapdan iborat qiziqarli ma'lumot ber.

A) Oyga sayohat insoniyat tarixidagi ulkan yutuqlardan biridir va birinchi marta 1969-yilda amerikalik astronavtlar Nil Armstrong va Edvin Oldrin Oyga qo‘ngan. Hozir NASA yangi loyihalar, jumladan, “Artemis” dasturi orqali Oyga qaytishni rejalashtirmoqda. Bu so‘nggi 50 yildagi eng umidli loyiha hisoblanadi.

B) Oy Yerdan 238855 milya (taxminan 384400 km) uzoqlikda joylashgan bo‘lib, “Apollon 11” astronavtlari Oyga yetib borish uchun uch kundan ko‘proq vaqt sarflagan.
Oyga qo‘nish uchun ishlatilgan “Burgut” nomli uchish qurilmasi juda kichik bo‘lib, unda o‘tirish uchun joy yo‘q edi va fazogirlar qo‘nish paytida tik turishlari kerak bo‘lgan.

D) Oyga ilk sayohat 1969-yil 20-iyulda amalga oshirildi.
Bu tarixiy missiya “Apollon 11” deb nomlandi va amerikalik astronavtlar Nil Armstrong va Edvin Oldrin Oy yuzasiga qo‘ndi.
Nil Armstrong Oy sirtiga qo‘yilgan birinchi qadamni “odam uchun kichik, insoniyat uchun ulkan qadam” deb atadi.

4.11. Rasmlarda ibora xato aks etgan. Aslida SIga qanday buyruq berish kerak edi? To‘g‘ri yozishga urinib ko‘ring.



4.12. “Prompt” so‘zini o‘zbekchada qanday atashni taklif qilasiz?

4.13. Sinfxonani qanday bezash mumkinligi haqida “ChatGPT”, “Claude”, “Perplexity”, “DeepSeek” yoki boshqa tizimdan tavsiya so‘rang. Sizni qoniqtirgan javobni ko‘chiring.

O‘zbekiston tarixida ilk marta kosmosga mitti sun’iy yo‘ldosh – stratostat uchirgan o‘zbekistonlik yosh ixtirochi Ziyodulla Bo‘taxonov bilan Kun.uz nashri suhbatlashdi. U parvozlar davomidagi sarguzashtlari, muvaffaqiyat yo‘lidagi og‘ir mehnati haqida so‘zlab berdi.

I

“Kosmosga mitti sun’iy yo‘ldosh uchirish uchun dasturchilarga va robototexnikaga qiziquvchi odamlarga hamkorlik haqida **gap ochsam**, ko‘pchiligi ustimdan kulib, noreal narsa deb **qarashdi.** Shundan keyin loyihani o‘zim **boshlashga** qaror qildim, uni “NazarX” deb nomladim.

Tajribalar kamdan kam holda birinchi urinishdayoq omadli chiqadi. Edison cho‘g‘lanma lampani **yaratguncha** minglab samarasiz **urinishlar** qilgan. Menda ham shunday bo‘ldi. Muvaffaqiyatli parvozgacha juda ko‘p omadsizlikka uchradim, **o‘xshamagan** parvozlarim uchun ham 30-35 million so‘mgacha pul sarf qildim.

II

Bu apparatni yaratish jarayonida juda ko‘p manbalarni o‘qishga, ko‘plab sohalarga murojaat qilishga to‘g‘ri keldi. Albatta, fizika qonunlari haqida bilimga **ega bo‘lmasdan** buni qilolmasdim.



Bundan tashqari, matematika, geometriya, kimyodan darslar oldim. Mitti sun'iy yo'ldoshni **uchirish** uchun geliy gazi kerak bo'ladi, bu MDHda faqat Rossiyada bor ekan. Mo'ljalim bo'yicha 2 million so'mlik geliy bilan mitti sun'iy yo'ldoshni stratosferaga olib chiqaman deb o'ylagandim. Biroq chuchvarani xom sanagan ekanman, aslida juda ko'p geliy ketarkan.

Birinchi parvoz uchun 20 million so'mlik geliy ishlatdim, shuningdek, **tasvirga oladigan** kamera va boshqa jihozlar ham arzon emasdi. Umumiy hisobda 30 million so'mdan ortiq xarajat bo'ldi va aerostatni havoga uchirib, birozdan keyin signal kelishini kuta boshladim. Bir soat o'tdi hamki, hech qanday belgi yo'q. Bu, albatta, yomon ta'sir qiladi, chunki bir yil mehnat va **sarflangan** mablag' bir zumda yo'qoldi. Ikkinchi muvaffaqiyatsizlikdan keyin bir hafta qo'lim ishga bormadi.

III

Lekin o'zimda "bu, albatta, amalga oshadi" degan aniq ishonch bor edi. Qolaversa, atrofimdagilarning "sen buni qilolmaysan" degan ta'nalari sabab ham buni **amalga oshirishim** kerak deya qayta-qayta urinaverdim. Odamlarning ishonchsizligidan o'zimga ishonch topdim.

Har safargi samarasiz parvoz menga xatolarimni ko'rsatdi. Masalan, to'rtinchi parvozda suratga oladigan apparat muzlab qolgan edi. Bunda qilingan xatoni keyingilarida tuzatib borganman va ish oldinga **siljiganidan** xursand bo'lganman.

Qurilmalarni jami 6 marta uchirdim, oxirgisida ilk maqsadimga to'la erishdim desam bo'ladi. Oltinchi parvozning ham o'ziga yarasha muammolari bo'ldi. Shamol tezligini noto'g'ri **hisoblaganim** tufayli qurilma Qirg'izistonning tog'li hududiga tushgandi. U yerdagi tanishlarim orqali mitti sun'iy yo'ldoshni olish uchun yo'lga chiqdik. Moslama Qirg'izistonning O'zgan shahri hududiga kiruvchi baland tog'larga tushgandi. Hozir bu tog'ga chiqib ketsam, qanday topaman deb o'yladim va qo'rquv bosdi. Tog'ga **borgach** ham ungacha 18 km bor edi. **Yetib borgunimcha** ham apparat o'sha yerga **qo'nganiga** ishonmadim, ammo borgach, ich-ichimdan quvonib yig'ladim, desam ham bo'ladi.

IV

Men uchirgan mitti sun'iy yo'ldosh stratosferaning 42 671 metr balandligidan Yerni tasvirga oldi. To'g'ri, bu judayam ulkan natija emas, ammo shu yaqin kosmosga chiqishning o'ziyoq katta yutuq.

Kadrlar shunchalik ajoyib chiqqan ediki, ularda O'zbekiston, Qirg'iziston va vodiyning kosmosdan **olingan** tasvirlari bor edi. Lekin 4 ta kameradan ikkitasidagi kadrlar yaxshi chiqmagandi. Shunga qaramay parvozimni muvaffaqiyatli bo'ldi deb o'ylayman.

Loyihani prezidentga taqdim etdik. Shundan so'ng Turin politexnika universitetiga grant asosida o'qishga qabul qilindim. O'qishning ikki yilini O'zbekistonda, ikki yilini xorijda o'tkazmoqchiman.

Bu loyiha atrofdagilarda sohaga ozgina bo‘lsa ham ishonch paydo qiladi. Bolalarga rag‘bat beradi. Mana shu soha rivojlanadi. Qachongacha biz Ilon Maskning raketasiga qarab o‘tiramiz, biznikilar qachon qilarkan, deb. Kelgusidagi eng katta maqsadlarimdan biri MDH davlatlari hududida birinchi bo‘lib xususiy kosmos agentligi ochib, mana shu sohani rivojlantirishdir”, deb so‘zini yakunladi qahramonimiz.

Madina OCHILOVA, Kun.uz (qisqartirib olingan)

4.14. Matnda tagiga chizilgan so‘zlar qanday ma’noni anglatadi?

SO‘Z	IZOHI
robototexnika	***
noreal	***
apparat	***
jihoz	***
signal	***
ta’na	***
moslama	***
loyiha	***
grant	***

4.15. Matn qismlariga nom bering.

4.16. Ma’lumotlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

1. Yosh ixtirochi ilk maqsadiga oltinchi parvozda erishdi.
   To‘g‘ri Noto‘g‘ri
2. Birinchi parvozga 30 million so‘mlik geliy sarflandi.
   To‘g‘ri Noto‘g‘ri
3. Ziyodulla o‘z qurilmasi orqali Yerni suratga olganini juda ulkan natija deb biladi.
   To‘g‘ri Noto‘g‘ri
4. Uchinchi parvozdagi muvaffaqiyatsizlik yonilg‘i va videokamera bilan bog‘liq.
   To‘g‘ri Noto‘g‘ri

4.17. 20–25 yildan so‘ng yurtimizda qanday aql bovar qilmas ijobiy o‘zgarishlar bo‘lishi mumkinligini tasavvur qiling va “O‘zbekiston 2050-yilda” mavzusida 100–140 ta so‘zdan iborat esse yozing.

1. *Nega ixtirochi loyihaga “NazarX” deb nom bergan? “Nazar” so‘ziga nima uchun “X” (iks) qo‘shilgan?*
2. *Nega sohaga aloqador kishilar Ziyodullaning loyihasiga qo‘shilishni istashmadi?*

Fe’lning vazifa shakllari – sof fe’l, harakat nomi, sifatdosh va ravishdosh. Bu shakllarning hammasi harakat yoki holatni, nisbatni bildira olsa-da, zamon, shaxs-son va mayl faqat **sof fe’lga** xos.

Sof fe’l odatda gap oxirida keladi.

4.18. Kosmosga mitti sun’iy yo‘ldosh uchirgan o‘zbek yigiti hikoyasida ajratib ko‘rsatilgan fe’llar orasidan sof fe’llarni aniqlang. Ularni asos va qo‘shimchalarga ajrating.

Namuna *gap och+sa+m*

Harakat nomi – otning so‘rog‘iga (*nima?*) javob bo‘la oladigan, otga xos *ko‘plik, egalik, kelishik* qo‘shimchalarini qabul qila oladigan fe’l.

Masalan: *aytishga, aytmog‘i, aytmasligi*.

4.19. Kosmosga mitti sun’iy yo‘ldosh uchirgan o‘zbek yigiti hikoyasida ajratib ko‘rsatilgan fe’llar orasidan harakat nomlarini aniqlang. Ularga so‘roq bering.

Namuna *boshlashga – nimaga?*

Sifatdosh – sifatning so‘rog‘iga (*qanday, qaysi?*) javob bo‘la oladigan, *shaxs, narsa va joyning belgisini* bildiradigan fe’l.

Masalan: *chanqagan (ot), kuylayotgan (ayol), qaytmas (bola), gapiradigan (to‘ti).*

4.20. Kosmosga mitti sun’iy yo‘ldosh uchirgan o‘zbek yigiti hikoyasida ajratib ko‘rsatilgan fe’llar orasidan sifatdoshlarni aniqlang. Ular nimaning belgisini bildirib kelmoqda?

Namuna *o‘xshamagan (parvoz)*

1. *Aytishni* va *aytishdi* so‘zlari tarkibidagi *-ish* qo‘shimchasi qanday farqlanadi?
2. *Ravishlar nima va qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?*

Ravishdosh – ravishning ma’nosi va so‘roqlariga ega fe’l. U harakatning *holatini, paytini, sababini va maqsadini* bildiradi. Ravishlardan farqli tarzda fe’lga *-(i)b, -a/-y, -gancha, -gach, -guncha, -gani* qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasaladi.

Masalan: *Uyga boribb… (qachon?), yugurgancha (qay holatda?), o‘qigani (nima maqsadda?), kelavermagach (nima sababdan?), o‘qimasdan (qay holatda?).*

4.21. Kosmosga mitti sun’iy yo‘ldosh uchirgan o‘zbek yigiti hikoyasida ajratib ko‘rsatilgan fe’llar orasidan ravishdoshlarni toping. Ular tarkibidagi ravishdosh qo‘shimchasini ajratib, so‘roq berish orqali qanday ma’no anglatayotganini aniqlang.

Namuna *yarat+guncha – qachongacha? (payt)*

4.22. Matndan olingan gaplarda tagiga chizilgan birliklarga ma’nodosh (sinonim) bo‘la oladigan so‘zlarni toping.

1. Tajribalar kamdan kam holda birinchi urinishdayoq ijobiy amalga oshadi.
2. Albatta, fizika qonunlari haqida bilimga ega bo‘lmasdan buni qilolmasdim.
3. Biroq chuchvarani xom sanagan ekanman, aslida juda ko‘p geliy ketarkan.
4. Bundan tashqari, yuqorida aytganimdek, atrofimdagilarning sen buni qilolmaysan, degan ta’nalari sabab ham buni amalga oshirishim kerak, deya qayta-qayta urinaverdim.
5. Hozir bu tog‘ga chiqib ketsam, qanday topaman deb o‘yladim va qo‘rquv bosdi.

Mantiqiy savollarga javob bering.

1. Avtomobil o‘ng tomonga burilganda qaysi balloni aylanmaydi?

2. Nuqtalar o‘rniga qaysi so‘z qo‘yiladi?

Muz uchun suv, … uchun sut.

3. Nuqtalar o‘rniga qaysi harf qo‘yiladi?

K, M, O, Q, …

4.23. Fe’lning har bir vazifa shakliga 2 tadan gap yozing.

1. *Uchuvchisiz qurilmalar – dronlarni texnika mo‘jizasi deya olamizmi? Nima uchun?*
2. *Yuqoridan suratga olingan lavhalarga ko‘zingiz tushgandir? Kinoasarlarning bunday epizodlari dronlargacha qay tariqa suratga tushirilgan?*

DRONLAR DAVRI

Uchuvchisiz uchar qurilma, qisqacha aytganda, dron so‘nggi paytda, ayniqsa, harbiy maqsadda faol qo‘llanayotgani uchun hammaning tiliga tushdi. Aslida dronlardan fuqarolik ishlari va ilmiy sohada ham keng foydalanilyapti.






Mudofaa tizimida dron razvedka, kuzatuv, nishonni aniqlash va jangovar vazifani bajarishga yo‘naltirilsa, fuqarolik ishlarida o‘zi uchar qurilmalar hududni nazorat qilish, yo‘qolganlarni izlash, havodan **surat**ga olish va hatto yukni manzilga yetkazish kabi turli vazifalarni bajarmoqda. Dronlar ilmiy faoliyatda juda qo‘l keladi: geologiya, ekologiya, meteorologiya va boshqa ko‘plab sohalarda ma’lumotni to‘plash va tadqiq etish uchun beminnat dastyorga aylangan. Baribir taassuf bilan ta’kidlash joizki, dronlar jangovar maqsadda ko‘p ishlab chiqarilmoqda va ishlatilmoqda.

Fuqarolik aviatsiyasiga joriy etilayotgan dronlar reklama, ko‘chmas mulk va turizm uchun havodan yuqori sifatli tasvir olish imkonini beradi. Dron yukni yetkazib berishda ham beminnat xizmatchi, ya’ni logistika vaqti va xarajatini kamaytiradi. “Amazon” dronlari bunga yaqqol misol.

Qishloq xo‘jaligida ham tengi yo‘q texnikaga aylanayotgan dronlar dalaning holatini, hosildorlikni va sug‘orish darajasini kuzatish, baholash orqali fermerga tuproqni o‘g‘itlash, dori purkash va ekinni boshqarish bo‘yicha qulay qaror qabul qilish imkonini beradi. Bunday qurilmalar *agrodronlar* deb ham yuritiladi.

Ilmiy maqsadda muhim vazifani bajara boshlagan uchuvchisiz boshqariladigan o‘zi uchar vertolyotlardan atrof-muhitni o‘rganish, ekotizimni monitoring qilish, iqlim o‘zgarishini tadqiq qilish, yovvoyi jonivorlarni aniqlash, ilmiy tekshiruv olib borish hamda boshqa ko‘plab yo‘nalishlarda foydalanilmoqda.

Sanoatda zamonaviy dron qurilish maydonchasini tekshirish, elektr stansiyasiga texnik xizmat ko‘rsatish, kon qidirish kabi murakkab vazifalarni bajaryapti. Natijada texnik xizmat ko‘rsatish xarajati kamayib, ishchilar xavfsizligi ta’minlanyapti.

Tibbiyotda dron tabiiy ofat sodir bo‘lgan joyga dori vositalari va asbob-anjom yetkazib berish, transplantatsiya uchun organlar tashishda ishlatiladi. Tabiiyki, endilikda yetkazib berish vaqti qisqarib, bemor hayotini asrab qolish imkoni oshgan.

Hozir ko‘pchilik dronlarni harbiy maqsadda foydalaniladigan o‘zi uchar qurilma deb tushunmoqda. Bunga arzirli sabab bor, albatta. Zero **so‘nggi** yillarda sayyoramizning notinch, urush ketayotgan mintaqalarida drondan foydalanish keng **tus** oldi. Apparatlar nafaqat razvedka va kuzatuv, balki zarba berish, dushman texnikasini yo‘q qilish, obyektni vayron qilish uchun faol qo‘llanmoqda. Shuningdek, qiruvchi samolyotga **yonilg‘i** quyish, dengiz chuqurligini tadqiq qilish va hayot uchun katta xavf tug‘diruvchi boshqa murakkab harbiy vazifalarni bajarishga ham jalb etilyapti.

“General Atomics Aeronautical Systems” **kompaniya**si tomonidan ishlab chiqilgan “MQ-9 Reaper” apparati – dunyodagi eng dong‘i ketgan va samarali harbiy dronlardan biri. Bu qurilma uzoq parvoz vaqtiga ega, lazerli boshqariladigan bomba yoki “Hellfire” raketasini tashishga qodir.

“Bayraktar TB2” Turkiyaning “Baykar” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, so‘nggi bir necha yil ichida eng mashhur uchuvchisiz havo vositalaridan biriga aylandi. Bunday moslamalar yerdagi nishonga zarba berish, razvedka va kuzatuvni amalga oshirishda **afzal** sanaladi. Xitoyning “Chengdu Aircraft Industry Group” kompaniyasi ishlab chiqargan “Wing Loong II” droni yangi avlod ko‘p maqsadli uchuvchisiz uchish apparati sifatida e’tirof etilgan.

Xullas, ayni payt faol rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan dronlardan foydalanish yanada keng ko‘lam, rang-baranglik kasb etmoqda. Binobarin, bunday qurilmalarning imkoniyati vaqt o‘tgan sayin yana ortib boraveradi. Ayni maqsadlar mamlakatlar uchun harbiy sanoatga, jumladan, jangovar dronlar yaratishga yangi-yangi investitsiya jalb qilishni taqozo etmoqda. Nima bo‘lganda ham, taraqqiyotni to‘xtatishning iloji yo‘q. Bu sohada hali ko‘p yangilik qilinadi. Faqat umid shuki, bunday texnika vositalari insoniyatning tinch, yaratuvchanlik maqsadiga xizmat qilsin, aslo mash’um urush ramziga aylanmasin.

Saidmurod RAHIMOV, O‘zA (qisqartirib olindi)

4.24. Matnda qo‘llangan notanish so‘zlarni izohi bilan moslashtiring.

1.	Meteorologiya	A)	Odam va hayvonlarda shikastlangan yoki olib tashlangan to‘qimalar va organlar o‘rniga sog‘lomini ko‘chirib o‘tkazish
2.	Transplantatsiya	B)	Ma’lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, hisobga olish, baholash va istiqbolini belgilash
3.	Razvedka	D)	Yer atmosferasi va unda sodir bo‘ladigan fizik jarayonlarni o‘rganadigan fan
4.	Monitoring	E)	Vaziyatni baholash va qaror qabul qilish uchun mavjud yoki ehtimoliy tutilgan dushman, joy va boshqalar haqida ma’lumotlar to‘plash maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar majmuyi

4.25. **Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning paronimlarini aniqlang va ular ishtirokida bittadan gap tuzing.**

Namuna

So‘nggi (oxirgi) – so‘ngi (oxiri, yakuni)
Filmning so‘ngi biz kutgandek emas ekan.

4.26. **Test topshiriqlarini bajaring.**

1. Muallif dronlar bilan bog‘liq qanday holatni afsus bilan tilga oladi?

A) *dronlardan asosan harbiy maqsadlarda foydalanilayotganini*
B) *dronlarning ilm-fan va sanoatdagi ahamiyatini ko‘pchilik hali tushunib yetmaganini*
D) *dronlar rivoji minglab insonlarning ishsiz qolishiga olib kelishi mumkinligini*
E) *yurtimizda dron ishlab chiqarish sanoati rivojlanmaganini*

2. Matnda dronlarning murakkab vazifalarni ham bajara olishiga qanday misol keltirilgan?

A) *tabiiy ofat ro‘y bergan hududlarga tibbiy vositalarni yetkazib berish*
B) *yovvoyi jonivorlarni aniqlash va kuzatish*
D) *harbiy havo transportlariga yonilg‘i quyish*
E) *ko‘chmas mulk va turizm uchun havodan yuqori sifatli tasvir olish*

3. Matn mazmuniga zid fikrni aniqlang.

A) *Muallif dronlarning qo‘llanish sohasi kelgusida yana ham kengayishiga ishonadi.*
B) *Dronlar sabab bemorlarga ko‘chirib o‘tkazish uchun a’zolar yetkazilishi vaqti qisqarmoqda.*
D) *Dronlar vositasida murakkab texnik xizmat ko‘rsatish orqali ishchilarning jarohat olish hollari kamaymoqda.*
E) *Matnda faqat AQSH, Turkiya va Xitoyda ishlab chiqilgan dronlarning imkoniyatlari yoritilgan.*

4.27. **Matnni qismlarga ajrating. Har bir qismga sarlavha qo‘ying.**

4.28. **Dronlardan foydalanishda ijobiy natijaga umid bildirilgan fikrni matndan toping va yozing.**

4.29. Matnda kompaniya va mahsulot nomlari asl holida berilgan: *“General Atomics Aeronautical Systems”, “Hellfire”, “Bayraktar TB2”, “Baykar”, “Chengdu Aircraft Industry Group”, “Wing Loong II”.*

Nima deb o‘ylaysiz, shu tarzda berish ma’qulmi yoki o‘zbekcha talaffuziga moslab yozish kerakmi? Balki, tarjima qilib qo‘llash zarurdir? Bu haqda fikringizni bildiring.

4.30. Dronlardan foydalanishning qanday qulaylik va kamchiliklari bor?

QULAYLIKLAR	KAMCHILIKLARI
Odam qadami yetmaydigan, xavfli hududlarda ishlash imkonini beradi.	*Shaxsiy hududdagi voqea-hodisalarni tasvirga olib, daxlsizlik huquqini buzadi.*
***	***

1. *Gap bo‘laklari qaysilar? Nega ular “bosh” va “ikkinchi darajali” deb ataladi?*
2. *“Dron – yukni yetkazib berishda ham beminnat xizmatchi, ya’ni logistika vaqti va xarajatini kamaytiradi” gapida qaysi so‘zlar gap bo‘lagi vazifasini bajarmaydi? Nega?*

Bosh bo‘laklar gapdagi asosiy ma’lumotni tashiydi. Ahamiyati jihatidan quyi darajadagi ma’lumotlar esa ikkinchi darajali bo‘laklar vositasida beriladi.

Misol: *Aziza dronlar haqidagi matnni ikki bor o‘qib chiqdi.*

Ushbu gapdagi asosiy fikr – “Azizaning o‘qib chiqqani” ega va kesim orqali ifodalangan. Azizaning necha marta o‘qigani, nimani o‘qigani, qanday matnni o‘qigani ikkinchi darajali ma’lumotlar bo‘lib, ular hol, to‘ldiruvchi va aniqlovchi vazifasidagi so‘zlar orqali berilgan.

4.31. Gaplardagi asosiy ma’lumotni ifodalaydigan bo‘laklarni aniqlang.

Namuna *Qo‘shni qishloqda yashovchi Azamat aka uch-to‘rt oydan beri xasta ekan. – Azamat aka xasta ekan.*

1. *Lekin bizni ham uyda ota-onamiz kutmoqda.*
2. *Bir hafta oldin internetni “yondirgan” qo‘shig‘im to‘ylarda ham tinmay aytilayotir.*
3. *Bir toshqindan, bir shamoldan zarar ko‘rayotgan uylar kundan kun nurab bormoqda.*

Kesim hech bir bo‘lakka tobelanmaydi.

Ega faqat kesimga tobelanadi. Ba’zan kesim ega bilan moslashish uchun bog‘lama va shaxs-son qo‘shimchalarini qabul qiladi. Misol: *Men shu yerdaman. Sen ham kelasanmi?* **Hol** va **to‘ldiruvchi** ham faqat kesimga tobelanadi. Agar gapda ega, hol va to‘ldiruvchi kesimdan boshqa bo‘lakka bog‘lansa, ular o‘z hokimlari bilan bitta murakkab bo‘lak hosil qiladi. Misol: *Menga yordam bergan kishi sen ta’riflagan sotuvchiga juda o‘xshar ekan*. Bu gapdagi **menga** va **sen** so‘zlari to‘ldiruvchi va ega emas. Ular murakkab aniqlovchilar *(menga yordam bergan, sen ta’riflagan)*ning tarkibida qolib ketgan.

Miqdor-daraja holi va aniqlovchi nafaqat kesimga, balki boshqa bo‘laklarga ham tobelana oladi. Misol: *Amir Temur **nihoyatda** odil hukmdor edi. Adolatsizlik bo‘lganda **o‘zining** yaqinlarini ham ayamas edi.*

4.32. Gaplardagi bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlab, ostiga chizing.

1. *Sizga ikkita yaxshi va bitta yomon xabarim bor.*
2. *Bir oydan so‘ng men va opam qo‘shni tumanga xolamni ko‘rgani jo‘naymiz.*
3. *Chanqagan toychoqlar goh quduq tomon, goh onalari tomon chopishardi.*

Gap bo‘laklari (undalma, kirishlar va kiritma gapdan tashqari) kesimga *bevosita* (to‘g‘ridan to‘g‘ri) yoki *bilvosita* (kesimdan boshqa bo‘lakka tobelangan holda) bog‘lanadi.

Misol: *Biror kishi bu savolning javobini biladimi?*

Kesim – *biladimi.*

Kesimga *bevosita* bog‘langan bo‘laklar: *kishi (kishi biladimi), javobini (javobini biladimi)*.

Kesimga bilvosita bog‘langan bo‘laklar: *biror (biror kishi biladimi), savolning (savolning javobini biladimi)*.


4.33. Gapdagi bo‘laklarni kesimga bevosita yoki bilvosita bog‘lanishiga ko‘ra guruhlarga ajratib yozing.

KESIMGA BEVOSITA TOBELANGAN BO‘LAKLAR	KESIMGA BILVOSITA TOBELANGAN BO‘LAKLAR
***	***

1. Yaqinda ikki sinfdoshim xalqaro olimpiadada ishtirok etdi.
2. Azimjon tunni telefonda o‘yin o‘ynab o‘tkazdi.

4.34. “Uy” so‘zi turli gap bo‘laklari vazifasida kelgan 5 ta gap tuzing.


Diagramma bilan tanishing.



4.35. Diagramma asosida tuzilgan matnda tushib qolgan so‘zlarni toping.

Dronlardan turli sohalarda foydalanib kelinmoqda. Bu borada … sanoat 48 foiz ko‘rsatkich bilan peshqadamlik qilyapti. Undan keyingi o‘rinni 30 foiz ko‘rsatkich bilan … sohasi egallab turibdi. … va … sohalarining dronlardan foydalanish ko‘rsatkichi deyarli bir xil. Film, klip va boshqa tasvirga olish jarayonlari deyarli dronlarsiz o‘tmayapti. Bu maqsadlarda foydalanish ko‘rsatkichi o‘sishda davom etmoqda. Hozircha ko‘rsatkich … foizni tashkil etmoqda.

4.36. Diagrammaga diqqat qiling va u asosida ma’lumotlarning to‘g‘ri, noto‘g‘ri yoki berilmaganini aniqlang.



1. Toshkent shahrida eng sovuq oy – yanvar.

To‘g‘ri | Noto‘g‘ri | Berilmagan

2. Harorat jihatidan mart oyiga eng o‘xshash oy – noyabr.

To‘g‘ri | Noto‘g‘ri | Berilmagan

3. Diagramma 2024-yil ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

To‘g‘ri | Noto‘g‘ri | Berilmagan


4. Iyul oyi eng yuqori va o‘rtacha harorat bo‘yicha boshqa oylardan issiqroq, biroq minimal harorat bo‘yicha bunday deb bo‘lmaydi.

To‘g‘ri | Noto‘g‘ri | Berilmagan

4.37. Diagramma asosida tuzilgan quyidagi gaplarda qaysi bo‘laklar ishtirok etganini aniqlang.

1. Toshkentning iqlimi kontinental bo‘lganligi uchun harorat yil davomida keskin farq qiladi. 2. Bu diagramma Toshkentda yozning qanday issiq o‘tishini ko‘rsatadi. 3. Toshkent shahrida martdan boshlab harorat tez ko‘tarila boshlaydi. 4. Kuz oylarida harorat asta-sekin pasaya boshlaydi. 5. Toshkentda iqlim xilma-xilligi tufayli har bir fasl o‘ziga xos bo‘ladi.

4.38. Diagramma asosida ixcham matn tuzing va undagi gap bo‘laklarini belgilang.



V BOB


SOHA VA KASBLAR



1. *Ilm-fan va texnikaning rivojlanishi kasblar taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Fikrlaringizni misollar asosida tushuntiring.*
2. *Siz egallamoqchi bo‘lgan kasbning 10-20 yildan keyingi taraqqiyoti haqida nimalar deya olasiz?*

SO‘NGGI 50 YILDA KASBLAR TARAQQIYOTI

So‘nggi 50 yil ichida kasblarga munosabat butunlay o‘zgardi. Texnologiyaning rivojlanishi, internetning hayotimizga kirib kelishi, butun dunyoning bir-biriga yaqinlashuvi, ya’ni globallashuv va odamlarning jamiyatdan kutilmalari mehnat bozoriga ham katta ta’sir ko‘rsatdi.



1970–1980-yillar: barqarorlik va an’anaviy mehnat faoliyati

Bu davrda aksariyat odamlar ma’lum bir kasbni tanlab, hayoti davomida ana shu mehnat turi bilan mashg‘ul bo‘lgan. Ishonchli, barqaror ish joyi katta boylik hisoblangan. Ishchi va xodimlar aniq bir sohaga ixtisoslashgan va shu yo‘nalishda faoliyat yuritgan. Mansab pillapoyalaridan ko‘tarilish jarayoni ketma-ket va tartibli davom etgan.

1990-yillar: raqamli davrning boshlanishi

Bu davrda texnologiya sohasida inqilobiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Ayniqsa, shaxsiy kompyuterlar, mobil telefonlar va internetning hayotimizga jadallik bilan kirib kela boshlashi kasb tanlashda ham yangicha qarashlarga sababchi bo‘ldi. Raqamli savodxonlik – kompyuter va internetdan foydalana olish qobiliyati muhim ko‘nikmaga aylandi. Bir ishda uzoq yillar qolmasdan, foydaliroq ish joylariga o‘tish odatiy hol sifatida qabul qilina boshladi. Kasb tanlash imkoniyatlari kengaydi.

2000-yillar: internet va moliyaviy texnologiyalar taraqqiyoti

Asrimiz boshida internet texnologiyalarining ommalashuvi yangi kasb va sohalarning tez sur’atda rivojlanishiga olib keldi. Axborot qimmatlashuvi va global muloqot imkoniyatlari turli

sohalarda innovatsiyalarni jadallashtirdi. Natijada yangilik yaratish, yangicha fikrlash va turli vaziyatlarga tez moslasha olish qobiliyati har bir mutaxassis uchun muhim mezonga aylandi. Endi kasb faoliyati doimiy izlanish, malaka oshirish va yangi ko‘nikmalarni egallash talab etiladigan uzluksiz jarayon hisoblana boshladi.

2010-yillar: frilanserlik va raqamli dunyoga moslashuv

2010-yillarga kelib an’anaviy ish tartibi, ya’ni ofisga qatnab ishlashdan chekinish va erkin mehnat faoliyatiga o‘tish jarayoni kuchaydi. Ayniqsa, *frilanserlik* keng tarqala boshladi. Frilanserlar – doimiy ish joyiga ega bo‘lmagan, o‘z vaqtini o‘zi belgilab, turli loyihalar asosida masofadan xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislar. Ular biror tashkilot yoki ish joyiga bog‘lanmagan holda mustaqil faoliyat yuritadi. Bunday ish shakli shaxsga mustaqillik, vaqtni erkin taqsimlash imkoniyatini taqdim etsa-da, ba’zi kamchiliklari ham bor. Jumladan, doimiy daromad manbayi va barqaror ishning yo‘qligi ayrim hollarda moliyaviy mavhumlikka olib keladi.

Bu davrda ishchi kuchi raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘lanib bordi. Turli sohalarda, xususan, axborot texnologiyalari, moliya, ta’lim va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida raqamli tizimlardan foydalanish majburiy holatga keldi. Mehnat bozorida raqamli savodxonlik, onlayn muloqot qilish va virtual muhitda samarali ishlay olish ko‘nikmalari zarur talablarga aylandi.

2020-yillar: masofaviy ishlash va doimiy o‘zgarishlar davri

2020-yillar boshi butun dunyo uchun keskin burilish davri bo‘ldi. Xususan, COVID-19 pandemiyasi global mehnat bozoriga ta’sir etib, an’anaviy ish jarayonini tubdan o‘zgartirdi. Ilgari ba’zi bir sohalargagina xos bo‘lgan masofaviy ish tartibi endi ko‘plab kasb va tarmoqlarda odatiy holatga aylandi. Odamlar ish faoliyatini ofisdan emas, balki uydan yoki masofadan turib olib borishga moslasha boshladi. Texnologik vositalarning rivoji esa jarayonni yanada qulaylashtirdi. Bu davrda kasbiy rivojlanish tushunchasi ham yangicha talqinga ega bo‘la boshladi. Endilikda ish faoliyatida o‘sish faqatgina ketma-ket lavozim pog‘onalaridan iborat bo‘lmay, balki turli sohalarda orttirilgan tajriba, o‘zgaruvchan loyihalarda ishtirok etish va kasb yo‘nalishlarini o‘zgartirib borish orqali amalga oshmoqda. Bir inson umri davomida bir nechta farqli kasblarda o‘zini sinab ko‘rishi, yangi sohalarda faoliyat boshlashi tabiiy holga aylandi. Bu esa shaxsdan moslashuvchanlik, yangilikka ochiqlik, o‘rganishga tayyorlik va kasbiy ko‘nikmalarini doimiy yangilab borishni talab etadi.

saragossa.co.uk (Doston Israfilov tarjimasi)

5.1. Matn asosida testlarni yeching.

1. Barqarorlik va an’anaviy ish tartibining qanday afzalliklari bor? Bir nechta javobni belgilashingiz mumkin.

A) *kafolatlangan ish joyi*
B) *katta daromad*
D) *barqaror daromad*
E) *tajribaning oshishi*
F) *ijodkorlikning rivojlanishi*
G) *mansabda ko‘tarilish*

2. 2000-yillardagi mutaxassislarning eng muhim kasbiy sifati bu – ...

A) innovatsion fikrlash va tez moslashish

B) o‘z sohasi bo‘yicha yetarli malakaga ega bo‘lish

D) internet va kompyuterdan erkin foydalana olish

E) bir vaqtning o‘zida bir nechta sohani egallash

3. Keltirilgan fikrlarning qaysi biri matnning 5-qismi mazmuniga mos?

A) *Frilanserlik bilan shug‘ullanish soha mutaxassislariga ko‘p jihatdan qulay bo‘lib, u doimiy daromad manbayiga ega bo‘lish imkoniyatini bergan.*

B) *Bu vaqtda raqamli savodxonlikka ega bo‘lmagan, virtual muhitda samarali ishlay olmaydigan mutaxassislarning mehnat bozoridagi o‘rni mustahkam bo‘lmagan.*

D) *Frilanserlar asosan xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida faoliyat olib borgan, bu esa ularga bir necha joyda ishlash imkoniyatini bergan.*

E) *Raqamli savodxonlikka ega bo‘lmagan mutaxassislar doimiy daromad manbayi va ish barqarorligining yo‘qligidan aziyat chekkan.*

1. *Mehnat bozori va undagi munosabatlar haqida nimalarni bilasiz?*
2. *Globallashuv jarayonining mehnat bozoriga ta’siri haqida qanday fikrdasiz? Buning natijalari to‘g‘risida fikr bildiring.*
3. *So‘nggi yillarda frilanser sifatida faoliyat yuritish urf bo‘lmoqda. Nima deb o‘ylaysiz, buning qanday afzalliklari hamda kamchiliklari bor?*
4. *Har qanday kasbni egallashga yordam beradigan, zamon va makon bilan bog‘liq bo‘lmagan kasbiy sifatlar haqida fikr bildiring.*
5. *Agar sizda bir nechta kasbni egallash imkoniyati bo‘lsa, tanlagan kasbingizga qo‘shimcha yana qaysi kasblarni o‘rgangan bo‘lardingiz?*

5.2. Kasblar taraqqiyotining har bir davriga xos bo‘lgan muhim ma’lumotni jadvalga kiriting.

1970–1980-yillar	1990-yillar	2000-yillar	2010-yillar	2020-yillar
bitta kasbga egalik	bir ishda uzoq qolmaslik	yangicha fikrlash	erkin faoliyat	masofaviy ish
***	***	***	***	***

5.3. Matnning “2010-yillar: frilanserlik va raqamli dunyoga moslashuv” deb nomlangan qismida fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar ro‘yxatini yozing.

TOVUSH ORTISHI	TOVUSH TUSHISHI	TOVUSH ALMASHISHI
***	***	***

5.4. Ikki guruhga bo‘lining. Berilgan fikrlar asosida mulohazalaringizni bildirishga tayyorlaning.

1-GURUH	2-GURUH
Zamonaviy texnologiyalar tufayli ko‘plab an’anaviy kasblar yo‘qolib ketmoqda. Bu jamiyat uchun xavfli.	Zamonaviy texnologiyalar tufayli yangi kasblar paydo bo‘lmoqda. Bu jamiyat uchun foydali.
(Ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlang. Misollar keltiring, qaysi kasblar yo‘qolmoqda, bu odamlar uchun qanday muammolar tug‘diradi?)	*(Ushbu fikrni himoya qiling. Zamonaviy kasblar, ular tufayli paydo bo‘layotgan imkoniyatlar haqida ma’lumot bering)*

5.5. Egallamoqchi bo‘lgan kasbingizning rivojlanish bosqichlari haqida ma’lumot to‘plang. Ushbu sohada kelajakda kutilayotgan yangiliklar to‘g‘risidagi fikrlaringizni yozma ifodalang.

Gaplar juftligida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning mazmuniy bog‘liqligini muhokama qiling.

Im* *bilsa, er o‘lmas.* // ***Parol****ni bilgan kishi jonini saqlab qoladi.*
Utyug *getir.* // ***Dazmol****ni olib ber.*

***Im** – maxfiy so‘z

ESKIRGAN SO‘ZLAR – tilimizda ma’lum bir davrda qo‘llanib, hozirgi kunda iste’moldan chiqqan so‘zlar. Eskirgan so‘zlar ikki guruhga ajratiladi:

1) tarixiy so‘zlar (istorizmlar) – o‘zi ifodalaydigan tushunchasi bilan birga eskirgan so‘zlar. Masalan, *kanizak, qul, jallod, jizya* (soliq turi), *palaxmon* (harbiy qurol turi);

2) arxaik so‘zlar (arxaizmlar) – o‘zi eskirgan, ammo u ifodalagan tushuncha eskirmagan so‘zlar. Masalan, *dudoq* – lab, *lang* – cho‘loq, *ulus* – xalq, *bitik* – kitob, *al* – qo‘l, *tilmoch* – tarjimon.

TIL SANDIG‘I

angut – voronka
ko‘targu – kran
tergi – dasturxon
elkin – musofir
jijamuq – nomsiz barmoq
yarmaq – pul
yildirim – chaqmoq
kerpich – g‘isht
buzluq – muzxona
pusug‘ – pistirma
to‘nga – yo‘lbars
alavan – timsoh
bug‘ra – erkak tuya
qoraqush – burgut
ilqush – qirg‘iy
o‘rungqush – lochin
yunqush – tovus

“Devonu lug‘otit-turk”dan

5.6. Matndan eskirgan so‘zlarni toping. Ularni arxaik va tarixiy so‘zlarga ajratib yozing.

Bizni Turkiston va Buxoroda bir sinf muhtaram yoshlar mavjudki, hukumat mahkamalarida: tijoratxona, banka va korxonalarda kotib, tarjimon, molfurush va dallollik yoki nasiyachilik ila mashg‘uldirlar. Bu sinf ahlining adadi bugun Buxoro va Turkistonda minglarchadir. Ana shu yoshlarga murojaatdan murod shu sinf ahlidan bo‘lgan hamvatanlarimizga bir necha kalima arz qilmoqdir. Lutfan so‘zimizni tinglasalar, deb iltijo qilamiz. Va kamoli ehtirom ila ul janoblarga bayon qilarmizki, sizlardan aksaringiz savqi qadar va yoki savqi tabiati ila bir nav’i bo‘lib, ruscha biroz o‘qib-yozmoqqa va yoki faqat so‘ylamoqqa qodir bo‘libsiz. Va bu ozgina zamoniy bilgi sababidan vazifa olib, yengillik va biroz rafohiyat ila umr o‘tkazasizki, Tangrim ziyoda etsin!

(Behbudiy)

5.7. Qadimiy kasb nomlari va ularning ma’nosiga diqqat qiling. Bu so‘zlardan qaysilari iste’moldan chiqqan va qaysilari yangicha nomlanganini yozing.

ESKI NOMI	IZOHI	HOZIRGI NOMI
Chegachi	singan chinni, sopol idishlarni chegalovchi, yamoq soluvchi	***
Degrez	cho‘yan asboblar yasovchi usta	***
Sarrof	yirik pulni maydalovchi, chet davlat pulini boshqasiga ayirboshlovchi	***
Daftardor	rasmiy muassasalarda idoraga mansub yozuv-chizuv ishlarini yurituvchi shaxs	***
Mashshota	qiz va kelinlarning sochlarini tarab oro beruvchi, pardozchi ayol	***
Darg‘a	kema boshqaruvchi	***

5.8. “Devonu lug‘otit-turk” asaridan olingan maqollarni ustozingiz yordamida hozirgi o‘zbek tiliga tabdil qilib, ma’nosini sharhlang. Ulardagi eskirgan so‘zlarni lug‘at shaklida yozing.

1. Erik erni yag‘lig‘, ermagu bashi qanlig‘. 2. Emgak ekinda qolmas. 3. O‘kuz azaqi bo‘lg‘incha, buzag‘u bashi bo‘lsa yik. 4. Uma kelsa, qut kelur. 5. Erdamsizdan qut chertilur. 6. Kichikda qatig‘lansa, ulg‘azu sevnur. 7. Erdam boshi til.

5.9. Lug‘atlardan foydalanib *budun, bilig, batsiq, sandug‘ach, bo‘gu, al, cherik, huvaydo, ev, qopiq, pesha, ulus, behbud* so‘zlarining ma’nosini daftaringizga yozib keling.

1. *Ommaviy axborot vositalari nima va ular jamiyat taraqqiyotida qanday rol o‘ynaydi?*
2. *OAVning tarixiy va zamonaviy shakli haqida nimalarni bilasiz?*

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TARAQQIYOTI

Yillar davomida ommaviy axborot vositalari (OAV) sezilarli darajada o‘zgarib, doimiy ravishda yangi ixtirolarga va odamlarning ehtiyojlariga moslashib bormoqda. Ommaviy axborot vositalarining vaqt o‘tishi davomida qanday shakllanib, rivojlanib borishini ko‘rib chiqamiz.

An’anaviy OAV. An’anaviy ommaviy axborot vositalari internet va zamonaviy texnologiyalar keng ommalashishidan oldin axborot uzatishda qo‘llangan vositalardir. Ularga o‘z davrida axborot tarqatish, aholining savodxonligini oshirish hamda ularni ko‘ngilochar dasturlar bilan ta’minlashda muhim rol o‘ynagan gazeta, radio va televideniye kiradi.



Gazeta va jurnallar. Gazetalar uzoq yillar davomida odamlarga yangiliklarni yetkazishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Gazetalarda dunyoda yuz berayotgan muhim voqea-hodisalar yoritilgan, e’lon va reklamalar chop etilgan. Vaqt o‘tishi bilan gazetalar siyosiy jarayonlar, madaniy rivojlanish va odamlar dunyoqarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Gazetalardan farqli tarzda jurnallar qiziqarli voqealar va suratlarni ommaga yetkazish vositasi bo‘lgan va ko‘proq moda, sport, texnologiya kabi mavzularni yoritishga ixtisoslashtirilgan. Ammo bugungi kunda an’anaviy gazeta va jurnallarning ommabopligi ancha pasaygan.



Radio. 1900-yillarda radio musiqa tinglash va yangiliklardan tezroq xabardor bo‘lishning muhim vositasiga aylandi. Radio orqali butun dunyo bo‘ylab axborot tarqatish va odamlarni ko‘ngilochar dasturlardan bahramand qilish ancha osonlashdi.



Dastlab foydalanilgan radiolarda ovoz uzatish sifati nisbatan pastroq bo‘lgan, FM radioto‘lqinlari esa ancha tiniq va sifatli ovoz uzatish imkonini berdi. Endi insonlar musiqa va qo‘shiqlarni zavq bilan tinglay boshladi.



Televideniye. XX asrning eng muhim va keng tarqalgan axborot vositalaridan biri. Odamlar ovoz va tasvir o‘zaro uyg‘unlashgan ko‘rsatuvlar, yangiliklar va filmlarni tomosha qila boshladi. Televizorning keng ommalashuvi va kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanishiga sabab bo‘lgan dastlabki analog televizorlarda tasvir unchalik tiniq bo‘lmagan. Raqamli televizorlar paydo bo‘lishi bilan tasvir va ovoz sifati sezilarli darajada yaxshilangan. Tomoshabinlar ko‘plab yangi kanallar va ko‘rsatuvlarni ko‘rish imkoniga ega bo‘ldi.

Raqamli media. Raqamli media axborot va kontentni raqamli texnologiyalar orqali yaratish, saqlash, uzatish va qabul qilish jarayonidir. Internetning keng tarqalishi axborotga kirish va uni ulashish tartibini butunlay o‘zgartirdi. Endi ma’lumot olish, uzatish, qabul va iste’mol qilish jarayoni tezlashdi va qulaylashdi.

Internet. Internet insonlarga cheksiz miqdordagi ma’lumotlarga tez va oson kirish imkonini berdi. Internet saytlar, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bu esa odamlarning ishlash, muloqot qilish va o‘rganish usullarini o‘zgartirib yubordi.

Dastlab vebsahifalar asosan matndan iborat edi, biroq tez orada ularga rasmlar, audio va videolar ham qo‘shila boshladi. Bu esa internetdan foydalanishni yanada jozibador qildi. Yillar davomida internetdagi foydali ma’lumotlar, xizmatlar yoki ko‘ngilochar kontent ko‘payib bordi.

Ijtimoiy tarmoqlar. Facebook, Instagram va X (Twitter) kabi ijtimoiy tarmoqlar odamlarning fikr, surat va videolarini butun dunyo bo‘ylab baham ko‘rishiga imkon yaratdi. Bugun bu platformalar nafaqat shaxsiy muloqot, balki biznes uchun ham muhim vositaga aylangan – kompaniyalar mijozlar bilan aloqa qilish, yangiliklarni tarqatish va mahsulotlarini targ‘ib qilish uchun ham ulardan keng foydalanmoqda.

Yangi media vositalari. Zamonaviy media olami jadal rivojlanib, yangi texnologiyalar axborotni qabul qilish va his qilish shaklini tubdan o‘zgartirmoqda. Masalan, virtual reallik yordamida foydalanuvchi maxsus qurilma orqali o‘zini virtual muhit ichida his qilishi, filmlar, o‘yinlarda oddiy tomoshabindan ishtirokchiga aylanishi mumkin. VR texnologiyasining keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri – 360 daraja aylanada ko‘rish imkonini beradigan videolar esa virtual muhitda istalgan yo‘nalishga qarash imkonini beradi.

Sun’iy intellekt (SI). Sun’iy intellekt kompyuterlar axborotni anglash, tahlil qilish va qayta ishlashiga yordam beradigan aqlli tizimdir. Masalan, Siri yoki Aleksa kabi ovozli yordamchilar foydalanuvchining savollariga javob beradi, musiqa qo‘yadi yoki chiroqlarni yoqib-o‘chiradi.

publicmediasolution.com (Doston Israfilov tarjimasi)

5.10. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Quyidagi fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini belgilang.

T/R	FIKRLAR	T/N
1.	*Dastlabki vebsahifalarga ko‘proq video shaklidagi axborotlar joylangan.*	***
2.	*FM radio – ovozni tiniq eshittirish imkonini bergan texnologiya.*	***
3.	*Virtual reallik oddiy foydalanuvchini faol ishtirokchiga aylantira oladi.*	***
4.	*Ijtimoiy tarmoqlarning biznes yuritishdagi ahamiyati juda yuqori.*	***
5.	*Matbuot ommaga axborot uzatishning an’anaviy shakli hisoblanadi.*	***

2. Tushunchalarni mos keladigan izohlar bilan juftlashtiring.

1.	Raqamli media	A)	Moda, texnologiya va sport mavzulari yoritiladi.
2.	Jurnal	B)	Fikr, foto va videolarni bo‘lishish maydoni.
3.	Ijtimoiy tarmoq	D)	Internet orqali axborot uzatish jarayoni.
4.	Televizor	E)	Axborotni anglash, tahlil qilish va qayta ishlashga yordam beradigan aqlli tizim.
5.	Sun’iy intellekt	F)	Uning raqamli shaklida tasvir va ovoz sezilarli darajada yaxshilangan.

3. Matnning asosiy g‘oyasini aniqlang.

A) *OAVning ishlash tartibi haqida ma’lumot berish*

B) *OAVning farqli va o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumot berish*

D) *OAVning doimiy ravishda rivojlanib borayotganiga e’tibor qaratish*

E) *zamonaviy OAVning afzalliklari va zararli tomonlari to‘g‘risida fikr bildirish*

4. Quyidagi texnologiyalardan qaysi biri foydalanuvchiga axborotni virtual muhitda his qilish imkonini beradi?

A) *ijtimoiy tarmoq* B) *televizor*

D) *virtual reallik* E) *sun’iy intellekt*

5.11. Har bir OAVning bittadan afzalligi va kamchiligini yozing.

5.12. Jadvaldagi so‘roqlar o‘rniga ravish turkumiga oid so‘zlarni qo‘yib matn hosil qiling.

Men	Qachon?	reportaj tayyorladim.
	Qayerdan?	
	Qay darajada?	
	Nima maqsadda?	
	Qay holatda?	
	Nima sababdan?	

1. *Sizningcha, qaysi ommaviy axborot vositasi orqali jamiyatga ko‘proq ta’sir o‘tkazish mumkin? Fikringizni izohlang.*
2. *Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot olish oson, ammo bu ishonchli ekaniga kafolat bormi? Yolg‘on axborotdan qanday himoyalanish mumkin?*
3. *Oila a’zolaringiz va siz OAVning qaysi turlaridan qanday maqsadlarda foydalanasiz?*
4. *Sizning fikringizcha, kelajakda OAV qanday ko‘rinishda bo‘ladi? Qanday yangi vositalar paydo bo‘lishi mumkin?*

5.13. Berilgan namuna asosida OAVning turli shakli uchun xabar matni yozing.

Gazeta, jurnal	*Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 105-umumiy o‘rta ta’lim maktabida yangi sport zali foydalanishga topshirildi. Loyiha mahalliy hokimiyat va homiy tashkilotlar ko‘magida amalga oshirildi. Sport zalining ochilish marosimida o‘quvchilar, ota-onalar va hokimlik mutasaddilari ishtirok etdi.*
Televideniye	*Bugun Toshkent shahrining Yunusobod tumanida quvonchli voqea ro‘y berdi. 105-umumiy o‘rta ta’lim maktabida zamonaviy sport zali foydalanishga topshirildi. Tadbirda shahar hokimi, o‘qituvchilar va o‘quvchilar ishtirok etdi. Endi o‘quvchilar sport bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.*
Radio	*Assalomu alaykum, aziz tinglovchilar! Sizga quvonchli xabarimiz bor. Yunusobod tumanidagi 105-maktabda yangi sport zali foydalanishga topshirildi. Endi o‘quvchilar jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini zamonaviy va qulay sharoitda o‘tkazishlari mumkin. Tadbirda hokimlik mutasaddilari, ota-onalar ham ishtirok etdi.*
Internet va ijtimoiy tarmoqlar	*#Yangisportzal* *Bugun Yunusobod tumanidagi 105-maktabda yangi sport zali foydalanishga topshirildi. O‘quvchilar endi jismoniy tarbiya darslarini zamonaviy sharoitda o‘tkazishadi! Batafsil ma’lumot va fotosuratlar bilan vebsaytimizda tanishishingiz mumkin.*

5.14. Zamonamiz qahramoni deb biladigan insoningiz bilan uchrashish imkoniyati tug‘ilsa, muxbir sifatida unga qanday savollar bilan murojaat qilgan bo‘lardingiz? Suhbatning kirish qismi hamda savollar ro‘yxatini shakllantiring.

Fe’llarni mazmunan taqqoslang.

1. O‘qidim, o‘qiding, o‘qidi.
2. O‘qiy, o‘qigin, o‘qisin.
3. O‘qisam, o‘qisang, o‘qisa.

So‘zlovchining fe’ldan anglashilgan harakat-holatiga munosabatini *(xabar, buyruq-istak, shart ma’nolarini)* bildirgan fe’l shakllariga **mayl shakllari** deyiladi. Fe’lning quyidagi mayllari mavjud.

T/R	MAYL TURLARI	QO‘SHIMCHA-LARI	MISOLLAR	VAZIFASI
1.	Xabar mayli	Maxsus qo‘shimchasi mavjud emas.	*ko‘rdim, ko‘ryapman, ko‘raman, ko‘rding, ko‘ryapsan, ko‘rasan, ko‘rdi, ko‘ryapti, ko‘radi*	Harakat-holatning bajarilgani, bajarilayotgani yoki endi bajarilishi haqida darakni ifodalovchi fe’l shakli
2.	Buyruq-istak mayli	-(a)y, -(a)ylik, -(i)ng, -(i)ngiz, -(i)nglar, -sin(lar)	*yozay, yozaylik, yoz, yozing, yozgin, yozsin, yozsin(lar)*	Harakat-holatni bajarishga buyurish, da’vat etish, iltimos, taklif qilish, istak mazmunini ifodalovchi fe’l shakli
3.	Shart mayli	-sa	*yozsam, yozsang, yozsa*	Shart, to‘siqsizlik, taxmin, xohish kabi mazmunni ifodalovchi fe’l shakli

5.15. Gaplarni ko‘chiring, ularga mayl qo‘shimchalari qanday ma’no yuklayotganini aniqlang va yozing.

1. Men yozda volontyor sifatida ishlayin.
2. Aytsam, tilim kuyadi, aytmasam, dilim.
3. Siz ertaga jiyaningizga yordam bering.
4. Misrga sayohatga borsam edi.
5. Sanjar “Qo‘rqma” romanini o‘qib chiqsin.
6. Ertalabdan uy yumushlariga ko‘maklash.
7. Jamshid kelajakda ota kasbida ishlasa kerak.

5.16. Gaplarni o‘qing. Undagi fe’l mayllarini aniqlab, mazmunini sharhlang.

1. Gazetalar uzoq yillar davomida odamlarga yangiliklarni yetkazishning asosiy vositasi bo‘lgan. 2. Qayerda media olami rivojlansa, o‘sha yerda ijtimoiy hayot yaxshilanadi. 3. FM radioto‘lqinlari sifati va eshittirishlar mazmunini yaxshilash uchun sun’iy idrok imkoniyatlaridan foydalanamiz. 4. O‘zbekiston OAVlari tarixi va bugunini ko‘rsatadigan muzey ochaylik. 5. Ilk vebsahifalar asosan matndan iborat edi, biroq tez orada ularga rasmlar, audio va videolar ham qo‘shila boshladi.

5.17. Taxmin va xohish ma’nosini ifodalagan shart mayli hamda iltimos va maslahat ma’nosini ifodalagan buyruq-istak mayli ishtirok etgan gaplar tuzib, sinfda o‘qib bering.

5.18. Atamalarga xos izohlarni to‘ldirib yozing.

(**So‘zlar:** *majmua, elektromagnit, kompyuter tarmoqlari, ilmiy-ommabop, ovoz, kitobcha, tasvir*)

Televizor	Telestudiyadan uzatilgan to‘lqinlarni … va … tarzida qabul qilib ko‘rsatadigan va eshittiradigan uskuna.
Radio	Axborotlarni ma’lum masofaga … to‘lqinlar yordamida simsiz uzatish va qabul qilish tizimi.
Gazeta	Hayotning turli sohalariga oid voqea-hodisalarni yoritadigan, shuningdek, siyosiy-ijtimoiy va … maqolalar bosiladigan vaqtli nashr.
Jurnal	… yoki … shaklida belgili vaqtda chiqib turadigan davriy nashr.
Internet	Internet protokoli orqali ma’lumot almashuvchi …ning jahon va omma uchun ochiq tarmog‘i.

5.19. Gaplarni o‘qing va namuna asosida fe’l mayllarini yozing.

Namuna *1. Ishing ertaroq bitib qolsa, tezda uyga qayt. (1) shart mayli; 2) buyruq mayli)*

2. Agar dushman taslim bo‘lmasa, uni yanchib tashlaydilar. 3. Bugun biznikiga kelsang, birga dars tayyorlardik. 4. Siz o‘zingiz uchun nimalar sotib olasiz? 5. Siz bilan shu to‘g‘rida gaplashganman. 6. Futbol o‘ynamasam ham, o‘yin qoidasini yaxshi bilaman. 7. Do‘stim bilan yozgi ta’tilda qishloqqa ketamiz. 8. Izzat qilsang, izzat topasan. 9. Dadam yangi yilda menga velosiped olib bersa edi. 10. Havo issiq bo‘lib tursa, ko‘chat ekishni boshlab yuboramiz.

1. *Kasb tanlashda qanday omillar hisobga olinadi?*
2. *“Kasbidan izzat topganlar”, “Kasbidan baxt topganlar” iboralarini izohlang, ularni qanday insonlarga nisbatan qo‘llash mumkin?*

Audiomatnni tinglang.

KASBIM – FAXRIM! 3



5.20. Audiomatn asosida test topshiriqlarini bajaring.

1. Xulosalarning qaysi biri audiomatnning asosiy g‘oyasiga mos keladi?

A) *Bolalikdagi orzular doimo amalga oshadi.*

B) *Olim bo‘lish – eng og‘ir, ammo sharafli kasb.*

D) *O‘z kasbingni sevish va unga sadoqatli bo‘lish muvaffaqiyat kalitidir.*

E) *Kasb tanlashda atrofdagi insonlarning ta’siri katta.*

2. Nima uchun muallif bolaligida shifokor bo‘lishni istagan?

A) *Chunki shifokorlar ko‘pchilikning dardiga davo bo‘ladi.*

B) *Chunki mahallada oq xalat kiyib yurgan shifokorlarning hurmati juda baland edi.*

D) *Chunki shifokorlarda yaxshi daromad qilish imkoni mavjud edi.*

E) *Chunki shifokorlardan butun mahalla ahli qo‘rqar edi.*

3. O‘zi sevmagan kasb bilan shug‘ullangan, undan zavq topa olmaydigan insonlarning hayot tarzi nimaga o‘xshatilgan?

A) *kichik bir to‘lqin singari o‘z o‘zanini topa olmay, yo‘qlikka yuz tutish*

B) *behuda oqib yotgan suv*

D) *cho‘l-u biyobonda o‘z yo‘lini topa olmayotgan mavjudot*

E) *hech kimga foydasi tegmaydigan inson*

4. Berilgan sarlavhalarning qaysi biri audiomatn mazmuniga ko‘proq mos keladi?

A) *Irmoqdan ummonga: bir inson hayoti*

B) *Sevimli kasb – baxtli hayot asosi*

D) *Mening kasbim – mening kelajagim*

E) *Kasbidan e’zoz topganlar*


5.21. Berilgan maqollardan audiomatnda keltirilgan qaysi fikrlarni dalillash uchun foydalanish mumkin?

1. Bilim baxt keltirar.
2. Bilim – davlatdan qimmat.
3. Bir yigitga qirq hunar oz.
4. Ilmni mehnatsiz egallab bo‘lmas.
5. Kasbning yomoni yo‘q.
6. Aql ko‘pga yetkazar, hunar – ko‘kka.

5.22. Boshqotirmada matndan olingan qaysi so‘zlar yashiringanini toping.

1. *Geologiyaning yerosti suvlari paydo bo‘lishi, oqishi va boshqa xususiyatlarini o‘rganadigan bo‘limi.*
2. *Tog‘, tog‘ yonbag‘irlaridan oqib tushadigan kichik soy.*
3. *Yerning atmosferaviy va gidrologik shart-sharoitlariga aloqador jarayonlarni o‘rganadigan fan.*
4. *Manbayidan quyilish joyi tomon tabiiy o‘zandan doimiy ravishda oqib turadigan katta suv.*
5. *Dengiz, okean.*
6. *Odam va boshqa organizmlar uchun yashash muhiti sifatida Yerning geosferalarini, ularning tarkibi, tuzilishi, xossalari, jarayonlarini o‘rganuvchi fan.*

7. *Ikki adir yoki tog‘ oralig‘ida, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq.*
8. *Birlashib katta daryo hosil qiluvchi kichik daryolar.*



1. *Audiomatn muallifi hayotni nimaga o‘xshatgan? Javobingizni izohlang.*
2. *“Kasbingni sev, shunda hech qachon ishga bormaysan” degan fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?*
3. *Sizning ham kasb bilan bog‘liq tanlovingiz o‘zgarib turadimi? Sababini ayting.*
4. *Kasb tanlashingizga kimdir yoki qandaydir voqea ta’sir qilganmi? Shu haqda gapiring.*
5. *Matndan qanday hayotiy saboq chiqarish mumkin?*

5.23. Berilgan so‘zlarni tasniflab yozing.

O‘qituvchi, duradgor, quruvchi, dasturchi, quruvchilik, iqtisodchi, shaxtyor, konchilik, metallurgiya, ta’lim, tibbiyot, shifokor, texnologiya, rassom, texnolog, muhandislik, tarjimon, iqtisodiyot, geolog, marketolog, transport, logistika, huquqshunos, mexanik, jurnalist, qishloq xo‘jaligi, adabiyot, agronom.

SOHA	KASB
***	***

Gaplarni qiyoslang. Ularning farqini tushuntiring.

Bahorda dalada ish ko‘payadi.	*Bahor keldi va dalada ish ko‘paydi.*
Salima kasalligi uchun darsga kelmadi.	*Salima kasal edi, shuning uchun darsga kelmadi.*

Ikki yoki undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik va ohang jihatidan birikuvidan tuzilgan gap **qo‘shma gap** deyiladi.

Sodda gap tarkibida bitta ega va kesim ishtirok etsa, qo‘shma gap tarkibida ikki va undan ortiq ega va kesim qatnashadi. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi vositalar hamda ohang orqali o‘zaro bog‘lanadi.

Mazmun munosabati va bog‘lovchi vositalarning qo‘llanishiga ko‘ra qo‘shma gaplar uch xil bo‘ladi:

1) bog‘langan qo‘shma gaplar – o‘zaro teng huquqli sodda gaplarning birikuvidan hosil bo‘lgan qo‘shma gaplar. Ular teng bog‘lovchilar *(va, ammo, yoki, goh..., goh…, na…, na…)* va ularning vazifasini bajaruvchi vositalar *(-u/-yu,-da, bo‘lsa, esa)* yordamida bog‘lanadi. Masalan, *Ko‘prikni siz qurdingiz, ammo biz foydalandik.*

2) ergashgan qo‘shma gaplar – bosh va ergash gaplardan tarkib topgan qo‘shma gaplar. Ular ergashtiruvchi bog‘lovchilar *(agar, garchi, chunki, zero, toki)* va ularning vazifasini bajaruvchi vositalar *(-sa shart mayli, -ki, shuning uchun, shu bois, deb)* yordamida bog‘lanadi. Masalan, *Agar siz ko‘prik qursangiz, biz ham foydalanamiz.*

3) bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar – ohang yordamida *(bog‘lovchilar ishtirokisiz)* bog‘langan qo‘shma gaplar. Masalan, *Bizning qarorimiz shu: birgalikda ko‘prik quramiz.*

5.24. Gaplarning grammatik asosini aniqlab, ikki guruhga ajrating:

1) sodda gaplar; 2) qo‘shma gaplar.

1. Ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘lar. 2. Ertaga yo‘lga chiqsak, uch kunda yetib boramiz. 3. Ko‘p o‘ylab xayolparast bo‘lish zararlidir. 4. Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar. 5. Hayot insonga bir marta beriladi, takrorlanmaydi.

5.25. Quyidagi qoliplar asosida qo‘shma gaplar tuzing.

… , chunki … .
… , ammo … .
Agar… -sa, … .
… , shuning uchun … .
Goh …., goh … .

Na … , na … .
… – … .
… : … .
… , … .
…, esa … .

5.26. Gaplarni o‘qing. Bog‘langan, ergashgan va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarga ajrating.

1. Hunar o‘rgan, chunki hunarda ko‘p foyda bor. 2. Kimki yaxshi inson bo‘lsa, o‘zidan yaxshi nom qoldiradi. 3. Siz yashirdingiz, ammo men yashirmayman. 4. Ikki ajib qulog‘i bor: biri tinglar, biri so‘zlar. 5. Gapni cho‘zma, chunki hayot qisqadir. 6. Yo urug‘ aynigan, yo agrotexnika qoidalari buzilgan. 7. Orzum shul: o‘chmasin yongan chirog‘ing. 8. Qor yog‘di — don yog‘di. 9. Urilmoq ham foyda: katta tajriba hosil qilasiz. 10. Hayot nazoratdan chiqib ketayotgandek tuyulmoqda, chunki zamonaviy dunyo juda tez o‘zgaryapti.

5.27. Kasblar va shaxsiy fazilatlar jadvalni to‘ldiring.

KASB NOMI	ASOSIY FAOLIYATI	SHAXSIY FAZILATLARI
O‘qituvchi	o‘quvchilarga bilim berish	mehribon, sabrli, kirishuvchan
Shifokor	bemorlarni davolash	mas’uliyatli, e’tiborli, talabchan
Dasturchi	***	***
Ichki ishlar xodimi	***	***
Dizayner	***	***
Sudya	***	***
Kosmonavt	***	***
Tarjimon	***	***
Jurnalist	***	***
Gid	***	***
Muharrir	***	***
Muhandis	***	***

5.28. Eng yaqin o‘rtog‘ingizni 20 yildan keyin qanday muvaffaqiyatlarga erishgan holda tasavvur qilasiz? Shu haqda matn tuzing.

Sizni qiziqtirgan sohadagi muammolar haqida suhbat tashkillashtiring. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Sizni qiziqtirgan sohada qanday muammo bor?

2. Bu muammo kim yoki nimalarga ta'sir qilmoqda?

Siz keltirgan muammoning asosiy sabablarini tahlil qiling.

1-sabab:	***
2-sabab:	***

Muammoning oqibatlarini tahlil qiling.

1-oqibat:	***
2-oqibat:	***

Ushbu muammoni hal etish uchun 2 ta yechim taklif qiling.

1-yechim:	***
2-yechim:	***

Muammo-yechim essesi – muayyan bir muammo haqida fikr yuritish, tahlil qilish va unga yechimlar taklif etishga qaratilgan ijodiy yozma ish. Uning muhim xususiyati quyidagilar:

– sarlavhada yechimini kutayotgan ijtimoiy muammo aks etadi;

– ushbu muammoga yechim berish talab qilinadi;

– tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv rag'batlantiriladi.


U kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'ladi.

Kirish qismi. Muammo umumiy tarzda tanishtiriladi, unga yechim berish kerakligi ta'kidlanadi.

Asosiy qism. Muammo chuqurroq tahlil qilinib, sabablari va oqibatlari ko'rib chiqiladi. Statistik ma'lumotlar, hayotiy misollar yoki iqtiboslar keltirish mumkin. Shuningdek, muammoga bir qancha yechimlar taklif etiladi. Har bir yechimning afzalliklari bayon qilinadi.

Xulosa. Takliflar umumlashtirilib, xulosalanadi, mavzu bo'yicha shaxsiy nuqtayi nazar bayon qilinadi, chaqiriqlar keltirilishi mumkin.

Essening tuzilishi quyidagi chizmada berilgan.



5.29. Berilgan birliklardan essening qaysi qismida foydalanish mumkin?

So‘nggi vaqtlarda … muammosi dolzarb bo‘lib bormoqda.
Bugungi kunda … muammosi keng tarqalgan.
… juda muhim masalaga aylanib bormoqda.

Buning sababi shundaki, …
… tufayli bu holat yuzaga keldi.
… sababli muammo yanada chuqurlashadi.
Asosiy omillardan biri bu – …
Ko‘p hollarda bu holatga … sabab bo‘ladi.

Bu muammoni hal qilish uchun, eng avvalo, ….
Muammoni bartaraf etish uchun quyidagilar zarur: …
Yaxshi natijaga erishish uchun … qilish kerak.
… orqali ushbu muammoning oldini olish mumkin.

Mening fikrimcha, …
… bo‘yicha turli fikrlar mavjud, lekin men … deb o‘ylayman.
Bu muammoni har kim turlicha tushunadi, ammo …
Bu boradagi kuzatishlarim quyidagicha, …

Xulosa qilib aytganda, ...
Demak, muammoni hal qilish ...
Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ...
Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ...



MUAMMO-YECHIM ESSESIGA NAMUNA

Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga qaramligi — Sarlavha

Bugungi raqamli asrda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, yoshlar orasida ushbu platformalarga qiziqish haddan tashqari yuqori. Afsuski, bu holat ko‘p hollarda foydadan ko‘ra zarar keltirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog‘lanish, ya’ni virtual dunyoga qaramlik yoshlarning ruhiy, ijtimoiy va bilim darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatyapti. Ushbu muammoni e’tiborsiz qoldirmaslik va unga amaliy yechimlar topish zarur. — Kirish

Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga ruju qo‘yishiga bir ancha omillar sabab bo‘lmoqda. Bu platformalarda onlayn tanishuv va muloqot imkoni, shuningdek, qiziqarli videolar, o‘yinlar, ko‘ngilochar shoular ko‘pligi yoshlarni o‘ziga ohanrabodek jalb qilmoqda. Bu nafaqat yoshlar, balki kattalarning ham ijtimoiy tarmoqlardan me’yordan ortiq foydalanishiga sabab bo‘lyapti. Soatlab telefonga termilib o‘tirish, tarmoqlarda “like” yig‘ish va izohlarga bog‘lanib qolish, asta-sekin real hayotdan chekinishga olib kelyapti.

Bu holatning salbiy oqibatlari ko‘p: vaqtni behuda sarflash, bilim olishga qiziqishning kamayishi, ruhiy siqilish, yolg‘izlik hissi, hatto sog‘liqni yo‘qotish (uyqu buzilishi, ko‘rish qobiliyatining pasayishi) kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Ba’zi hollarda yoshlarning real hayotdan uzilib qolishi, muomala qobiliyatining pasayishi yuz bermoqda.

Mazkur muammoni hal qilish uchun bir nechta amaliy choralar ko‘rish mumkin. Birinchi navbatda ota-onalar va o‘qituvchilar yoshlarning onlayn faoliyatini nazorat qilishi va ularni foydali mashg‘ulotlarga jalb etishi lozim. Masalan, sport, musiqa, san’at yoki ko‘ngilli ishlarga yo‘naltirish orqali bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish mumkin. Shuningdek, maktab va universitetlarda “raqamli gigiyena” haqida ma’ruzalar, seminarlar o‘tkazilishi zarur. Bu orqali yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan qanday qilib me’yorida foydalanishni o‘rganadi.

Yana bir yechim yoshlarni real muloqot, jismoniy faollik va ijodiy ishlar bilan band etishdir. Jamoaviy loyihalar, intellektual tanlovlar va kutubxona mashg‘ulotlari orqali ularning e’tiborini ijtimoiy tarmoqlardan boshqa faoliyatlarga burish mumkin. — Asosiy qism

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga qaramligi – zamonaviy jamiyatning dolzarb muammolaridan biri. Bu muammoni vaqtida aniqlab, unga qarshi choralar ko‘rilmasa, kelajak avlodning salomatligi va rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalar, o‘qituvchilar, jamiyat va davlat vakillari birgalikda harakat qilsa, bu muammoni kamaytirish va yoshlarni sog‘lom, ongli hayot sari yo‘naltirish mumkin. — Xulosa

5.30. Jadvalni daftaringizga chizing. Esse namunasi asosida uni to‘ldiring.

Mavzu:		***
Muammo:		***
Sabab:	**1.** **2.** **3.**	*** *** ***
Oqibat:	**1.** **2.** **3.**	*** *** ***
Yechim:	**1.** **2.** **3.**	*** *** ***

TIL SANDIG‘I

MILLIONNI KIM IXTIRO QILGAN?

Siz raqamlarni sanab ketaverasiz-ketaverasiz, ular millionga yetganda voybo‘ deb yuborasiz. Biroq ayting-chi, biror marta million sonini kim o‘ylab topgan deb o‘ylaganmisiz? O‘ylamagansiz. Hayotda esa har bir narsaning o‘z tarixi bor. Xuddi shunday millionning ham. Xullas... Kunlardan bir kuni mashhur sayyoh Marko Polo Xitoyga borib qoladi. U yerdagi mislsiz boyliklarni ko‘rib shoshib qolgan Marko uni qanday ta’riflashni o‘ylaydi. O‘ylab-o‘ylab italyan tilidagi “mille” – ya’ni “ming” so‘ziga kuchaytiruvchi “on” qo‘shimchasini qo‘shadi. Natijada bugun ancha vahimali raqam bo‘lgan “million” soni qad rostlaydi.

Gulxan.uz

5.31. “Yoshlarning kasb tanlashda boshqalar fikriga tobeligi” mavzusida muammo-yechim essesini yozing.


Infografika bilan tanishing.

O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI

VEBDIZAYNERLIK KASBI

Vebdizaynerlik kasbi “Man-Art Image” turiga tegishli, chunki u makon va badiiy tasvirlarini yaratish, dizayn, modellashtirish bilan bog‘liq.

Kasbning qo‘shimcha turi “Man-Sign System”dir, chunki u grafik va matn muharrirlari, rasmli fayllar, jadval shakllari bilan ishlashni o‘z ichiga oladi.



TIBBIY MONELIK

- asab tizimi kasalliklari;
- qon aylanish tizimi kasalliklari;
- umurtqa pog‘onasi kasalliklari;
- nafas olish yo‘llari kasalliklari, har xil turdagi allergiyalar;
- teri kasalligi;
- ko‘rish va eshitish qobiliyatining pastligi.

MUTAXASSISLIKKA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Rassomchilik, rangtasvir, kompozitsiya, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, ma’lumotlar bazasi va ma’lumotlar banki, sayt ergonomikasi, vebsahifalarni joylashtirish qoidalarini, dasturlash tillarini yaxshi bilish.

KASB TIPI “Odam – texnika” turiga kiradi.

ISH FAOLIYATINING MAZMUNI VA ISH SHARTI

Vebdizaynerning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- saytlarning badiiy va grafik tuzilishini takomillashtirish, sayt sxemalarini yaratish;
- vebilovalarni ishlab chiqish;
- saytlar va dasturiy mahsulotlar uchun foydalanuvchiga qulay vebinterfeyslarni yaratish.

Animatsion filmlarni yaratish, saytlarda joylashtirish uchun fotosuratlar, rasmlar, illyustratsiyalarga ishlov berish, saytning grafikasi, kodlarini tahrirlash va optimallashtirish, vebsahifalarning prototiplarini loyihalash, logotiplar, piktogrammalar va turli xil rasmlarni yaratish.

KASBIY O‘SISH ISTIQBOLLARI

1-bosqich – sayt ma’muri

2-bosqich – vebdasturchi

3-bosqich – loyiha menejeri

MUTAXASSISNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

Rivojlangan estetik did, ravshan ko‘radigan ko‘z, ranglarning nozik farqini bilish, barmoqlar harakatini muvofiqlashtirish, ijodiy va vizual-obrazli fikrlash, fazoviy tasavvur qilish, ma’lumot bilan ishlay olish.

KASB EGALLASH YO‘LLARI VA QO‘LLANISH SOHASI

Marketing va reklamaga ixtisoslashgan kompaniyalar, uyali aloqa xizmatlarini taqdim etuvchi kompaniyalar, veb-studiyalar, turizm tashkilotlari, kompyuter dizayni bo‘yicha agentliklar va firmalar, ta’lim muassasalari, shuningdek, saytlarni yaratish va yuritishdan manfaatdor bo‘lgan boshqa tuzilmaviy bo‘linmalar.

5.32. Infografika asosida berilgan ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

T/R	MA’LUMOTLAR	T/N
1.	Vebdizaynerlar sayt sxemalarini yaratish va vebilovalar ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.	***
2.	Vebdizayner bo‘lishni istagan odam yuqori estetik didga va ijodkorlik qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.	***
3.	Vebdizayner kasbini egallagan mutaxassis kelajakda asosan ta’lim va tibbiyot sohasida samarali ishlay olishi mumkin.	***
4.	Fotosuratlar, rasm va illyustratsiyalarga ishlov berish ham vebdizaynerning vazifalari sirasiga kiradi.	***
5.	Vebdizayner kasbini egallagan odamni kelajakda ovqat hazm qilish tizimi bilan bog‘liq kasalliklar bezovta qilishi mumkin.	***

5.33. Infografika asosida jumlalarni to‘ldirib yozing.

1. *Vebdizayner kasbini egallamoqchi bo‘lgan shaxs … kabi sifatlarga ega bo‘lishi lozim.*
2. *Vebdizayner sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassis kelajakda … kabi kasalliklardan aziyat chekishi mumkin.*
3. *Vebdizaynerlik kasblarning … tipiga kiruvchi mutaxassislik hisoblanadi.*
4. *Vebdizayner kasbini egallagan mutaxassis ... sifatida ish boshlab, ... darajasiga chiqishi mumkin.*

1. *Vebdizaynerning asosiy ish faoliyati nimalardan iborat?*
2. *Vebdizaynerlik kasbida ishlash uchun qanday tibbiy cheklovlar mavjud, ular kasb jarayoniga qanday ta’sir qilishi mumkin?*
3. *Vebdizaynerlik kasbda muvaffaqiyatga erishish uchun qanday shaxsiy xususiyatlaringiz va bilimlaringizni rivojlantirishingiz kerak deb o‘ylaysiz? Asoslang.*

5.34. Tanlagan kasbingiz bilan bog‘liq ma’lumotlarni yozing. Ularning ixcham va tushunarli bo‘lishiga e’tibor qarating.

Mutaxassislikka qo‘yiladigan talablar

Mutaxassisning individual xususiyatlari

Kasb egallash yo‘llari va qo‘llanish sohasi

Kasbiy o‘sish istiqbollari

5.36. Tanlagan kasbingiz haqida infografika tayyorlang.
Infografika yaratishda quyidagilarga e'tibor bering.
Vizual elementlar: *diagramma, chizma, shartli belgilar.*
Sarlavhalar va matn: *qisqa hamda muhim ma'lumotlarning berilishi.*
Ranglar va guruhlash: *ma'lumotlarning tartibli va did bilan berilishi.*

CHORAK DAVOMIDA O'TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

1. Berilgan juftliklarning qaysi guruhga mansubligini aniqlang.

JUFTLIKLAR	SINONIMLAR	PARONIMLAR	VARIANTDOSHLAR
bolalik – bolali	* * *	* * *	* * *
birorta – bironta	* * *	* * *	* * *
shabada – shabboda	* * *	* * *	* * *
intizor – intiq	* * *	* * *	* * *
beqadr – qadrsiz	* * *	* * *	* * *
izn – izm	* * *	* * *	* * *

2. Gaplardagi g'alizlikni bartaraf qilib, daftaringizga yozing.

Tilimizda o'zlashma so'zlar faol qo'llaniladi.

Hamma sizning gapingizni eshitmadi.

Bobolarimiz bejizga "Ot izini toy bosar" deyishmagan.

Har bir 9-"B" sinfning o'quvchisi ertaga loyiha ishini topshirishi lozim.

3. So'zga qaysi qo'shimcha(lar) qo'shilganda tovush tushishi, ortishi yoki almashishiga sabab bo'lishini aniqlang.

sen	*-ni, -lar, -ga, -niki, -ning, -sira*
obro'	*-li, -im, be-, -ga, -ing*
ong	*-siz, -la, -ga*
yutuq	*-ing, -ga, -dan, -li*
qiyin	*-roq, -a*
o'sha	*-dan, -ni, -ga, -cha, -niki*

4. Quyidagi qoliplar asosida qo‘shma gaplar tuzing.

Namuna ***… -sa, … -sa, … .***

Hosilimiz mo‘l bo‘lsa, uyimiz donga to‘lsa, turmush bo‘lar farovon.

…. -sa, … -sa, … .

…. -ki, … -ki, … .

… , … , … , … .

…. -ki, … va … .

… , …, esa … .

… , biroq … , … .

5. “Devonu lug‘otit-turk” asaridan olingan maqollarni ustozingiz yordamida hozirgi o‘zbek tiliga tabdil qilib, ma’nosini sharhlang. Ulardagi eskirgan so‘zlarni lug‘at shaklida yozing.

MAQOLLAR	TABDILI
1. O‘d kechar, kishi to‘ymas, yalinguq o‘g‘li mengu qalmas.	* * *
2. Ag‘ilda o‘g‘laq tug‘sa, ariqda o‘ti unar.	* * *
3. Yiparlig‘ kesurg‘udin yipar ketsa, yizi qalir.	* * *
4. Qutsuz quzug‘qa kirsa, qum yag‘ar.	* * *
5. Qirq yilqa tegin bay chig‘ay tuzlinur.	* * *
6. Kunga baqsa, ko‘z qamar.	* * *
7. Qaz qo‘psa, o‘rdak ko‘lig iganur.	* * *

Yalinguq – inson
Qutsuz – baxtsiz
Chig‘ay – kambag‘al
Qaz – g‘oz
O‘d – zamon
Yiparlig‘– mushk, anbar
Kesurg‘u – idish
Iganmak – egallamoq

Loyiha ishi

Loyiha ishi: Tana tilining muloqotdagi ahamiyati

Topshiriq. Ta’til davomida kamida 10 xil tana tili (qo‘l harakati, yuz ifodasi va h.k.)ni suratlar orqali ko‘rsating, har biri qanday psixologik va nutqiy mazmun anglatishini tushuntiring. Muloqotda tana tilining ijobiy va salbiy ta’sirini tahlil qiling.

VI BOB

INSON VA TABIAT



Kundalik hayotda ishlatiladigan suv qayerdan keladi? Agar o‘sha suv manbayi qurib qolsa, nima bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

TABIAT VAQTI: HALOKATGA MAHKUM SAYYORA

I

Inson va tabiat o‘rtasidagi holat “Titanik”ni yodga soladi. Nega deysizmi?

1972-yilda BMT 5-iyunni Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni deb e’lon qilgan. Ekologik muammolarga bag‘ishlangan alohida kun belgilanishiga 1971-yil 11-may kuni BMT Bosh kotibiga yo‘llangan murojaat sabab bo‘lgan: 23 ta davlatdan 2200 nafar fan va madaniyat sohasi vakillari atrof-muhitda xavfli ifloslanish jarayoni kechayotgani va bu insoniyat kelajagiga tahdid solishi hadida ogohlantirgan. “Atrof-muhit ifloslanishi muammosini hal qilmasak, u insoniyatni yo‘qotib yuboradi, – deyilgandi murojaatda. – Hozir tabiatning o‘zi bizga belgi bermoqda. O‘zimiz haqimizda qayg‘urishimiz uchun avvalo tabiatga g‘amxo‘rlik qilishimiz kerak. Hozir – uyg‘onish vaqti. Muammolarni payqash uchun, ovozimizni dunyo eshitishi uchun... Insoniyat uchun, Yer sayyorasi uchun yaxshiroq muhit yaratish vaqti. Bu – Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni – tabiat vaqtidir”.

II

BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) ma’lumotlariga ko‘ra, inson faoliyati Yer kurrasi quruqlik qismining to‘rtdan uch qismi, suv havzalarining uchdan ikki qismidagi ekologik muhitni sezilarli darajada o‘zgartirgan. Jumladan, Tinch va Hind okeanlari o‘rtasida, ekvator yaqinida joylashgan Myanma – dunyodagi eng qadimgi o‘rmon maydoni yog‘ochdan sanoat maqsadida foydalanish tufayli 2020–2025-yillarda 400-500 ming gektarga qisqargan. Barcha o‘rmonlar ichida eng yirigi – Janubiy Amerika Amazonkasi 20 foizini yo‘qotib bo‘ldi. Yashil sayyorada har soniyada bitta futbol maydoniga teng hajmda o‘rmon kesiladi.

III



So‘nggi 150 yil ichida global isish oqibatida Tinch okeanning janubiy suvlari, Hind okeani, O‘rta dengiz va Florida, Meksika va G‘arbiy Hindiston qirg‘oqlari yaqinidagi korall riflari (marjon qoyalari)dan iborat tirik qoplama ikki baravarga qisqargan – ular qurib, rangsizlashib bormoqda. Dunyo okeanlarining sho‘rlanish darajasi ortishi suvosti bioxilma-xilligini halokatga olib keladi.

IV

Muzliklar katta tezlik bilan erimoqda. Bu okean suvlarining ortishi va suv bo‘yiga yaqin hududlarning suv ostida qolish ehtimolini oshiradi. Ayniqsa, Norvegiya, Shvetsiya, And tog‘lari



va Sharqiy Afrikadagi muzliklar global isishdan jiddiy zarar ko‘rgan. Masalan, Antarktidadagi Tueytsa muzligida har yili 80 milliard tonnaga yaqin qor qoplami suvga aylanadi. Grenlandiya muzliklari esa okeanga Antarktidadan ikki barobar ko‘p muz “to‘kadi”. Iqlim isishi sababli Jakarta, Amerikaning sharqiy sohilidagi Nyu York shahri va quyoshli Mayami suv tagida qolishi mumkin deb taxmin qilinmoqda. Osiyoda suv toshqini Shanxay va Mumbayga, Yevropada esa Venetsiya, Amsterdam va Hamburgga tahdid solmoqda. Kaliforniyalik olimlar xulosa berishicha, qutb muzliklarining erishi Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanish tezligini o‘zgartirishni boshlagan, aniqroq aytganda, Yerning aylanishi tezlashgan.

V

Tabiat “chekinmoqda” – bioxilma-xillikning qisqarib ketish jarayoni rekord darajaga yetdi. Yovvoyi hayvonot dunyosi qirilib bormoqda, keyingi 10 yil ichida yovvoyi jonivorlarning tur rang-barangligi chorak qismga kamayishi mumkin. Hozir yashil sayyoradagi biologik turlar soni 60 foizga kamaydi. Masalan, Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog‘i hududidagi 74 ta o‘simlik va 38 ta hayvon Qizil kitobga kiritilgan.

VI

Ana endi maqolamiz boshida “Titanik”ni yodga olganimiz sababini anglagandirsiz? Ulkan kema muz qoyasi oldida taslim bo‘ldi. Bir narsaga amin bo‘laylik: tabiat hech narsani unutmaydi. Biz ham peshanamiz devorga borib urilmaguncha xursandchilik qilamiz. Xavfni ko‘rib qolganimizda esa kech bo‘ladi – yo‘nalishni aslo o‘zgartira olmaymiz.

Internet materiallari asosida tayyorlandi.

1. *Matn qaysi uslubda yozilgan?*
2. *Matnning maqsadi nimadan iborat?*
3. *Unda berilgan faktlar mavzuga mosmi?*
4. *Matnda ilgari surilgan masalaga qanday qo‘shimcha qila olasiz?*

6.1. Matnda tilga olingan global muammolar ro‘yxatini tuzing.

Namuna *1) iqlim o‘zgarishi; …*

6.2. 5-iyun Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni sifatida belgilanishiga nima sabab bo‘lgan edi?


6.3. Gaplarda ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarni sharhlang.

1. Grenlandiya muzliklari esa okeanga Antarktidadan ikki barobar ko‘p muz “to‘kadi”.
2. Tabiat chekinmoqda.

6.4. “Tabiat vaqti: halokatga mahkum sayyora” matni qismlarini sarlavhalar bilan moslashtiring.

I	A)	Bioxilma-xillikning qisqarishi
II	B)	Suvosti dunyosining halokati
III	D)	“Titanik” qismati va sayyoramiz
IV	E)	Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kunining belgilanishi
V	F)	Muzliklarning erishi
VI	G)	O‘rmonlarning kesilishi

6.5. Rasmga yozma munosabat bildiring.



6.6. “Tabiat vaqti: halokatga mahkum sayyora” matni asosida ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

1. Ekologik muammolarga bag‘ishlangan alohida kun belgilanishiga BMT Bosh kotibiga yo‘llangan murojaat sabab bo‘lgan.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

2. Janubiy Amerika Amazonkasi dunyo bo‘yicha eng katta o‘rmon sanaladi.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

3. Har yili Grenlandiya muzliklari 160 million tonnaga kamayadi.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

4. Muzliklar erishi natijasida Kaliforniya suv ostida qolishi taxmin qilinmoqda.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

6.7. Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni belgilanganidan beri yarim asrdan ortiq vaqt o‘tdi. Shu davr mobaynida O‘zbekistonda ekologik muammolarni bartaraf qilish yuzasidan olib borilgan ishlar haqida fikr yuriting.

6.8. “Tabiat vaqti: halokatga mahkum sayyora” matnida berilgan geografik nomlarni ko‘chiring.

Jyul Vern o‘z qahramonlarining ismini geografik xaritadagi joy nomlaridan olgan. Kapitan Hatteras — AQSHdagi burun, kapitan Grant — Arktikadagi Grant yeri, shahzoda Dokar — Afrikadagi port va hokazo.



Geografik nomlar (toponimlar) – joylarga atab qo‘yilgan nomlar.

Geografik nomlar yozilishining asosiy qoidalari:

1. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo‘l* (shaharlar), *Naymancha, Buloqboshi* (qishloqlar), *Bodomzor, Chig‘atoy* (mahallalar), *Zavraq* (dara), *Yarqoq* (yaylov), *Qoratog‘, Pomir* (tog‘lar), *Oqtepa, Uchtepa* (tepalar), *Zarafshon, Sirdaryo* (daryolar), *Yoyilma* (kanal); *Misr, Hindiston* (mamlakatlar).
2. Ikkinchi qismi turdosh ot yoki *obod* so‘zi bilan ifodalangan joy nomlari qo‘shib yoziladi: *Yangiyo‘l, To‘rtko‘l, Mirzacho‘l, Kosonsoy, Beltepa, Beshyog‘och, Yangiobod, Mingchinor* kabi.
3. Ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lgan geografik nomlar ajratib yoziladi: *Markaziy Osiyo, Janubiy Koreya, Yuqori Chirchiq* kabi.
4. Kishilarning ism-familiyasi, taxalluslaridan iborat joy nomlari alohida yoziladi: *General Uzoqov ko‘chasi, Oybek mahallasi, Amir Temur xiyoboni*.

6.9. Geografik nomlarni imlo qoidalari asosida yozing.

Saudiya arabistoni, shimoliy Muz okeani, sahroyi Kabir, Qizil Dengiz, markaziy Osiyo, Turon past tekisligi, Madagaskar Oroli, Marjon-buloq, Shoda soy, yaqin Sharq.

6.10. Tasviriy ifodalarni joy nomlari bilan moslashtiring.

Dunyo tomi	Afrika
Olovlar yurti	Hollandiya
Qora qit’a	Namangan
Yashil qit’a	Asaka
Avtoshahar	Pomir
Lolalar diyori	Avstraliya
Gullar shahri	Ozarbayjon

TIL SANDIG‘I

Tinch okeanmi yoki Tinch okeani?

Bu okean nomini yozishda ko‘p xato qilamiz. O‘zim ham Tinch okeani deb yozish xatoligini bilgunimga qadar shunday yozardim. Nega **Tinch okean** degan so‘z **to‘g‘ri**?

Tinch so‘zi sifat sanaladi va sifatlovchidan keyingi ot egalik qo‘shimchasini olmaydi. Masalan, *yashil daftar, katta kitob* kabi birikmalarni *yashil daftari, katta kitobi* demaymiz. Bu shaklda ishlatadigan bo‘lsak, birikma boshida egalik qo‘shimchasi talab etadigan ot yoki otlashgan so‘z kelishi kerak: *O‘quvchining yashil daftari bor.* Agar ot tushib qoladigan bo‘lsa ham, uning borligini mazmundan bilib turamiz: *Yashil daftari bor.* Demak, kimningdir yashil daftari bor.

Tinch okean so‘zi ingliz tilida *Pacific Ocean*, ruschada *Тихий океан* bo‘ladi. Har ikki tilda ham *tinch* so‘zi sifat. Demak, *Tinch nomli okean* degan mazmun anglashilmayapti. *Tinch okean* birikmasi *qanday okean?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi. E’tibor bersangiz, **Shimoliy Muz okeani** nomida *shimoliy* so‘zi sifat bo‘lsa-da, undan keyin *muz* so‘zi kelyapti. *Muz* ot so‘z turkumiga mansub va undan keyingi so‘z egalik qo‘shimchasini olishi to‘g‘ri.

Nimagadir *Janubiy okean* nomida *Tinch okean*dagi kabi xatoga yo‘l qo‘ymaymiz. Uni *Janubiy okeani* deb atamaymiz. Agar *Tinch okeani* deyishni to‘g‘ri deb qabul qiladigan bo‘lsak, Janubiy okeanni *Janubiy okeani*, Qora dengizni *Qora dengizi* deyishimiz kerak. Bu esa o‘zbek tili nuqtayi nazaridan xatodir. Hatto o‘zbekcha Wikipedia ham, Google ham bu iborada xatoga yo‘l qo‘yadi. Biroq Milliy ensiklopediyada ummon nomi to‘g‘ri yozilgan: *Tinch okean*.

Aytgancha, bu ummonning yana bir nomi bor: *Buyuk okean. Buyuk okeani* emas.

Orif TOLIB

6.11. “Mening qishlog‘im/shahrim 20 yildan so‘ng” tasviriy matnini tayyorlang.

1. *Nima uchun Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kunini belgilashga ehtiyoj tug‘ildi?*
2. *BMT Bosh kotibiga yo‘llangan murojaatnoma kimlar tomonidan tayyorlandi?*
3. *Murojaatnomada jahon hamjamiyati e’tibori qaysi masalalarga qaratildi?*
4. *Fan va madaniyat sohasi vakillarining xavotirlarini o‘rinli deb bilasizmi? Nega?*

6.12. So‘nggi yillardagi iqlim o‘zgarishining yashayotgan hududingizga ta’siri haqida gapirib bering.

6.13. Tabiatni asrashga undovchi quyidagi belgilarga nom qo‘ying.



6.14. Fikrga munosabat bildiring.

Bir narsaga amin bo‘laylik: tabiat hech narsani unutmaydi. Biz ham peshanamiz devorga borib urilmaguncha xursandchilik qilamiz. Xavfni ko‘rib qolganimizda esa kech bo‘ladi – yo‘nalishni aslo o‘zgartira olmaymiz.

6.15. Maqollarni o‘qing. Ulardan “Tabiat vaqti: halokatga mahkum sayyora” matni mazmuniga moslarini aniqlang.

1. Yoz mevasi – qish xazinasi (*o‘zbek maqoli*).
2. Tabiatning qudrati bilan o‘ynashish xavfli o‘yindir (*rus maqoli*).
3. Yilning yaxshi kelishi bahordan ma’lum (*yapon maqoli*).
4. Tabiatning ovozi sokin, lekin uning qudrati buyuk (*fin maqoli*).
5. Tabiatni asragan odam avlodlarga yaxshilik qiladi (*arab maqoli*).
6. Tog‘ havosi – dard davosi (*tojik maqoli*).

6.16. Rasmga sarlavha toping hamda yozma munosabat bildiring.



Audiomatnni tinglang.

ONA KAKLIK 4



6.17. Hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini audiomatn asosida aniqlang.

1. Audiomatndagi ona kaklikning dumalab qochishi nafaqat instinktiv himoya, balki onalik jasoratining ramziy ifodasidir.
   To‘g‘ri Noto‘g‘ri
2. Muallif ona kaklikni tutishga uringan bo‘lsa-da, oxir-oqibat qushni ayyor deb baholab, unga nisbatan tanqidiy yondashadi.
   To‘g‘ri Noto‘g‘ri
3. Muallifning ona kaklikka chalg‘ib ketishi va uyani unutishi hayotda har bir chalg‘ituvchi holat asl maqsaddan uzoqlashtirishi mumkinligiga ishoradir.
   To‘g‘ri Noto‘g‘ri
4. Jonzotlarga shafqat tuyg‘usini muallif shuuriga bobosi singdirgan.
   To‘g‘ri Noto‘g‘ri
5. Muallif kaklikning harakatidan saboq olib, unda hayvonot olamiga nisbatan mehr va mas’uliyat hissi uyg‘onadi.
   To‘g‘ri Noto‘g‘ri

6.18. **So‘zlarning izohini lug‘atdan toping va yozing.**

sobitlik	kamar	sayhonlik
shuvoq	kurk	nar

6.19. **Audiomatndagi voqealarni tartiblab yozing.**

1. Ona kaklik noxushlikni tez payqadi.
2. Poda boqib, zerikib yurgan paytlarimda kakliklarga ishqiboz bo‘lib qoldim.
3. Men podalar o‘tlab yurgan sayhonlik sari ketdim.
4. May oyi o‘rtalarining birida ona kaklik tuxum bosib yotganiga duch keldim.
5. Quvib-quvib, daraning ichiga tushib qoldim.
6. Bolalik ekan-da, kaklikni tutmoqchi bo‘ldim.

6.20. **Bola kaklik tuxumlarini nima uchun olmaganiga audiomatn asosida to‘rtta sabab keltirib yozing.**

1-sabab:
2-sabab:
3-sabab:
4-sabab:

6.21. **Internetdan qushlar hayotiga oid 4 ta qiziqarli fakt topib yozing.**

So‘zlarning antonimini toping, ularning bosh harflari orqali yashirin so‘zni aniqlang.

SO‘Z	ANTONIMI	BOSH HARFI
Maqtanchoq	_ _ _ _ _ _	
Zulm	_ _ _ _ _ _	
Kichik	_ _ _ _ _	
E’tiborli	_ _ _ _ _ _	
Tejamkor	_ _ _ _ _ _ _ _	
Sog‘lom	_ _ _ _ _	

6.22. Quyidagi tasviriy matn asosida kakliklarning nari va makiyoniga xos o‘xshash va farqli sifatlarni qiyoslang.

Keragatosh kakliklari shu buloqdan suv ichadi. Ular qora qosh, tumshug‘i, oyoqlari qizil. Xo‘rozining peshonasi qora, bosh tepasi kulrang, qizg‘ish shu’lali, jig‘ildoni bilan ko‘kragi och havorang, tag qismi sarg‘ish bo‘ladi. Ikki yonidagi patlarida qora-qo‘ng‘ir tusli ko‘ndalang yo‘llari bor. Oyoqlari pixli, makiyoni esa to‘q kulrang, oyoqlari pixsiz, jussasi xo‘rozidan kichikroq.

KAKLIK NARI SIFATLARI	UMUMIY SIFATLAR	KAKLIK MAKIYONI SIFATLARI
***	***	***

Antonimlar – qarama-qarshi ma’noli so‘zlar. Antonimlik ikki so‘z o‘rtasidagi zid munosabat sanaladi, shu bois bir so‘zning tasdiq va inkor shakllari (uzun–uzun emas, bormoq–bormaslik) antonim hisoblanmaydi.

Antonimlar fikrni lo‘nda, aniq va ta’sirli ifodalashda, badiiy tasvirda muhim uslubiy vositadir.

Antonimlarning eng keng tarqalgan turi – ma’nosi to‘liq qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlar, masalan, “issiq” va “sovuq”. Bu antonimlar eng aniq va tushunarli hisoblanadi.

Antonimik juftlikdan foydalanib birining ma’nosi kuchaytiriladi, alohida ta’kidlanadi, tinglovchiga ta’sir etiladi. Kuchaytirish ko‘pincha keyingisiga nisbatan bo‘ladi: *Yuraging **yumshoq** – irodang **qattiq**.*

Kontekstga bog‘liq antonimlar faqat muayyan nutqiy vaziyatlarda qarama-qarshi ma’no kasb etadi. Masalan, “ochmoq” so‘zi eshik uchun “yopmoq” bilan antonim bo‘lsa, majlis uchun “tugatmoq” bilan qarama-qarshi bo‘ladi. Bu antonimlar tilning nozik jihatlarini ochib beradi.

Antonimlar ma’noni bo‘rttiradi, vaziyatning oxirgi chegara-imkoniyat darajasida ekanini ham ko‘rsatadi: *Komiljon **kechani kecha, kunduzni kunduz** demay, o‘z ishiga juda qattiq yopishdi.*

Antonimlardagi zidlik xalq maqollarida ochiq ko‘rinadi. Masalan, *Ko‘z qo‘rqoq – qo‘l botir. Yaxshi topib, yomon qopib gapirar.*

Nutqda antonimlardan o‘ylab va o‘rinli foydalanish zarur, aks holda fikriy g‘alizlik, chalkashlik kelib chiqadi.

6.23. She’riy parchalardan antonimik juftliklarni aniqlab, daftaringizga yozing.

Bu yorug‘ dunyo nadur? Koshonadur, vayronadur,
Senga mehmonxonadur, mehmon o‘zing, mezbon o‘zing.
Bunda oq birla qaro, zulmat, ziyo, shoh-u gado,
Jang qilurlar doimo, ul yon o‘zing, bul yon o‘zing.

Erkin VOHIDOV

To olamda muhabbat-u hijron bordir,
Har insonning yuragida armon bordir.
Har qaydaki salom bo‘lsa, bordir vido,
Har qaydaki bahor bo‘lsa, xazon bordir.

Mirzo KENJABEK

Kimlarning ko‘ngliga qarab kun ko‘rdim,
Yalinib bormayman Baxtning yoniga.
Kulib baxtsizlarga xalaqit berdim,
Yig‘lab baxtlilarning tegdim joniga.

Behzod FAZLIDDIN

Og‘irmi, yengilmi, qay ko‘cha-ko‘yda,
Birov toshib borar, kim esa cho‘kib.
Har kim har xayolda, har kim har o‘yda –
Hayot kemasida tiriklik yuki.

Faxriddin HAYIT

6.24. Nutqiy antonimlar qatnashgan 6 ta maqol toping va yozing.

1. *Ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro hamjamiyat qanday yechimlar taklif qilyapti?*
2. *Siz yashab turgan hududda tabiat qay tarzda muhofaza qilinmoqda?*
3. *Atrof-muhitni asrab-avaylash va himoya qilish borasida jamiyatimizda amal qilayotgan qonuniy choralar yetarlimi?*
4. *Siz va tengdoshlaringiz aholi orasida ekologik madaniyatni shakllantirish uchun qanday takliflar bera olasiz?*

6.25. So‘z juftliklarini o‘qing. Ular ishtirokida gaplar tuzing va nutq uslubidagi farqlarni izohlang.

Adab – odob, imon – iymon, machit – masjid, shabada – shabboda, ajdarho – ajdaho – ajdahor, podsho – podshoh, arava – aroba, nevara – nabira, birorta – bironta, kennoyi – kelinoyi, kaptar – kabutar.

Variantdosh so‘zlarni paronim va sinonimlardan farqlash kerak. Paronimlarda yozilishi va aytilishi bir-biriga yaqin bo‘lgan ikki so‘zning ma’nolari butunlay boshqa-boshqa bo‘ladi: *kompaniya – kampaniya*, *afzal – abzal*, *yondosh – yondash* kabi. Sinonimlarda esa shakl butunlay o‘zgacha, ma’no qirralarida ham farq sezilib turadi: *nam – ho‘l – shalabbo*.

6.26. Gaplarni o‘qing. Variantdosh so‘zlarni topib, har bir gapning qaysi uslubga xosligini aniqlang.

1. *Nevaram quyunday otilib kirib, Qalamim tagidan qog‘ozni yular. (Zulfiya) // Avtotransport bilan bog‘liq ishonchnomani notarial tasdiqlash uchun davlat bojini nabiram Anvar Oripov to‘ladi. (gazetadan)*
2. *Va shabboda qurg‘ur ilk sahar Olib ketdi gulning totini. (H. Olimjon) // Bog‘da o‘tiramiz, muzdakkina shabada biram yoqyapti… (suhbatdan)*
3. *Inson shunday yaralgan: eshitsalar ham, eshitmasalar ham, qalbing buyurganini aytaverasan. (gazetadan) // “Umidning chirog‘i qo‘lingda!” – ayta bersin, ayta bersin yurt. (J. Dugalova)*
4. *Bandasini imonidan ayirmasin. (gazetadan) // Alla aytsang, ayvoningda uxlar quyosh, Senga mudom iymon yo‘ldosh, islom yo‘ldosh. (M. Yusuf)*

6.27. Guruhlarga bo‘lining. Insonning sanoat va ilm-fan texnologiyalari vositasida tabiatni o‘zgartirishga urinishi ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarni yuzaga keltirdi, degan fikrni jadvalda aks ettiring.

T/R	O‘ZGARISH	IJOBIY HOLATLAR	SALBIY HOLATLAR
1.	Ekin maydonlarini kengaytirish	Oziq-ovqat miqdori oshdi	Yovvoyi tabiat qirildi
2.	Yerosti boyliklarini qazish	***	***
3.	Chiqindilarni yoqish	***	***
4.	Sun’iy sug‘orish havzalarini qurish	***	***
5.	Bir martalik plastik mahsulotlardan foydalanish	***	***
6.	Dam olish hududlarini barpo etish	***	***
7.	Osmono‘par binolar qurish	***	***
8.	Koinotni o‘rganish	***	***
9.	Bioturlarni gibridlash va klonlashtirish	***	***
10.	Sanoat korxonalarini kengaytirish	***	***

6.28. Manbalardan variantdosh so‘zlar qatnashgan oltita gap topib yozing.

***


Urush nafaqat mamlakatlar tarixida, balki **odamzod** yuragida ham o‘chmas iz qoldiradi. Ayniqsa, mislsiz qon to‘kilgan Ikkinchi jahon urushi. Gap faqat **insonlar** emas, to‘rt oyoqli do‘stlarimiz haqida ketmoqda. Ular ham urush tufayli boshpanasidan judo bo‘ldi, ochlik va

yo‘qotishlarni boshdan o‘tkazdi, og‘riq va qo‘rquvni his qildi. Ayrim **jonivor**lar askarlar bilan birga **jang**da qatnashgan, ularga ruhiy **dalda bo‘lgan**. Boshqacha aytganda, ular ham g‘alabaga ulkan hissa qo‘shgan.

Ikkinchi jahon urushi inson chidamliligi va zukkolik chegaralarini sinovdan o‘tkazgan global **mojaro** ham edi. Millionlab askarlar, tinch aholi va harbiy texnika ishtirok etganiga qo‘shimcha ravishda **urush** davomida it va otdan tortib kaptar hamda hatto shimol bug‘usigacha turli maqsadlarda qo‘llanib jang, harbiy harakatlar natijasiga ta’sir ko‘rsatdi.

Itlar – jang maydonidagi eng yaqin do‘st

Itlar Ikkinchi jahon urushi davrida turli maqsadlarda eng ko‘p foydalanilgan **hayvon**lar edi. Nemis ovcharkasi, Doberman va Kolli kabi zotli itlarning asosiy vazifalaridan biri xabarchi sifatida xavfli va notekis hududlarda muhim ma’lumotlarni yetkazish bo‘lgan. Itlarning jang maydonini odamlardan ko‘ra tezroq bosib o‘tib, **dushman** kuzatuvchilari ko‘zini shamg‘alat qilish qobiliyatiga ega ekani ularni urushning qizg‘in pallalarida ishonchli yordamchiga aylantirdi. Xabarchi itlar, ayniqsa, radio jihozlari ishlamay qolganda, bo‘linmalar o‘rtasida aloqa o‘rnatishda katta ahamiyatga ega edi va ko‘plab odamlar hayotini saqlab qoldi.



Itlar patrul vazifalarida ham xizmat qilib, askarlarga dushman harakatlarini aniqlash yoki harbiy obyektlarni qo‘riqlashda **yordam berdi**. Ular o‘tkir hid bilish va sezgir instinktlariga tayanib pistirmadagi dushmanlarni topish yoki **yov**ning yashirin kirishga urinishlarini oldindan sezgan va askarlarni ogohlantirishga erishgan. Maxsus tayyorlangan qidiruv-qutqaruv itlari esa vayronalar ostida yoki zich o‘rmonlarda qolib ketgan yarador **jangchi**larni qidirib topgan. Shuningdek, mina qidiruvchi itlar xavfli hududlarga askarlardan oldin qadam qo‘ygan hamda yer ostidagi portlovchi moddalarni aniqlagan. 1945-yili G‘alaba bayrami harbiy paradi qatnashchilari Yo‘lbars laqabli itni birga olib o‘tishgan. Bu iskovuch it urushda 7468 ta mina va 150 ta snaryadni topib, minglab askar va fuqaroni o‘limdan asrab qolgan.

Otlar – logistika tayanchi

Tog‘li hududlar, zich o‘rmonlar va qor-muzli joylarda yuk mashinalari yoki tanklar samarali harakat qila olmagan paytda ot va xachirlar o‘q-dori, oziq-ovqat, qurol-yarog‘ va tibbiy jihozlarni oldingi chiziqqa yetkazish uchun ishlatilgan. Ikkinchi jahon urushi davrida dunyoning ko‘plab **armiya**larida otliq askarlar ham xizmat qilgan. Ayniqsa, urushning dastlabki bosqichida, motorli transport vositalari yetarli bo‘lmagan paytda otliq qo‘shinlar razvedka va tezkor harakatlanish imkonini berardi.

Kaptarlar – qanotli jangchilar



Kaptarlardan foydalanish asrlar davomida mavjud edi, biroq Ikkinchi jahon urushi davrida an’anaviy aloqa vositalari, masalan, radio va telefon tarmoqlari dushman hujumi yoki geografik to‘siqlar sababli ishdan chiqqan vaziyatlarda kaptarlar oddiy, ammo samarali yechimga aylandi. Bu qushlar kichik kapsulalarda muhim xabarlarni katta masofalarga olib o‘tish uchun tayyorlangan bo‘lib, ko‘pincha dushman chizig‘i ustidan uchib o‘tardi.

Pochta kaptarlari ishtirok etgan eng mashhur **amaliyot**lardan biri Britaniya razvedkasining “Kolumba operatsiyasi” edi. Bosib olingan hududlardagi mahalliy qarshilik kuchlari va tinch aholi vakillari kaptarlar oyog‘iga biriktirilgan kichik konteynerlarga razvedka ma’lumotlarini joylashtirishgan. Keyin kaptarlar nemis qo‘shinlari harakati va harbiy obyektlar haqidagi muhim xabarni Britaniyaga olib ketgan.

Fil, shimol bug‘usi va tuyalar: mintaqaviy xususiyat va kuch

Ba’zi mintaqalarda an’anaviy bo‘lmagan hayvonlardan ham foydalanildi. Masalan, fillar zich o‘rmonlardan o‘tib, og‘ir artilleriya, ta’minot va qurilish materiallarini tashigan. Finlyandiyaning Arktika hududlarida shimol bug‘ulari qorli joylarda ta’minot va askarlarni tashish uchun ishlatilgan. Ayniqsa, fin **qo‘shin**lari ekstremal sovuqda ham tez harakatlanish qobiliyatiga ega bo‘lgan bu hayvonlarga juda suyangan. Ingliz va nemis **harbiy kuch**lari esa yoqilg‘i va suv tanqis bo‘lgan Shimoliy Afrika sahrolarining qattiq va quruq iqlimiga moslashgan tuyalar karvonida ta’minot olib o‘tgan.

Mushuklar – ruhiy hamda gigiyenik yordamchilar

Mushuklardan kema va kazarmalarda kemiruvchilarga qarshi kurashda foydalanilgan. Ushbu yoqimtoy jonivorlar oziq-ovqat zaxiralarini saqlash va askarlarning sog‘lig‘ini himoya qilishda ularga ruhiy ko‘mak ham bergan.

Ikkinchi jahon urushi davrida hayvonlardan foydalanish ularning amaliy qiymatini va inqiroz davrida inson va hayvonlar o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni namoyon etdi. Dushman chizig‘i ortiga xabar olib o‘tish, murakkab hududlarda yuk tashish yoki askarlarga ruhiy yordam ko‘rsatish kabi vazifalar bilan hayvonlar harbiy **operatsiya**larning muvaffaqiyatiga munosib ulush qo‘shdi. Ko‘p hollarda texnologiya bajara olmagan ishlarni uddaladi, bu esa eng mexanizatsiyalashgan urushda ham jonivorlarning o‘rnini almashtirib bo‘lmasligini ko‘rsatdi.

Iqbol ERGASHEVA, qalampir.uz

1. *Urush hayvonlar hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?*
2. *Jonivorlar urush davrida halokat va talafotlarning kamayishiga qay tariqa hissa qo‘shgan?*
3. *Matndagi sizda eng kuchli taassurot qoldirgan o‘rinni bayon qiling va sababini izohlang.*

6.29. Matnga qanday sarlavha qo‘yish mumkin? Fikringizni izohlang.

SARLAVHA	SARLAVHA TANLASHGA ASOS BO‘LGAN JUMLALAR
***	***

6.30. Testlarni yeching.

1. Urush oqibatlarini ko‘rsating. Javoblar bir nechta bo‘lishi mumkin.

A) Jonivorlar boshpanasiz va oziq-ovqatsiz qoladi.
B) Tabiiy iqlim o‘zgarishlariga sababchi bo‘ladi.
D) Hayvonlardan turli maqsadlarda foydalaniladi.
E) Mislsiz qon to‘kiladi.

2. Ikkinchi jahon urushida qahramonlik ko‘rsatgan qaysi hayvon 1945-yil G‘alaba paradida qatnashgan?

A) Shimol bug‘usi B) xachir D) fil E) it

3. Fin qo‘shinlari ekstremal sovuqda qaysi hayvonning xizmatidan foydalangan?

A) fillar B) tuya D) it E) bug‘u

4. Itlardan qaysi ishlarda foydalanilgan? Bir nechta javobni belgilang.

1) harbiy obyektlarni qo‘riqlashda
2) yarador jangchilarni qidiruv-qutqaruv ishlarida
3) kemiruvchilarga qiron keltirishda
4) minalarni topishda
5) razvedka ma’lumotlarini yetkazishda
6) ta’minot yuklarini tashishda

6.31. Matn asosida hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

1. Ikkinchi jahon urushi insonning aqliy salohiyatini sinovdan o‘tkazgan global mojaro ham edi.

   To‘g‘ri Noto‘g‘ri

2. Pochta kaptarlaridan foydalanish ilk bor Ikkinchi jahon urushi davrida an’anaviy aloqa vositalari, masalan, radio va telefon tarmoqlari dushman hujumi yoki geografik to‘siqlar sababli ishdan chiqqan vaziyatlarda oddiy, ammo samarali yechimga aylandi.

   To‘g‘ri Noto‘g‘ri

3. Germaniya ovcharkasi, doberman va kolli zotli itlarning asosiy vazifalaridan biri xabarchi sifatida xavfli va notekis hududlarda muhim ma’lumotlarni yetkazish bo‘lgan.

   To‘g‘ri Noto‘g‘ri

4. “Millionlab askarlar, tinch aholi va harbiy texnika ishtirok etganiga qo‘shimcha ravishda, urush davomida it va otdan tortib kaptar va hatto shimol bug‘usigacha turli maqsadlarda qo‘llanib, jang va harbiy harakatlar natijasiga ta’sir ko‘rsatdi”. *Ushbu gapda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xato mavjud.*

   To‘g‘ri Noto‘g‘ri

6.32. Matnda ajratib berilgan so‘zlardan ma’nodoshlar qatorini hosil qiling.

Namuna *jangchi – askar, …*

6.33. Matnning har bir qismini nomlashdan qanday maqsad ko‘zlangan? Fikringizni asoslang.

6.34. “Xatiko” badiiy filmini ko‘rib, inson va hayvon do‘stligi haqida matn tuzing.

1. *Urushda ishtirok etgan hayvonlar haqidagi matn qaysi uslubga xos?*
2. *Urushda ishtirok etgan hayvonlar haqidagi matn maqsadi nimadan iborat?*
3. *Urushda ishtirok etgan hayvonlar haqidagi matndan qanday xulosa chiqardingiz?*

Gap tarkibidagi ma’lum bo‘lakning ma’nosini ta’kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo‘laklardan to‘xtam va ohang jihatidan ajralib turuvchi bo‘laklar **ajratilgan bo‘laklar**, shunday bo‘lakli gaplar esa **ajratilgan bo‘lakli gaplar** deyiladi.

Gap bo‘laklari ikki xil yo‘l bilan ajratiladi:

1. Kesim, ega, hol, to‘ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi va undalmadan keyin xuddi shunday bo‘lakni keltirish orqali: *Mayli, senga tadbir boshlangunga qadar* – ***uch soat*** *muhlat beramiz*. *Darveshali (**Navoiyning ukasi**) bir muddat hokim bo‘lgan. Davlat biz* – ***yoshlarga*** *barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. Endi Salim akaning, **menejerimizning**, mavzu yuzasidan fikrlarini tinglasak. Otabek, **do‘stingiz**, bu muvaffaqiyatga qanday erishdi?* Bunda ajratilgan bo‘lak izohlash vazifasini bajaradi va boshqa bo‘laklardan tire, qavs yoki ikki tomondan vergul bilan ajratiladi. Ajratilgan bo‘laklar bir narsani atashi, tinish belgilari hamda ular oldidan *ya’ni* so‘zini qo‘yish mumkinligi bilan uyushiq bo‘laklardan farqlanadi.

2. Sifatlovchi aniqlovchi va ravish holi tartibini o‘zgartirish (o‘zi tobelangan so‘zdan keyin yoki gap oxirida keltirish) orqali: *Bir uy ko‘rdim* – ***katta, zamonaviy***. *Yovga hujum qil* – ***tuyqus, shiddatkor.***


6.35. Ajratilgan bo‘laklarni aniqlang va turini ayting.

1. Dunyo bir gulzordir – keng va betimsol, Yulduzlar g‘unchadir uning ichida. (A. Oripov)
2. Insonni ehtiros emas, uning buyuk bisoti – aqli, tafakkuri boshqarishi kerak. (E. Vohidov)
3. Komil buvaning uyi shu yong‘oqzorning ichida – Bo‘rijarning qoq ustida emish. (O‘. Hoshimov)
4. Bu yerda ham o‘zlarini shunday tutishadi – ozod, erkin. (Erkin A’zam)
5. Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam, Qo‘msayman birovni, allakimimni. (G‘afur G‘ulom)
6. Dadam sharqirab oqayotgan ariq bo‘yida, bir tup sadaqayrag‘och tagida to‘xtadi. (Said Ahmad)

Odamzod o‘rgimchakdan osma ko‘prik qurishni o‘rgandi. Mushuklarni kuzatib, fotoapparat diafragmasi va nur qaytargichlarni kashf qildi. Diqqat, savol: odamzod ilonga qarab nimani yaratdi? To‘g‘ri javob aks etgan rasmni tanlang.









6.36. Elektron ro‘yxatdan o‘tish shakllarini to‘ldiring va harakatlar ketma-ketligini yozing.


1




2




3



4



5



6.37. Arizani o‘qing va xatolarni to‘g‘rilab ko‘chiring.

Toshkent shahri Mirobod tumani
980-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
direktori R.Y.Ilhomovaga
Toshkent shahri Ziynat ko‘chasi
2-uyda turuvchi M.Toshmatovadan

Ariza

Men Muqaddas Toshmatova farzandim – Soliha Toshmatova 7 yoshga to‘lgani munosabati bilan uni shu maktabni birinchi sinifiga qabul qilishingizni iltimos qilaman.

Ilova:

1. Tug‘ilganlik haqidagi guvohnomadan ko‘chirma
2. Tibbiy ma’lumotnoma
3. 3x4 o‘lchamli 2 dona rasm

(imzo) M.M.Toshmatova
2024-yil 1-avgust

6.38. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Otam Ulug‘bek Akbarovich Markaziy bankda ishlaydilar.
2. Bu o‘zbek yigiti tanti, mehribon.
3. Akam shu atrofdan shahar markazidan do‘kon qidirdi.
4. Unsin uchun bechora qiz uchun bu qanday mudhish motam!
5. Boyagi yigitning Avazning qo‘li gul ekan.
6. Sizga o‘rta bo‘yli qizga atlas juda yarashibdi.

6.39. Ajratilgan bo‘lak ishtirok etgan gaplarga 5 ta misol yozing.

Namuna *Biz,* ***ota-o‘g‘il,*** *uydan chiqib bobomning hovlisiga bordik.*

6.40. Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

1. ***Behbudiyning geografiya sohasiga qo‘shgan hissasi haqida mulohazalaringizni bayon qiling.***
2. ***Ajratilgan bo‘lak ishtirok etgan gaplarni aniqlang va tinish belgilarini izohlang.***

O‘z zamonasining ilg‘or fikrli vakili Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat mamlakat yoki mintaqa, balki dunyo miqyosida fikrlay olgan, sayyoramizda yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlardan mamlakat taraqqiyoti yo‘lida samarali foydalanish imkoniyatlarini ko‘ra olgan. Behbudiy qator mamlakatlarni kezib chiqqan sayyoh, o‘z kuzatishlari natijasida yangi usul maktablari uchun geografiya fanidan muhim darsliklarni birinchi bo‘lib yaratgan olimdir.

Mutaxassislarning fikricha, O‘zbekistonda zamonaviy geografiya fanining poydevori olim XX asrning boshlarida, o‘lkamizda ma’rifatparvarlik harakati avj olgan davrda, chop ettirgan qator jug‘rofiy asarlari bilan bog‘liq. Sakkiz oylik sayohati davomida Behbudiy ulkan hajmdagi ilmiy ishlarni: o‘zi tashrif buyurgan shaharlar va mamlakatlar aholisining ijtimoiy-siyosiy ahvoli bo‘yicha kuzatuvlari, esdaliklarini “Sayohat xotiralari” nomi bilan chop qildi.

Behbudiy “Geografiya inson uchun quyosh kabi zarur”, deb hisoblaydi. Uning “Ulug‘bek rasadxonasi”, “Yer”, “Quyosh” kabi ilmiy-ommabop maqolalari, boshqa mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlardan tarjimalari o‘z zamonasida qiziqib mutolaa qilingan. Bunday maqolalarning geografik miqyosi keng bo‘lib, turli hudud va qit’alarni qamrab olgan. “Oyina” jurnalida Rossiya, Misr, Suriya, Hindiston, Xitoy – Parijdan Yaponiyaga qadar davlatlar aholisining ijtimoiy hayoti haqida qiziqarli lavhalar (ularning aksariyatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan) muntazam chop etilgan.

Karomiddin GADOYEV

6.41. Gaplardagi ajratilgan bo‘laklarni toping va tinish belgilari qo‘yilishini tushuntiring.

1. Ko‘rdingizmi, sodda qush deganimiz, ona kaklik, menday bir aqlli cho‘pon bolani qanday chalg‘itib, tuxumlarini, bo‘lajak jo‘ja-bolalarini asrab qoldi. (*Azim Suyun*)
2. Bu yog‘i endi eski dard – tanballik, hafsalasizlik. (*Erkin A’zam*)
3. Boshim qo‘yay bugun xoki poyingizga,
   Qalbim to‘la mehr – daryo, soyingizga,
   Mehribonim, tanhogina jonajonim,
   Boringizga shukr, ona, boringizga. (*Xurshid Karim*)
4. Hamma davrlarda ham suvni saxovatli dalalar egasi, bobodehqonlar ixtiyoriga yetkazib berish oson kechmagan. (*“Xalq so‘zi” gazetasi*)

6.42. Quyidagi hayotiy vaziyatlarda siz qanday yo‘l tutasiz?

***

Buvim: “Yozning issiq kunida daraxtlarni sug‘or”, – deydilar. Ariqda suv yo‘q. Bobom: “Quvurdan kelayotgan ichimlik suvini daraxtlarga quyib, uvol qilma”, – deydilar. Endi kimning aytganini qilay?

***

Yozning issiq kunida atrofda pashsha bilan chivin ko‘paygan. Derazani ochsam, uy ichiga pashsha, chivin kirib hammani bezor qiladi. Derazani yopib qo‘ysam, toza havo yetmaydi. Nima qilsam to‘g‘ri bo‘ladi?

***

Onam va buvim “Qaynamagan suv ichma, qorning og‘rib qoladi”, deb tayinlashadi. Bobom esa “Ichaversin, organizmi o‘rganadi, immunitet shakllanadi”, deb ularga qarshilik bildiradilar. Kimning aytganiga quloq solay?

***

Oyim “Oyoqyalang yurma, tosh botadi, shisha sinig‘i kirib ketishi mumkin”, deb xavotir oladilar. Dadam esa “Kun issig‘ida 20–30 daqiqa yalangoyoq yurish foydali. Odam yerdan bahra oladi, tuproq ko‘p kasalliklarga shifo”, deb meni yalangoyoq yurishga undaydilar. Qay biri to‘g‘ri?

Gulxan.uz

6.43. “Insonning tabiatga ta’siri” mavzusida matn tuzing. Matnda ajratilgan bo‘lakli gaplardan foydalaning.

VII BOB

SAN’AT



7.1. Suratlarda qaysi san'at turlari tasvirlangan? Ularning qay bir(lar)i inson ruhiyatiga kuchli ta'sir qiladi?











7.2. Nuqtalar o'rniga ta'riflarga mos so'zni topib, matnni ko'chiring. Javobni topishda qaysi so'zlar sizga yordam berdi?

Yaratilish maqsadi va foydalanish shakliga ko'ra san'atni **badiiy** va **amaliy** san'atga ajratish mumkin.

Insonning ichki kechinmalari, g'oyalari, estetik qarashlarini ifodalovchi va asosan go'zallik yaratish, hissiyot uyg'otish maqsadida yaratiluvchi tur ..... san'at deyiladi.

Kundalik hayotda foydalaniladigan buyumlarni bezash va ularni estetik jihatdan go'zal qilishga yo'naltirilgan tur ..... san'at deyiladi.

7.3. Quyidagi san'at turlarini maqsadi va foydalanish shakliga ko'ra guruhlang.

Zardo'zlik, rassomchilik, kulolchilik, gilamdo'zlik, teatr, kashtachilik, kino, naqqoshlik, badiiy miniatyura, qo'shiqchilik, haykaltaroshlik, xattotlik, raqs, musiqa, me'morchilik, badiiy adabiyot, fotografiya, grafik dizayn, ganchkorlik, pichoqchilik, notiqlik, yog'och o'ymakorligi, do'ppido'zlik, oshpazlik, tikuvchilik.

Amaliy san'at	Badiiy san'at

1. *Agar siz san'atning biror turini o'rganmoqchi bo'lsangiz, qaysi birini tanlar edingiz va nega?*
2. *Sizningcha, bugun san'atning qaysi sohalari eng serdaromad? Fikringizni hayotiy misollar bilan asoslang.*
3. *San'atkorlar, taniqli kishilar uchun nutq madaniyatiga amal qilish qay darajada muhim?*

7.4. So'nggi yillarda sun'iy idrok jadal rivojlanib bormoqda. Buning san'at sohasi rivojiga qanday ta'siri bor?

7.5. Qaysi san'at turiga qiziqishingiz haqida matn tuzing.

Ayrimlar musiqa inson salomatligiga salbiy ta'sir qiladi deb hisoblaydi, boshqalar esa bu fikrga qo'shilmaydi. Siz nima deb o'ylaysiz?

MUSIQIY TERAPIYA

Musiqani tanlab eshitgan kishi miriqib **dam oladi.** Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari "Og'riqni qoldirish" faslida yozilishicha, tibbiy vositalar qatorida yoqimli ohang, ayniqsa, uyqu keltiradigan musiqalar bosh miya uchun foydali bo'lib, tanadagi og'riqlarni davolashga ham qodir ekan. Ulug' olim *"Uyqu va bedorlik"* tahliliga bag'ishlangan qismida musiqa umidsizlik va tushkunlik girdobida qolgan xastalarni tinchlantiruvchi vosita ekanini ma'lum qilgan.

Shovqinli musiqalar odamning miyasiga go'yoki tosh bilan urgandek ta'sir etib, **oxir-oqibat** kasalliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, shovqin tufayli yurak urishi tezlashishi, qon bosimi oshishi va nafas olish buzilishi mumkin. Shuningdek, ko'zning ko'rish qobiliyati, ranglarni ajratish xususiyati pasayadi. **Shovqin-suron** bolalar va keksalar organizmiga katta ziyon yetkazadi.

Restoran, choyxona, qahvaxona va shunga o‘xshash joylarda o‘tkaziladigan **o‘yin-kulgi**, **ko‘ngilochar** tadbirlarda musiqachilar maxsus uskunalar yordamida tovushni o‘ta kuchaytirib yuborishadi. Hosil bo‘lgan shovqin-suron ko‘pchilikning sog‘lig‘iga zarar yetkazadi. Hatto sozandalarning o‘zi uchun ham bu xavfli sanaladi. Ko‘p hollarda musiqa va ashulaning baland qo‘yilishi tinglovchiga **huzur-halovat** bag‘ishlamaydi. Aksincha, uning asabiga tegadi, sog‘lig‘ini yomonlashtiradi.

Inson organizmidagi barcha tizim va a’zolar me’yorida ishlashi uchun dastavval undagi ichki muhit (gomeostaz) barqaror bo‘lishi kerak. Musiqaviy stress omillari immun tizimiga, oksidlanish va qaytarilish xususiyatlarini belgilovchi fermentlar miqdori va faolligiga, aminokislotalar, yog‘ kislotalari, shakar hamda gormonlar kabi biologik faol moddalar tabiatiga kuchli ta’sir etadi. Shu boisdan yuzaga keladigan o‘zgarishlar tana faoliyati bilan bog‘liq noxush holatlarni keltirib chiqaradi.

Musiqaning **shifobaxsh** xususiyatlari qadimdan ma’lum. G‘azabni musiqa sadolari bilan davolashgan. Insonning shaxs sifatida shakllanishiga musiqaning ijobiy ta’sir qilishini Arastu ham qayd etgan. Musiqaning shifobaxshligi uning qanday ritmga ega ekaniga bog‘liq. Masalan, milliy mumtoz kuylar yangraganda tana bo‘shashib, ruhiyat **orom oladi**. Betxoven yoki Motsart kuylari inson tanasining biologik ritmlariga juda yaqin bo‘lib, ijro etilganida u bilan uyg‘unlashib ketadi.

O‘zbek sozandalarining mumtoz kuylari, ayniqsa, *“Ushshoq”* singari kuylar tinglanganda bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘idan yozib olinadigan biopotensiallar yuqori chastotali qo‘zg‘atuvchi ritmlar (β ritm)dan tinch-osoyishta holat ritmi (α-ritm)ga aylanar ekan. Mashhur olim, akademik Bexterev musiqa odamga jismoniy tetiklik va **kuch-quvvat** bag‘ishlashini hamda qon aylanish jarayonlariga ijobiy ta’sir etishini alohida ta’kidlagan. Taniqli jarroh Petrovskiy esa og‘ir va murakkab amaliyotlar paytida sokin musiqalarni eshitgan.

Inson salomatligiga musiqaning salbiy va ijobiy ta’sirini hisobga olgan qadimgi tabiblar har bir bemorning mizojiga qarab musiqa **tavsiya etganlar**. Masalan, ingichka tovushlar ruhiyatga keskinlik, past va yo‘g‘on tovushlar esa xotirjamlik baxsh etishi aniqlangan. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, asab, yurak-qon tomir tizimi, oshqozon-ichak yo‘llari yallig‘lanishi, nafas a’zolari xastaliklariga musiqiy terapiya ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chiroyli kuy xush kayfiyat bag‘ishlaydi. To‘g‘ri buyurilgan dori-darmon va **shirinso‘z** shifokor muolajasi, dilrabo musiqa ta’sirida bemorning sog‘ayishi fanda allaqachon isbotlangan.

Ruhshunos olimlarning tadqiqotlaridan ma’lum bo‘ldiki, yaxshi musiqa insonning asab tizimini muloyim qiladi, ovqat hazm qilish a’zolari ishini me’yorga soladi, qon aylanishini tezlashtiradi, nafas yo‘llari faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, darmonsizlik va uyqusizlikni ham davolaydi. Ayniqsa, mehnat unumini oshirishda musiqaning ahamiyati muhim.

Nigora ORZIMURODOVA

1. *Musiqaning sog‘liqqa ta’siri haqida oldin qanday fikrda edingiz? Ushbu matnni o‘qigach, qarashingiz qanday o‘zgardi?*
2. *Musiqaning inson salomatligiga qanday foydali ta’siri bor? Fikringizni matnga tayanib asoslang.*
3. *Musiqa salomatlik uchun foydali yoki zararli bo‘lishi uning qaysi jihatlariga bog‘liq?*
4. *“Ushshoq” kuyi miyada qanday o‘zgarishlar yuzaga keltirishi haqida gapirib bering.*

7.6. Jadvaldagi so‘zlarning matndagi izohini yozing va lug‘atdan tekshiring.

SO‘ZLAR	TAXMINIY IZOHINGIZ	LUG‘ATDAGI MA’NOSI
terapiya	***	***
mizoj	***	***
gomeostaz	***	***
oksidlanish	***	***
biopotensial	***	***
chastota	***	***
ritm	***	***
ruhiyat	***	***
ferment	***	***
immun tizimi	***	***

7.7. Matn asosida musiqa turlarining xususiyatlarini davom ettiring.

SOKIN VA YOQIMLI MUSIQA	SHOVQINLI MUSIQA
Tinchlantirib, uyquni keltiradi.	*Qon bosimini oshiradi.*
***	***

7.8. Muallifning musiqaga umumiy munosabati qanday: ijobiymi yoki salbiy? Fikrlaringizni matnga tayanib asoslang.

7.9. Qo‘shiqni so‘zi mashhur qiladimi yoki musiqasi? Muhokama essesini yozing.

Bugun musiqaning o‘rni qanday? Musiqani faqat ko‘ngilochar vosita sifatida ko‘rish to‘g‘rimi yoki undan boshqa maqsadlarda ham foydalanish mumkinmi? Fikringizni ravon ifodalang.

Og‘zaki nutqda fikr yetishmasligi, mavzu haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lmaslik, tajribasizlik natijasida “yopishqoq” va ma’nosiz birliklar qo‘llanadi. Bular ayni ma’nosida ishlatilmaydigan parazit so‘zlar *(xo‘sh, haligi, anaqa, masalan, demak)*, ma’nosiz birliklar *(eee, imm, mmm)* va varvar so‘zlar *(tak shto, davay, uji)* hisoblanadi. Ular nutqning sofligini buzadi. Nutqda ulardan tiyilish muhim.

Misollar: 1. *Chingizxon, haa, Samarqand, Buxoro, haa, Xivani egallashda ham shafqatsiz bo‘ldi*. 2. *Anavi, haligi, dandon sopli pichog‘ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini bergani keldim*.

7.10. “Musiqiy terapiya” matnidan qanday xulosa chiqardingiz? Nega aynan shunday deb o‘ylaysiz? Fikrlaringizni rejalashtirib, 1-2 daqiqalik nutq bayon qiling.

7.11. Baholash mezoni asosida sinfdoshlaringizning fikr bayonida ravonlikka amal qilish darajasini baholang.

T/R	MEZON	3 BALL (YUQORI)	2 BALL (O‘RTA)	1 BALL (PAST)
1.	**Parazit so‘zlardan foydalanish darajasi**	Umuman uchramaganda	1-3 o‘rinda uchraganda	4-6 o‘rinda uchraganda
2.	**Ma’nosiz birliklarning uchrash darajasi**	Nutq ravon, to‘xtalmasdan ifodalanganda	1-3 o‘rinda ravonlik buzilganda	4-6 o‘rinda ravonlik buzilganda
3.	**Varvar so‘zlardan foydalanish darajasi**	Umuman uchramaganda	1-3 o‘rinda uchraganda	4-6 o‘rinda uchraganda


7.12. Berilgan jumlalar fakt yoki fikr ekanini “Musiqiy terapiya” matni asosida aniqlang.

T/R	JUMLALAR	FAKT/FIKR
1.	Petrovskiy murakkab amaliyotlar paytida sokin musiqa eshitgan.	***
2.	Shovqinli musiqa odamga go‘yo tosh bilan urgandek ta’sir qiladi.	***
3.	Motsart musiqasi biologik ritmlar bilan uyg‘un.	***
4.	Musiqa bemorlarning tezroq sog‘ayishiga yordam beradi.	***
5.	Mumtoz kuylar zamonaviy musiqalardan ustundir.	***
6.	Musiqaning baland qo‘yilishi yurak urishini tezlashtiradi.	***
7.	Musiqa – eng kuchli san’at turi.	***
8.	G‘azabni musiqa sadolari bilan davolashgan.	***

7.13. Siz musiqa tanlash va tinglash borasida boshqalarga qanday maslahat bergan bo‘lardingiz?

7.14. “Musiqa va salomatlik” mavzusidagi intervyu uchun 7-8 ta savol tuzing.

Ikki sinfdosh suhbatlashyapti. Qiz yigitga xotirjam va yumshoq ohangda “Yaxshi bo‘pti” dedi, yigit esa istehzo bilan keskin ohangda “Yaxshi bo‘pti” deb qaytardi.



“Yaxshi bo‘pti” gapidagi ikki xil ohang va mazmuniy farqni tushuntiring. Qay holatda shunday bo‘lishini asoslang.

1. Baland ovoz g‘azab ifodasi bo‘lishi mumkinmi?
2. Nutqda jilmayish qanday mazmunni ifodalaydi?
3. Pauzalar nutqdagi ma’no va urg‘uni o‘zgartirishi mumkinmi?
4. Yuz ifodasi nutqni tinglovchi tushunishini osonlashtiradimi?
5. Tez gapirish nimani ifodalaydi?

Og‘zaki nutq mazmuniga ohang, to‘xtam, yuz ifodasi ham ta’sir qiladi. Gapdagi ***ohangning ko‘tarilishi yoki pasayishi*** orqali taajjub, buyruq, norozilik kabi hissiyotlar ifodalanadi. ***Yuz ifodasi*** ham gap mazmuniga turli hissiy munosabatni yuklaydi: norozilik, kinoya, mamnunlik, charchoq va boshqalar. Shuningdek, gap sur’atining *tez yoki sekinligi,* undagi to‘xtamlar ham muayyan mazmun tashiydi. ***Tez nutq*** – hayajon, shoshilish belgisi; ***sekin nutq*** – jiddiylik, o‘ychanlik yoki tushkunlik belgisi; ***to‘xtam*** esa hayrat, noaniqlik, pushaymonlik mazmunini ifodalashi mumkin.

7.15. Quyidagi gaplar ohangi orqali qanday mazmun ifoda etilayotganini aniqlang.

T/R	GAP	OHANGI VA YUZ IFODASI	MAZMUNI
1.	Sen keldingmi?!	Hayrat bilan, yuqori ohangda	***
2.	Sen keldingmi?	Sovuqqonlik bilan, past ohangda	***
3.	Sen keldingmi?!	Achchiqlanib, baland ohangda	***

7.16. Gaplarni o'qib ohangini, to'xtamini va hissiy mazmunini aniqlang. Qanday talaffuz qilinishiga ko'ra tinish belgilarini qo'yib, namuna asosida yozing.

Namuna *Senga ishongandim lekin sen barchasini barbod qilding*

Ohang: *xafalik, tanbeh ohangi bilan*

Pauza: *ishongandim,* ***[pauza]*** *lekin… barbod qilding* ***[undov]***

His-tuyg'u: *ishonchni yo'qotish, g'am, ranjish*

Gapda tinish belgilari: *Senga ishongandim, lekin sen barchasini barbod qilding!*

1. Men faqat hazillashmoqchi edim jiddiy qabul qilishingni istamagandim 2. Voy bu juda ajoyib sovg'a men buni kutmagandim 3. Mayli sen g'alaba qozongan bo'lsang ham bu meni qiziqtirmaydi 4. Ha men aybdorman lekin hech bo'lmasa meni tushunishga harakat qil 5. Ha men buni kutmagan edim lekin baribir sen menga shunday muomalada bo'lganing alam qiladi

7.17. Muloqotda tana harakatlari va yuz holati qanday mazmunni ifodalashini rasmlar asosida muhokama qiling.

1 2 3 4



7.18. Quyidagi gaplarni qanday ohanglarda aytish mumkin va qanday mazmunni ifodalaydi?

1. Ha, sen haqsan.
2. Barakalla!
3. Qani, o'zing ayt-chi?
4. Bo'ldi, endi yetar.
5. Men faqat yordam bermoqchi edim.

7.19. Biror intervyu, film parchasi yoki ko'rsatuvni tomosha qiling. Ishtirokchilarning gapirish ohangi, to'xtamlari va yuz ifodasi ular nutqining mazmuniga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida xulosa yozing.

1. *Teatrga tushganmisiz yoki biror sahna asarini tomosha qilganmisiz? Taassurotlaringiz qanday bo'lgan?*
2. *Qaysi aktyor ijodiga qiziqasiz? Fikringizni misollar bilan bayon qiling.*

"Navoiy – 30" asaridan olingan parchani o'qing.

***

Birinchi kursda bizga antik adabiyot fanidan Viloyat Fayziyeva degan dotsent opa dars bergan edi. Sofokl ijodini o'rganishga yetib kelganimizda u kishi:

– Shanba kuni Hamza teatrida "Shoh Edip" spektakli o'ynaladi. Bosh rolda – Shukur Burhon. Kechqurun soat besh yarimda hammangizni teatr kassasi oldida kutaman. Birgalashib ko'ramiz, keyin darsda muhokama qilamiz, – deb e'lon qildi.

G'irillab shanba ham yetib keldi. Biz, nodon, o'yinqaroq talabalar, tabiiyki, teatr haqidagi gapni aytilgan zahoti unutgan edik. To'g'ri-da, o'zingiz o'ylang axir, haftada bir keladigan muborak kun – shanbani futbol yo choyxonadagi osh o'rniga qanaqadir teatrga qurbon qiladigan anoyi bor ekanmi?

Vijdoni picha qiynalgan bitta-yarimtamiz esa darhol o'zimizni oqlaydigan vaj-korson topdik: kelarmidi, aytdi-qo'ydi-da. Nima, bu xotinning boshida eri, qaynonasi, bola-chaqasi, uyida ro'zg'or tashvishi yo'qmi, ishdan keyin biz bilan teatrda yetaklashib yursa…

Dushanba kuni barchamizni g'am bosdi: ma'lum bo'ldiki, yigirma beshta talabadan birontasi "Shoh Edip"ga bormabdi. Shoh bo'lsa o'ziga.

Antik adabiyot darsi boshlandi. Opa Homer haqidagi mavzuni juda maroqli qilib tushuntirib berdi. Xayriyat, teatrga kelmagan ekan, deb biz ham yengil tortdik.

– Shanba kuni sizlarni teatrda bir soat kutdim, – dedi. – Afsus, kelmadinglar. Kelasi shanba soat besh yarimda kassa oldida kutaman. Xayr.

Qattiqqo'l, talabchan bu opaning bizni koyib-netib o'tirmaganini ko'rib, hayron qoldik.

Yana shanba keldi. Har kim har yoqqa tarqab ketdi. Spektakl tag'in esdan chiqdi.

Dushanba kuni ma'lum bo'ldiki, yigirma beshta talabadan uchta qiz, ular ham tug'ilgan

kundan chiqib, teatrga boribdi. Dotsent Viloyat Fayziyeva bilan "Shoh Edip"ni tomosha qilishibdi. Ularning spektakl haqidagi taassurotlari "Dahshat!" degan bitta so'zdan iborat edi.

Tag'in antik adabiyot darsi boshlandi. Opa Esxil ijodi haqida zo'r ma'ruza qildi. Dars tugagandan keyin bizga qarab sekingina:

– Shanba kuni kutdim, yigirma ikki kishi yana kelmadi, – dedi. – Afsus. Sizlarga bitta savolim bor: Toshkentga nega kelgansizlar o'zi? Nufuzli universitetda o'qiyapman, deb avvalo ota-onangizni, keyin o'zingizni aldab yurgandan ko'ra haliyam kech emas – qishloqlaringizga qaytib ketganingiz ma'qul. Dalangizda qo'y boqib, bog'ingizda olma qoqib yursangiz ham, kuningiz o'tadi. Lekin teatrni, galereyani, konservatoriyani, muzeyni ko'rmasdan-bilmasdan turib, odam qanday jurnalist bo'lishi mumkin? Qanday ziyoli bo'lishi mumkin? Ertaga boshqa millat vakillari bilan qanday teng bo'lib gaplashishi mumkin?

Hammamiz boshimizni egib olgan edik.

– Shanba kuni soat besh yarimda sizlarni teatr kassasi oldida kutaman, – dedi opa, keyin sirli ohangda qo'shib qo'ydi: – Ey nodon bolalarim, Shukur Burhon ham g'animat, ko'rib qolinglar. Xayr.

Domlaning gaplari jon-jonimizdan o'tib ketgan ekan, shanba kuni hammamiz yasan-tusan qilib Hamza teatriga bordik. Opa kassa oldida bizni kutib turgan ekan, birgalashib zalga kirdik.

Spektakl boshlandi va besh daqiqa o'tmasdan biz… jinni bo'lib qoldik – sahnada buyuk Shukur Burhonni, betakror Qudrat Xo'jayevni, beqiyos Amin Turdiyevni ko'rib… Asqad Muxtorning ilohiy tarjimasini eshitib…

Spektaklga boshqa odamlar bo'lib kirgan edik – butunlay boshqa odamlar bo'lib chiqdik.

Antik adabiyot muallimasi Viloyat Fayziyevaning sharofati va marhamati bilan, afsungar san'atning qudrati bilan qalblarimizda mana shunday buyuk evrilish yuz berdi.

Shu kundan e'tiboran barchamiz teatr shaydosi – ashaddiy "teatral"larga aylanib qoldik.

Hamza teatrining ham eng gullab-yashnagan davrlari ekan. Shaxsan men teatr sahnasida qo'yilgan "Hayot shomi" spektaklida Olim Xo'jayevni, "G'ariblar"da Nabi Rahimov bilan Sora Eshonto'rayevani, "O'g'irlangan umr"da Yayra Abdullayevani, "Oltin devor"da G'ani A'zamovni o'z ko'zim bilan ko'rish baxtiga musharraf bo'ldim.

Viloyat opa esa bir semestr dars berib, biz bilan xayrlashib ketdi. Umr yo'llarida qaytib ko'rishish nasib etmadi.

…Ba'zan turib-turib o'ylab qolaman: chindan ham bu ayolning boshida tergaydigan eri, qaynonasi, etagiga yopishadigan bola-chaqasi, ro'zg'or tashvishi yo'qmidi? Bor edi, albatta. Lekin, nazarimda, bu ayolning qalbida o'zbek ziyolisi, o'zbek millati uchun qayg'urish tuyg'usi bor edi. Va bu tuyg'u qolgan hamma narsadan ustun edi.

Xayriddin SULTON

1. *Matnda Viloyat Fayziyevaning talabalarga munosabatini qanday baholaysiz? U qanday o'qituvchi sifatida tasvirlangan?*
2. *Matnda teatrga ikkinchi safar ham bormagan talabalar ruhiy holati qanday tasvirlangan? Bu tasvir orqali muallif nimani ko'zda tutgan bo'lishi mumkin?*

3. *"Spektaklga boshqa odamlar bo'lib kirgan edik – butunlay boshqa odamlar bo'lib chiqdik" degan jumlada qanday ichki o'zgarishlar tasvirlangan deb o'ylaysiz?*
4. *Sizningcha, bu hikoyada asosiy g'oya nima? Muallif nimani aytmoqchi bo'lgan?*
5. *Viloyat opa spektaklga talabalarni bir necha bor taklif etadi. Sizningcha, u bu orqali faqat spektaklni ko'rsatmoqchimi yoki bundan kattaroq maqsadi bormi?*
6. *Spektakl ko'rmasdan oldingi va ko'rganidan keyingi talabalar o'rtasida qanday farq bor? Bu o'zgarishni qanday izohlaysiz?*
7. *Talabalar dastlab teatrga borishni istamaydi. Bu holat bugungi yoshlar orasida ham kuzatiladimi? Nega?*

7.20. Matnga qanday sarlavha qo'yish mumkin? Fikringizni izohlang.

SARLAVHA	SARLAVHA TANLASHGA ASOS BO'LGAN JUMLALAR
***	***

7.21. Quyidagi frazeologik iboralarning sinonimlarini matndan toping va yozing.

Ruhi yengillashmoq, yodidan ko'tarilmoq, bo'yin egmoq, kuchli o'y-tashvish ostida qolmoq.

7.22. Muallim va talabalarga xos sifatlarni ajratib yozing.

MUALLIM SIFATLARI	TALABALAR SIFATLARI
***	***

7.23. Ko'pchilik teatr, galereya, muzey kabi san'at maskanlariga borish har qanday soha vakili uchun muhim deb hisoblaydi, ayrimlar bu fikrga qo'shilmaydi. Pozitsiyangizni asoslang.

7.24. Yurtimizdagi teatrlardan biri haqida xabar matni yozing.

Quyidagi gaplarni o‘qing, mazmunini sharhlang. Ularda qanday tinish belgisi qo‘yilayotganiga e’tibor qarating.

1. *Teyotr oyinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko‘zliklar ko‘rub, kar-quloqsizlar eshitib, asarlanur. (Mahmudxo‘ja Behbudiy)*
2. *Teatr hayotga ta’sir ko‘rsatmog‘i uchun kundalik turmushdan kuchliroq, jo‘shqinroq bo‘lmog‘i lozim: teatr qurbonlikni, jonfidolikni talab qiladi. (Frans Kafka)*
3. *Aktyor tomoshabinlar qatori teatrni tark etmaydi – sahnadagi hayot tomoshadan so‘ng uning xayolida davom etadi. (Mannon Uyg‘ur)*

Qo‘shma gaplar orasida tinish belgilari qo‘llanishi 3 xil:

1. Qo‘shma gap qismlari bog‘lovchilar yoki bog‘lovchi vositalar orqali bog‘lansa, sodda gaplar orasida vergul bo‘ladi.

2. Gaplar *va, hamda* vositasida bog‘lansa, tinish belgilari qo‘llanmaydi.

3. Bog‘lovchi vositalar bo‘lmasa, sodda gaplar orasiga vergul, tire va ikki nuqta kabi tinish belgilari qo‘yiladi.

I. Qo‘shma gap qismlari *bir paytda yoki ketma-ket sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni* ifodalasa, ular orasiga vergul qo‘yiladi: *Avval ular bizga yetib olishsin, keyin birga jo‘naymiz. Kuz keldi, yig‘im-terim ishlari boshlandi.*

Shuningdek, bog‘lovchilar *(biroq, chunki, agar...)* va bog‘lovchi vositalar *(-sa, -u, -yu...) bilan* bog‘langan qo‘shma gaplar orasida ham vergul qo‘yiladi: *Siz yashirdingiz, ammo men yashirmayman. Hunar o‘rgan, chunki hunarda ko‘p foyda bor. Kim izlansa, albatta, maqsadiga erishadi.*

II. Qo‘shma gap qismlari orasida *o‘xshatish, zidlash, sabab, shart* kabi munosabatlar ifodalanganda ular orasiga tire qo‘yiladi: *Hamal keldi – amal keldi. Yulduzlarni xayolida har xil rangga bo‘yab ko‘rdi – yulduzlar o‘z rangida xira miltillab turaverdi.*

III. Qo‘shma gap qismlari orasida *izohlash munosabati* ifodalanganda ular orasiga ikki nuqta qo‘yiladi: *Bizning qaro-rimiz shu: hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz. Mening bir jaydari falsafamdir shu: hargiz iltimosga kuning qolmasin.*

7.25. Gaplardan qo‘shma gap hosil qiling. Zarur tinish belgilarini qo‘ying.

1. Teatr rivojlanishi uchun avvalo tomoshabin madaniyati yuksalishi kerak. Didi baland tomoshabinning talabi ham baland bo‘ladi. 2. Hayotning o‘zi teatr. Unda hamma yashab – o‘zining rolini o‘ynab o‘tadi. 3. Sahnani so‘z harakatga keltiradi. Bu so‘zning boshi afishada, spektakl nomida aks etadi. 4. Teatr targ‘ibotini kuchaytirishda barcha teatrlar ham ijtimoiy tarmoqlarda mavjud kanallaridan samarali foydalanmayapti. Shu sohaga ixtisoslashgan teatr blogerlari guruhini tuzish uchun salgina hafsala bo‘lsa, yetarli.

7.26. Qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar orasida tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Ey inson, har bir so‘zni o‘ylab gapir tiling seni yo saodatmand etadi yoxud halokatga boshlaydi. 2. Ariqlar chiqardik yovlar quritdi. 3. Sodiqjon to‘xtadi orqasidan kimdir kelayotgan edi. 4. Hamma ishlaringizda to‘g‘ri bo‘ling odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo‘lsin. 5. Sekin unga yaqin bordim bu manzara ham bizning ko‘ngilga yaqin-da, qadrdon! 6. Tojiboy gapirsa katta-kichik ixlos bilan uning og‘ziga qaraydi. 7. Urilmoq ham foyda katta tajriba hosil qilasiz. 8. Soni ko‘p lekin salmog‘i yo‘q. 9. Davlat tinch sen tinch. 10. Chol undan balandroq keldi men brigadirlikdan tushmayman, deb chiqib ketdi.

7.27. Teatrning inson hayoti va kamolotidagi o‘rni haqida o‘z xulosangizni bayon qiling.

7.28. Tomosha madaniyatiga oid qoidalar to‘plamini tuzing va qo‘shma gap shaklida yozing.

Namuna

1. *Tomoshaga kechikib kelmang, tomosha payti joy qidirishingiz boshqalarga noqulaylik tug‘diradi.*
2. *Tomosha vaqtida ovozni baland qo‘yib gapirmaslik lozim, chunki bu aktyorlarga hurmatsizlik sanaladi.*

1. *Ginnesning rekordlar kitobi haqida nimalarni bilasiz?*
2. *Yurtimiz ijodkorlaridan kimlarning qaysi asarini ushbu kitobga tavsiya qilgan bo‘lardingiz?*

O‘ZBEKNING GINNES KITOBIGA KIRGAN “MING PARI VA BIR SURAT”I

I

Ijod – vaqtdan tashqari hayot. Vaqt bilan hisoblashmaydi u. Yer sayyorasida eng qisqa vaqtning ko‘chishi yorug‘lik tezligi hisoblansa, ijod o‘sha vaqtni ushlab qolgan oniy lahzalardir. Chin iste’dod ijod qilayotgan dam vaqtsiz olamda sayr etadi. Zamon va makonga yuqoridan nazar tashlayotgan bo‘ladi. Shunday ijodkorlardan biri – Lekim Ibrohimov. Asarlarida vaqtni ushlab qola olgan, vaqtni sayqallab bera olgan, o‘z zamoni haqida kelajakka rang orqali gapira olgan rassom.

II

"Ming pari va bir surat" ko'rgazmasidagi suratlarni ko'rarkanman, bir go'zal "Devon" tartib berilganiga amin bo'ldim. Ko'rgazma nomini eshitganimda xayolimga "Alif layla va layla" ("Ming bir kecha") kelgandi. So'zlovchi Shahrizoda bo'lsa, har bir kartina bitta ertakdir. Mingta kartinadan iborat bitta doston. Suratlarni ko'ra boshlagach esa xayolimda Samarqand jonlandi. Bu **Afrosiyob** devoriy suratlaridek tiklangan tasvirlar yig'indisi, Sharq rassomining dunyo uzra o'z so'zini aytishi edi. Mudrab yotgan Sharq rassomchiligi uyg'onganday, ehtimol.



III

Lekim Ibrohimov Sharq rassomchilik maktabiga yangi nafas olib kirdi. Suratlarda zamonaviy shakllar ichra qadimiy turk madaniyati va an'analarini mujassamlashtirganiga guvoh bo'ldim. Har bir asarda qadimgi turkiy ruh saqlanib qolgan. Samarqand miniatyurasi rassom ilhomini tarbiyalagan bo'lsa, Toshkent ulg'aytirdi. **Boshkent**da yashab ijod qildi, **Florensiya**da esa butun dunyoga o'z so'zini aytdi. Chin ijodkor uchun shahar, davlat yo vatan chegarasi bo'lmaydi. Ammo millat va ijod ruhi bo'ladi. Lekim Ibrohimovda turkiylar qoni oqarkan, istaysizmi-yo'qmi, o'sha qon, o'sha ruh ijod chegarasini belgilaydi.

IV

Ijodkor Florensiyada Sharq rassomchiligi, aynan ko‘hna tarix qa’ridagi mumtoz san’atni ko‘rsata oldi. Florensiya **biyennale**sida oltin medalni qo‘lga kiritgan birinchi o‘zbek rassomi sifatida tarixga muhrlandi u. 528 kvadrat metr hajmga ega – balandligi 8, uzunligi 66 metr bo‘lgan **megapolotno** kattaligi bilan Ginnesning rekordlar kitobiga ham kiritildi. Sportda yillar davomida mashq qilib, baland sakrab Ginnes kitobiga kirish mumkindir, biroq san’atda rekordlar kitobiga kirish?!

V

Lekim Ibrohimov kartinalarini o‘qisangiz, an’anaviy Yevropa rassomchilik maktabini tan olmasligini, undan voz kechganini his qilasiz. Ijodkor asarlari sharqona o‘zlikni saqlab qolish uchun qayg‘urayotganday tuyuladi. Aslida Sharq – rassomlar uchun do‘kon! **Syurrealizm**, **kubizm, realizm, modernizm** bo‘ladimi, G‘arb rassomlari Sharq do‘konidan unumli foydalangan, foydalanadi. Lekim Ibrohimov esa shu do‘konning ham egasi, ham oluvchisi. Bu do‘konda qadimdan parilar tasviri bo‘lgan, ilhom parilari bo‘lgan, ilohiy farishtalar bo‘lgan, ezgulik farishtalari bo‘lgan. Bu farishtalar qanday farishtalar? **Pegas** mingan ilhom farishtasi, jannatdagi yetmish ikki hur, **“Avesto”**da ezgulik uchun jannatda sizni kutib oladigan ma’buda, shamanizm va tangrichilik malaklari, musoviylik va xristianlik farishtalari, yelkangizdagi qo‘riqchi farishtalar... Turkiy eli barcha dinlar aro bor.

VI

Ijodkor ham oddiy odamday yashaydi: yeydi, ichadi, o‘ladi. Chin ijodkor esa asarlari qanotida yashay boshlaydi. San’at doim bozorga solinadi – Sharqda ham, G‘arbda ham. Goh atay kimoshdi savdolari uyushtiriladi. Ammo yaxshiyamki, san’atning bozordan ustunligini ko‘rsata oladigan “Bir kartinada ming pari” kabi asarlar bor. Ular hali yana ko‘p yaratiladi, yaratilmoqda.

Talant BEK, Oyina.uz (qisqartirib olingan)

1. *Maqola qaysi nutq uslubiga xos?*
2. *Matndan soha atamalariga misollar toping.*
3. *Matnning asosiy g‘oyasini aniqlang.*
4. *Mavzuni yoritishda qanday dalillar keltirilgan?*

7.29. Matnda ajratib berilgan so‘zlarga mos izohni toping va yozing.

1) tasviriy san’at oqimlari; 2) zardushtiylikning muqaddas kitobi; 3) poytaxt; 4) yirik hajmli rangtasvir asari; 5) Samarqand yaqinidagi qadimiy xarobalar; 6) qanotli oq ot; 7) har ikki yilda bir marta tashkil etiladigan xalqaro ko‘rgazma.

7.30. Matndan olingan quyidagi parchaga munosabat bildiring. Muallif nima demoqchi?

Sportda yillar davomida mashq qilib, baland sakrab Ginnes kitobiga kirish mumkindir, biroq san'atda rekordlar kitobiga kirish?!

7.31. Matn asosida ma'lumotlar to'g'ri, noto'g'ri yoki berilmaganini aniqlang.

1. Muallif ijodni yorug'lik tezligidan ham ustun deb biladi?

To'g'ri | Noto'g'ri | Berilmagan

2. Matnda Lekim Ibrohimov "Ming bir kecha" ertagi bosh qahramoniga o'xshatiladi.

To'g'ri | Noto'g'ri | Berilmagan

3. **"Lekim Ibrohimov Sharq rassomlik maktabiga yangi nafas olib kirdi"** jumlasida zamonaviylik va qadimiy milliy an'analar qorishib ketgani nazarda tutilgan.

To'g'ri | Noto'g'ri | Berilmagan

4. **"Lekim Ibrohimov esa shu do'konning ham egasi, ham oluvchisi"** deganda rassomning ham G'arb, ham Sharq rassomlik maktabi tarbiyalanuvchisi ekani nazarda tutilgan.

To'g'ri | Noto'g'ri | Berilmagan

7.32. Matndan milliy iftixor va g'urur hissi ifodalangan gaplarni aniqlab yozing.

7.33. Matndan 10 ta sifat topib, o'zi bog'langan so'z bilan birga yozing. Sifatlarning ma'noviy guruhini ko'rsating.

Namuna

eng qisqa *(hajm-o'lchov)* ***vaqt...***

1. *Ta'lim muassasasida tadbirlarni reja asosida tashkil etish va o'tkazish bilan kim shug'ullanadi?*
2. *Bayram, ko'rik-tanlov va bellashuvlar uchun reja hamda ssenariy tayyorlash nega muhim?*

7.34. Ssenariy asosida tadbirni olib boruvchida qanday xislatlar bo'lishi kerak?



“Ona tilim – faxrim” musobaqasi rejasi bilan tanishib chiqing.

VAQT	AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR
9:00–9:05	**Kirish** O‘qituvchi musobaqani kirish so‘zi bilan ochib beradi. Musobaqaning maqsadi va qoidalari tushuntiriladi.
9:05–9:10	**1-shart: Tanishtiruv** Guruhlar o‘zlarini tanishtiradilar: nomlari, shiorlarini izohlashadi.
9:10–9:20	**2-shart: “So‘z ko‘rki – maqol”** Har bir guruh navbatma-navbat maqollarning davomini topadi.
9:20–9:30	**3-shart: “So‘z ichida so‘z”** Guruhlar berilgan so‘z harflaridan foydalanib boshqa so‘zlar yasaydi.
9:30–9:45	**4-shart: “Adabiyot bilimdonlari”** O‘zbek tili va adabiyotiga doir savol-javoblar va kichik ijodiy ish (berilgan so‘zlarni qo‘llab she’r yozish).
9:45–10:15	**5-shart: Sahna ko‘rinishi** Guruhlar ona tili mavzusida tayyorlab kelgan sahna chiqishini namoyish qiladi.
10:15–10:25	**Natijalarni hisoblash** Hay’at a’zolari ballarni hisoblab, g‘olibni aniqlaydi.
10:25–10:30	**Taqdirlash marosimi** G‘oliblar va faol qatnashchilar sovg‘a va sertifikatlar bilan taqdirlanadi, musobaqa yakunlangani e’lon qilinib, ishtirokchilarga rahmat aytiladi. Doim ona tiliga hurmat bilan yashash kerakligi eslatilib, xayrlashiladi.



Tadbir rejasi – tadbirning tuzilishi va mazmunini ifodalaydigan hujjat. Unda amalga oshiriladigan ishlar vaqt kesimida ko‘rsatiladi.



1. *Vaqt taqsimotiga asoslanib ayting-chi, musobaqada nechta guruh ishtirok etyapti?*
2. *Jamoalarga qanday nom taklif qilasiz?*
3. *Qaysi qismlarga ajratilgan vaqtni o‘zgartirish kerak deb o‘ylaysiz?*
4. *Musobaqa shartlariga qo‘shimcha kiritish yoki biror shartni almashtirish kerakligi haqida fikrlashing.*

7.35. **“Bahor” nomli tasviriy san’at va fotoasarlar ko‘rgazmasi uchun tadbir rejasini ishlab chiqing.**

7.36. **“O‘zbekning Ginnes kitobiga kirgan “Ming pari va bir surat”i” matni qismlarining umumiy mazmunini aniqlab yozing.**

I qism	******
II qism	******
III qism	******
IV qism	******
V qism	******
VI qism	******

7.37. **8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan tashkil etiladigan tadbir rejasini ishlab chiqing.**

1. *Tushuntirish xati yozganmisiz? Qanday voqea munosabati bilan?*
2. *Izoh ko‘rsatish jarayonida sizda qanday kayfiyat uyg‘ongan?*
3. *Tushuntirish xatini yozish shakli bilan bog‘liq qiyinchilikka duch kelganmisiz?*
4. *Tushuntirish xatida qanday qoidalarga amal qilish kerak?*

Tushuntirish xati namunasi bilan tanishing.

Toshkent shahri Olmazor tumani
46-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
direktori M. Olimovga
9-“D” sinf o‘quvchisi
S. Shamsiddinovadan

TUSHUNTIRISH XATI

Men harakatlanayotgan avtobus yarim yo‘lda buzilib qolgani sababli 2025-yil 5-may kunidagi 1- va 2-soat dars mashg‘ulotlariga yetib kela olmadim.

(*imzo*) S. Shamsiddinova

2025-yil 5-may

7.38. Savollarga yozma javob bering.

1. *Tushuntirish xatining yuqori o'ng burchagiga nimalar yoziladi?*
2. *Sarlavha qayerda va qanday ifodalanadi?*
3. *Xat mazmuni qaysi nutq uslubida bo'ladi?*
4. *Sana va imzo qayerga va qay shaklda yoziladi?*

7.39. Vaziyatlar va rasmiy hujjat turini moslang.

1.	Tushuntirish xati
2.	Ariza

A)	Iltimos, talab yoki murojaat qilish uchun yoziladi.
B)	Biror voqea, xatti-harakat yoki holat sababini tushuntirish uchun yoziladi.
D)	Ta'til so'rash, o'qish yoki ishga kirish, ma'lumot olish kabi holatlarda yoziladi.
E)	Iltimos ifodalanadi.
F)	Kechikish, dars qoldirish, xatti-harakatni tushuntirish kabi holatlarda yoziladi.
G)	O'tgan voqeani izohlash uchun yoziladi.
H)	Kelgusidagi vaziyat uchun yoziladi.

7.40. Ertalab bexos tishingiz og'rib qoldi va shifokor qabuliga borishga majbur bo'ldingiz. Oqibatda o'sha kungi dars mashg'ulotlarida ishtirok eta olmadingiz. Ushbu holatni izohlab maktabingiz direktori nomiga tushuntirish xati yozing.

Oq qog'ozning qora ekanini isbotlab bering. O'z fikringizni mantiqiy dalillar bilan asoslang.

7.41. Muayyan vaziyat asosida tushuntirish xati namunasini yozing.

VIII BOB

SPORT VA SOG‘LIK



1. *Siz polvonlar kurashini tomosha qilganmisiz? U qanday taassurot qoldirgan edi?*
2. *Bolalik chog‘ingizda o‘rtoqlaringiz bilan qanday bellashuv yoki o‘yinlar o‘ynagansiz? Unda yutqizganmisiz?*

“Yulduzlar mangu yonadi” qissasidan parcha

IX

Bo‘ri polvon davra aylandi. Davraga murojaat etdi:

— Xaloyiq! – dedi. – Davrada halol olishib, elga tomosha ko‘rsataylik! Haq-nohaqni men o‘zim ajrim qilaman! Aytganim aytgan, deganim degan! Davradagi Bo‘ri polvon so‘zim: tarafkashlik, g‘irromlik, oshna-og‘aynigarchilikka yo‘l qo‘ymayman!

Bo‘ri polvon tevarakka alangladi. Bir burchakda qunishib o‘tirmish besh-olti yoshli bolani ko‘rib qoldi. Bola raisning o‘g‘li bo‘ldi. Bo‘ri polvon atayin shu bolani yetaklab keldi.

— Otingiz nimaydi, polvon? – dedi.

— Shukuy!

— E, yashang, Shukur polvon! Bolalar, manovi Shukur polvon bilan olishadigan mard bo‘lsa o‘rtaga chiqsin!

Telpagi quloqlarini tushirib olmish bir bola chiqib keldi. Ketidan otasi ovoz berdi:

— Polvon bova, manovi Ermat polvonni bir sinab ko‘ring!

Bo‘ri polvon Ermatning-da qo‘lidan ushladi.

— Ermat polvon, – dedi, – siz manovi Shukuy... e, astag‘firullo, Shukur polvon bilan olishasizmi? O‘zi yurak uryaptimi? E, bali, gap bunday bo‘pti-da! Qani, yuringlar. Rais bova, manavi polvonlarga duo bering. Do‘rjiroq zot qo‘ying, kelbatidan ikkoviyam katta polvonga o‘xshayapti!



Polvonchalar bosh bakovul ro‘parasiga cho‘kkaladi. Bakovul duo berdi:

— Sizlarga o‘zlaringiz bop bir to‘n, bir so‘m pul qo‘yildi, Ollohu akbar! Yaxshiroq olishsalaring, yana bir zot qo‘shamiz! Yechinmasdan olisha beringlar, kun sovuq!

Bolalar davra aylandi. Ammo... chappa tarafdan aylandi! Davra gur etib kulib yubordi. Bo‘ri polvon bolalarni ushladi.

— Eb-ey, eb-ey! – dedi. – Manovi tarafdan aylaninglar! Kulmang, xaloyiq, polvonlar g‘ayratiga chiday olmay, shoshib qoldi, ha! Polvon shuytib-shuytib polvon bo‘ladi-da!

X

Bolalar davrani ikki aylandi. Qo‘l berib ko‘rishdi. Shukur polvon choponi o‘ngirlarini qayirib, belbog‘iga qistirdi. Enkayib, o‘ng qo‘lini oldinga sermab bora berdi. Ermat polvon ishtonini yuqoriga bir ko‘tarib qo‘ydi. Uyam qulochini sermab kela berdi.

— Ha, qulochginangdan, polvonchalar! – dedi davra. Shukur o‘ng qo‘li bilan Ermatning yoqasidan ushladi, chap qo‘li bilan bilagidan ushladi. Ikki oyog‘iga qo‘shib chil berdi.

Shukur yiqitayotib edi. Ammo yerga og‘ish vaqtida o‘zini eplay olmadi. Oqibat, ikkovida baravar yiqildi.

— Bekor, it yiqilish bo‘ldi. Boshqatdan olishinglar! – dedi davra.

— Shukur polvon, qattiq-qattiq chil bering! Kim aytadi sizni raisning uli deb?

— Ermat polvon, ko‘p shalpaymang, dadil bo‘ling!

Shukur yiqitdim, deya, bosh bakovul qoshiga o‘tirdi. Ermat davra o‘rtasida choponida **ilashmish** somonlarni qoqdi. Shukurga, keyin Bo‘ri polvonga angrayib qaradi.

— G‘irrom, men yiqilmadim, – dedi.

Bo‘ri polvon Shukurning yelkasiga qo‘lini qo‘ydi.

— Polvon, yiqitolmadingiz, boshqatdan olishing! – dedi. – Yelkangizni ko‘p siltamang. Yo otangizga ishonyapsizmi? Otangiz idoraga rais! Davraga Bo‘ri polvon rais! Turing!

Shukur qoboq-tumshuq qildi. Otasi qabatiga o‘tib o‘tirdi. Bo‘ri polvon Shukurni silab-suydi. Chuchuk-chuchuk so‘zlar aytdi:

— Shaytonga hay bering, polvon, chiqing endi. Aylanayin polvonimdan. Polvonimdan-da, polvonimdan-da...

Shukur iyib ketdi. Tag‘in davraga kirdi. Bu safar Ermat enkayib-enkayib keldi. Shukurning qo‘ltiqlari ostidan kirib ko‘tarmoqchi bo‘ldi. Shukur Ermatning boshini ko‘kragi ostiga qisdi. Qo‘llarini qo‘ltig‘idan o‘tkazib ushladi. Yotibotarga oldi: o‘zi birdan orqaga yotib qolib, Ermatni ustidan oshirib otmoqchi bo‘ldi. Ammo... o‘zi ostida qoldi! Bo‘ldi kulgi! Shukurga alam qildi. Ermatga qo‘lini musht qilib ko‘rsatdi.

— Sen bilan yanagi to‘yda olishaman! – dedi. Ermat bakovul ro‘parasiga o‘tirishi bilan bir talay bola chopib kelib yoniga cho‘kkaladi. Shukurga tarafkash bolalar bir-biriga so‘z bermay talashdi, bakovulga elandi:

— Bova, Ermat polvon bilan meni olishtiring, u qalin oshnamni yiqitdi!

— Yo‘q, Ermat polvon bilan men olishaman. Shukur xolamning uli!

— Bova, Ermat polvonga meni chiqaring, Shukur bizning hamsoyamiz!

Davraga tag‘in bir bola – Xolyor keldi. Xolyor Shukurning bir yosh katta akasi bo‘ldi.

Hayallashi boisi u tut shoxida o‘tirib edi. Yerga tushib, davraga kirguncha vaqt o‘tdi. Masalani Bo‘ri polvon hal etdi.

— Rais bova, Xolyor polvonga duo bering, ukasining ori uchun olishsin! Ming qilsayam, emikdosh-da! – dedi.

XI

Zo‘rdan zo‘r chiqdi. Olish kattalashdi. Gal maktab yoshi bolalarga yetdi. Undan o‘smirlarga yetdi. Bir polvon yiqilsa, origa oshnasi yo og‘aynisi davraga chiqdi. Qoni tortdi... Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi! Qishloq odamlari olchin, tog‘chi, parito‘p, qovchin, go‘rxov, yuz... deya atalmish urug‘-aymoqlarga bo‘linib olishadi.

Bordi-yu, chetdan polvonlar kelgan bo‘lsa-chi? Unda qishloq polvonlari birlashib, mehmon polvonlar bilan kurashadi. Odamlar kindik qonlari tommish yer shon-sharafi, oriyati uchun olishadi.

Vatan kindik qon tommish yerdan boshlanadi! Bu davrada qishloqning barcha polvonlari bir taraf bo‘ldi. Boisi o‘zga tumanlardan polvonlar ko‘p keldi. Polvonning to‘yi-da! Kimsan — Zulfiqor polvon to‘y qilyapti!

Tog‘ay MUROD

8.1. Matnda siz uchun notanish bo‘lgan 7 ta so‘zning izohini namunaga qarab yozing va misol keltiring.

Do‘rjiroq

Izohi: yirikroq, qo‘lga ilingulik.

Misol: Polvonlarga do‘rjiroq zot qo‘ying.

8.2. Testlarni matn asosida yeching.

1. Quyidagilardan qaysi biri Ermat polvonga xos xususiyat?

A) *adolatli* B) *kekkaygan* D) *bo‘shang* E) *oriyatli*

2. Bo‘ri polvon Shukur polvonga *“Polvon, yiqitolmadingiz, boshqatdan olishing!”* deganda u qanday holatga tushadi?

A) *Norozi bo‘ldi.* B) *Kulib yubordi.* D) *Arazlaydi.* E) *Kibrlanadi.*

3. Bakovul nima sababdan Shukur polvonni yiqitgan Ermat polvon bilan kurashish uchun Xolyor polvonga ruxsat beradi?

A) *raisning jiyani bo‘lgani uchun* B) *Ermat polvon uni tanlagani uchun*
D) *yoshi tengqur bo‘lgani uchun* E) *Shukurning akasi bo‘lgani uchun*

4. Parchada kim adolatli, halol, bir so‘zli kishi sifatida gavdalantirilgan?

A) *rais* B) *Bo‘ri polvon* D) *Xolyor polvon* E) *Zulfiqor polvon*

5. Ermat polvon Shukur polvonni qanday qilib yiqitdi?

A) *Bo‘ri polvondan o‘rgangan usuli orqali yiqitdi.*

B) *Yotibotar usul orqali yiqitdi.*

D) *Yelka qilish orqali yiqitdi.*

E) *Shukur polvon o‘z chiliga o‘zi yiqildi.*

8.3. Matn qismlarining umumiy mazmunini aniqlab yozing.

IX qism	******
X qism	******
XI qism	******

1. *Kurashda biror kishi yiqilganda uning o‘rniga do‘sti, yaqini yiqitgan bilan kurashishni talab qilib chiqishining asosiy sababi nimada? Parcha asosida izohlang.*
2. *Muallifning “Yo otangizga ishonyapsizmi? Otangiz idoraga rais! Davraga Bo‘ri polvon rais!” jumlasini qo‘llashdan asosiy maqsadi nima? Fikringizni 2 ta dalil bilan isbotlang.*
3. *Matnda keltirilgan **olchin, tog‘chi, parito‘p, qovchin, go‘rxov, yuz** kabi so‘zlar nimani anglatadi?*
4. *Muallifning “Vatan kindik qon tommish yerdan boshlanadi! Bu davrada qishloqning barcha polvonlari bir taraf bo‘ldi” jumlasini qo‘llashdan asosiy maqsadi nima? Fikringizni 2 ta dalil bilan isbotlang.*
5. *Qishloq polvonlari mehmon polvonlarga qarshi nima uchun birlashib kurashishadi, buning boisi nimada?*

8.4. Gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning adabiy tildagi shaklini lug‘atdan toping va yozing.

T/R	Shevadagi shakli	Adabiy tildagi shakli
1.	Bolalar davra aylandi. Ammo... **chappa** tarafdan aylandi!	******
2.	**Kelbatidan** ikkoviyam katta polvonga o‘xshayapti!	******
3.	Polvon **shuytib-shuytib** polvon bo‘ladi-da!	******
4.	Shukur polvon choponi **o‘ngirlarini** qayirib, belbog‘iga qistirdi.	******
5.	Otasi **qabatiga** o‘tib o‘tirdi.	******

6	Sen bilan **yanagi** to‘yda olishaman!	******
7	Bova, Ermat polvonga meni chiqaring, Shukur bizning **hamsoyamiz**!	******

8.5. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasidan olingan parcha asosida 5 ta test topshirig‘i tuzing.

Namuna

Ikki polvon baravar yiqilsa, qanday yiqilish bo‘ladi?

A) Yotibotar B) It yiqilish D) Yonbosh E) Chappa yiqilish

Tuzib kelgan test topshiriqlaringizni keyingi darsda partadoshingiz bilan almashib bajaring.

Gaplar qaysi jins vakili va necha yoshlardagi kishi tomonidan aytilganini aniqlang va fikringizni asoslang.

1. — *Voy, bolaginam-a! Pul yuborib nima qilarkan!*
2. — *E, bo‘ldi-ye, charchab qoldinglar!*
3. — *Bobokalonlaringizga munosib bo‘ling, bo‘tam!*
4. — *Voy, tasaddug‘-ey, ey, voy, tasaddug‘-ey!*

Til birliklari yosh va genderga xoslanishi jihatidan ham farqlanadi.

Gender xususiyatiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

T/R	NOMI	IZOHI	MISOLLAR
1.	**Ayollar nutqida faol uchraydigan birliklar**	Ayollar nutqida muloyimlik, hissiyot va samimiylik yetakchilik qiladi, unda ko‘pincha mehrli murojaatlar, yumshoq ohang va tasalli, dalda beruvchi iboralar keng qo‘llanadi.	*voy, voy o‘lay, yo tavba, voy dod, yo‘g‘-ey, aylanay, o‘rgilay, tasadduq, asalim, sadag‘ang ketay*
2.	**Erkaklar nutqida faol uchraydigan birliklar**	Erkaklar nutqida sodda, aniq va lo‘nda ifodalar, hukm va buyruq ohangi yetakchilik qiladi, ular ko‘pincha hissiyotdan ko‘ra mantiq va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi.	*hoy, xo‘sh, hey, ey, barakalla, ha mayli, e, bas qil, qara-ya*

8.6. Gaplarning ayol yoki erkak nutqiga xos ekanini aniqlab, xulosangizni asoslang.

T/R	JUMLALAR	ERKAK	AYOL
1.	*– Hoy, aylanay, o‘g‘rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko‘zimga uyqu keladimi?*	***	***
2.	*– Balli, kuchlaringiz barobar ekan!*	***	***
3.	*– Voy, o‘g‘limdan aylanay!*	***	***
4.	*– Qopmaydi, kela bering. It bog‘log‘liq.*	***	***
5.	*– Ey qurib ketmagur, nega indamading shu vaqtgacha?*	***	***
6.	*– Egachim elakli bo‘ldi, elagi tilakli bo‘ldi!*	***	***
7.	*– Uh, bormisan! U nima dedi?*	***	***

Til birliklari muayyan yoshga xoslanishiga ko‘ra to‘rt guruhga ajratiladi:

T/R	NOMI	IZOHI	MISOLLAR
1.	**Bolalar nutqida faol uchraydigan birliklar**	Bolalar nutqi sodda, xatolarga va takroriy ifodalarga boy, tasavvurga asoslangan, yoqimli bo‘ladi.	*aji, achomlamoq, ashsha (ovqat), bobov, bo‘ji, jish (go‘sht), innana, nanna, ninni, oposh, hap-hap, imma*
2.	**O‘spirin yoshlar nutqida faol uchraydigan birliklar**	O‘spirin yoshlar nutqi zamonaviy, hissiyotga boy, norasmiy, ba’zan taqlidlarga asoslangan bo‘ladi.	*dugon, o‘rtog‘, uchrashuv, salon, repetitor, ketvorgan, karyera, moda, biznesmen, toparmon-tutarmon, yigitchilik*
3.	**O‘rta yoshlilar nutqida faol uchraydigan birliklar**	O‘rta yoshlilar nutqida hayotiy tajriba, mas’uliyat va ijtimoiy faollik aks etadi, aniq va muvozanatga asoslangan bo‘ladi.	*enaga, gap-gashtak, javramoq, erkakchilik, ulfat, bola-chaqa, bozor-o‘char*
4.	**Yoshi kattalar nutqida faol uchraydigan birliklar**	Yoshi katta insonlarning nutqi odatda pand-nasihatga boy, hikmatli va chuqur mazmunli bo‘ladi.	*baraka top, obbo, bo‘tam, bolam, Xudo xohlasa, bizning zamonimizda, barakalla, boboy, munkillamoq, pir-u badavlat, nevara, tavfiq, osh-ovqat, egachi, xotin-xalaj*

8.7. Ayollar va erkaklar nutqiga xos 3 tadan gap tuzing.

Ayollar nutqi: 1. .....

Erkaklar nutqi: 1. .....

8.8. Gaplar qaysi yoshdagi shaxs nutqidan olinganini aniqlang va fikringizni asoslang.

1. – Xo‘sh, kuchi-ku kamayib qolibdi…
2. – Obbo, quv ko‘rinasan-a, ha, mayli-mayli.
3. – Shaharda ham uncha ishimiz yo‘q. Shunchaki ish-pish qidirib kelyapmiz-da.
4. – O‘zi madadkor bo‘lsin, o‘g‘lim!
5. – O‘hho‘, bizning ustaxonani bir ko‘rsang.
6. – Ma, qalpog‘ingni ol, bunaqasi bizning maktabda ham to‘lib yotibdi!
7. – Yopirim-ey, yopirim-ey! Astag‘firullo...

8.9. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasidan olingan parchadan bolalar va yoshi kattalar nutqiga xos birliklar qatnashgan gaplardan 5 ta toping va yozing.

Bolalar nutqi: 1. .....

Kattalar nutqi: 1. .....

8.10. Bolalar, o‘spirinlar, o‘rta yoshlilar va yoshi kattalar nutqiga xos 2 tadan gap tuzing.

8.11. Badiiy asarlardan bolalar, o‘spirinlar, o‘rta yoshlilar, yoshi kattalar hamda ayollar va erkaklar nutqiga xos 2 tadan gap topib, ko‘chirib keling.

Boshqotirmadan “kurash” so‘ziga ma’nodosh bo‘la oladigan so‘zlarni toping.

(3 ta ma’nodoshi yashiringan.)

N	K	R	S	A	K	A	N	I
U	J	A	N	G	P	R	M	Q
R	Z	O	J	O	L	I	SH	F
A	F	Y	K	L	D	N	O	Q
T	I	D	D	A	O	I	R	Y
A	M	I	X	R	L	Q	V	T
Y	X	N	Q	Y	I	R	Q	I
B	E	L	L	A	SH	V	S	N
O	T	P	O	CH	U	G‘	A	I
R	T	K	L	M	V	I	N	Q

8.12. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasidan olingan parchaning maqsadi va kimlar uchun mo‘ljallanganini aniqlang hamda matndan javobingizni asoslovchi dalillar topib, daftaringizga yozing.

Matn maqsadi?	Matn kimlar uchun?
***	***

8.13. To‘rt guruhga bo‘lining, milliy kurash insonda qanday sifatlarni shakllantirishini yozing. *Vazifani bajarish uchun 5 daqiqa beriladi. Eng ko‘p sifat yozgan jamoa yutib chiqadi. Masalan:*

1-guruh	2-guruh	3-guruh	4-guruh
vatanparvarlik	oriyatlilik	do‘st-birodarlik	qo‘rqmaslik
***	***	***	***

8.14. Sport insonlarni birlashtiradimi yoki bir-biridan ayiradi? Muhokama qiling.

8.15. Tengqurlaringizning og‘zaki nutqini diqqat bilan tinglang va quyidagi mezonlar asosida baholang.

Og‘zaki nutqni baholash mezoni

Mezon	3 ball	2 ball	1 ball
Og‘zaki nutqning mazmuniy tugalligi	har ikki vaziyat batafsil ochib berilganda	asosan bir vaziyat ochib berilib, ikkinchi vaziyat qisman ochib berilganda	faqat bir vaziyat ochib berilganda
Og‘zaki nutqning asoslanganligi	nutqda vaziyatga mos faktlar va hayotiy misollardan unumli foydalanilganda	nutqda vaziyatga mos faktlar va hayotiy misollardan qisman foydalanilganda	nutqda vaziyatga mos faktlar va hayotiy misollardan kamdan kam foydalanilganda
Og‘zaki nutqning to‘g‘riligi	fikr bayonida orfoepik me’yorlar kamdan kam holda buzilganda	fikr bayonida orfoepik me’yorlar qisman buzilganda	fikr bayonida orfoepik me’yorlar ko‘plab o‘rinda buzilganda
Og‘zaki nutqning ravonligi	ravonlik kamdan kam buzilganda	ravonlik qisman buzilganda	ravonlik ko‘p o‘rinda buzilganda
Og‘zaki nutqning ifodaviyligi va ta’sirchanligi	fikr bayonida tana tili (noverbal muloqot) dan va badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanilganda	fikr bayonida tana tili (noverbal muloqot) dan va badiiy tasvir vositalaridan qisman foydalanilganda	fikr bayonida tana tili (noverbal muloqot) dan va badiiy tasvir vositalaridan kamdan kam foydalanilganda

***Mavzu yuzasidan gapirilmaganda 0 ball qo‘yiladi.**

8.16. Jadval asosida milliy kurash eng ommalashgan mamlakatlar va ularning natijalari haqida matn tuzing.

Kattalar o‘rtasida o‘zbek kurashi bo‘yicha jahon chempionatida g‘olib bo‘lgan mamlakatlar
(1999–2019-yillarda)

T/R	Yil	Chempion mamlakat
1.	1999	O‘zbekiston
2.	2000	Turkiya
3.	2001	Vengriya
4.	2002	Armaniston
5.	2005	O‘zbekiston

6.	2007	Mo‘g‘uliston
7.	2009	Ukraina
8.	2011	O‘zbekiston
9.	2013	Turkiya
10.	2015	Eron
11.	2017	Turkiya
12.	2019	Koreya Respublikasi

Audiomatnni tinglang.

ERTA TONGDA SPORT BILAN SHUG‘ULLANISHNING ORGANIZMGA YETTI FOYDASI 5



8.17. Audiomatnda quyidagi qaysi raqamlar bilan bog‘liq ma’lumotlar uchraydi va ular nimani anglatadi?

			30		9			
	7						15	
			45		65			
	70						11	
			20		10			

8.18. So‘zlar juftligidan to‘g‘ri yozilganlarini aniqlab, daftaringizga ko‘chiring.

muhim	muhum	adrenalin	adrinalen	energiya	enirgeya
universitet	universetet	stres	stress	statestik	statistik
konsentratsiya	konsintratsiya				

8.19. Hukmlar audiomatn mazmuniga ko‘ra to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

1. Kechki kuchli jismoniy mashq uyqu sifatiga salbiy ta’sir qiladi.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

2. Ertalabki mashqlar shirinliklarga qaramlikni kamaytiradi.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

3. Erta tongdagi mashqlar ortiqcha ruhiy charchoqni kamaytiradi.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

4. Kunning birinchi yarmidagi kuchli jismoniy mashqlar charchoq hissini oshiradi.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

5. Ikki kunda bir jismoniy mashq bilan muntazam shug‘ullanish insonni tetiklashtiradi.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

6. Ertalabki jismoniy mashqlar kun davomida kayfiyat yaxshi bo‘lishini ta’minlaydi.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

7. Och qoringa jismoniy mashq qilish doim zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

To‘g‘ri Noto‘g‘ri

8.20. Erta tongda sport bilan shug‘ullanishning organizm uchun yetti foydasini yozing.

1-foydasi	******
2-foydasi	******
3-foydasi	******
4-foydasi	******

5-foydasi	******
6-foydasi	******
7-foydasi	******

8.21. Matn asosida shakllantirilgan jumlalarning fakt yoki fikr ekaniga baho bering.

T/R	JUMLALAR	FAKT	FIKR
1.	Ertalab bir yarim soat sport bilan shug‘ullanish kun davomida ochiqish hissini kamaytiradi.	***	***
2.	Och qoringa jismoniy mashq bajarish yoqimsiz va mashaqqatli.	***	***
3.	Ertalabki mashqlar stressni kamaytiradi.	***	***
4.	Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, muntazam jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanganlar boshqalarga qaraganda charchoqni kamroq his qiladi.	***	***
5.	Mashg‘ulotlarni tongda bajarish zavqli.	***	***
6.	Mutaxassislar jismoniy mashqlarni tongda bajarishni tavsiya etadi.	***	***
7.	Ertalabki jismoniy mashqlar kun bo‘yi kuch bag‘ishlaydi.	***	***

8.22. Matndan chiqargan xulosangizni yozing va o‘qib bering.

8.23. Muntazam jismoniy mashq bilan shug‘ullanadigan kishilarga xos 10 ta xususiyat ro‘yxatini tuzing.

Namuna

Ularning jahli tezda chiqavermaydi.

Gaplarda ajratib ko‘rsatilgan yordamchi so‘zlar o‘rniga qaysi birlik(lar)ni almashtirib qo‘llash mumkin?

GAPLAR	BIRLIKLAR
1. Yurt farovonligi **uchun** qayg‘urardi. 2. Gap futbol o‘yini **haqida** ketardi.	**bilan, -ga, boisi, -da, deb, ustida**

Ko‘makchilar nutqda grammatik birliklar bilan ma’nodoshlik hosil qiladi.

Ma’nodoshlar	Misol va mazmuniy farq
bilan, orqali, -da, -dan	telefon **orqali** gaplashmoq (*vosita)* telefon**da** gaplashmoq (*vosita)* Shu yo‘l **bilan** boriladi. (*vosita)* Shu yo‘l**dan** boriladi. (*vosita)*
haqida, to‘g‘risida, ustida, xususida, -ni, -dan	ko‘rganlari **haqida** gapirmoq (*umumiy fikr mavzusi)* ko‘rganlari**ni** gapirmoq (*aniq fikr mavzusi)* ko‘rganlari**dan** gapirmoq (*fikr mavzusidan bir qismi)*
tomon, qarab, -ga, bo‘ylab, yoqalab	daryo **tomon** ketmoq (*umumiy yo‘nalish)* daryoga **qarab** ketmoq (*umumiy yo‘nalish)* daryo**ga** ketmoq (*aniq yo‘nalish)* daryo **bo‘ylab** ketmoq (*umumiy yo‘nalish)*
uchun, sababli, bois, -ga, atab, deb	u **uchun** olmoq (*atalganlik)* un**ga** olmoq (*atalganlik)* unga **atab** olmoq (*atalganlik)* uni **deb** olmoq (*sabab)* u **sababli** olmoq (*sabab)*
uchun, maqsadida, -gani, -ga	o‘qish **uchun** bormoq (*maqsad)* o‘qi**gani** bormoq (*maqsad)* o‘qish **maqsadida** bormoq (*maqsad)* o‘qish**ga** bormoq (*maqsad)*
qarashli, tegishli, -ning	Mirzakarimboy**ning** do‘koni *(qarashlilik)* Mirzakarimboyga **tegishli** do‘kon *(qarashlilik)* Mirzakarimboyga **qarashli** do‘kon *(qarashlilik)*
kabi, -dek//-day, yanglig‘, singari	Akasi **kabi** mard. *(o‘xshashlik)* Akasi**day** mard. *(o‘xshashlik)* Akasi **singari** mard. *(o‘xshashlik)*
ko‘ra, binoan, qarab	Qonunga **ko‘ra** chora ko‘rildi. *(asoslanganlik)* Qonunga **binoan** chora ko‘rildi. *(asoslanganlik)* Qonunga **qarab** chora ko‘rildi. *(asoslanganlik)*
qadar, -gacha	Uyga **qadar** yayov bordi. *(chegara mazmuni)* Uy**gacha** yayov bordi. *(chegara mazmuni)*

8.24. **Juftliklar ma’nosidagi farqlarni tushuntiring.**

Eshitganlari to‘g‘risida gapirdi.	Eshitganlaridan gapirdi.
Sizni deb keldim.	Siz uchun keldim.
Mashinada borasan.	Mashina bilan borasan.
Maktab tomon ketdi.	Maktabga ketdi.

8.25. **Gaplardagi nuqtalar o‘rniga birliklardan eng mosini qo‘yib ko‘chiring.**

1. *Jismoniy mashqlar tanani uyg‘otadi … **(bilan, ham, va)** miya faoliyatini yaxshilaydi.*
2. *Och qoringa jismoniy mashq bajarish har kim … **(haqida, uchun, deb)** ham to‘g‘ri kelavermaydi.*
3. *Yuqorida aytilgani … **(xuddi -day, yanglig‘)** jismoniy mashg‘ulot qon aylanishini yaxshilaydi.*
4. *Sport bilan shug‘ullanish sog‘liq … **(haqida, -chun, deb, uchun)** foydali.*
5. *Och qoringa mashq qilish ovqatdan so‘ng bajarilgan mashqlarga... (**-ga, qaraganda, deb, ko‘ra**) samaraliroq.*

8.26. **Har bir o‘quvchi boshqalarning fikrini takrorlamagan holda jumlani davom ettirsin.**

Namuna

1-o‘quvchi: *Men har kuni erta tongda jismoniy mashqlar qilaman, chunki **olimpiada musobaqalarida qatnashmoqchiman.***

2-o‘quvchi: _____

8.27. **Nuqtalar o‘rniga mos ko‘makchilarni qo‘yib ko‘chiring.**

*1. Qimmatli fikrlar sahnaga chiqayotgan yosh iste’dod sohiblariga sahna sirlaridan saboq olishlari **...** yordam berishi shubhasiz. 2. Milliy qadriyatlarga tayanib dunyoviy bilim va hunarlarni egallayotgan yoshlarimizning fazilatlari **...** soatlab gapirish mumkin. 3. Vatan himoyasi yo‘lida jon fido etgan o‘g‘lonlarimizning onalari achchiq iztirob, og‘ir ayriliqda bo‘la turib, mardonalik ... istiqlol ... ko‘ksini qalqon qilgan farzandlari ... faxrlanib gapirganini hammamiz eshitdik. 4. Qishloq ... taralayotgan kuy qizning yurak-bag‘rini ezayotgan edi. 5. Zamona fozillari, oqillari ... suhbat qilib turish lozim.*

8.28. **“Tonggi badantarbiyaning inson organizmiga foyda va zararlari” mavzusida esse yozing.**

Nodirbek Abdusattorov – shaxmat bo‘yicha olimpiada chempioni, grossmeyster. Quyida uning onasi Marziya Ochilova bilan Nodirbekning faoliyati va yutuqlari haqidagi suhbat berilgan.

– Assalomu alaykum, Marziya opa, o‘g‘lingiz Polshada o‘tgan jahon chempionatida g‘olib bo‘lgani bilan tabriklaymiz. O‘sha paytda ko‘nglingizdan nimalar kechgani biz uchun qiziq.

– Vaalaykum assalom. His-hayajon, albatta, bo‘ldi. Chunki bu jahon chempionatida dunyoning eng kuchli shaxmatchilari ishtirok etdi.

O‘g‘lim Varshavadan oldin Ispaniyada o‘tkazilgan ikkita xalqaro musobaqada ham qatnashib, ikkalasidayam birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. U yerda ancha malaka oshirgani Polshadagi jahon chempionatida katta yordam bo‘ldi va g‘alaba qozondi.

– O‘g‘lingiz shaxmatga qiziqishiga nima sabab bo‘lgan? Uning tanlovi sizlarni hech ikkilantirganmi?

– Oilaviy muhit tufayli shu sport turini tanlagan. Dadasi shaxmatni yaxshi o‘ynaydi va tushunadi, o‘quvchilik davrida ham musobaqalarda qatnashgan. Keyinchalik farzandlarimizga ham o‘rgatdi. Boshida katta o‘g‘limiz Humoyun, vaqt o‘tib qizimiz Bahora shaxmat o‘ynay boshladi.

Ularni shaxmat to‘garagiga olib borgan kezlarimiz Nodirbek bog‘chaga borardi. Humoyun va Bahora bilan to‘garakdan qaytgunimizcha kenjamni bog‘chadan olishga kechikib ketardik. Keyinroq Nodirbekni ham o‘zimiz bilan birga to‘garakka olib ketadigan bo‘ldik. U yerdagi o‘g‘il-qizlarning harakati, o‘yinlarini ko‘rib, o‘ziyam taqlid qilardi. Unga hech kim shaxmat donalarini ko‘rsatib, qanday yurish kerakligini o‘rgatmagan. Hammasini o‘zi o‘rganib, harakat qilgan.

Nodirbekning qiziqishini ko‘rgan birinchi murabbiyi Ravshan Shukurov u bilan ham jiddiy ishlash niyati borligini bildirdi. Boshida haftada 3 kun mashg‘ulotlar o‘tilgan bo‘lsa, keyinchalik har kuni ikki mahaldan darslarga qatnadik. Shu tariqa o‘zimiz ham shaxmatga jiddiy kirishib ketdik, farzandlarimiz erishgan natijalarini ko‘rib, yana harakat qila boshladik.

Nodirbek besh yoshida O‘zbekiston chempioni bo‘ldi. Osiyo, jahon chempionatlarida ham ishtirok etdi. musobaqalarga borganida kamida birinchi uchtalikka kirib kelardi. Chet elga chiqqanida o‘z vaqtida ovqatini yeb, barvaqt uxlashi kerak. Shuning uchun o‘zim birga boradigan bo‘ldim. Agar bola vaqtida uxlamasa, ovqat yemasa, yaxshi natija ko‘rsatolmaydi. Nodirbekning yonida yurib, yebichishi va uyqusini nazorat qilib bordim. Murabbiysi mashg‘ulotlar o‘tkazib tayyorlardi, o‘g‘lim esa o‘ynardi. Mehnatlarimiz sabab oxiri jahon chempioniga aylandi.



– Tushunishimcha, Nodirbekning homiysi faqat dadasi, to‘g‘rimi?

– Turizm vazirligi hamda Shaxmat federatsiyasi ham e’tibor qaratadi. Ular Osiyo va jahon chempionatida ko‘maklashadi. Shunday bo‘lsa-da, baribir boshqa xarajatlar ham bo‘ladi va o‘z hisobimizdan qoplaymiz. Xalqaro musobaqalarga esa oilaviy mablag‘imizga qarab, kuchimiz yetganicha boramiz. Bunday musobaqalarga borishdan maqsad – tajriba oshirish va grossmeysterlik talabini bajarish.

Shu o‘rinda alohida aytishim kerakki, Nodirbekka ikki-uch yil bir sug‘urta kompaniyasi homiylik qildi. Ularga o‘z minnatdorligimni bildiraman. Ularning yordami bilan bir qancha xalqaro musobaqalarda yaxshi natija ko‘rsatdi, grossmeysterlik talabini bajardi.

– O‘g‘lingiz adolatsizliklar, moddiy qiyinchiliklarga uchraganda shaxmatni tark etish fikriga kelganmi hech?

– Bunday fikr hozir ham bo‘ladi. Sportchi ruhan va jismonan kuchli bo‘lganida juda yaxshi o‘ynaydi. Shunday paytlarda biz qancha pul ketsa ham, qo‘llab-quvvatlaymiz. Ammo omadsizlik paytlari, yutqizib qo‘yganida shaxmatni tashlagisi keladi. Bu sport-ku, har doim ham g‘alaba qozonmaydi. Ana shunday damlarda unga dalda bo‘lib, “Sportda bugun yutqizsang, ertaga yutasan. Har bitta mag‘lubiyating senga dars bo‘lsin, ertangi o‘yining uchun saboq bo‘lsin”, deb tushuntiraman, ruhini ko‘tarishga harakat qilaman.

– Nodirbekning fikr-u xayoli, harakatlari faqat shaxmat bilan bog‘liqmi yoki boshqa sport turlari bilan ham shug‘ullanadimi?

– Rus va ingliz tilini yaxshi o‘zlashtirdi. Hozir arab tilini o‘rganyapti. To‘rtinchi til sifatida fransuzcha yoki ispanchani o‘rganishni rejalashtiryapmiz. Sportning boks turi bilan shug‘ullanadi, suzishga ham qatnashadi. Bundan tashqari, har kuni oilaviy ikki soat jismoniy mashqlar bajaramiz.

– Kelajakda Nodirbekka O‘zbekistonda e’tibor berilmay qolsa, u faoliyatini boshqa davlat nomidan davom ettirishi mumkinmi?

– Shaxmatni 2008-yildan boshlagan bo‘lsak, shu vaqtgacha juda ko‘p qiyinchiliklar bo‘ldi, boshqa davlatlardan takliflar tushdi. Hatto xorijdan uylar, katta stipendiyalar, mukofot pullari taklif qilindi. Lekin ularga qiziqmadik. Nodirbekning o‘zi ham rozi bo‘lmagan, “Hech qachon chet davlat foydasiga o‘ynamayman. Boshqa mamlakatda yashasam ham, O‘zbekiston uchun o‘ynayman”, deydi.

– Farzandini shaxmat to‘garaklariga bermoqchi bo‘lgan ota-onalarga yoki shu sport turiga qiziqayotgan yoshlarga qanday maslahatlar bergan bo‘lardingiz?

– Shaxmatni boshlagan paytlarda bir-ikki yil natija bo‘lmasligi mumkin. Ko‘p ota-onalar shu muddat ichida natija ko‘rinmagach, bolasini mashg‘ulotlarga olib borishni to‘xtatadi. Berilgan vazifalarni vaqtida bajarish kerak, qiyinchiliklarni yengish lozim. Shundagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Faqat g‘olib bo‘lish uchun shaxmat bilan shug‘ullantirish kerak emas. Bu sport bolaning maktabda yaxshi o‘qishi, zehnining o‘tkir bo‘lishi, eslab qolish qobiliyatining o‘sishi, mustaqil qaror qabul qilishida katta o‘ringa ega, yaxshi tomonlari ko‘p.

Yutuqlar qiyinchiliklarsiz qo‘lga kiritilmaydi…

Daryo.uz (qisqartirib olingan)

8.29. Matn asosida tuzilgan testlarni yeching.

1. Nodirbekning chempion bo‘lganini onasi qanday qarshi oladi?

A) *Qoniqish hissi bilan qabul qiladi.*
B) *Bosiqlik bilan qabul qiladi.*
D) *Ishonqiramasdan qabul qiladi.*
E) *Quvonch hissi bilan qabul qiladi.*

2. Nodirbekning shaxmatga qiziqishiga nima sabab bo‘lgan?

A) *bog‘chasidagi ustozining shaxmatchi ekanligi*
B) *oilasida hamma shaxmatchi bo‘lgani*
D) *onasining shaxmatni yaxshi ko‘rgani*
E) *sinfdoshlarining shaxmat to‘garagiga borishi*

3. Nodirbek kimning moddiy qo‘llab-quvvatlashi natijasida grossmeysterlik talablarini bajarishga erishadi?

A) *otasining*
B) *yaqin qarindoshlarining*
D) *Turizm vazirligining*
E) *homiy kompaniyaning*

4. Qaysi hukm matn mazmuniga mos emas?

A) *Nodirbek bir nechta tilni biladi va shaxmatdan boshqa sport turlari bilan ham doim shug‘ullanadi.*
B) *Nodirbek moddiy qiyinchiliklarga uchraganda ham boshqa davlat sharafini himoya qilib shaxmat o‘ynamasligini ta’kidlaydi.*
D) *Nodirbek ota-onasining qo‘llab-quvvatlashi, ustozlarining saboqlari va tinimsiz mashqlar natijasida jahon chempioni bo‘ldi.*
E) *Nodirbek shaxmatni yaxshi ko‘radi, yutqizganida, omadsizlik paytlarida ham uni tark etishni o‘ylamaydi.*

5. Shaxmat bolalarda asosan qanday xususiyatlarni shakllantiradi?

(Beshta javob variantini belgilang.)

A) *fanlarni yaxshi o‘zlashtirish*
B) *xotirani yaxshilash*
D) *mantiqiy qaror qabul qilish*
E) *sabr-toqatli bo‘lish*
F) *notiqlik, so‘zga ustalik*
G) *hissiy ta’sirchanlik*
H) *kirishimlilik*
I) *jismonan sog‘lom bo‘lish*
J) *mustaqil fikrlash*

1. Nodirbekning muvaffaqiyatga erishishida onasining o‘rni qanday?
2. Nodirbekning shaxmatni tanlagani ota-onasini ikkilantirganmi?
3. Nodirbek kelajakda faoliyatini boshqa davlat nomidan davom ettirishi mumkinmi?
4. Nodirbek shaxmatdan boshqa yana qanday mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanadi?
5. Shaxmatga qiziqayotgan yoshlar nimalarga e’tibor berishi kerak?

8.30. Guruhlarga bo‘linib, 3 daqiqa ichida Nodirbek tabiatiga xos sifatlarni yozing. Eng ko‘p sifat yozgan jamoa yutib chiqadi. Masalan,

1-guruh	2-guruh	3-guruh
vatanparvar	poliglot (ko‘p tilni biluvchi)	sport bilan shug‘ullanuvchi
***	***	***

8.31. Jadvalni o‘qing va u asosida tavsifiy matn tuzing.

Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar terma jamoasining Jahon shaxmat olimpiadasidagi eng yaxshi natijalari

1992-yil				2022-yil			
T/R	Jamoa	O‘yin	Ochko	T/R	Jamoa	O‘yin	Ochko
1.	Rossiya	14	39	1.	O‘zbekiston	11	19
2.	O‘zbekiston	14	35	2.	Armaniston	11	19
3.	Armaniston	11	34	3.	Hindiston	11	18

Quyidagi ikki gapning mazmuni va shaklidagi farqlarni tushuntiring.

1. Erkin A’zam aytadi: “Inson mehnati beiz ketmaydi”.

2. Erkin A’zam insonning mehnati beiz ketmasligini aytadi.

Ko‘chirma gapli qo‘shma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirganda muallif gapi tarkibidagi bo‘laklar boshqa bo‘lakka o‘zgarmaydi. Biroq ko‘chirma gap tarkibidagi bo‘laklar shakl va vazifa jihatidan o‘zgaradi. Muallif gapining kesimi mazmunga mos ravishda *aytmoq, so‘ramoq, buyurmoq, tilamoq, iltimos qilmoq, dodlamoq, qarg‘amoq* kabi fe’llar bilan almashadi.

Ko‘chirma gapli qo‘shma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirganda ko‘chirma gap tarkibidagi bo‘laklar quyidagicha o‘zgaradi:

KO‘CHIRMA GAPLI QO‘SHMA GAP (KG+MG)	O‘ZLASHTIRMA GAP (O‘z)
Ko‘chirma gap kesimi	Vositasiz to‘ldiruvchiga
Ko‘chirma gap egasi	Qaratqich aniqlovchiga *(ba’zan tushib qoladi)*
Ko‘chirma gapdagi hol, to‘ldiruvchi	Nomustaqil hol va to‘ldiruvchiga
Ko‘chirma gapdagi aniqlovchi	Birikma tarkibidagi aniqlovchiga
Ko‘chirma gapdagi undov va kirishlar	Tushirib qoldiriladi
Ko‘chirma gapdagi undalma	Vositali to‘ldiruvchiga

Masalan:

1. *Abu Rayhon Beruniy aytadi: “Yaxshi xulq yaxshilikning alomatidir”.*
2. *“Homid, sen qachon kelasan?” – dedi Abror.*

1. *Abu Rayhon Beruniy yaxshi xulq yaxshilikning alomati ekanini ta’kidlaydi.*
2. *Abror Homiddan qachon kelishini so‘radi.*

Shuningdek, so‘roq va buyruq gap shaklidagi ko‘chirma gap darak gapga o‘zgaradi. Masalan: *“Polvon toshni dast ko‘targan edi, hamma: “Yashavor, polvon!” – dedi. // Polvon toshni dast ko‘targan edi, hamma olqishladi.*

8.32. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantiring.

1. “Yaxshi fe’l bilan kishilar ko‘nglini olib, o‘zingni yomon qiliqlardan saqlab yasha”, – deydi Ahmad Yugnakiy. 2. Abdulla Qahhor jilmayib: “Odamzod hasad qilmasligi kerak. Havas qilishi kerak. Havas qilgan odam murodiga yetadi”, – dedi. 3. Donishmandlar deydilar: “Har narsaki bevafo bo‘lsa, u muhabbat qo‘yishga noravodir”. 4. “Hunari va odobi bo‘lmagan kishidan, – deydi Mahmud Koshg‘ariy, – baxt va davlat ketadi”. 5. “Behuda so‘zlardan tilni tiying”, – degan ota-bobolarimiz. 6. “Umring uzoq bo‘lsin”, – dedi buvim.

8.33. O‘zlashtirma gaplarni ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarga aylantiring.

1. Bir donishmand nasihatni olmaydigan odamning baxtsiz ekanligini ta’kidlagan edi. 2. Oydin Hojiyeva xalqni og‘ir sinovlar, mashaqqatlar, ulug‘ o‘zgarishlar jipslashtirishini, uning kuch-qudratini imtihon qilishini yozadi. 3. Hadislarda yaxshi xulqdan boshqa oliy nasab yo‘qligi haqida aytib o‘tilgan 4. Nodiraxon sukut salomatlikni, yaxshilik izzat va obro‘ni keltirishini aytdi. 5. O‘qituvchi talabalarga odobning yuqori bosqichi go‘zal xulqligini tushuntirdi. 6. Bobom shirinso‘zlik va muloyimlik har qanday baloni qaytarishga qodirligini aytdi.

8.34. **Nodirbek Abdusattorovning onasi bilan suhbat matnidan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni topib, ularni o‘zlashtirma gapga aylantiring.**

8.35. **Nodirbekning onasiga ta’rif bering.**

8.36. **Sport yangiliklari haqida xabar tayyorlab keling.**

Facebook tarmog‘idagi sportga oid guruhda berilgan savol va unga yozilgan izohlarni o‘qing hamda topshiriqlarni bajaring.

Oyshaxon

Assalomu alaykum, guruhdoshlar, maslahatingiz kerak. Shaxmatga oilaviy qiziqamiz. O‘g‘limni shaxmat bo‘yicha to‘garakka bermoqchi edik. U 3 yoshda, qabul qilishadimi?

M **Manzura**
Mening 4 yoshli jiyanim to‘garakka boryapti, biroq qiynalyapti. Menimcha, keyinroq bersangiz, tezroq o‘rganadi.
28-dekabr 19:15 Yoqdi Javob berish

B **Baxtiyor**
Bolalarni 4 yoshdan futbol maktabiga bersa bo‘ladimi?
28-dekabr 19:16 Yoqdi Javob berish

A **Aliyeva M.**
Bolajonimni 3 yoshdan to‘garakka berganman, hozir u besh yoshda, yaqinda tengqurlari orasida mamlakat chempioni bo‘ldi. Bersangiz bo‘ladi.
28-dekabr 19:17 Yoqdi Javob berish

O **Obidjon A.**
Kanalimda shaxmat haqida qimmatli postlar qo‘yib boriladi, kirib ko‘ring. @uzshaxmat
28-dekabr 19:18 Yoqdi Javob berish

D **Doktor Asilaxonim**
Shifokorman, o‘g‘lingiz sog‘lom va rivojlanishdan ortda qolmayotgan bo‘lsa, bersangiz bo‘ladi.
28-dekabr 19:18 Yoqdi Javob berish

N

Nodirbek V.
“ShahMAT” shaxmat maktabida xalqaro grossmeysterlar dars beradi. Biz maktabimizda farzandlaringizni kutamiz.

28-dekabr 19:18 Yoqdi Javob berish

R

Rustamjonov K.
Shaxmat ustasiman. Bola sog‘lom bo‘lsa, uni 3 yoshdan boshlab shaxmatga berish mumkin va bu yoshda o‘rgatish jarayoni o‘yin shaklida, qisqa va qiziqarli mashg‘ulotlar orqali olib borilishi lozim. Bu orqali bolada diqqatini jamlash, mantiqiy fikrlash, sabr-toqatli bo‘lish ko‘nikmalarini va xotirani rivojlantirish mumkin. Eng muhimi, birdan ko‘p yuklama bermaslik, uni shaxmatdan bezdirib qo‘ymaslik lozim.

28-dekabr 19:18 Yoqdi Javob berish

8.37. Yuqoridagi izohlar asosida testlarni yeching.

1. Oyshaxon nimani bilishni xohlaydi?

A) *bolani necha yoshdan shaxmatga berish haqida ma’lumot olishni*
B) *shaxmat ustalari bilan qanday bog‘lanish mumkinligini*
D) *shaxmat to‘garaklari haqida ma’lumot olishni*
E) *bolani 3 yoshdan shaxmatga berish mumkin yoki mumkin emasligini*

2. Oyshaxon nima sababdan guruhda savol joylashga qaror qildi?

A) *U shaxmat to‘garaklari haqida ma’lumot olmoqchi edi.*
B) *Ular shaxmatga oilaviy qiziqishar edi.*
D) *U bolasini shaxmat to‘garagiga bermoqchi edi.*
E) *Uning shaxmat bilan shug‘ullanadigan tanishi yo‘q edi.*

3. Oyshaxonning so‘roviga guruhdagi izohlarning mos yoki mos emasligini belgilang.

OYSHAXON SO‘ROVIGA MOSMI?	MOS	MOS EMAS
Manzuraning izohi	***	***
Baxtiyorning izohi	***	***
Aliyeva M. yozgan izoh	***	***
Obidjon A. yozgan izoh	***	***
Doktor Asilaxonimning izohi	***	***
Nodirbek V. yozgan izoh	***	***
Rustamjonov K. yozgan izoh	***	***

4. Kim bolasini erta yoshdan shaxmatga berish borasida ijobiy tajribaga ega?

A) *Aliyeva M.* B) *Manzura* D) *Doktor Asilaxonim* E) *Rustamjonov K.*

5. Kim yaqinini erta yoshdan shaxmatga berish bo‘yicha salbiy tajribaga ega?

A) *Aliyeva M.* B) *Manzura* D) *Doktor Asilaxonim* E) *Rustamjonov K.*

6. Nodirbek V. nima maqsadda izoh qoldirdi?

A) *Oyshaxonning savoliga javob qaytarish uchun*
B) *shaxmat haqida qiziqarli xabarlarni yetkazish uchun*
D) *doktor Asilaxonimning maslahatiga qo‘shimcha qilish uchun*
E) *shaxsiy biznesini rivojlantirish uchun*

7. Oyshaxonning savoliga eng ishonchli javobni kim yozdi?

A) *Aliyeva M.* B) *Manzura* D) *Doktor Asilaxonim* E) *Rustamjonov K.*

Postlarga yoki chat guruhlarida izohlar yozish, munosabat bildirishning ham axloqiy me’yorlari mavjud. Izoh yozish – postlarga, video va audiokontentlarga shaxsiy munosabatini, qarashini ifodalab fikr qoldirish. Bunda bir nechta muhim qoidalarni unutmaslik lozim:

– *post mazmuniga mos izoh yozish;*

– *hurmat saqlash, kamsitish va haqorat qilishdan tiyilish;*

– *xatolardan xoli, savodli fikr bildirish;*

– *fikrni asosli, dalillarga tayanib ifodalash;*

– *o‘rinsiz reklama yoki spam* yubormaslik.*

Shuningdek, ***zo‘ravonlik, terrorchilik, axloqsizlik, vayronkorlikka da’vat qiluvchi, yolg‘on*** postlarga, video va audiokontentlarga munosabat bildirishdan, ularni tarqatishdan tiyilishingiz maqsadga muvofiq. Bunday ma’lumotlarni ***tarqatish, izohlarda boshqalarni haqorat qilish*** *qonuniy* ***javobgarlikka*** sabab bo‘ladi.

***Spam qilish –** boshqalarning noxolis, o‘rinsiz izohlari ustidan shikoyat qoldirish.*

8.38. Darsdan olgan xulosangizni bir xatboshida ifodalab, o‘qib bering.

1. *Yuqoridagi izohlarda qaysi kuzatuvchi(lar) izoh yozish qoidalariga amal qilmagan? Qaysi qoidalar buzilgan?*
2. *Taqiqlangan kontentlarni ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?*
3. *Ijtimoiy tarmoqlarda izoh yozish jarayonida bahslashib qolgan holatlaringiz bo‘lganmi, buning asosiy sababi nimada edi?*
4. *Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy kanalingiz bormi? Unda qaysi mavzudagi postlarni, xabarlarni e’lon qilasiz?*
5. *Shaxsiy kanalingizning izohlar qismida fikr bildirish qoidalariga amal qilmagan kuzatuvchilarga qanday chora qo‘llaysiz?*

8.39. **Ijtimoiy tarmoqlardan izoh yozish qoidalariga amal qilinmagan 10 ta misol topib yozing.**

CHORAK DAVOMIDA O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

1. **Geografik nomlar bo‘yicha boshqotirmalar javobini toping. Ularning imlosini izohlang.**

1. Bosh kiyim bilan aynan bir xil ataladigan davlatning nomi ……..






2. O‘zbekistondagi qaysi shahar yoki tuman atoqli ism bilan nomlangan? Rasmlardan biri ortiqcha.






3. Atalishi milliy taom nomi bilan bir xil yurtimizdagi daryo ……..






4. “Yangi shahar” ma’nosini anglatuvchi shahar nomi ……..






MUSTAHKAMLASH

2. Gaplarni yozing. Ajratilgan bo‘laklarni aniqlang. Tinish belgilarining ishlatilish sababini tushuntiring.

1. Yaproqlar – sariq, qizg‘ish, ko‘kimtir – oftobda tovlanardi.
2. Biz, insonlar, ona deya ulug‘laymiz shu qalbni.
3. Qo‘msab yoshligimni lolaga chiqdim – boshyalang, ko‘ylakchan va yalangoyoq.
4. Ertasi, yakshanba tongi, shoir poytaxtga jo‘nab ketdi.

3. Birliklarni erkak yoki ayol nutqiga xosligiga ko‘ra ikki guruhga ajrating.

Asalim, sadag‘ang ketay, aylanay, o‘rgilay, e bas qil, barakalla, ey, ha mayli, hey, hoy, qaraya, tasadduq, voy o‘lay, voy, xo‘sh, yo tavba, voy-dod, yo‘g‘-ey.

Ayollar nutqiga xos	Erkaklar nutqiga xos
***	***

4. Qo‘shma gap qismlari orasiga vergul, tire va ikki nuqtadan mosini qo‘yib ko‘chiring.

1. Pul bor//changalda sho‘rva.
2. Bir narsani tushunib yetdim//birovga suyanib qolmaslik kerak ekan.
3. Avval Asror kirdi//keyin uning ikki ukasi ko‘rinish berdi.
4. Hamma shay//boshlashga buyruq yo‘q.
5. Senga aytar so‘zim shu//bu yerga qaytib kelma.
6. Aybing shundaki//raqiblarni mensimading.

5. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘yib, ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni ko‘chiring.

1. *Tez olovlanib ketishdan birovni ayblash va janjal ko‘tarishdan o‘zimni tiyaman Doim og‘ir-bosiq bo‘lishga intilaman deb yozgandi Chingiz Aytmatov*
2. *Gyote shunday fikrlaydi G‘azab uchun dalilning keragi yo‘q U faqat sabab axtaradi*
3. *O‘tkir Hoshimov Daftar hoshiyasidagi bitiklar asarida Insoniyat orol emas qit’a bo‘lib yashashni o‘rgansa ko‘p balolarning oldi olingan bo‘lardi deydi*
4. *O‘zbekiston global tendensiyalardan nusxa ko‘chirmasligi balki mahalliy qadriyatlar huquqiy me’yorlar va jamiyat ehtiyojlariga asoslangan sun’iy intellekt ekotizimining o‘zbek modelini yaratishi muhim deb fikr bildirdi olim*

6. **To‘g‘ri ovqatlanish me’yorlari haqida fikr almashing.**


Loyiha ishi

Loyiha ishi: Til birliklarining yoshga va jinsga xoslanishi

Topshiriq. Ta’til davomida turli yoshdagi (bolalar, o‘smirlar, yoshlar, o‘rta yoshlilar, yoshi ulug‘lar) kishilarning og‘zaki nutqidan qisqa parcha yozib oling. Har bir nutqda qanday farqlar (so‘z, gap qurilishi, talaffuz) borligini taqqoslang. Qaysi farqlar yosh va jinsga bog‘liqligini aniqlab, taqdimot tayyorlang.

IX BOB

INSON VA JAMIYAT



Audiomatnni tinglang.

HECH QACHON KECH EMAS

6

1. *84 yoshli Kimanida nima uchun o‘qish istagi paydo bo‘ldi?*
2. *Kimani Marugening maktab partasiga kelishi nega bu qadar kechikdi?*
3. *U matematikani o‘rganishdan qanday maqsadni ko‘zlagan edi?*
4. *Ta’lim olish yo‘lida keksa o‘quvchi nimalarni isbotlashiga to‘g‘ri keldi?*

9.1. Audiomatnga mos keladigan maqollarni tanlang va yozing. Yana qanday maqollarni tavsiya qilasiz?

1. *Intilganga tole yor.*
2. *Ko‘p qarining ichida bir bola dono bo‘lur, Ko‘p bolaning ichida bir qari bola bo‘lur.*
3. *Sabr etgan – murodga yetgan.*
4. *Yo‘ling charog‘on bo‘lsa, Turmushing farovon bo‘lar.*
5. *Qadam qo‘y asta-asta, Qadam yetguncha ilm ista.*
6. *Tikansiz gul bo‘lmas, Mashaqqatsiz – hunar.*

9.2. Berilgan tafsilotlarni matn asosida ketma-ketlikda joylashtiring.

1. *Eldoret shahridagi boshlang‘ich maktabga g‘ayrioddiy birinchi sinf o‘quvchisi keldi.*
2. *Keniya hukumati umumiy bepul sakkiz yillik ta’lim to‘g‘risidagi qonunni e’lon qildi.*
3. *Oshqozon saratoni tufayli keksa o‘quvchining sog‘lig‘i yomonlashdi.*
4. *BMT minbarida Kimani Maruge ta’lim olish har kimning ajralmas huquqi ekani haqida nutq so‘zladi.*
5. *Ginnesning rekordlar kitobiga “Dunyodagi eng keksa o‘quvchi” sifatida kiritildi.*
6. *Kimani Maruge haqida “Birinchi sinf o‘quvchisi” (“The First Grader”) nomli biografik film suratga olindi.*

9.3. Audiomatndan chiqargan xulosangizni sinfdoshlaringizga so‘zlab bering. Fikringizni dalillar bilan asoslang.

9.4. Audiomatn asosida hukmlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang va yozing.

T/R	HUKMLAR	T/N
1.	Kimani Maruge Britaniya mustamlakachilik davrida ozodlik uchun kurashgan va qiynoqlar natijasida ko‘rish qobiliyati yomonlashgan.	***
2.	“Birinchi sinf o‘quvchisi” (“The First Grader”) kinoasari 2010-yili “Eng yaxshi film” mukofotiga sazovor bo‘ldi.	***
3.	Kimanining otasi qashshoqlik sababli farzandlariga ta’lim olish imkoniyatini yaratib bera olmagan.	***
4.	Hayotining so‘nggi kunlarida keksa o‘quvchi uy sharoitida ta’lim oldi.	***

9.5. Muallif mulohazasining dolzarbligiga yozma munosabat bildiring.

EHTIYOJI MILLAT

Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur.

50 sana (yil) muqaddamgi zamonda biz, turkistonlilar, yakka va tanho yashab, boshqalar ila muomala va munosabatimiz yo‘q edi… Zamoni sobiqda faqat shari’at bilmoq kifoya etardi. Endi qonun va zakunni bilmoq ham lozimdur...

Kontur va rasmiy daftar tutib, kassa ko‘rib tijorat etmoq lozim. Ilmi tijorat bilaturgan, buxgalterlik hisobi yuritadurgon boylarimiz-da kerak, ul ham o‘zimizdan bir nafar topilmaydur. Hammollikdan bu ishlar yaxshi bo‘lsa kerak. Bir necha boyvachchani bilarmanki, eng qattiq xizmatlarga giriftor. Sababi – ilmsizlik, holbuki alarni “to‘yi”ga atosi besh ming so‘m sarf etib edi.

Boshqa millatlarni boylari faqir va yetimlar uchun maktab va dorilfununlar soladurlar, faqir va yetimlarni o‘qumog‘i uchun vaqf “istipendiya”lar ta’yin qilur. Boshqa millat miliunerlari maktabi ila, istipendiyasi-la, idora qilaturgon gazet va majallasi-la, bino qilgan dorulojizin (ayollar universiteti), barpo qilgan jam’iyati xayriyasi-la faxr qiladur.

Biznikilar juft oti-la, arobasi-la, to‘yi ila va... la faxr etar. Hatto o‘z o‘g‘illarini o‘qutmaydurgon boylar bordur.

Bu ketishni oxiri yamondur, o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, “Samarqand” gazetasi, 1913-yil 12-iyul

9.6. “Hech qachon kech emas” audiomatnidan olingan quyidagi fikr yuzasidan mulohaza yuriting. Ayting-chi, siz ta’lim olish huquqingizdan o‘rinli foydalanyapsizmi?

BMT minbarida Kimani Maruge ta’lim olish har kimning, yoshi nechada bo‘lishidan qat’i nazar, ajralmas huquqi ekani haqida nutq so‘zladi. U o‘z harakati shunchaki o‘qish va yozishni o‘rganish istagi emas, balki bu – ozodlik kaliti, e’tiqod va adolat uchun kurash, yoshlikda erisha olmagan orzularini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi qat’iy qadam ekanini ta’kidladi.

9.7. Audiomatndan olingan quyidagi o‘zlashma so‘zlarni izohi bilan moslashtiring.

1.	Veterinariya
2.	Rekord
3.	Pensiya
4.	Motivatsiya
5.	Biografiya
6.	Matematika

A)	Fuqarolarga davlat yoki boshqa subyektlar qonunda belgilangan hollarda muntazam to‘laydigan to‘lovlar, ijtimoiy ta’minot shakli
B)	Insonni maqsad sari harakat qilishga undovchi ichki yoki tashqi sabablar
D)	Inson hayotining batafsil tavsifi, tarjimayi holi
E)	Ish, faoliyatning biror sohasida, sport musobaqalarida erishilgan eng katta muvaffaqiyat, eng yaxshi natija, eng yuqori ko‘rsatkich
F)	Aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi fan
G)	Hayvonlarning kasalliklari, ularning oldini olish hamda davolash bilan shug‘ullanadigan soha

O‘zlashma so‘z – ma’lum ijtimoiy-tarixiy voqealar, savdo va madaniy aloqalar tufayli bir tildan ikkinchi tilga o‘tgan so‘z. Masalan, o‘zbek tiliga arab tilidan *adabiyot, axloq, kitob, muallim;* fors tilidan *barg, tilla, shabnam;* rus tili va u orqali Yevropa tillaridan *bank, parta, gazeta, reklama, limon* kabi so‘zlar o‘zlashgan. Bu kabi so‘zlar asta-sekin qabul qiluvchi til qonuniyatlariga bo‘ysunishi natijasida uning begonaligi sezilmay qoladi.

Fan va texnika yangiliklari, kundalik turmushda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar sababli tilga kirib kelayotgan yangi so‘zlar fanda **neologizmlar** deb ataladi. Masalan, *tyutor, heshteg, podkast.*

Neologizm va o‘zlashma so‘z o‘rtasida farq mavjud. O‘zlashma so‘zlar tilimizga singib ketgan va lug‘atlarimizdan joy olgan qatlam hisoblansa, neologizmlar tilimizga yangi kirib kelgan va hali keng yoyilmagan so‘zlardir.

Hozir neologizmlar asosan yoshlar nutqida ko‘p uchraydi. Bu birliklardan foydalanishda ham me’yor bo‘lishi kerak.

TIL SANDIG‘I

O‘ZBEKCHASI BOR!

feyk – yolg‘on	**zona** – hudud	**investitsiya** – sarmoya
chellenj – chorlov	**IT park** – AT park	**polik** – to‘shama
smart – aqlli	**skidka** – chegirma	**otvyortka** – buragich
link – havola	**parol** – o‘ron	**shurup** – buramamix

9.8. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida o‘zbek tiliga kirib kelgan lug‘aviy birliklar qatorini davom ettiring va ularning yozuvda qanday aks etishi borasida takliflaringizni yozing.

Namuna *startup – startap*

Blogger, smartphone, TikTok, podcast, brand, Facebook, organizer, WhatsApp, YouTube.

9.9. Guruhlarga bo‘lining va namuna asosida so‘zlarni ikkiga ajrating.

Rieltor, xaker, televizor, parlament, xit-parad, avtobus, sheyping, shou, birja, asfalt, ofis, genetika, avatar, aeroport, elektromobil, bankomat, provayder, spiker, parlament, keshbek.

O‘zlashma so‘zlar	Yangi so‘zlar
televizor, parlament…	makler, xaker…
***	***

9.10. Lug‘at yordamida neologizmlar jadvalini to‘ldiring.

Atama	Taxminiy muqobili	Aloqador soha
blekaut	elektr tarmog‘idan uzilish, elektr o‘chishi	energetika
dron	***	***
kriptovalyuta	***	***
promokod	***	***
rieltor	***	***
kibersport	***	***
detoks	***	***
keshbek	***	***

1. Nima deb o‘ylaysiz, Kimani Marugega sinfdoshlari qanday munosabatda bo‘lishgan?

2. Ilm olishga hech qachon kech emasligi haqida hayotiy misollar keltiring.

9.11. **Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbekistonlik ayrim keksa kishilarning oliy ta’lim muassasalariga hujjat topshirishi, ba’zilarining esa talabalikka qabul qilingani haqida xabarlar yoritildi. Bu holatning ijobiy va salbiy jihatlarini T-qolipda bering.**

Salbiy baholayman, chunki…		Ijobiy qarayman, chunki…
***		***

9.12. **O‘zlashma va yangi so‘zlarni ikki guruhga ajrating va jadvalga yozing.**

Trening, dizayn, neyron, divan, chempion, import, gibrid, rekord, radar, final, klinika, mebel, vitamin, smart, brauzer, globus, metro, megapolis, klip, kassa, sport, marketing, logistika, drayver, fitobar, kofe, layfhak, departament, menejer, selfi, prokuratura, statistika, dron, galaktika, jemper, montaj, kopirayter, frilanser.

	Talaffuzi va imlosi farq qiladigan so‘zlar	Talaffuzi va imlosi bir xil so‘zlar
O‘zlashma so‘zlar	***	***
Yangi so‘zlar	***	***

9.13. **“Hech qachon kech emas” audiomatni qahramoni hayotiga oid 4 ta fikr va 4 ta fakt yozing.**

9.14. **Ko‘cha yozuvlari, reklama bannerlarida, ommaviy axborot vositalarida uchrayotgan yangi so‘zlar ro‘yxatini tuzing va ularning imlosi bo‘yicha takliflaringizni yozing.**

1. *Nima uchun insonning barcha orzulari ham ro‘yobga chiqavermaydi?*
2. *Maqsadi yo‘lida qiyinchiliklarni yenggan va boshqalarni ham ortidan ergashtira olgan mashhur shaxslardan kimlarni bilasiz?*
3. *Qaysi millatlar iqtisodiy-texnologik yutuqlari bilan dunyoni lol qoldirdi?*

YAPONCHA USUL

Kunchiqar yurt vakillari doimiy rivojlanish va maqsadlarni amalga oshirish usulini “kayzen” deb atashadi. Kayzen inson hayoti davomida erishishi mumkin bo‘lgan, kuchi va vositalari yetarli, uzoq vaqt talab qilmaydigan maqsadlar qo‘yish va ular uchun harakat qilishdan iborat.

Bu yo‘lda u faoliyatiga shaxsiy burch sifatida qarashi va hech kimning ko‘magini kutmasligi, aksincha, boshqalarni ham ruhlantirishi, ortidan ergashtirishi talab etiladi. Shunday jamiyatda kichik maqsadlardan katta maqsadlarga o‘tiladi, muvaffaqiyat ham aynan to‘g‘ri qo‘yilgan maqsadlar zamirida **ro‘yobga chiqadi. (1)**

Kayzen usulini yaponlar Ikkinchi jahon urushidan keyin vayron bo‘lgan Yaponiyani qayta tiklash, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda qo‘llagan. Keyinchalik bu taraqqiyot yo‘li haqida bir qancha kitoblar yozilgan, batafsil tadqiq qilingan. Shu tariqa u Yevropaga yetib borib, u yerda ham ko‘p davlatlar, jamiyatlar, insonlar hayotiga yangilik va yaxshilik olib kirgan. **(2)**

Biroz ortga chekinsam. Bolalik xotiralarimni eslasam, opajonim ko‘z o‘ngimda gavdalanadi. Oilada ikki farzand edik: opam va men. Biz doim birga o‘ynardik va hech kimga bir-birimizni xafa qildirib qo‘ymasdik. Ba’zan barcha opa-singillar kabi bizda ham **kelishmovchilik** bo‘lib turardi. Ayniqsa, uy yumushlarini bajarishga kelganda janjal chiqardi, shu sababdan ham onam ikkimizni hamisha ahil bo‘lib ishlashga undardilar. **(3)**

Bir kuni otam bir-biridan chiroyli tuvaklarda rang-barang gullar olib keldi va ularni parvarish qilish opam ikkimizning zimmamizga tushdi. Oradan vaqt o‘tib, sansalorlik bilan gullarga qaramay qo‘ydik. Men opamning boshlashini kutardim, opam esa bu ishni doim menga yuklardi. Natijada gullarning deyarli barchasi so‘lib qoldi. Ota-onam bu voqeadan so‘ng bizdan juda ranjidi. Ayniqsa, otam ancha vaqtgacha gapirmay yurdi. Nihoyat bir kuni kechki payt ovqatlanayotganimizda otam gap boshlab qoldi: “Olib kelgan gullarga qarash kimning vazifasi edi?” Opam ham, men ham boshimizni eggancha **past** ovozda “Bizning”, deb javob berdik. Shunda otam men hech qachon unutmaydigan gapni aytdilar: “Sizning xatongiz aynan mana shunda! Ikkingiz ham “bizning” emas, “mening” deb javob berishingiz kerak edi. Nega odamlar chiqindilarni beparvolik bilan jamoat joylariga tashlashi, lekin o‘z uyini hech qachon iflos qilmasligi sababini bilasizmi? Chunki ular ko‘chalarni tozalash farroshlarning va obodonlashtirish xodimlarining vazifasi deb o‘ylaydilar. Agar biz barcha narsaga umumiy mas’uliyat sifatida qaraydigan bo‘lsak, hamma kimningdir boshlashini kutadi. Doim yodingizda saqlang: mas’uliyat – burch bilan bog‘liq muhim tushuncha. Siz har bir narsani o‘z shaxsiy burchingiz deb bilsangiz, ana shunda harakatga tushasiz va boshqalar ham beixtiyor sizga ergashadilar”. **(4)**

Hozir o‘n olti yoshdaman. Otam aytgan gaplarni har qachongidan ham yaxshiroq tushunyapman. O‘shandan beri hamma narsani o‘z burchim deb bilaman va boshqalardan madad kutib o‘tirmayman. Tabiatni asrash, yaxshi o‘qish, yetuk mutaxassis bo‘lish, yurtimiz ravnaqiga hissa qo‘shish – bular mening burchlarim. Demak, dunyoni o‘zgartirmoqchi bo‘lsak, o‘zgarishni o‘zimizdan boshlashimiz kerak. Agar ta’lim tizimini takomillashtirmoqchi bo‘lsangiz, avvalo o‘zingiz yaxshi o‘qing. Agar ekologik muammolarni hal qilmoqchi bo‘lsangiz, atrof-muhitga e’tiborliroq bo‘ling. Fikrlarim oddiy gapdek **tuyulishi mumkin**, ammo ularning zamirida dunyoni o‘zgartirishga qodir kuch bor. **(5)**

Xotiralarimning yaponcha kayzen usuliga qanday aloqasi bor? Aytaylik, siz **nufuzli** universitet talabasi bo‘lmoqchisiz. Erishish mumkin bo‘lgan orzungiz yo‘lidagi mashaqqatlarni kamaytirish, maqsadingizga yetish ehtimolini oshirish uchun unga olib boruvchi kichik rejalar tuzib, ular ustida ishlashingiz kerak. Masalan, ishni ingliz tilini o‘rganish, o‘zingiz tanlagan sohada kerak bo‘ladigan fanlarni chuqurroq o‘zlashtirish, portfolio – yutuqlaringiz jamlangan faylni shakllantirib, boyitib borishdan boshlash mumkin. Shunda siz ko‘zlagan marra uzoqlashib

ketmaydi, kichik cho‘qqilarni zabt etish hisobiga ulkan tog‘ning eng yuqori cho‘qqisiga chiqasiz. Yon-atrofda sizga havas qiladiganlar va ortingizdan ergashadiganlar sonining ortishi esa jamiyatda ijobiy burilish yasashi shubhasiz. **(6)**

Do‘stginam, siz ham **hayot tarzi**ngizga mana shu ajoyib usulni olib kiring. Ishonavering, ishlaringiz “besh” emas, “olti” bo‘ladi! (**7**)

Muhammadali OBID o‘g‘li, Gulxan.uz

1. Inson burchini bajarmasa, huquqidan mahrum bo‘lishi mumkinmi?

2. Jamiyatimizga kayzen usulini tatbiq qilsa bo‘ladimi?

3. Sizda ham yig‘majild (portfolio) bormi? Agar yo‘q bo‘lsa, ishni nimadan boshlar edingiz?

9.15. Matn qismlari uchun sarlavha toping va yozing.

1-qism	******
2-qism	******
3-qism	******
4-qism	******
5-qism	******
6-qism	******
7-qism	******

9.16. Matnda ajratib ko‘rsatilgan birliklarning sinonim(lar)ini toping va yozing.

Namuna *ro‘yobga chiqadi – yuzaga chiqadi*

9.17. Matn asosida testlarni yeching.

1. Kayzen usulini yaponlar qay maqsadda qo‘llagan?

(Bir nechta javobni belgilang.)

A) Ikkinchi jahon urushi talafotlarini tugatishda

B) vayron bo‘lgan mamlakatni qayta tiklashda

D) zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqishda

E) mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda

2. “Dunyoni o‘zgartirmoqchi bo‘lsak…” fikrini davom ettiring.

A) … kichik rejalar tuzib, ular ustida ishlashimiz kerak.

B) … o‘zgarishni o‘zimizdan boshlashimiz kerak.

D) … atrof-muhitga e’tiborliroq bo‘laylik.

E) … avvalo o‘zimiz yaxshi o‘qiylik.

3. Matnning nechanchi qismida maqsadga erishish yo‘li bayon qilingan?

A) ikkinchi qismida B) to‘rtinchi qismida

D) beshinchi qismida E) oltinchi qismida

4. Muallif nima maqsadda bolalik xotiralarini yodga oladi?

A) mamlakat taraqqiyoti va iqtisodiyot rivoji uchun kayzen usulining samarali ekanini tasdiqlash uchun

B) har bir narsaga shaxsiy burch sifatida qarash va javobgarlikni his qilgan holda harakatga tushish kerakligini ta’kidlash uchun

D) maqsadga erishish yo‘lidagi mashaqqatlarni kamaytirish, unga olib boruvchi kichik rejalar tuzishni o‘rgatish uchun

E) otasining qattiqqo‘lligi, har qanday ishga – u kichikmi yo kattami – mas’uliyat bilan yondashganini xotirlash uchun

TIL SANDIG‘I

KO‘PDAN QUYON QOCHIB QUTULMAS

Yolg‘iz odam quyonni quvib yetishi, tutib olishi amrimahol. Ammo ko‘pchilik shunday kuchki, quyon ham qochib qutula olmaydi. Bu – maqolning to‘g‘ri ma’nosi. Majoziy ma’nosi shuki, ko‘pchilik birikib, hamjihat bo‘lib ishga kirishsa, har qanday mushkul ishning ham uddasidan chiqa oladi. Variantlari: “Ko‘pchilik tikilsa, tog‘ qulaydi”, “Ko‘pning qo‘li ko‘kka yetar”.



9.18. Guruhlarga bo‘lining. Yoshlar jamiyatda mustahkam o‘ringa ega bo‘lishi uchun zaruriy omillar qatorini davom ettiring.

- mustahkam bilim;
- zamonaviy kasb-hunar;
- mustaqil fikr;
- kompyuter savodxonligi…

9.19. Gaplardagi lug‘aviy shakllarni aniqlang va ma’nosi bilan moslashtiring.

1.	Kichkina, kichkina kelinchak, Boshlarida tugunchak. (*Topishmoq*)	A)	hazil
2.	Voy, voy, shirin so‘zginangdan aylanay, singlim! (*Oydin*)	B)	piching
3.	Jon Gulijon, mehmonlarga o‘zing qaragin. (*H. Ahmedova*)	D)	erkalash
4.	XX asr boshida Jo‘raxon, Ergashcha, Shodibegim, Hamdamxon, Chervonxonim, Tamaraxonim, Nurbeka, Mastonbu, Halimaxonim kabi usta san’atkorlar faoliyat ko‘rsatgan. (*O‘zME*)	E)	iltimos, yalinish
5.	Tag‘in uyingizdagi ayol yangi ayacha bo‘lmasin?! (*Hamza*)	F)	ijobiy munosabat
6.	Bu maxsumchani Akmalcha der ekanmiz-da? (*Sobir O‘nar*)	G)	kichraytirish

9.20. Gaplarni ko‘chiring. Lug‘aviy shakllarni aniqlab, ma’nosini izohlang.

1. Shiringina qizaloq ko‘ksiga qo‘g‘irchoqni mahkam bosganicha ko‘zlarimga jovdirab qaraydi: “Xolajon, koptogim suvga tushib ketdi. Olib bering”. (*H. Ahmedova*) 2. Oydayin yuzginam, shirin so‘zginam, Ayt, qaro ko‘zginam, nechun yig‘larsan? (*O. Rizayev*) 3. Aziz bekajonlar, ko‘rsatuvimizning navbatdagi sahifasida shirinliklar haqida gap boradi. (*TV*) 4. – Jon ukajon, yana “Dili modar”ni ayt, – deb yig‘lardi u Fazliyga yalinib. (*Shukur Jabbor*) 5. Yigitchaning shu “xon” degan qo‘shimchasida “mening Zebinisam” degan ma’noda bir maqtanish, bir g‘urur ohangi bor edi. (*Cho‘lpon*)

Gaplardagi grammatik va mazmuniy farqlarni aniqlang.

1. Zamonaviy dunyoning shu qadar tez o‘zgarishidan go‘yo hayot nazoratdan chiqib ketayotgandek tuyulyapti.
2. Zamonaviy dunyo juda tez o‘zgaryapti va hayot go‘yo nazoratdan chiqib ketayotgandek tuyulmoqda.
3. Zamonaviy dunyo juda tez o‘zgaryapti: hayot nazoratdan chiqib ketayotgandek tuyulyapti.
4. Zamonaviy dunyo shu qadar tez o‘zgaryaptiki, go‘yo hayot nazoratdan chiqib ketayotgandek tuyulyapti.
5. Zamonaviy dunyo qanchalik tez o‘zgarsa, hayot ham shunchalik tez nazoratdan chiqib ketayotgandek tuyuladi.
6. Zamonaviy dunyo juda tez o‘zgaryapti, shu sababli hayot nazoratdan chiqib ketayotgandek tuyulyapti.
7. Hayot nazoratdan chiqib ketayotgandek tuyulmoqda, chunki zamonaviy dunyo juda tez o‘zgaryapti.

Nutq maqsadidan kelib chiqib bir ifodani turli shakllar orqali bayon qilish mumkin. Masalan:

1. Bir kishi ariq ochadi, ming kishi suv ichadi. *(bog‘lovchisiz qo‘shma gap)*
2. Bir kishi ariq ochadi va ming kishi suv ichadi. *(bog‘langan qo‘shma gap)*
3. Bir kishi ariq ochsa, ming kishi suv ichadi. *(ergashgan qo‘shma gap).*

Nutqda bog‘langan, ergashgan hamda bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar o‘zaro ma’nodosh bo‘ladi. Fikr ergash gapli qo‘shma gaplar bilan ifodalanganda esa mazmun yanada ta’sirli, bo‘yoqdor bo‘ladi.

9.21. Qo‘shma gaplar ma’nodoshligiga 3 ta misol yozing.

Namuna

1. Eshik ochildi, xonaga rassom kirib keldi. (bog‘lovchisiz qo‘shma gap)
*2. Eshik ochildi **va** xonaga rassom kirib keldi. (bog‘langan qo‘shma gap)*
*3. Eshik ochildi, **chunki** xonaga rassom kirib keldi. (ergashgan qo‘shma gap)*

9.22. Matndan olingan quyidagi qo‘shma gaplarni sodda gapga aylantirib yozing. Qaysi til birliklari qisqarganini aniqlang.

Namuna *Bir kuni otam bir-biridan chiroyli tuvaklarda rang-barang gullar olib keldi va ularni parvarish qilish opam ikkimizning zimmamizga tushdi.//Otam olib kelgan bir-biridan chiroyli tuvaklardagi rang-barang gullarni parvarish qilish opam ikkimizning zimmamizga tushdi.*

1. Agar ekologik muammolarni hal qilmoqchi bo‘lsangiz, atrof-muhitga e’tiborliroq bo‘ling. 2. Men opamning boshlashini kutardim, opam esa bu ishni doim menga yuklardi. 3. Fikrlarim oddiy gapdek tuyulishi mumkin, ammo ularning zamirida dunyoni o‘zgartirishga qodir kuch bor. 4. Ishonavering, ishlaringiz “besh” emas, “olti” bo‘ladi!

9.23. “Yaponcha usul” matnidan olingan parchada otaning farzandlariga nasihatini qanday tushundingiz? Bu fikrni yoshlar uchun chorlov sifatida qabul qilish mumkinmi? Fikringizni asoslang.

“Ikkingiz ham “bizning” emas, “mening” deb javob berishingiz kerak edi. Nega odamlar chiqindilarni beparvolik bilan jamoat joylariga tashlashi, lekin o‘z uyini hech qachon iflos qilmasligi sababini bilasizmi? Chunki ular ko‘chalarni tozalash farroshlarning va obodonlashtirish xodimlarining vazifasi deb o‘ylaydilar. Agar biz barcha narsaga umumiy mas’uliyat sifatida qaraydigan bo‘lsak, hamma kimningdir boshlashini kutadi. Doim yodingizda saqlang: mas’uliyat – burch bilan bog‘liq muhim tushuncha. Siz har bir ishni o‘z shaxsiy burchingiz deb bilsangiz, ana shunda harakatga tushasiz va boshqalar ham beixtiyor sizga ergashadilar”.

9.24. Gaplarni davom ettirib qo‘shma gap hosil qiling.

1. Ey inson, har bir so‘zni o‘ylab gapir…
2. Hamma ishlaringizda to‘g‘ri bo‘ling…
3. …bu manzara ham bizning ko‘ngilga yaqin-da, qadrdon!
4. Xalqqa beg‘araz xayr-u ehson qilmoqchi bo‘lsang…
5. …sokin tun ortga chekindi.
6. …o‘sha yerda halovat bor.

9.25. Qo‘shma gaplar ma’nodoshligiga 5 ta misol tuzing.

Kim ekaningiz ishni qanday tugatganingizda emas, balki qanday boshlaganingizda bilinadi. Ushbu fikrga qo‘shilasizmi yoki qo‘shilmaysiz? Nima uchun?

9.26. Kayzen usulida tayyorlangan yo‘l xaritasi bilan tanishing. Unga yana qanday qo‘shimcha kirita olasiz?

Kayzen inson hayoti davomida erishishi mumkin bo‘lgan, kuchi va vositalari yetarli, uzoq vaqt talab qilmaydigan maqsadlar qo‘yish va ular uchun harakat qilishdan iborat. (“*Yaponcha usul” matnidan*)

Taxminiy xarita andazasi:

1. Asosiy maqsadni va muddatni belgilang.
2. Unga erishish uchun kichik maqsadlar ro‘yxatini tuzing.
3. Shu kungacha erishgan yutuqlaringizni yig‘majildga joylang.
4. Tanlagan sohangizda mashhurlikka erishgan shaxslar haqidagi ma’lumotlar bilan tanishing.
5. Ruhiyatingiz va kuchingizni aniq rejaga yo‘naltiring.
6. Moddiy-moliyaviy masalada tavakkal qilishdan qo‘rqmang.
7. Yaqinlaringizni ortingizdan ergashtirishga, siz bilan birgalikda harakat qilishiga erishing.
8. Bosib o‘tgan yo‘lingizni vaqti-vaqti bilan sarhisob qiling: xato va kamchiliklardan xulosa chiqaring hamda takrorlamaslikka harakat qiling.

9.27. Berilgan fikrlarni quyidagi rasmlar bilan moslashtiring. Bir rasmga bir nechta mulohaza to‘g‘ri kelishi mumkin.

T/R	FIKRLAR
1.	Birgina odamning intilishi o‘zgalarni ham harakatga keltiradi.
2.	Yashil sayyora kelajagi uchun har bir inson javobgar.
3.	Ona sayyoramizni asrash uchun qo‘lni qo‘lga beraylik!
4.	Maqsadlar birlashganda yakdil harakat yuzaga keladi.
5.	Ba’zi hollarda mas’uliyatni birgina odam yelkasiga oladi.

A



B



9.28. Guruhlarga bo‘lining. Insonning jamiyatga va jamiyatning insonga ta’siri borasida “Fikrlar jangi”ni uyushtiring.

Mantiqiy savolga javob toping.

Tilshunos Zuhriddin Isomiddinov inglizchadan kirib kelgan bir so‘z o‘rnida “chaqchaq” so‘zini muqobil sifatida ishlatishni taklif qiladi. Balki, olimning aynan “chaqchaq” so‘zini tanlashiga inglizcha so‘z bilan bir xil boshlanishi ham sabab bo‘lgandir.

Hozir yoshlar tilida ko‘p qo‘llanuvchi ana shu qisqa so‘zni toping.

Savol muallifi: Sardor Ahmedov

9.29. Kayzen usulini hozirgi maktab ta’lim tizimida qanday joriy etish mumkin deb o‘ylaysiz? Ijobiy va salbiy jihatlarini baholab, 4 bosqichdan iborat strategiya tuzing.

1. Odatdagi hayot tarzini qanday o‘zgartirish mumkin?

2. O‘zga yurtdagi notanish muhit qanday muammolarni keltirib chiqaradi?

3. Siz uchun yangi muhitga moslashish osonmi yoki qiyin?

ORZULAR SINOVLARGA YENGILMAYDI

Yurtimizda xorijiy tillarni o‘rganishga talab kundan kunga ortib bormoqda. Tillarni o‘rganishga ishtiyoq oshgani sari yoshlar chet elda o‘qish va haqiqiy til muhitini his qilishni istashlari tabiiy. Qolaversa, chet ellik professorlardan dars olish, dunyoqarashning kengayishi, xorij madaniyatining o‘ziga xos tomonlarini o‘rganish juda qiziq.

O‘tgan yil, 11-sinfda o‘qib yurgan kezlarim bir qancha do‘stlarimning IELTS sertifikatini olib, xalqaro universitetlarga qabul qilinganiga guvoh bo‘ldim. Juda qiyin bo‘lsa kerak deb o‘ylardim, ammo bilardimki, bu harakat qilishga arziydi. Demak, men ham harakat qilaman.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida o‘qish, tabiiyki, qimmat. Davlat **grantini** yutish uchun esa baholaringiz a’lo bo‘lishi va ijtimoiy faol bo‘lishingiz talab etiladi. Shuning uchun o‘quvchilik davrimda a’lo baholarga o‘qishga, **volontyorlik** va turli loyiha ishlarida qatnashishga harakat qildim.

Keyin o‘zim orzu qilgan universitetga barcha kerakli hujjatlarni yubordim va yoshlarning chet elda ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlovchi “El-yurt umidi” jamg‘armasining tanlovlariga tayyorlana boshladim. Buni qarangki, 3 bosqichdan iborat imtihondan muvaffaqiyatli o‘tdim. Hozir **raqamli media**, madaniyat va kommunikatsiya yo‘nalishi bo‘yicha o‘qimoqdaman. Shu bilan birga Buyuk Britaniya ommaviy axborot vositalari faoliyatini o‘rganyapman, matbuotida ijodiy ishlarim bilan qatnashib turibman. Maqolalarimda O‘zbekistonimizning go‘zal madaniyati, qadriyatlarimiz haqida ma’lumotlar beryapman.

Aytgandek, yaqinda turkiy davlatlardan kelgan talaba do‘stlarimiz bilan birgalikda Navro‘z bayramini nishonladik. Qiziqarli shartlar, raqs, sho‘x qo‘shiqlar, hazil-mutoyiba bilan o‘tgan tadbir menga shunaqangi ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladiki! Umuman olganda, xorijda o‘tayotgan har bir daqiqamdan unumli foydalanishga harakat qilmoqdaman.

“Xorijda o‘qish qiz bolaga to‘g‘ri kelmaydi” degan qarashlarga ko‘z yumib, o‘zga yurtga jur’at bilan kelgan bir qancha talaba qizlar nomidan gapirmoqchiman: dastlab ikkilanish, ota-onadan uzoqda bo‘lish hadigi sizni cho‘chitsa-da, bu yerda har doim qo‘llab-quvvatlaydigan professorlar, turli davlatlardan kelgan ilmga intiluvchan yoshlar bilan bilim almashish, turli millatlarning urf-odatlari va madaniyatini yaqindan o‘rganish zavqi sizni kutib turibdi. Eng muhimi, Vatan va ota-onangiz umidi, ishonchi sizni ko‘proq izlanishga, imkoniyatlardan foydalanishga undar ekan, unda nimani kutib turibsiz?!

Bizga qiyin ko‘ringan narsalar orzularimizdan ustun emas. Kelajagimiz, o‘zimiz istagan hayotni qura olishimiz uchun hozir harakat qilishimiz lozim. Chet elda o‘qish va o‘qishga kirish siz o‘ylagandek murakkab emas. Izlansangiz albatta yechimini topishingizga ishonaman. Yurtimiz navqiron avlodiga yaratilgan imkoniyatlar, ular huquqining har sohada qo‘llab-quvvatlanishi ko‘plab mamlakat yoshlari uchun orzuga aylangan. Bu orzularni bugun – maktab partasida ilm olayotgan chog‘ingizdayoq maqsadga aylantiring!

Sevinch HAMROYEVA

9.30. Muallifning o‘z orzusiga erishish yo‘lini tartib bilan yozing.

1. *“El-yurt umidi” jamg‘armasining tanlovlariga tayyorlana boshladim.*
2. *O‘zim orzu qilgan universitetga barcha kerakli hujjatlarni yubordim.*
3. *Hozir raqamli media, madaniyat va kommunikatsiya yo‘nalishi bo‘yicha o‘qimoqdaman.*
4. *11-sinfda o‘qib yurgan kezlarim bir qancha do‘stlarimning IELTS sertifikatini olib, xalqaro universitetlarga qabul qilinganiga guvoh bo‘ldim.*
5. *3 bosqichdan iborat imtihondan ham muvaffaqiyatli o‘tdim.*
6. *Buyuk Britaniya ommaviy axborot vositalari orqali O‘zbekistonimizning go‘zal madaniyati, qadriyatlarimiz haqida ma’lumotlar beryapman.*

9.31. Matnni *kirish, asosiy va xulosa qismlariga* ajrating. Yoshlar orzusiga erishishi uchun maqolada qanday yechim berilgan?

9.32. Matndan milliy qadriyatlar bilan faxrlanish hissi ifodalangan gapni topib, munosabatingizni yozma bildiring.

9.33. Matn asosida shakllantirilgan jumlalarning fakt yoki fikr ekaniga baho bering.

T/R	JUMLALAR	FAKT	FIKR
1.	Yaqinda turkiy davlatlardan kelgan talaba do‘stlarimiz bilan birgalikda Navro‘z bayramini nishonladik.	***	***
2.	11-sinfda bir qancha do‘stlarimning IELTS sertifikatini olib, xalqaro universitetlarga qabul qilinganiga guvoh bo‘ldim.	***	***
3.	Chet ellik professorlardan dars olish, dunyoqarashning kengayishi, xorij madaniyatining o‘ziga xos tomonlarini o‘rganish juda qiziq.	***	***
4.	Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida nufuzli universitetlarda o‘qish, tabiiyki, qimmat.	***	***

9.34. Quyidagi fikr asosida bahs-munozara uyushtiring.
Xorijda o‘qish qiz bolaga to‘g‘ri kelmaydi.

9.35. “Yoshlar o‘rtasida volontyorlik harakatiga qiziqishning pasayishi” mavzusida muammo-yechim essesi yozib keling.

Muammo-yechim essesining baholash mezoni bilan tanishing.

T/R	Mezon	Baholash uchun asos			
		3 ball (yuqori)	2 ball (o‘rta)	1 ball (past)	0 ball
1.	**Muammo bayoni va tahlili**	muammoning aksariyat sabablari va oqibatlari bayon etilgan	muammoning ma’lum sabablari va oqibatlari bayon etilgan	muammoning ayrim sabablari va oqibatlari bayon etilgan	muammoning sabablari va oqibatlari bayon etilmagan
2.	**Yechimning kreativligi**	innovatsion, kreativ yechim taklif etilgan	yangi an’anaviy yechim taklif etilgan	ma’lum an’anaviy yechim taklif etilgan	yechim taklif etilmagan
3.	**Matn yaxlitligi va tuzilishi**	matn yaxlit: kirish, asosiy qism, xulosadan iborat	matn yaxlitligi buzilgan, kirish// asosiy qism yoki asosiy qism// xulosa yoki kirish// xulosadan iborat	matn yaxlitligi bo‘lmagan, kirish yoki asosiy qism yoki xulosadangina iborat	yozilmagan
4.	**Matn tili va uslubi**	ravon va uslubiy xatolardan xoli	bir-uch o‘rinda uslubiy xatolar kuzatilgan	to‘rt-olti o‘rinda uslubiy xatolar kuzatilgan	yetti va undan ortiq o‘rinda uslubiy xatolar kuzatilgan
5	**Matn imlosi**	bir-ikki o‘rinda imloviy xatolar kuzatilgan	uch-besh o‘rinda imloviy xatolar kuzatilgan	olti-to‘qqiz o‘rinda imloviy xatolar kuzatilgan	o‘n va undan ortiq o‘rinda imloviy xatolar kuzatilgan
6	**Matn punk-tuatsiyasi**	bir-uch o‘rinda ishoraviy xatolar kuzatilgan	to‘rt-olti o‘rinda ishoraviy xatolar kuzatilgan	yetti-o‘n o‘rinda ishoraviy xatolar kuzatilgan	o‘n bir va undan ortiq o‘rinda ishoraviy xatolar kuzatilgan

BALLNI BAHOGA AYLANTIRISH JADVALI

BALL	BAHO	BALL	BAHO	BALL	BAHO	BALL	BAHO
15–18	“5”	12–14	“4”	8–11	“3”	0–7	“2”

9.36. Quyidagi esseni o‘qing. Xatolarini aniqlab, yuqoridagi baholash mezoni asosida baholang.

Shahar ko‘chalarida tirbandlikning ortishi

Bugun yirik shaharlar aholisi duch kelayotgan dolzarb muammolardan biri tirbandlikdir. Tirbandlik – transport vositalarining bir joyda to‘planib, harakatlanish imkoniyatining keskin

kamayishi. Bu holat odatda ishga borish va qaytish vaqtlarida aksaryat avtomobil yo‘llarida kuzatiladi.

Bu muammoni hal qilish uchun bir qancha yechimlar bor. Eng maqbul yechimlardan biri– jamoat transporti tizimini rivojlantirish va uni qulay qilish. Shuningdek, shaxsiy avtomobildan foydalanishni kamaytirish uchun rag‘batlantiruvchi choralar ishlab chiqish mumkin. Aqlli yo‘lchiroqlar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari tirbandlikni kamaytirishga yordam beradi. Velasaped yo‘laklari va piyodalar uchun qulay sharoitlar yaratish ham muhim omillardan biridir.

Asosiy muammo shundaki, avtomobillar soni kun sayin oshmoqda, ammo yo‘l infratuzilmasi bu o‘sishga mos tarzda rivojlanmayapti. Buning natijasida odamlar ko‘p vaqtini yo‘llarda o‘tkazmoqda, ishga va o‘qishga kechikmoqda. Shuningdek, tirbandlik atrof-muxitning ifloslanishiga va odamlarning asabiylashuviga ham olib kelmoqda. Ish unumdorligi pasaymoqda, yo‘l transport hodisalari esa ortib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, tirbandlik muammosining asosiy sababi – transport vositalarining haddan tashqari ko‘pligi va infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi. Eng samarali yechim – jamoat transportiga ustivorlik berish va texnalogik boshqaruv tizimlarini yo‘lga qo‘yish. Har birimiz ushbu muammoni tushunib, shaxsiy mas’uliyatni his qilsak, tirbandlikni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Muammo-yechim essesini yozishda quyidagilarni e’tibordan qochirmang:

Muammo-yechim essesining til xususiyatlari	Ko‘p uchraydigan xatolar
– bayonda asosan publitsistik va ilmiy-ommabop uslub yetakchilik qiladi; – faktlardan unumli foydalaniladi; – murakkab qurilgan sodda va qo‘shma gaplardan foydalaniladi; – nutqiy sinonimlar, tasviriy ifoda va birikmalardan foydalaniladi; – adabiy til me’yorlariga qat’iy amal qilinadi.	– yechimlarning an’anaviy ekani; – matn tuzilishiga amal qilmaslik; – mantiqiy izchillikning buzilishi; – mavzuni to‘g‘ri tushunmaslik; – nutq uslubiga amal qilmaslik; – fikr va so‘z takrorining uchrashi.

9.37. Mavzulardan birini tanlab, muammo-yechim essesi yozing.

1. Raqamli firibgarlik qurbonlarining ortishi
2. Ekologik madaniyatning yetishmasligi
3. Loqaydlik va beparvolikning ortishi
4. Ko‘chirmakashlikning odatga aylanishi

9.38. Uyda “Chegarasiz 1” videolavhasini tomosha qiling.

7

X BOB

ORZU VA IMKON



Orzu xaritasiga qarang. Berilgan bosqichlar ketma-ketligini tahlil qiling.



10.1. Guruhlarga bo‘linib, quyidagi savollar asosida suhbat uyushtiring.

1. Qaysi bosqichda odamlar ko‘proq to‘xtab qoladi va orzularidan voz kechadi deb o‘ylaysiz? Nima sababdan?
2. Orzuga yetishish yo‘lida odamga eng ko‘p nima xalal beradi: vaqt yetishmasligi, imkoniyatning yo‘qligi yoki o‘ziga ishonchning kamligi? Fikringizni misollar bilan asoslang.

10.2. Tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘yib, maqollarni daftaringizga ko‘chiring.

1. Izlagan ..... topar.
2. Intilganga ..... .
3. Harakat, harakatda – ..... .
4. Dunyoni suv bossa, ...
5. Qolgan ishga ..... .
6. Kerak terakni ..... .
7. O‘qigan – o‘zar, o‘qimagan – ..... .
8. Karvon ko‘p, ...
9. Eshakning yuki yengil bo‘lsa, ...
10. Qozonga yaqin yursang, ...

10.3. Boshqotirmadan ta’riflarga mos so‘zni topib, daftaringizga yozing.

I	I	B	O	R	Z	U
S	R	N	I	Y	A	T
T	O	S	A	B	R	I
A	D	A	F	U	P	D
K	A	X	O	H	I	SH
O	I	M	K	O	N	O

1. Ezgu niyat, dildagi istak, umid.
2. Kelajakda amalga oshirishni maqsad qilib qo‘yilgan ish.
3. Maqsadni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit.
4. Maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan matonat.
5. Qiyinchiliklarga chidash fazilati.
6. Biror narsani ongli tarzda xohlash.
7. Inson qalbida paydo bo‘ladigan kuchli istak.

10.4. Orzu va maqsad tushunchalarining farqi haqida ommabop matn tuzib keling.

1. *Siz hayotingizda qaysi orzuga erishishni juda xohlaysiz? Bu orzu bir kun ro‘yobga chiqishiga ishonasizmi?*
2. *Chet elda o‘qib, nufuzli kompaniyalarda ishlayotgan yurtdoshlarimiz haqida eshitganmisiz? Ularning qaysi yutuqlari sizni ko‘proq hayratga soladi?*

ORZU VA HARAKAT – KELAJAKKA YO‘L
(Baxtiyor Komilov bilan suhbat)

– Baxtiyor aka, muvaffaqiyatlaringizni eshitgan yurtdoshlarimizning ko‘ksi g‘ururga to‘lmoqda. Avvalo o‘zingiz haqingizda qisqacha…

– Farg‘ona shahrida tug‘ilganman. Bugungi kunda Amerika Qo‘shma Shtatlarida ta’minot zanjiri va logistika mutaxassisligi bo‘yicha faoliyat yuritaman. Bolaligimdan til o‘rganishga qiziqqanman. Odam bekorga orzu qilmas ekan, mana, niyatlarim ro‘yobini ko‘rib turibman.

– Bugungi natijalar bolalik orzulari hosilasi deysiz-da?!

– Albatta, bolaligimiz hamma qatori o‘tgan. Teng-to‘shlar turli rejalar, niyatlar qilardik. “Katta bo‘lsam…” deya turli orzularga berilardik. Men doimo nufuzli kompaniyalarda ishlashni orzu qilardim. Tengdoshlarim bilan niyatlarimiz ijobati yo‘lida ko‘p intilardik. Maktabda “a’lo” baho olishga qiziqardik. Hatto o‘zaro raqobat qilardik. Albatta, yaxshi ma’noda. Kim ko‘p kitob o‘qish, “a’lo” baho olish va hokazo. Eng sevimli kitoblarim sarguzasht asarlar bo‘lardi.

– Sevimli asarlaringiz qahramonlarining biror sarguzashti hayotingizda ham aks etganini his qilganmisiz?

– Qaysidir ma’noda shunday desa ham bo‘ladi. Litseyda o‘qib yurgan kezlarim ingliz tilini o‘rganishga qiziqdim. Ancha mehnat-u mashaqqat bilan uni o‘zlashtirdim. Harakat qilgan odam rohatini ham ko‘rarkan. Shu sabab bo‘lib Janubiy Koreyadagi nufuzli Chonnam

milliy universitetining Biznes boshqaruvi yo‘nalishiga to‘liq stipendiya asosida o‘qishga qabul qilindim. U yerda bilimlarimni oshirdim. Bakalavriatda o‘qish davomida iqtisod, ta’minot zanjiri va logistika yo‘nalishida ish tajribamni orttirib bordim. Bakalavriatni tugagach, o‘zim o‘qigan universitetda Biznes boshqaruvi magistri darajasini olish uchun o‘qishga kirdim. Bu davrda ham imtiyoz asosida tahsil oldim. O‘qish davomida turli katta kompaniyalarda ta’minot zanjiri va logistika sohasida Janubiy Koreya tajribasini o‘rgandim. Shuningdek, Harvard va boshqa nufuzli universitetlarda tahsil olgan professorlardan zarur bilimlar oldim.

2022-yili AQSHning Missuri-Sent Luis universitetida ikkinchi Biznes boshqaruvi magistri dasturiga qabul qilinib, “Supply Chain Management” bo‘yicha sertifikatga ega bo‘ldim. U 50 foiz stipendiya bilan qoplandi.



Ilm ortidan dunyoning rivojlangan davlatlarida yashadim, yashayapman. Shu ma’noda, sevimli asarlarim qahramonlari va dunyoning yetuk insonlari kabi ko‘zlagan maqsad sari dadil odimlab, yo‘lda duch kelgan muammo va to‘siqlarni qat’iyat ila yengib o‘tayotirman. Shularning o‘zi ajoyib sarguzasht, men sizga aytsam…

– Siz dunyoning rivojlangan davlatlarida o‘z o‘rningizni topish haqida o‘ylaysiz, shu maqsadda harakat qilasiz. Tabiiyki, bu oson bo‘lmagan. Qiyinchiliklar ham shunga yarasha bo‘lsa kerak?

– Qiziq savol. Menimcha, hech qaysi muvaffaqiyat qiyinchilik va mashaqqatsiz bo‘lmaydi. Men ham o‘qib, ham ishlaganman. Universitetning xalqaro ofisida ishlab o‘zimni moddiy ta’minlardim. O‘zim ko‘p qiynalganim uchun ish jarayonida xalqaro talabalarni qo‘llab-quvvatlashga intilardim, ularga yordam berardim. Volontyorlik qilardim. Ishlashning bir tomoni yaxshi: ham pul topasan, ham yaxshiyomonni ko‘rasan. Ehtimol, o‘sha qiyinchiliklar bo‘lmasa, men ham bu darajaga erisholmasdim.

– To‘g‘ri, ish insonni har jihatdan chiniqtiradi. Sizni bugungi darajaga olib chiqqan muvaffaqiyatli ish faoliyatingiz ko‘pchilikka qiziq.

– Bakalavriatni tugatgach, magistraturada o‘qish jarayonida onlayn ravishda ish tajribamni oshirib bordim. Qolaversa, magistraturani tugallash oldidan mahalliy stomatologiya asbob-uskunalari ishlab chiqaruvchi kompaniyada global savdo va logistika bo‘yicha mutaxassis lavozimida ishladim. Ish jarayonida xalqaro strategik hamkorlikni rivojlantirishga va mahsulotlarni Yevropa, Osiyo va Rossiyaga eksport qilishga hissam qo‘shildi. AQSHdagi tahsilni tamomlashdan oldin Missuri shtatidagi eng tez rivojlanayotgan logistika kompaniyalaridan biri – “ITFGroup”ning “HaulerHub” loyihasida ishga yollash va muvofiqlik bo‘yicha menejer lavozimiga

qabul qilindim. Bu lavozimda HaulerHub platformasiga o‘z hissamni qo‘shib, 2000 dan ortiq transport kompaniyalarini “HaulerHub” tizimiga integratsiyalashda yetakchi rol o‘ynadim. Logistika operatsiyalarini sezilarli darajada soddalashtirishda ishtirok etdim. Bundan tashqari, yuk tashish bilan shug‘ullanadigan kompaniyada konsalting faoliyati bilan shug‘ullandim.

– Keyingi rejalar qanday?

– Hozir o‘z yuk tashish kompaniyamni va yangi platformani ishga tushirishga tayyorgarlik ko‘ryapman. Bu tizimni 2025-yilning ikkinchi choragidan ishga tushirishni rejalashtirganmiz. Tag‘in omborlarda talabni prognozlash va inventarizatsiyani boshqarishni yaxshilash uchun sun’iy intellektdan foydalanadigan innovatsion platformani ishlab chiqish niyatidaman.

– Bunday natijalar poydevori…

– Albatta, bilim, intilish, harakat. Maqsad yo‘lidan qaytmaslik kabi omillarni sanashim mumkin.

– Ayting-chi, kelajak kasblari sifatida qaysi sohalarni ko‘rasiz?

– Hamma zamonning taraqqiy etgan kasb-u hunari bo‘ladi. Bizning asr – texnologiya asri. Sun’iy intellekt ham jadallik bilan rivojlanmoqda. Bunga moslashishga majburmiz. Zamonaviy kasblarni o‘rganish insonga imkoniyatlar eshigini ochadi. Uning jamiyatda muhim o‘rin topishiga xizmat qiladi. Zamonaviy kasblar – bugunimiz va kelajagimiz. Shu ma’noda, zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida avtomatlashgan kasb-hunarlarni puxta o‘zlashtiravergan ma’qul deb o‘ylayman.

– Bugungi yoshlarga nimalarni tavsiya qilasiz va qanday maslahatlar berasiz?

– Inson biror sohani sevib, unga borini bersagina, natijaga, muvaffaqiyatga erishadi. Yoshlarga orzu qilishdan to‘xtamang, bu yo‘lda mehnatdan tolmang, bir kuni albatta natijasini ko‘rasiz, degim keladi.

– Qimmatli vaqtingizni ayamaganingiz va mazmunli suhbat uchun rahmat.

“Jadid” gazetasi muxbiri
Zikrilla MAMATOV suhbatlashdi.

10.5. Matndagi voqealar va suhbat mazmuniga ko‘ra, Baxtiyor aka muvaffaqiyatlarining kaliti nimada?

A) muvaffaqiyatga erishgan insonlarga ergashib, ularning tajribasidan foydalangani

B) o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ygani, o‘qib o‘rgangani, qat’iyat bilan harakat qilgani

D) xorijda o‘qish va ishlash imkoniyatlari haqidagi ma’lumotlarni to‘plab o‘rgangani

E) xorijdagi qarindoshlarining moliyaviy qo‘llab-quvvatlashi

10.6. Matn qahramonining erishgan yutuqlarini to‘g‘ri ketma-ketlikda yozing.

**	Janubiy Koreyaning Chonnam milliy universitetiga to‘liq stipendiya asosida o‘qishga qabul qilindim.
**	O‘qish davomida ta’minot zanjiri va logistika sohasida Janubiy Koreya tajribasini o‘rgandim.
**	Janubiy Koreyada mahalliy stomatologiya asbob-uskunalari ishlab chiqaruvchi kompaniyada ishlay boshladim.
**	AQSHning Missuri-Sent Luis universitetida magistrlik dasturiga qabul qilindim.
**	AQSHda “ITFGroup”ning “HaulerHub” loyihasida ishga yollash va muvofiqlik bo‘yicha menejer lavozimiga qabul qilindim.
**	Ancha mehnat-u mashaqqat bilan ingliz tilini o‘zlashtirdim.
**	AQSHda “Supply Chain Management” bo‘yicha sertifikat oldim.
**	Janubiy Koreya Chonnam milliy universitetining magistratura bosqichiga o‘qishga qabul qilindim.
**	Shaxsiy yuk tashish kompaniyamni va yangi platformani ishga tushirishga tayyorgarlik ko‘ryapman.

10.7. Baxtiyor Komilov tilidan aytilgan fikrlarning matnga ko‘ra to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

1. *Omborlarda talabni prognozlash va inventarizatsiyani boshqarishni yaxshilash uchun sun’iy intellektdan foydalanadigan innovatsion platformani ishlab chiqqanman.*

   To‘g‘ri Noto‘g‘ri

2. *Janubiy Koreyadagi mahalliy stomatologiya asbob-uskunalari ishlab chiqaruvchi kompaniya bosh menejeri lavozimida ishladim.*

   To‘g‘ri Noto‘g‘ri

3. *2000 dan ortiq transport kompaniyalarini “HaulerHub” tizimiga integratsiyalashda ishga yollash va muvofiqlik bo‘yicha menejer sifatida ishtirok etdim.*

   To‘g‘ri Noto‘g‘ri

4. *Menejer lavozimida ishlaganimda xalqaro talabalarni qo‘llab-quvvatlashga intilardim, ularga yordam berardim.*

   To‘g‘ri Noto‘g‘ri

5. *Tengdoshlarimiz bilan kim ko‘p kitob o‘qish, “a’lo” baho olish bo‘yicha raqobatlashar edik.*

   To‘g‘ri Noto‘g‘ri

10.8. Matnda berilgan ma’lumotlar asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Bosqichlar	Baxtiyor aka hayotidagi misollar
Orzulari	***
Harakatlari	***
Qiyinchiliklari	***
Ilm olishi	***
Ko‘zlagan maqsadi	***

10.9. Quyidagi savol asosida fikr yuriting. Fikrlaringizni 2–3 daqiqalik monolog shaklida adabiy tilda so‘zlab bering.

Agar imkoniyatingiz bo‘lsa, boshqa bir insonning orzusini ro‘yobga chiqarishga yordam berarmidingiz? Kimning orzusini va nima uchun?

10.10. Quyidagi fikrlarni diqqat bilan o‘qing. Ularning mazmunini 4–5 ta gap bilan yozma izohlang. Izohlanayotgan fikr sizning yoki atrofingizdagilarning hayotida qanday aks etganini misollar bilan tushuntiring.

- Harakat qilgan odam rohatini ham ko‘rarkan.
- Menimcha, hech qaysi muvaffaqiyat qiyinchilik va mashaqqatsiz bo‘lmaydi.
- Bunday natijalar poydevori – bilim, intilish, harakat, maqsad yo‘lidan qaytmaslik.
- Zamonaviy kasblarni o‘rganish insonga imkoniyatlar eshigini ochadi.
- Inson biror sohani sevib, unga borini bersagina, natijaga, muvaffaqiyatga erishadi.

10.11. Matnda berilgan so‘z va tushunchalarni ularga mos ta’riflar bilan moslab daftaringizga ko‘chiring.

Eksport, sun’iy idrok, ta’minot zanjiri, logistika, biznes boshqaruvi, MBA (Biznes boshqaruvi magistri), Harvard, inventarizatsiya, konsalting faoliyati, stomatologiya.

1. ..... – kompyuterlar va dasturlar orqali inson kabi o‘ylash va qaror qabul qilish imkoniyatiga ega texnologiya.
2. ..... – mahsulot va materiallarni kerakli joyga, kerakli vaqtda va eng qulay yo‘l bilan yetkazib berish jarayoni.
3. ..... – korxona yoki tashkilot ishlarini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish san’ati.
4. ..... – biznes sohasida chuqur bilim olish uchun mo‘ljallangan oliy darajadagi ta’lim dasturi.
5. ..... – AQSHda joylashgan, dunyoning eng mashhur va nufuzli universitetlaridan biri.
6. ..... – korxonalarga muammolarni yechish yoki ishni yaxshilash bo‘yicha maslahat berish faoliyati.

7. ..... – tishlarni davolash, parvarish qilish va kasalliklarning oldini olish bilan shug‘ullanuvchi tibbiyot sohasi.
8. ..... – mahsulot yoki xizmatning ishlab chiqaruvchidan to iste’molchigacha yetib borish jarayonidagi barcha bosqichlar.
9. ..... – mahsulot yoki xizmatlarni boshqa davlatlarga sotish jarayoni.
10. ..... – ombordagi yoki do‘kondagi mahsulotlar soni va holatini aniqlab tekshirish jarayoni.

10.12. Atrofingizdagi siz hurmat qiladigan, o‘z mehnati, sabr-toqati yoki bilimi bilan maqsadiga erishgan bir inson bilan suhbat o‘tkazib, daftaringizga yozing.

- Suhbat mavzusini aniqlashtiring va mavzuga mos sarlavha toping.
- Mavzu doirasida 6–8 ta savol tuzing va suhbatdoshingizdan so‘rang.
- Savol va javoblarni daftaringizga yozing.

Gap juftliklarida ajratib ko‘rsatilgan so‘z va ifodalar o‘rtasidagi mazmuniy, uslubiy va emotsional ta’sir farqlarini sharhlang.

*Kumushning **oy-kuni to‘lishiga** yaqin onasi beshik ustasinikiga qatnaydi.*	*Kumushning **tug‘ish muddati** yaqinlashgan sayin, uyda shivir-shivir ko‘paydi.*
*Shomga yaqin **joni uzildi**, hovlidagi yig‘i-sig‘i ovozlari yurakni titratdi.*	*Shomga yaqin **o‘ldi**, yaqinlari chopon kiyib, bel bog‘lashdi.*

10.13. Test topshiriqlarini bajaring.

1. Noqulay yoki noxush mazmunni ifodalashda evfemik birliklardan foydalanish...

A) har doim ham ijobiy natija bermaydi, ayrim holatlarda haqiqatni anglashni qiyinlashtiradi.
B) shaxsning nutq madaniyatini, fahm-farosatini, ijtimoiy axloqini ko‘rsatadi.
D) faqat yoshi katta va oliy ma’lumotli kishilar o‘rtasida ishlatiladi.
E) muloqot jarayonida tushunmovchilik va nizolarni keltirib chiqaradi.

2. Quyidagi holatlarning qaysi birida evfemik birliklardan foydalanish tavsiya qilinmaydi?

A) jamoat joyida noxush yangilikni yetkazishda
B) yoshi katta inson bilan suhbat qurishda
D) ijtimoiy mavzular yuzasidan rasmiy fikr ifodalashda
E) texnik yo‘riqnoma yoki ilmiy matnni tushunarli bayon qilishda

3. Quyidagilarning qaysi birida evfemik ifodadan foydalanish tavsiya qilinmaydi?

A) do‘stlar, oila a’zolari yoki tanishlar bilan muloqotda

B) shikoyat, taklif, iltimos va kafillik mazmunidagi xatlarda

D) notanish insonlarga birinchi marta murojaat qilinganda

E) rasmiy uchrashuv yoki saylovoldi targ‘ibotlarida

TIL SANDIG‘I

“BESHBATTAR”DAGI “BESH” NIMA?

Biz *besh* so‘zini asosan son ma’nosida tushunamiz. Shu sababli *beshbattar* so‘zi ma’nosini *besh baravar yomon, besh daraja yomon* deb taxmin qilishimiz mumkin. Aslida esa bu so‘z umuman boshqa ma’noni anglatadi. *Beshbattar* fors tilidan kirgan, uning tarkibidagi **besh** so‘zi *ko‘p, ortiq, ziyoda* ma’nolarini bildiradi. **Battar** esa *yomonroq* degani. **Beshbattar** o‘zbek tilida *nihoyat darajada, o‘taketgan darajada, haddan ortiq; juda og‘ir, qiyin* ma’nolarida, salbiy ma’noni ifodalash uchun ishlatiladi:

*Ey bechoralar… Bu shaharda bizdan ham **beshbattar** kambag‘allar borga o‘xshaydi. (P. Tursun)*

Orif TOLIB

10.14. Gaplardagi evfemik so‘z va iboralarni toping. Uslubiy xoslanmagan muqobillari bilan almashtirib gaplarni qayta yozing.

1. Boshiga bir musht urib, bir burda qattiq non beradigan bir bo‘yni yo‘g‘onga bermasam, men ham yurgan ekanman.
2. Yoki ulardan tilingiz qisiq joyi bormi, aka?
3. Bugun ertalab omborxonaga tushganimda u yerdan yoqimsiz hid kelayotgan edi.
4. Mirzakarimboyning xotini Lutfiniso to‘satdan, qalb xastaligidan bo‘lsa kerak, bir kechada omonatini topshirdi.
5. Ayoli qaytish qilgandan so‘ng ko‘zi ojiz mo‘ysafid ko‘p yashamadi. Qattiq betob bo‘lib, bir necha oy to‘shakka mixlandi va dard chekib joni uzildi.

10.15. Quyidagi evfemik birliklar jadvalini to‘ldiring. Birdan ortiq evfemik ifodalariga ega so‘zlarga diqqat qiling.

***	*og‘rib qolmoq, sog‘ligi yo‘q, mazasi yo‘q, shamollab qolmoq, tobi yo‘q*
Kambag‘al	***

Semiz	***
O‘lmoq	***
Keksa	***
Beva	***
Nogiron	***



Dunyoning nufuzli kompaniyalarida ishlayotgan o‘zbek yigit-qizlari haqida bilasizmi? Ular qaysi xususiyatlari bilan boshqalardan farq qiladi deb o‘ylaysiz?



“TESLA” KOMPANIYASIGA ISHGA KIRGAN BIRINCHI O‘ZBEK QIZI (Mushtariy Sharipova bilan suhbat)

– Mushtariy, avvalo sizni “Tesla” kompaniyasida ish boshlaganingiz bilan tabriklaymiz. O‘ylaymizki, bu muvaffaqiyatingiz Vatanimizdagi boshqa o‘g‘il-qizlarga juda yaxshi o‘rnak bo‘ladi va ular ham siz kabi yuksak marralarga erishishni maqsad qilishadi.

– Katta rahmat. Kompaniyada o‘zbekistonlik bir yigit ham ishlaydi, qizlardan esa men birinchi bo‘ldim. O‘ylaymanki, mendan keyin bu yerda o‘zbekistonlik yoshlar, albatta, ko‘payadi.

– O‘zingiz, talabalik yillaringiz haqida gapirib bersangiz.

– Men 1993-yili tug‘ilganman. Litseyni bitirgach, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universitetiga o‘qishga kirmoqchi bo‘ldim, ammo imtihonlardan muvaffaqiyatli o‘ta olmadim. Avvaliga bundan xafa bo‘ldim, keyingi yili Singapur menejmentni rivojlantirish universitetiga o‘qishga kirdim. U yerda bir yil o‘qidim va o‘z kuchim bilan Berlindagi Yevropa amaliy fanlar universitetiga o‘qishga kirishga muvaffaq bo‘ldim.

– O‘qish yillaringiz oson bo‘lmagandir?

– Germaniyadagi o‘qish tizimi O‘zbekistondagidan tubdan farq qiladi. Umuman olganda, Yevropa davlatlarida o‘qishga kirish oson, lekin imtihonlardan uch marta yiqilgan talaba o‘qishdan chetlatiladi va ortiq o‘sha mamlakatdagi hech bir universitetda o‘qiy olmaydi.

Men talabalik yillarimni qiziqarli va mazmunga boy yillar deb xotirlayman. O‘qituvchilar darslarni oson uslubda sodda tilda tushuntirishardi. Imkon boricha sohamdagi yangiliklardan xabardor bo‘lishga, kerakli dasturlarni o‘rganishga harakat qildim.

Darslar oson bo‘lishiga qaramasdan, imtihonlardan o‘tish uchun ularga juda qattiq tayyorlanardim. 5 yil o‘qib, universitetni bitirdim.

O‘qishning 3-semestridan majburiy amaliyot boshlanardi. 4-kursdan esa staj dasturini amalga oshirish kerak edi. 5- va 6-semestrlarda talaba o‘z yo‘nalishini belgilab olishi zarur. Men dolzarb soha deb moliya yo‘nalishini tanladim. **Axborot texnologiyasi** sohasini ham qo‘ldan kelgancha o‘rganishga harakat qildim va bu menga juda asqatdi.

O‘qish yillarim 2015–2019-yillarga to‘g‘ri keldi. 2019-yilning sentyabrida o‘qishni tugatdim.

2017-yilning sentyabridan 2018-yilning martigacha “Adidas” kompaniyasida amaliyot o‘tadim. O‘qish davomida “Zalando” kompaniyasida ham ishlaganman. “SAP” kompaniyasida esa 2-amaliyotni o‘tab, bitiruv malakaviy ishimni yozib tugatganman.

“American Publishing” kompaniyasida 2020-yil fevralidan 2021-yil yanvarigacha ishladim.

– “Tesla” kompaniyasiga ishga kirishingiz qanday ro‘y berdi?

– Turli xil kompaniya va firmalarga ishga kirish harakatiga tushdim. Suhbatlarning deyarli barchasi juda yaxshi o‘tardi, lekin negadir oxirida rad javobi olaverdim. Lekin men bo‘sh kelmadim, **Linkedin**dan foydalanib tinmay **rezyume** va **niyat maktublari**ni jo‘nataverdim. Eng katta orzum esa Teslaga ishga kirish edi. Xonadoshim **olmon** qiz edi. U menga bekorga urinib ovora bo‘layotganimni, nemis tilini bilmaganim uchun bu ishga hech qachon kira olmasligimni aytdi. O‘shanda uning gaplari menga qattiq botdi, ammo vaqt o‘tgach, undan minnatdor bo‘ldim. Chunki “Sen eplay olmaysan” degan so‘zlar aslida insonga bir turtki berishi, uni ko‘zlagan maqsadi sari olg‘a intilishga sababchi bo‘lishi mumkin ekan.

Kunlardan bir kun menga “Tesla” kompaniyasidan javob xati keldi. Ular men bilan suhbat o‘tkazmoqchi ekan. Juda hayajonlandim, qanday o‘tar ekan deb o‘ylay boshladim. Aytilgan vaqtda qo‘ng‘iroq qilib chaqirishdi va suhbat juda ham samimiy tarzda o‘tdi. Bir oy davomida har haftada bir yoki ikki marta men bilan suhbat o‘tkazishdi, turli xil savollar berishdi va oxirida menga muddatsiz ish taklif qilishdi, ya’ni men bu kompaniyada o‘zim istagancha ishlash huquqiga ega bo‘ldim. O‘sha kun mening eng baxtli kunlarimdan biri bo‘ldi.

– Ish jarayoningiz va vazifangiz nimalardan iborat?

– Mening soham asosan moliya, xalqaro moliya ishlari va operatsiyalar bilan bog‘liq. Misol uchun, kompaniyaning bir yillik **byudjet taqsimoti**, xarajatlari va daromadlarini hisoblaymiz va bu bo‘yicha takliflar beramiz. Ishimni juda yaxshi ko‘raman. Raqamlar bilan ishlab zavq olaman. Vazifam juda mas’uliyatli bo‘lgani uchun diqqat bilan ishlashga to‘g‘ri keladi.

– Ishdan tashqari nimalar bilan shug‘ullanishni yaxshi ko‘rasiz?

– Pazandachilikka juda qiziqaman, gullar parvarish qilaman. Karantin paytida o‘z pazandalik **blog**imni ochdim va hozir ko‘pgina **obunachi**larim bor.

– Qaysi chet tillarni bilasiz?

– Ingliz, nemis, turk va rus tillarini.

– Vatandoshlarimizga, yoshlarimizga nimalarni maslahat bergan bo‘lar edingiz?

– Hech qachon o‘z orzularingizdan voz kechmang, hamisha olg‘a yuring. Qo‘lingdan kelmaydi, eplolmaysan, deganlarga quloq solmang. *Men albatta bajaraman,* deng va o‘zingizga ishoning. O‘shanda atrofdagilar ham sizga ishonadi. Bir natijaga erishguncha bor imkoniyatingizni ishga soling. O‘z ustingizda tinimsiz ishlang, bilim va malakangizni orttiring. Mashaqqat ortidan mukofot albatta keladi.

Aniq.uz

10.16. Guruhlarga bo‘linib, quyidagi savollarni muhokama qiling. Fikrlaringizni asoslang.

1. Zamonaviy jamiyatda orzular sari intilish va ularga erishishda yigitlar va qizlar uchun imkoniyatlar tengmi?
2. Muvaffaqiyatga erishishda boshqalarning sizga ishonchi va o‘zingizga bo‘lgan ishonch o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor? Qaysi biri ko‘proq ta’sir qiladi?
3. Sizningcha, xorijiy til va raqamli texnologiyalarni bilish o‘z orzularingizga erishishda qanchalik ahamiyatga ega?

10.17. Matn asosida ma’lumotlar to‘g‘ri, noto‘g‘ri yoki matnda berilmaganini aniqlang.

1. Mushtariy – “Tesla” kompaniyasida ishlaydigan birinchi o‘zbek farzandi.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Berilmagan

2. Mushtariy litseyni bitirgach, Singapur menejmentni rivojlantirish universitetida o‘qishini davom ettirdi.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Berilmagan

3. Yevropa universitetlariga kirish uchun har yili to‘rt martagacha urinib ko‘rish mumkin.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Berilmagan

4. Mushtariy talabalik yillarida moliya sohasiga qo‘shimcha axborot texnologiyasi sohasini ham o‘rgandi.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Berilmagan

5. Yevropa universitetlarida imtihonlardan uch marta yiqilgan talabalar o‘qishini boshqa universitetlarga ko‘chirishiga to‘g‘ri keladi.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Berilmagan

6. Mushtariy o‘qishni tugatgandan keyin “Adidas” kompaniyasida ishladi.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Berilmagan

7. Mushtariy “Tesla” kompaniyasida muddatsiz ish taklifi olganidan eng ko‘p ota-onasi xursand bo‘ldi.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Berilmagan

8. Mushtariy to‘rtta xorijiy tilni biladi.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Berilmagan

10.18. Fikr mazmuniga mos so‘zlarni qo‘yib jumlalarni to‘ldiring va matnni daftaringizga ko‘chiring.

O‘z orzularingizdan ..... – muvaffaqiyat sari yo‘lingizni to‘sadigan eng katta xato. Har qanday holatda ham oldinga ....., o‘z kuch va imkoniyatlaringizga ..... . Boshqalarning salbiy fikrlari sizni to‘xtatmasin – ularni ..... turtki sifatida qabul qiling.

Ma’lum bir maqsadga erishish uchun mavjud ..... to‘g‘ri baholab, ulardan samarali foydalaning. Doimiy ravishda o‘z ustingizda ....., zamonaviy ..... egallashga intiling. Harakatlaringizga ijobiy ..... bog‘lang va Yaratgandan eng ..... tilang. Mehnat qiling, chunki haqiqiy yutuq ..... orqali keladi.

10.19. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ularning mos ta’riflari bilan moslashtirib, daftaringizga ko‘chiring.

..... – ijtimoiy tarmoqlarda biror foydalanuvchining sahifasiga obuna bo‘lib, uning joylagan xabarlarini kuzatib boruvchi shaxs.

..... – muallif o‘z fikrlari, tajribalari yoki ma’lumotlarini muntazam tarzda yozib boradigan onlayn kundalik yoki vebsahifa.

..... – kompyuterlar, dasturlar va tarmoqlar orqali axborotni yaratish, saqlash, uzatish va boshqarish bilan bog‘liq texnologiyalar sohasi.

..... – biror o‘quv muassasasi yoki ish joyiga murojaat qilayotganda yoziladigan, nomzodning maqsadi, intilishi va o‘zini qanday ko‘rsatmoqchiligi haqidagi rasmiy xat.

..... – ish izlayotgan shaxsning ma’lumotlari, ish tajribasi, tahsili, ko‘nikmalari va yutuqlari jamlangan qisqa hujjat.

..... – professionallar uchun mo‘ljallangan, foydalanuvchilar rezyume joylashtirib, ish topish yoki hamkorlar bilan bog‘lanish imkoniga ega bo‘ladigan ijtimoiy tarmoq.

..... – muayyan tashkilot yoki davlatning ma’lum muddatga mo‘ljallangan daromad va xarajatlarining reja asosida bo‘linishi.

.....– nemis millatiga oid.

Gaplarning mazmunini qiyoslab sharhlang.

Achchiq qahva damlab ber.	Aaachchiq qahva damlab ber.
Yo‘q, bormaysan.	Yo‘o‘q, bormaysan!

Ko‘pincha, badiiy va so‘zlashuv uslubida unli yoki undosh tovushlarni ikkilantirish, cho‘zish, takrorlash so‘zlovchidagi **ichki hayajon, xursandlik, xafalik, rozilik, norozilik, hayratlanish, iltimos, kinoya, olqish, so‘roq, ta’kid, qoniqmaslik, tilak-istak, qo‘llab-quvvatlash** kabi holatlarni kuchliroq ifodalashga yordam beradi.

10.20. Misollarni o‘qing va tovush ikkilanishlarining mazmunga ta’sirini tushuntiring.

Hayratlanish: – *Eee, deya shoshib qoldi.*

Xitob: – *Bo‘ldi-ye, tozzayam aynidilaring endi. (Tohir Malik)*

Chaqirish, da’vat, tinglovchi e’tiborini jalb etish: *Shunda kutilmaganda naq miyani parmalovchi cho‘ziq chorlov qulog‘iga chalinadi: – Anvar-uuu! (Normurod Norqobilov)*

Qahr-g‘azab: *Ovvozingni o‘chir!*

Piching ohangi: *O‘ho‘... jaaa chiroyli bo‘lib ketibsizmi?!*

Haydash: *Yo‘qool! Ket.*

Belgining ortiqligi: *Ayyorlikda uchchiga chiqqanman deb maqtansam yolg‘on emas. (Oybek) Dardi yo‘q – kessak, Ishqi yo‘q – eshshak. (Abdulla Qahhor)*

Qo‘llab-quvvatlash: – *Oh, oh, taqsirim, siz ham judaa olardingiz-da! (Tohir Malik)*

Norozilik: – *Hoy, “esli bola”, bo‘ldi qil, jaaa miyalarni achitib-la tashlading. (Tohir Malik) Uff! Axir biz kelishib oldik-ku! (Nabijon Hoshimov)*

Buyruq: – *O‘chiree ovozingni! (Tohir Malik)*

Ta’kidlash: *Keyin yurardi mayda qadam bo‘liib. (Tohir Malik) – Gapning rosa xo‘rrozini aytding. (Tohir Malik)*

Taajjub: – *O‘ziyam jaaa xudo urgan xotin ekan-da o‘sha Ra’no! (O‘tkir Hoshimov)*

Ikkilanish: – *Uyingdan odamlar kelishdi. – Odamlar? K…kimlar? (Abdulla Qahhor)***.** *M...m... men, bilasizmi, haligi...*

Esankirash: – *Yo‘o‘q... – dedi Juman. – Belingizda nima bor? – H...hech nima…(Nabijon Hoshimov)*

Xursand bo‘lish: – *Oyi, dada, qaranglar, askarlar kelishyapti! Urre! (Nabijon Hoshimov)*



ORZU QILISH VA MAQSAD QO‘YISH SIRLARI

Har bir inson hayotida orzu qilish va unga erishish uchun maqsad qo‘yishi juda muhim. Orzular insonni ilhomlantiradi, unga yangi g‘oyalar beradi va yangi cho‘qqilarni zabt etishga undaydi. Ammo orzularga erishishning asosi to‘g‘ri qo‘yilgan maqsadlardir. Quyida orzu qilish va ularni amalga oshirish uchun maqsad qo‘yishning sirlari bilan tanishamiz.

A. Orzularingiz qanday? Ular qanday ko‘rinishda? Aniqlashtirilmagan orzular tushga o‘xshaydi. Haqiqiy orzular esa aniq bo‘lishi kerak. Masalan, “boy bo‘lishni xohlayman” kabi umumiy orzu o‘rniga “uch yilda shaxsiy biznesimni yo‘lga qo‘yib, bir milliard so‘m daromad olishni maqsad qildim”, deyish aniqroq va erishish mumkin bo‘lgan maqsaddir.

B. Orzularingiz katta bo‘lishi mumkin, lekin ular haqiqatga yaqin va erishish mumkin bo‘lishi kerak. Hayotiy maqsadlar odamga ishonch beradi va bosqichma-bosqich harakat qilishga undaydi.

Katta orzularni kichik maqsadlarga ajrating. Katta maqsadga bir qadamda yetish mumkin emas. Shuning uchun uni mayda bosqichlarga bo‘lib chiqish foydali. Masalan, til o‘rganishni orzu qilasizmi? Bunda har oyda bir qancha yangi so‘z yodlash yoki har kuni 20 minut vaqt ajratish kabi kichik maqsadlar qo‘ying.

D. Orzuga olib boruvchi yo‘lni tasavvur qilish qiyin bo‘lishi mumkin. Biroq har doim birinchi qadamni qo‘yish muhim. Birinchi qadamga qarab orzularingiz yo‘lini yaxshiroq ko‘ra boshlaysiz.

E. Orzularga yetishish yo‘lida qiyinchiliklar paydo bo‘lishi tabiiy. Bunday paytlarda motivatsiyani saqlash uchun orzularingizni doimo eslab turing. Orzularning ahamiyati va ularga erishganda qanday hissiyotlarni boshdan kechirishingizni tasavvur qiling.

F. Orzuga yetishish uchun bilim va malaka kerak bo‘ladi. O‘qish, o‘rganish va o‘zingizni rivojlantirishga vaqt ajrating. Sabrlilik ham bu jarayonda muhim, chunki katta maqsadlarga erishish vaqt talab qiladi. Irodangizni chiniqtiring. Maqsadlaringizdan osonlikcha voz kechmang.

Ishonch va harakat. Orzularga erishish yo‘lidagi eng muhim omil – ishonch va harakat. Faqatgina orzu qilish yetarli emas. Harakat qiling, qiyinchiliklardan qo‘rqmang va o‘zingizga ishoning.

Muvaffaqiyatingizni baholang va nishonlang. Har bir erishilgan maqsad yangi marra uchun ilhom manbayidir. Natijalaringizni quvonch bilan qabul qiling. Muvaffaqiyatingizni nishonlash yanada katta ishtiyoq bilan yangi maqsadlar qo‘yishga yordam beradi.

Orzu qilish insonning qudratini yuksaltiruvchi jarayondir. Maqsad qo‘yish esa bu orzularni amalga oshirishda asosiy qadam hisoblanadi. O‘zingizga ishoning, harakat qiling, orzularingizga erishish uchun sabr qiling va jarayondan zavqlanishga odatlaning.

Zamin.uz (qisqartirib olingan)

10.21. **Quyidagilardan matnning ajratib ko‘rsatilgan qismlariga mos kichik sarlavhalar tanlang va tanlovingizni asoslang.**

- Erishish mumkin bo‘lgan maqsad qo‘ying
- Orzularingizni aniqlashtiring
- Dastlabki qadamlarni belgilang
- Sabr bilan tayyorgarlik ko‘ring
- Ishtiyoqingizni yo‘qotmang

10.22. **Muallif fikriga munosabatingizni bildiring.**

1. Aniqlashtirilmagan orzular tushga o‘xshaydi.
2. Birinchi qadamga qarab orzularingiz yo‘lini yaxshiroq ko‘ra boshlaysiz.
3. Orzuga yetishish uchun bilim va malaka kerak bo‘ladi.
4. Orzuga erishish yo‘lidagi eng muhim omil – ishonch va harakat.


10.23. **Tovushlarni ikkilantirish, cho‘zish, takrorlash orqali gap mazmuniga qo‘shimcha ma’no yuklangan 5 ta misol yozing.**

10.23. **Savollar asosida orzularingiz haqida matn yarating.**

1.	Asosiy orzungizni yozing.	***
2.	Orzungizni aniq maqsadga aylantirib yozing.	***
3.	Maqsadingizga erishish yo‘lida asosiy bosqichlarni belgilang.	***
4.	Har bir bosqichda duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni sanang.	***
5.	Bu to‘siqlarni yengish uchun aniq rejalar tuzing.	***
6.	Har bir bosqichni yakunlash muddatini belgilang.	***

1. Biror-bir holat yuzasidan rasmiy shikoyat qilganmisiz? Shu haqda gapirib bering.
2. Rasman e’tiroz bildirish qanday amalga oshiriladi?

Shikoyat xati namunasi va uning qismlari haqidagi ma’lumot bilan tanishing.



Qismlari nomi	Boshlanma	Kirish	Asosiy qism	Xulosa	Tugallanma
Ta’rifi	Rasmiy murojaat bilan boshlanadi.	Shikoyat sababi qisqacha bayon etiladi.	Shikoyat sababining tafsilotlari, dalillar, misollar keltiriladi.	Shikoyatchi qanday chora ko‘rilishini kutayotgani aytiladi.	Xat hurmatni ifodalovchi so‘zlar bilan yakunlanadi.
Misol	Hurmatli professor // Muhtaram direktor // Hurmatli ...	yeguliklarning sifati pastligi va sanitariya-gigiyena talablari…	taomlar sovuq holda berilmoqda, foydalanilayotgan idishlar va oshxona buyumlarining toza emasligi…	muammoni bartaraf etish choralarini ko‘rishingizni, nazoratga olishingizni, rioya etilishini ta’minlashingizni so‘rayman	Hurmat bilan //Samimiyat bilan

10.24. Quyidagi vaziyat asosida savdo majmuasining elektron pochtasiga xodim ustidan shikoyat xati yozing. E-pochta: *savdo-n@gmail.uz*

Onangizga sovg‘a olish uchun shahar markazidagi supermarketga bordingiz, u yerdagi xodimga qanday sovg‘a olmoqchi ekaningizni aytdingiz, u davlat tilini bilmasligini, sizga xizmat ko‘rsatmasligini imo-ishoralar bilan tushuntirib, chiqib ketishingizni buyurdi.

Gapda kuchli emotsionallik, his-hayajon mavjud bo‘lganda so‘roq belgisidan keyin undov belgisi ham qo‘yiladi. Misol: *Shuni ham bilmaysanmi?!*

Gapda emotsionallik darajasining behad ortiq ekanligini ko‘rsatish uchun ba’zan gap oxiriga birdan ortiq (uchtagacha) undov belgisi qo‘yilishi mumkin. Misol: *Haydar ota aytgan gaplaridan afsuslandi va arazlab ketib borayotgan o‘g‘lining ortidan chaqirib qoldi: “Abbos! Abbos!! Abbooos!!!”*

10.25. Tinish belgilarining qo‘shaloq qo‘llanishiga misollar yozing.

10.26. Belgilangan o‘rinlarga vergul qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Gaplarning ma’nosida va grammatik tuzilishida qanday o‘zgarish bo‘layotganiga diqqat qarating.

1. Shajaramiz ulug‘ temuriylarga borib taqaladi.= Shajaramiz ulug‘//temuriylarga borib taqaladi.
2. Baxtli-taxtli bo‘lgin//onang kabi baxtsiz bo‘lma.= Baxtli-taxtli bo‘lgin onang kabi//baxtsiz bo‘lma.
3. Tashqariga chiqish mumkin emas//sovuq.= Tashqariga chiqish mumkin//emas sovuq.
4. To‘g‘ri//yo‘llarda ham mashaqqat bor. = To‘g‘ri yo‘llarda ham mashaqqat bor.
5. Gullar chiroyli//xonani bezab turibdi. = Gullar chiroyli xonani bezab turibdi.

10.27. Direktor nomiga maktabingiz kutubxonasidagi kamchiliklar haqida shikoyat xati yozing.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang. Ular qaysi tushunchaga ishora qilayotganini yuqoridagi matn asosida aniqlang.

*1. **Bu** qadamga qarab orzularingizni amalga oshirish yo‘lini yaxshiroq ko‘ra boshlaysiz.*

*2. Sabrlilik ham **bu** jarayonda muhim, chunki katta maqsadlarga erishish vaqt talab qiladi.*

Olmoshlar uslubiyati

Biz olmoshi ilmiy uslubda kamtarlik ma'nosini ifodalaydi: so'zlovchi *mening fikrimcha*, *mening ishim, mening xulosam* deyish o'rniga *bizning fikrimizcha, bizning ishimiz* deb kamtarlik bilan javob beradi. Bu ilmiy uslubning talabi hisoblanadi.

Ko'rsatish olmoshlari ba'zan takrorlanib qo'llanishi mumkin. Bunday holatda ular o'xshashlik, payt ma'nolarini so'zlashuv uslubiga xos tarzda ifodalaydi: *Sarvigul hamon o'sha-o'sha. Shu-shu uni ko'rmadim. Ana-ana, mana-mana* kabi shakllar esa ta'sirchanlikka xizmat qiladi: *Ana-ana, ushlang!*

Belgilash olmoshlari esa jamlashni ifodalab keladi. *Hamma* olmoshi jonli so'zlashuv, *bari* olmoshi shevaga xoslik, *barcha* olmoshi ilmiy, badiiy, rasmiy uslublarda ko'proq qo'llanishi bilan o'zaro farqlanadi.

Ne olmoshi takrorlanib kelganda ma'noning ortiqligini, hayajonning kuchliligini ifodalaydi: *Ne-ne qiyinchiliklarga, faqirlikka qaramay, fe'li tor bo'lmagan, ajib afsonaviy mehmondo'stligining borligidan quvonib yig'lardim.*

10.28. Matnda berilgan o'zlik, kishilik, so'roq, ko'rsatish olmoshlarini toping va uslubiy vazifasini izohlang.

Sulton Mahmud Kirmonni tasarrufiga kiritgan kuni bir xotin uning huzuriga arz bilan keldi:

– Men karvon bilan Diyorgachin degan joyda to'xtagan edim. Kechasi o'sha yerda bor-yo'g'imni o'g'irlab ketishdi. Narsalarimni yo topib ber, yo bo'lmasa ularning qiymatini to'la.

– Diyorgachin degani o'zi qayerda ekan? – deb so'radi sulton.

– Qanchadan qancha mamlakatlarni fath etding!!! Diyorgachin qayerdaligini bilmaysanmi?!

– Bilmayman. O'zing o'g'rilar kim va qaysi yurtlik ekanini bilarsan?

– Bilaman. Ular balujistonlik. Bu mamlakat Kirmonga yaqin.

Sulton boshini qashib bir fursat o'ylab turdi, so'ng xotinga dedi:

– Bu mamlakat mening qo'l ostimdagi yurtlardan olis va menga qaramaydi. Shuning uchun ham iltimosingni uddalolmayman.

Xotinning jahli chiqdi va dedi:

– Yurtni tergolmagach, qanaqasiga o'zingni jahon hokimi hisoblab yuribsan? Qo'yni bo'ridan qo'riqlolmasang, qanaqasiga podachisan o'zing?! Bundan chiqdi, ikkimiz ham bir odam – ojiz ekanmiz-da...

"Ajdodlar o'giti" kitobidan

10.29. Olmoshlar qaysi uslubda faol qo'llanishi yoki uslubiy betarafligini aniqlang.

Allakim, anovi, barcha, bari, biz, bul, butun, hamma, har bir, hech kim, jami, kim, manavi, men, necha, nega, nima, o'shal, qancha, qani, qaysidir, sen, shul, siz, sizlar, ul, ushbu.

So‘zlashuv uslubi	Badiiy uslub	Ilmiy uslub	Rasmiy uslub	Publitsistik uslub	Uslubiy betaraf
***	***	***	***	***	***



10.30. Gapdagi olmoshlarni aniqlab, qaysi uslubda qo‘llanganini izohlang.

1. Adib allakimlar kabi o‘zi ko‘rmagan, bilmagan narsalar bilan sizni ham, o‘zini ham qiynamaydi. 2. Agar oldi-sotdi shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, tovar sifatining kafolati barcha butlovchi buyumlarga ham tegishli bo‘ladi. 3. Ma’lumki, Vatanimiz necha yuz yillar mobaynida buyuk sivilizatsiya va madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan. 4. Professional sifatida shuni aytishim mumkinki, hakamlarga hech qachon xato qilish imkonini qoldirmaslik kerak. 5. Lizing beruvchi lizing obyektini kimdan olayotgan bo‘lsa, shu shaxs sotuvchi deb e’tirof etiladi.



10.31. Quyidagi mavzuda muhokama essesi yozing.

Ayrimlar orzuga yetishish uchun omad muhim deb o‘ylaydilar, boshqalar har qanday orzuni mehnat ro‘yobga chiqarishiga ishonadilar.

CHORAK DAVOMIDA O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH



1. Yangi atamalarni o‘zbek adabiy tilida qanday yozishni tavsiya qilasiz?

Atama	O‘zbekcha ifodasi
Call-center	* * *
Heshteg	* * *
Mentor	* * *
Wi-Fi	* * *
Trend	* * *
Kontent	* * *



2. “Yeryong‘oq” so‘zi tarkibidan hozirgi o‘zbek adabiy tilida alohida ma’noga ega (mustaqil) so‘zlarni toping va daftaringizga yozing. (Harflar o‘rni almashtirilmasin!)

2. Qo‘shma gaplarni davom ettiring.

1. G‘ayratlining yuragi qaynar, …
2. Inson qanchalik kamtar bo‘lsa, …
3. Er boshiga ish tushsa, ...
4. Kimning yuragida yaxshilik bo‘lsa, …
5. Hamisha to‘g‘rilar yonida bo‘linglar, chunki …
6. Yaxshi o‘g‘il – el obro‘yi, …

3. She’rni o‘qib, mazmunini sharhlang, tarkibidagi olmoshlarning qaysi uslubga xosligini izohlang.

Muruvvat-u ma’rifatdir buyuklikning nishonasi,
Qadam qo‘ying, mana sizga asl yo‘lning ostonasi.
Jahon ichra buyuk yurtni ulug‘ doston etaylik biz,
Zamon keldi, Vatan bag‘rin go‘zal bo‘ston etaylik biz.
Ming-ming shukr, kelib davron istiqlolga erishdik biz,
Xarob bo‘lgan xonadonni butlamoqqa kirishdik biz.
Iymon nuri oqib turar – bir gavhar bor qonimizda,
Ne-ne buyuk bobolarning bardoshi bor jonimizda.
Oldindadir hali hikmat, oldindadir imkonimiz,
Yetishgaymiz kelajakka, pokizadir vijdonimiz.
Jahon ichra buyuk yurtni ulug‘ doston etaylik biz,
Zamon keldi, Vatan bag‘rin go‘zal bo‘ston etaylik biz.

Abdulla ORIPOV

5. Jumlalarda ishtirok etgan olmoshlarning ma’no turini aniqlab, daftaringizga yozing.

JUMLALAR	OLMOSHNING MA’NO TURI
Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdirki, inson har vaqt shul ma’naviy nurning ziyosiga muhtojdur. (*Abdulla Avloniy*)	* * *
Bir mashhur tabibdan so‘rabdilar: – Dunyoda eng og‘ir xastalik nedur? Tabib aytibdur: – Xastalikning yaxshi-yomoni bo‘lmaydi, ammo eng og‘iri johillikdir.	* * *
Tilimizni tozalaymiz deb xalqaro atamalarni yalpi surib chiqarish ham to‘g‘ri emas. Ular ham yangi zamonda topgan til boyligimiz.	* * *

6. O‘tilganlarni takrorlab keling.

TAKRORLASH

1. Facebook tarmog‘idagi maslahat.uz guruhidagi so‘rov va unga yozilgan izohlarni o‘qing hamda 1–5-topshiriqlarni bajaring.

O‘QISH SAVODXONLIGI

Oydinoy Alimova

Assalomu alaykum, guruhdoshlar, maslahatingiz kerak: uyda to‘tiqushi boqaman, unga tarvuz bergandim, bezovtalanib, o‘zini yomon his qilyapti, unda diareya (ich surilishi) belgilari bor, bolakaylarga tavsiya etiladigan elektrolit eritmalardan bersam bo‘ladimi?

Donoxon83
Elektrolit eritmalar to‘tiqush uchun xavfsizmi yoki yo‘q, bilmayman. Men qushlarimga dori berishdan oldin har doim veterinarim bilan maslahatlashaman. Odamlar uchun foydali bo‘lgan ba’zi dorilar qushlar uchun juda xavfli bo‘lishi mumkinligini bilaman.
8-may 19:15 Yoqdi Javob berish

Qosimjon75
Iya, may oyidagi tarvuzni yeyish odam uchun xavfli-ku, qushga ham beradimi?
8-may 19:16 Yoqdi Javob berish

Qumri
Qushlarimdan biri kasallanganda unga kam dozada elektrolit eritmalar berganman. Hech qanday muammo bo‘lmagan. Ertasi kuni veterinarga olib borgandim, u esa allaqachon tuzalib qolgandi. Menimcha, kam dozada bersangiz, xavfsiz.
8-may 19:17 Yoqdi Javob berish

Doniyor
Salom! Qushlar uchun juda arzon narxlarda ozuqa mahsulotlari. Link orqali kirib ko‘rishni unutmang!
8-may 19:18 Yoqdi Javob berish

Sherxon ABBOS
Salom, parrandalar veterinariman. To‘tiqushlarda diareya belgilari bo‘lsa, ularga elektrolit eritmalar berish mumkin. Qushning har kilogramm vazni uchun 5 mg elektrolit eritmalar berish tavsiya etiladi. Veterinar qabuliga borguningizcha kuniga 2-3 marta eritmadan berishingiz mumkin. Biroq qushingizni tezda veterinarga olib borib, u bilan maslahatlashing.
8-may 19:18 Yoqdi Javob berish

1. [1 ball] Oydinoy nimani bilishni xohlaydi?

A) *veterinar bilan qanday qilib tezroq bog‘lanish mumkinligini*

B) *to‘tiqushlar uchun elektrolit eritmalar qayerda sotilishini*

D) *to‘tiqushga yangi tarvuz berish mumkin yoki mumkin emasligini*

E) *to‘tiqushga elektrolit eritmalar berish mumkin yoki mumkin emasligini*

2. [2 ball] Oydinoyning so‘roviga guruhdagi izohlarning mos yoki mos emasligini belgilang. *(Har bir to‘g‘ri javob uchun 0,4 ball)*

T/R	OYDINOYNING SO‘ROVIGA MOSMI?	MOS	MOS EMAS
1.	*Qosimjon75 bergan izoh*	***	***
2.	*Donoxon83 bergan izoh*	***	***
3.	*Qumrining izohi*	***	***
4.	*Doniyorning izohi*	***	***
5.	*Sherxon Abbosning izohi*	***	***

3. [1 ball] Kim qushiga elektrolit eritmalar berib ko‘rgan?

A) *Qumri* B) *Donoxon83* D) *Doniyor* E) *Sherxon*

4. [1 ball] Oydinoyning savoliga Qosimjon75 nima maqsadda izoh qoldirgan?

A) *Oydinoyning savoliga javob qaytarish uchun*

B) *tarvuzlar haqida ma’lumot berish uchun*

D) *Donoxon83 bergan maslahatga qo‘shimcha qilish uchun*

E) *vaziyatga shaxsiy munosabatini bildirish uchun*

5. [1 ball] Oydinoyning savoliga eng ishonchli javobni kim yozdi?

A) *Qumri* B) *Donoxon83* D) *Doniyor* E) *Sherxon*

2. Matnni o‘qing hamda 6–10-test topshiriqlarini bajaring.

YUPITER

Yupiter Quyosh tizimidagi sayyoralar ichida eng kattasi bo‘lib, uni “sayyoralar qiroli” deb atashadi. U o‘z o‘qi atrofida tez aylanadi, Quyoshdan uzoqligi bo‘yicha beshinchi sayyoradir. Uning diametri Yernikiga nisbatan 11 marta, hajmi jihatidan 1317 marta katta. U osmondagi yorqinligi bo‘yicha Quyosh, Oy va Veneradan keyin turadigan to‘rtinchi obyektdir. Yupiter Saturn, Uran, Neptun singari gazli gigantlardan hisoblanadi. Bu sayyora juda qadim zamonlardan odamlarga ma’lum bo‘lgan. Yunonlarda Zevs, rimliklarda Yupiter, arablarda Mushtariy nomi bilan atalgan. Yupiterning 95 ta yo‘ldoshi aniqlangan.

Atoqli italiyan astronomi Galileo Galiley 1610-yilda Yupiterning to‘rtta katta yo‘ldoshini kuzatgan. O‘sha yillar bu yo‘ldoshlarni nemis astronomi Simon Marius ham kuzatgan va 1614-yili ularni Io, Yevropa, Ganimed, Kallisto nomlari bilan atagan. Bu yo‘ldoshlarning barchasi yorqin va Yupiter atrofidagi orbitalar bo‘ylab harakat qiladi. So‘nggi yillarda Yupiterning Yevropa yo‘ldoshi olimlar e’tiborini o‘ziga qaratgan. Olimlarning fikricha, uning muzli qobig‘i ostida sho‘r suv okeani joylashgan bo‘lib, u Yerning umumiy okeanidagi suv miqdoridan ikki baravar ko‘p. Shuning uchun bu yo‘ldosh muz qatlamlari ostidagi okeanda mikroskopik hayot mavjud degan farazlar ham yo‘q emas. Ammo bu yo‘ldosh yuzasini balandligi 15 metr keladigan muz nayzalari qoplagan bo‘lib, ular kosmik apparatlarni uning sathiga qo‘ndirishda jiddiy to‘siq bo‘lishi ham mumkin.

Yupiterni olimlar qaynab turgan suyuq vodorod okeani deb atashadi. Yadrosini hisobga olmaganda bu sayyora atmosferasi tarkibining 86 foizini molekulyar vodorod, 13 foizini geliy, suv; 3 foizini neon, ammiak va metan gazlari tashkil etadi. Yerga nisbatan u Quyosh energiyasini 27 marta kam oladi. Shuning uchun Quyosh nuri tushgan va eng ko‘p isiydigan sirtidagi temperatura -100 — -150 °C atrofida bo‘ladi. Atmosferadagi chang-bulutlar Yupiter aylanib turgani sabab uning ekvatori tomon intilib, halqalar ko‘rinishini olgan. Uning yo‘ldoshlaridan 4 tasi – Adrastiya, Fiva, Metida va Amalteyalar ana shu halqalar ichida harakat qiladi. Gimaliya deb ataluvchi halqasi 2000 yildan keyin Yupiter yo‘ldoshlaridan birining boshqa yo‘ldoshiga to‘qnashishi tufayli yuzaga kelgan parchalardan tashkil topgan. Gimaliya — Yupiterning masofa bo‘yicha o‘n birinchi va o‘lchami bo‘yicha oltinchi yirik yo‘ldoshi. Ehtimol, uning orbitasida Yupiterning kichik yo‘ldoshlaridan biri (kashf etilgandan so‘ng yo‘qolgan) Gimaliya bilan to‘qnashishi natijasida hosil bo‘lgan chang halqasi mavjud.

Sayyoraning Yevropa yo‘ldoshi tomon uchirilgan “Galiley” kosmik avtomatik stansiyasi uning birinchi sun’iy yo‘ldoshi hisoblanadi. Uning Io yo‘ldoshi ham ancha qiziqarli yo‘ldoshlardan biridir. Bu yo‘ldosh Yupiterga eng yaqin, Yupiter atrofida unga sinxron aylanib turadi, ya’ni uning Yupiter atrofida aylanish davri Yupiterning o‘z o‘qi atrofida aylanish davriga teng. Demak, Io Yupiterga bizning Oy kabi faqat bir tomoni bilan qaragan bo‘ladi. U Quyosh tizimida eng faol va kattaligi jihatidan to‘rtinchi yo‘ldoshidir. Unda yuzlab harakatdagi vulqonlar mavjud. Bundan tashqari, Ioda tog‘lar ham nihoyatda ko‘p. Hatto Janubiy Boosava tog‘i Yerdagi Jomolungma cho‘qqisidan ikki barobar baland hisoblanadi. Teleskopdan kuzatilganda Yupiter sirtida ekvator bo‘ylab qora belbog‘lar ko‘rinadi. Bu belbog‘lar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadi. Bundan ko‘rinayotgan hodisalar uning sirtida emas, balki atmosferasiga tegishli, degan xulosa kelib chiqadi.

Zarnews.uz (qisqartirib olingan)

6. [1 ball] Yupiter sayyorasiga xos xususiyatlarni belgilang.

(*2 ta variantni belgilang. Har bir to‘g‘ri javob uchun 0,5 ball*)

A) sirti baland tog‘lardan iborat sayyora

B) eng sekin harakat qiluvchi sayyora

D) Quyoshga eng yaqin sayyora

E) gazlardan tarkib topgan sayyora

F) eng ko‘p sun’iy yo‘ldoshga ega sayyora

G) yuzasi juda sovuq sayyora

7. [1 ball] Qaysi gipoteza o‘z tasdig‘ini topmagan?

A) Yupiter sirtidagi qora belbog‘ chang-bulutlar ekani

B) Yupiter tarkibi suyuq gazlardan iborat ekani

D) Yupiter yo‘ldoshida hayot alomati borligi

E) Yupiterning yo‘ldoshi Ioda faol vulqonlar borligi

8. [1 ball] Yupiterning yo‘ldoshlari Io va Yevropaga xos bo‘lgan jihat qaysi javobda berilgan?

A) Atmosferasida kislorod bo‘lib, ularda hayot mavjud bo‘lishi mumkin.

B) Ular boshqa yo‘ldosh bilan to‘qnashuvdan paydo bo‘lgan.

D) Ular yorqin nur sochib, Yupiterga yaqin harakatlanishadi.

E) Ular Yupiter atmosferasida suzib yurgan chang-bulutlar ichida harakatlanishadi.

9. [2 ball] Matnda qaysi savolning javobi mavjud?

A) Io yo‘ldoshi qanday elementlardan tarkib topgan?

B) Yevropa yo‘ldoshiga ushbu nomni kim bergan?

D) Io yo‘ldoshi Yupiter atrofida qay holatda aylanadi?

E) Yevropa yo‘ldoshiga qaysi sun’iy yo‘ldosh uchirilgan?

10. [2 ball] Matn asosida shakllantirilgan jumlalarning fakt yoki fikr ekanini aniqlang. (*Har bir to‘g‘ri javob uchun 0,5 ball*)

T/R	JUMLALAR	FAKT	FIKR
1.	Yupiter o‘lchami Yernikidan 318 marta katta.	***	***
2.	Yupiter Quyosh tizimidagi eng suyuq sayyora.	***	***
3.	Yupiter Quyosh tizimidagi kattaligi jihatidan eng yirik sayyora.	***	***
4.	Yupiter Quyosh tizimidagi eng yorqin sayyora.	***	***

3. Tushunish ravonligiga oid 11–12-test topshiriqlarini bajaring.

11. [3 ball] Berilgan jumlalarni o‘qing va ular hayotiy mantiqqa mos yoki mos emasligini aniqlang. (*Har bir to‘g‘ri javob uchun 0,5 ball*)

T/R	USHBU JUMLA MANTIQIYMI?	HA	YO‘Q
1.	*Tog‘dagi qorlar eriy boshlagach daryo sathi pastladi.*	***	***
2.	*Avtobusni shlyapa kiygan shofyor boshqarib ketyapti.*	***	***
3.	*Jiydalar erta bahorda gullaydi.*	***	***
4.	*Yulduzlar Yerga Oydan ko‘ra yaqinroq joylashgan.*	***	***
5.	*Otaxon bolalarga salom berdi.*	***	***
6.	*Mollar dalada gijinglab o‘ynaydi.*	***	***

12. [1 ball] Qaysi yuz ifodasi hayratlanishni anglatadi?



GRAMMATIK SAVODXONLIK

4. Grammatik savodxonlikka oid 13–16-test topshiriqlarini bajaring.

13. [1 ball] Quyidagi qaysi so‘zlarda nuqtalar o‘rniga “t” undoshi yoziladi?

1) mada... ; 2) ta...qiqot ; 3) ta...biq; 4) xayolparas...; 5) es...alik.

A) 1, 3, 4 B) 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5 E) 3, 4

14. [2 ball] Quyidagi parchada necha o‘rinda vergul tushirib qoldirilgan?

Do‘stim shuni bilingki Vatanimiz jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o‘rin olajak. Bunga biz ham shubhasiz o‘z hissamizni qo‘shamiz.

A) 4 ta B) 2 ta D) 3 ta E) 5 ta

15. [1 ball] Quyidagi parchada necha o‘rinda uslubiy xatolik kuzatiladi?

Dono, zakovatli kishilar qiyin muammolarni hal etishga yordamga keladi. Botirlar qo‘liga qilich tutguday bo‘lsa, yov titroqqa tushadi. Yozuvchi-kotib esa el ishini osonlashtiradi. Undan mashaqqat tugunlarini yechiladi.

A) 2 ta B) 3 ta D) 4 ta E) 5 ta

16. [2 ball] Quyidagi gapda nuqtalar o‘rniga eng mos so‘zni qo‘ying.

Buning isboti sifatida aborigenlar qoyalarda … rasmlarni keltirish mumkin.

A) tasvirlagan B) aks ettirgan D) chizgan E) bo‘yagan

5. “Vaqtni to‘g‘ri boshqara olmaslik” mavzusida muammo-yechim essesi yozing.

FOYDALI MANBA

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI 8

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

O‘quv nashri

Abduraimov Shohrux Samad o‘g‘li, Siddiqov Mansur Rahimjonovich,
Atayeva Saodat Mirdadayevna, Israfilov Doston Omonulla o‘g‘li

Ona tili
9-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2025

Muharrir – H. Abdullayev
Musahhih – R. Luqmonov
Texnik muharrir – A. Karimov
Badiiy muharrir – D. Jalilov
Rassom – S. Farmonov
Dizayner-sahifalovchi – S. Doniyorov

Nashriyot litsensiyasi 9341. 08.10.2020-yilda berilgan.
Bosishga 00.00.2025-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84×108 $^{1}/_{16}$ “Arial” garniturasi. Kegli 12 Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 23,52. Nashriyot-hisob tabog‘i 13,9.
Adadi 597 352, Buyurtma №

DARSLIK HOLATINI KO‘RSATUVCHI JADVAL

T/R	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						

Darslikni o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varag‘i bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.